

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

Volume 3

Issue 2

October 2024



TAHRIRIYAT HAY'ATI

Bosh muharrir

Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna

Pedagogika fanlari doktori, professor

Utapov Toyir Usmonovich

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Aynur Öz Özcan - filologiya fanlari doktori,
professor (Turkiya)

Nadir Mammadli - filologiya fanlari doktori,
professor (Ozarbayjon)

Ra'no Sayfullayeva - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Azamat Pardayev - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Omongul Xolbekova - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Mehri Abuzalova - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Qo'ysin To'xtayeva - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

O'rolboy Oripov - filologiya fanlari nomzodi
(O'zbekiston)

Manzura Ernazarova - filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Gulchehra Boltayeva - filologiya fanlari doktori,
dotsent (O'zbekiston)

Dilorom Shamsiyeva - pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Ra'no Davlatova – filologiya fanlari doktori, dotsent
(O'zbekiston)

Fazliddin Najmiddinov - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Xolbib Qurbonova - pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Feruza Jumayeva - pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Ra'no Sharopova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (O'zbekiston)

Gulnoza Ernazarova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Gulsanam Norova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Nasiba Yarashova - filologiya fanlari doktori,
dotsent (O'zbekiston)

Navro'z Rahmonov - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Farrux Yuldashev – filologiya fanlari doktori,
dotsent (O'zbekiston)

Dildora Agzamova - filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Erkin Musayev – Katta o'qituvchi (O'zbekiston)

Bobir Maxammadov – filologiya fanlar bo'yicha
falsafa doktori (O'zbekiston)

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Nigora Murodova	5
Lingvistik atlaslar tuzish: tahlil va talqin	
Махмуд Равшанов	11
Исследование микро и макротекста тюркоязычных источников	
Rano Yusubova	17
Lingvopoetika va intertekstuallik masalalari	
Gulchehra Boltayeva	25
Rauf Parfining so‘z qo‘llash mahorati	
Furqat Nurmanov	33
O‘zbek tili fonetikasida tovushlar tasnifining takomillashishi	
Ozoda Anorqulova	39
Qur’oni Karimda “oila” konsepti bilan bog‘liq ayrim masalalar izohi	
Gulsanam Norova	48
Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlar	
Islamova Dinara	59
Transpozitsiyani yuzaga keltirishda tilning ifoda-tasviriy vositalarining o‘rni	
Xo‘janiyazova Shahnoza	64
“Sab’ai sayyor” asaridagi qavm-qarindosh ma’nosini ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	
Nargiza Gulomova	71
Alisher Navoiy mualliflik korpusida statistik tahlillarning muhim jihatlari	
Azamat Atayev	82
Xorazm adabiy muhitida arab tilidagi manbalarning paydo bo‘lish omillari	
Dilnoza Sobirova	90
Tibbiy reklama matnlarida kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish va interpretativlik	
Дилором Шамсиева, Нодира Каюмова	96
Функционирование синтаксических фразеологизмов в языке средств массовой информации	

Istoda Rasulova	101
Prosodik interferensiyaning og‘zaki nutqqa ta’siri	
Zeboxon Mallayeva	105
Jorj Bayronning “Don Juan” she’riy romanida pretsedent birliklar tahlili	
Gulhayo Jo‘rayeva	116
Tog‘ay Murod qissalaridagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tahlili	
Mirjalol Rustamov	125
O‘zbek tilshunosligida murakkablashgan sodda gaplarning tadqiqi xususida	
Yulduz Rahmatova	131
Gap qolipli frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlari	
Muhabbat Tolibova	136
Badiiy matnda milliy konnotatsiyaning aks ettirilishi	
Mahbuba Rahmonova	141
O‘zbek va rus mifologik afsonalari poetikasi	
Abdulaziz Mattiyev	147
"Holat" kategoriyasi tahliliga doir mulohazalar	
Abdullayev Begzodbek	153
Og‘zaki reklamalarning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. (O‘rta asrlargacha bo‘lgan davr)	
Nilufar	157
Muhiddinova	
Tarixiy nomlar– madaniyat yodgorligi	
Shaxnozaxon O‘tanova	161
Pragmalingvistika doirasida o‘rganilayotgan hodisalar adresant va adresatning xususiyatlari	

LINGVISTIK ATLASLAR TUZISH:TAHLIL VA TALQIN

NIGORA MURODOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va dialektlarni lingvoareal yoʻnalishda oʻrganish orqali toʻplangan faktik materiallar asosida lingvistik atlaslar tuzish tamoyillari toʻgʻrisida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: lingvistik atlas, dialektologik prinsip; umumlingvistik yoki areal-lingvistik prinsip, regional atlas, zonal atlas, derivatsion oʻxshashlik, izoliniya, innovatsiya, dialektal zona, arealogik, eskiz-sxema.

Аннотация. В данной статье рассматриваются принципы составления лингвистических атласов на основе фактического материала, собранного при изучении языков и диалектов в лингвоареальном направлении.

Ключевые слова: лингвистический атлас, диалектологический принцип; общелингвистический или ареально-лингвистический принцип, региональный атлас, зональный атлас, деривационное сходство, изолиния, новаторство, диалектная зона, ареологический, схематический.

Annotation. This article discusses the principles of compiling linguistic atlases based on factual material collected during the study of languages and dialects in the linguoareal direction.

Keywords: linguistic atlas, dialectological principle; General linguistic or real linguistic principle, regional atlas, zonal atlas, derivational similarity, isolation, innovation, dialect zone, areological, schematic.

Kirish. Bugungi kunda oʻzbek tili boy manba boʻlgan xalq tilining imkoniyatlari bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boraverar ekan, xalq tilini har tomonlama oʻrganish zaruratdir.

Tilshunoslik sohasida lingvistik hodisalarning hududiy tarqalishini lingvoareal usulda oʻrganib ,atlaslar yaratish ham dolzarblik kasb etadi.

Lingvistik atlas – maʼlum bir hudud shevaviy oʻxshash va farqlarni oʻzida aks ettiruvchi xaritalar majmuasi. Lingvistik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni oʻz ichiga oladi. Buning sababi lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglossa asosida tuziladi. Dialektologiya shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi. Areal lingvistika hodisalarni xaritada koʻrsatadi. Shuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir. Maʼlum bir mintaqa (davlat, til) lingvistik atlasini tuzish areal lingvistikaning soʻnggi maqsadidir.

A.Shermatovning asarlarida qayd etilishicha: Lingvistik atlas xaritalari 2 xil prinsipga asoslanib tuziladi (Shermatov, 1991; 9-b.).

- 1) Dialektologik prinsip;
- 2) Umumlingvistik yoki areal-lingvistik prinsip.

Lingvistik atlas tuzishdagi umumlingvistik va dialektologik prinsip hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o‘zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, xaritalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Lingvistik atlas uchun material keng ko‘lamdagi savollar majmuasi asosida to‘plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma‘lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi programma asos bo‘ladi. Lingvistik atlas, asosan, 2 xil bo‘ladi: 1) Regional atlas; 2) Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi – u yoki bu regiondagi shevalar tuzilishining eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Roman-german tillari lingvogeografiyasida milliy atlas, regional atlas, makro va mikro atlas terminlari ham qo‘llaniladi. O‘zbekiston hududini o‘z ichiga olgan o‘zbek shevalari atlas tuzilsa, u regional atlas bo‘ladi. Yirik zonadagi bir til xususiyatini o‘zida to‘la aks ettirgan atlas – zonal atlas hisoblanadi. Masalan, Rumin tilining lingvistik atlas bolqon-roman massivining umumzonal atlasidir. O‘rta Osiyo zonasi hududidagi o‘zbek shevalari materiallarini qamrab olgan o‘zbek tili atlas yaratilsa, u zonal atlas hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslik tadqiqotlarida kartalashtirish metodini qo‘llash, dastlab XIX asrga to‘g‘ri keladi. 1821-yilda K.de Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda D.Mone o‘zining lingvistik karta tuzish g‘oyasini oldinga suradi. Shuningdek, Venkker, Vrede tomonidan tuzilgan nemis tili atlas (1876–1926), Marburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan “Nemis leksikologik atlas”ni ham keltirish mumkin.

Jahon tilshunosligida eng yaxshi dialektologik atlas XX asrning boshlarida tuzilgan Jan Jil’eron, Edmonlarning 12 jildli “Fransuz tili atlas” (1902–1912) deb topilgan. K.Yaberg va Ya.Yudning 8 jildli Italyan-shveysar atlas (1928–1940) o‘sha davrda maydonga kelgan.

Rus tili dialektologik atlasini tuzish XIX asrning ikkinchi yarmida I.I.Sreznevskiy, keyinchalik A.I.Sobolevskiy tomonidan boshlangan edi. Rus tilshunosligi lingvistik geografiyasi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik komissiyasi reja asosida ish olib bora boshlaydi. Ular tomonidan 1915-yili “Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba” nomli karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belarus) tillari va bu tillarning har qaysisi lahjalarga va sheva guruhlariga bo‘linishi ko‘rsatib berilgan. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligida Moskva FA rus tili institutida “Rus tili atlas” tuzishga kirishiladi. 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin

boshchiligida rus tili dialektologik atlasini yaratish ishi boshlanadi. 1951-yilda “Moskva sharqidagi Markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlası”, 1952-yilda “Shimoliy-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlası” tuzib chiqildi.

O‘zbek shevalarini hududiy o‘rganish yuzasidan ham ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. A.K.Borovkov tomonidan “O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar” anketasi tuzildi. O‘zbek shevalarini xaritalashtirish ishini boshlab bergan V.V.Reshetov qurama o‘zbek shevalarining 49 ta lingvistik atlasini yaratdi. M.Mirzayev tomonidan 1955-yilda “Buxoro oblastidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa” tuzilib, uni respublikaning viloyatlariga, ilmiy muassasalariga tarqatilgan. 1964-yilda A.Aliyev tomonidan “Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa”si tuzilib, chop etildi. A.G‘.G‘ulomov rahbarligida 1976-yilda A.Yu.Aliyev, K.N.Nazarovlar “O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” yaratildi.

O‘zR FA huzuridagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy tekshirish institutining dialektologiya bo‘limida o‘zbek shevalarini o‘rganish bo‘yicha Sh.Shoabdurahmonov rahbarligida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, olim tomonidan o‘zbek shevalari atlasini yaratishning nazariy asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishida A.Shermatovning xizmatlari kattadir. 1978-yilda A.Shermatov tomonidan Quyi Qashqadaryo shevalari bo‘yicha 137 ta lingvistik atlası yaratildi. Q.Muhammadjonov tomonidan 1988-yilda Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari areal o‘rganilib, 150 tadan ortiq xaritalari yaratilgan. Yu.Ibragimov tomonidan 2002-yilda Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari areal o‘rganildi va xaritalari yaratildi N.Murodova tomonidan 2006-yilda Navoiy viloyati o‘zbek shevalari leksikasi lingvoareal usulda o‘rganilib, lingvo-jug‘rofiy xaritalari tuzilib tadqiqot obyektiga kiritilgan. Ushbu xaritalar 100 tadan ortiq bo‘lib, juda ko‘plab lisoniy birliklarning areal tarqalishini aks ettirgan. Z.Ibragimova tomonidan 2009-yilda Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari qishloq xo‘jalik leksikasi lingvogeografik tadqiq etilib, 30 ta xaritasi tuzilgan. I.Darveshov 2018-yilda Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari fonetik- fonologik xususiyatlarini areal tadqiq etgan. N.Rahmonov tomonidan 2020-yilda Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlari, so‘z yasalishi bo‘yicha to‘plangan sheva materiallari lingvoareal jihatdan o‘rganilgan. xususiyatlarning muayyan bir hududda qanday tarqalganligi ma‘lum geometrik belgilar vositasida xarita tuzish tamoyili asosida berilgan. G.Norova tomonidan 2021-yilda Zarafshon vohasi o‘zbek shevalari leksik xususiyatlarining areali O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qiyosiy tadqiq etilib, respublikaning barcha viloyatlarida dialektologik ekspeditsiyalar o‘tkazilgan. Ushbu hudud shevalarining o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlari borligi tadqiqotda keltirilgan 10 ta xaritada lingvistik hodisalarning sharhlanishida ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda dialektologiya, lingvistik geografiya, arealogiya sohasida amalga oshirilgan juda katta ilmiy tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning lingvoareal paradimasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o‘tish davri hisoblanadi. Shu sababli bu davrda amalga oshirilgan yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarlarida o‘zbek shevalari qiyosiy-tavsifiy va lingvo-geografik usulda o‘rganilib, lingvistik xaritalari yaratilgan. Lingvistik geografiya sohasida katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan A.Shermatovning ta’kidlashlaricha, dialektologiyaning tekshirish obyekti jonli dialektal nutq, dialektal lug‘atlar, ilmiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi hududga oidligidan qat’iy nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo‘lsa, lingvistik geografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug‘atlar, ilmiy tadqiqotlar va ma’lum hududgagina oid dialektal matnlar bilan ish ko‘radi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilshunosligining ajralmas qismi hisoblangan o‘zbek dialektologiyasi sohasida hozirgi kunga qadar katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ko‘pgina o‘zbek shevalari yaxlit holda o‘rganilib, lug‘atlar tuzilgan. Shuningdek, yirik monografik asarlarning yaratilganligi endilikda shevalarni qiyosiy-tarixiy va areal tadqiqotning hozirgi zamon aniq va izchil metodi bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal yo‘nalishda ilmiy o‘rganishni taqazo qiladi. Shuning natijasida lingvistik hodisalatning areal tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik xaritalarini yaratish amalga oshiriladi.

Lingvistik atlaslar tuzish ishiga ma’lum bir til yoki mintaqa shevalarining hududiy mintaqaviy tavsifi yakunlangandan keyingina kirishish mumkin. Chunki shundan keyingina ma’lum bir til shevalarning yoki tillar oilasi yo guruhidan u yoki bu tilning bir-biridan farq qilishiga xizmat qiladigan eng asosiy fonetik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, derivatsion o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Har bir o‘xshashlik va farqning (innovatsiyaning) qaysi hududlarda, qaysi shevalarda qo‘llanilishi aniq tavsiflanadi. Shundan keyingina arealogik tadqiqotlarga va lingvistik (dialektologik) xaritachilikka kirishish mumkin.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanishi kerak. Keyin turli xil sheva va dialektlardagi bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi. Izoglossalarning keng hududlarga tarqalishida qadimda aloqa yo‘llari va daryo oqimi katta o‘rin egallagan.

Bugungi kunda o‘zbek shevalari hududini lingvoareal uo‘nalishda tadqiq etish qator dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi. Shevalarning tashqi chegarasini, ichki tasnifini tadqiq etish, tahlil etilayotgan shevalarning dialektal mikrohudud tizimidagi o‘rnini belgilash ana shu muammoldan eng muhimi hisoblanadi.

O‘zbek shevalarini areal o‘rganish va ularning lingvistik xaritalarini yaratish shevalarning tarqalish o‘rinlari, tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, “O‘zbek shevalarining dialektologik atlasini”ni yaratilishi uchun asos bo‘ladi. Albatta, buning uchun o‘zbek shevalarini areal o‘rganish bo‘yicha hali juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, xaritaning lisoniy materiallari tadqiq etilayotgan hududdagi o‘zbek shevalari tizimining tashqi dialektal chegarasi va o‘zbek tilining boshqa dialektal zonasi bilan aloqasini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunda tadqiq etilayotgan ilmiy ishlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek xalq shevalarida adabiy tilda ishlatilmaydigan juda ko‘plab so‘zlar saqlanib kelayotganining guvohi bo‘lamiz. Xalq tilidagi bunday o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarni areal yo‘nalishda ularning hududiy tarqalishini o‘rganish zarur. Sababi o‘zbek shevalari areal yo‘nalishda o‘rganilib, “O‘zbek tilining dialektologik atlasini” yaratilmagan. Bunday atlas O‘zbekiston hududida yaratilsa, u O‘zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettirish bilan birga o‘zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan minglab so‘zlarni adabiy tilga olib kirishga manba bo‘la oladi. Shuningdek, shunday so‘z va hodisalarning tarqalishini umummilliy boylik darajasida xalqqa yetkazish haqida aniq ma‘lumot beradi hamda ko‘p tomli o‘zbek tilining izohli lug‘atlarini yaratish uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аванесов Р.И. Выступление по докладам // Вопросы диалектологии тюркских языков. – Баку, 1958. – С. 139–141.
2. Джураев А.Б. Теоритические вопросы ареальной лингвистики // Актуальные вопросы развития науки и техники в Узбекистане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987. – С. 99.
3. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание // Избранные труды. – Ленинград, 1976. – 694 с.
4. Ларин Б.А. О лингвистическом изучении города // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – Москва, 1971, – С. 175–189.
5. Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареальной лингвистики. – Москва, Ленинград, 1964. – 59 с.
6. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
7. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка // Второе региональное совещание по диалектологии тюркских языков. – Казан, 1958. – С. 16–20.

8. Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // *Общее языкознание: методы лингвистических исследований*. – Москва, 1973. – С. 120–167.
9. Шерматов А. Лингвистик географиуа нима? – Тошкент, 1981. – 58 б.
10. Шерматов А. Шаабдурахманов Ш. Атлас узбекских народных говоров // *Тюркское языкознание: материалы ИИИ Всесоюзной конференции*. – Ташкент, 1985. – С. 75-77.
12. Эделман Д.И. Основные вопросы лингвистической географии. – Москва, 1968. – 112 с.



ИССЛЕДОВАНИЕ МИКРО И МАКРОТЕКСТА ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ИСТОЧНИКОВ



РАВШАНОВ МАХМУД,

*профессор Навоийского государственного
горного и технологического университета,
доктор филологический наук*

Аннотация. За внешней формой языка – мысль, составляющая суть высказывания. Следовательно, предмет семантики – исследование структуры мысли. Каждый из периодов развития лингвистики, доминирование тех или иных подходов (структурализм, когнитивизм) вносит свой вклад в развитие человеческого представления об одной из самых больших тайн – языке и вербализации мысли. Проблемы языка и мышления, усвоения, осознания и обработки языковых знаков решаются в современной лингвистике с позиций когнитивизма, предполагающего известную степень допущений, что, прежде всего, связано с самим предметом исследования – ментальными процессами и их языковой экспликацией.

Ключевые слова: макро текст, микро текст, язык-мысль.

Abstract. Behind the external form of language is thought, which is the essence of the statement. Consequently, the subject of semantics is the study of the structure of thought. Each of the periods of development of linguistics, the dominance of certain approaches (structuralism, cognitivism) contributes to the development of human understanding of one of the greatest mysteries – language and verbalization of thought. The problems of language and thinking, assimilation, awareness and processing of linguistic signs are solved in modern linguistics from the standpoint of cognitivism, which presupposes a certain degree of assumptions, which, first of all, is associated with the subject of the study itself – mental processes and their linguistic explication.

Keywords: macro text, micro text, language-thought.

Annotatsiya. Tilning tashqi shakli orqasida bayonning mohiyatini tashkil etuvchi fikr turadi. Binobarin, semantikaning predmeti fikr tuzilishini o`rganadi. Tilshunoslikning rivojlanish davrlarining har biri, ma'lum yondashuvlarning (strukturalizm, koqnitivizm) hukmronligi insonning eng katta sirlardan biri - til va fikrning so'zlashuvi haqidagi tushunchasini rivojlantirishga yordam beradi. Til va tafakkur, lingvistik belgilarni o'zlashtirish, anglash va qayta ishlash muammolari zamonaviy tilshunoslikda ma'lum darajadagi taxminlarni nazarda tutuvchi koqnitivizm nuqtai nazaridan hal qilinadi, bu birinchi navbatda tadqiqot mavzusi - aqliy jarayonlar bilan bog'liq. va ularning lingvistik talqini.

Kalit so'zlar: so'l matn, mikro matn, til-fikr.

Введение. Одним из подходов в поиске предельных составляющих человеческой мысли, высказанной словом, может стать – первая часть сложных слов, обозначающих процессы, происходящие на атомно-молекулярном уровне) исследование лексических единиц. Его цель – выявить те мельчайшие частицы смысла, которые в ряде случаев остаются за пределами традиционного компонентного анализа слова, однако их существование – факт, который выражается в особых ощущениях и импульсах, генерируемых данным словом, сочетанием данных слов, декодируемых через микро- или макротекст. Оговорим, что исследование актуально при исследовании особого уровня, там, где традиционные операции разложения семной структуры не вскрывают механизмов, обеспечивающих «расширение» смысловых возможностей слова.

Анализ литературы по теме. Смысла, по всей видимости, структурируют «семантическую сеть», понимаемую как модель памяти. Идея семантической сети была разработана исследователями в области искусственного интеллекта, в дальнейшем она была развита в работах даже зарубежных лингвистов. В упрощенном виде семантическая сеть представляет собой совокупность точек, каждая из которых мыслится как узел; сцепление узлов – представление некоего понятия. Понятие в современной лингвистике трактуется как когнитивная категория, а система понятий – есть «форма выражения и сообщения наших мыслей, форма анализа действительности» [1, 159]. От понятия отграничивается концепт: понятия осмысливаются, концепты – переживаются [5.123-149]. Подчеркиваем, отграничивается, но не противопоставляется. Именно в своей совокупности, как рациональная и эмоциональная стороны одного явления, они удерживают в человеческой памяти объективные и субъективные представления о мире, выстраивая в сознании отдельного индивида его личностную систему ценностей и ориентиров в окружающей действительности. Наша интерпретация увиденного, услышанного, прочитанного базируется на культурных концептах, на узловых точках семантических сетей. Анализ семантических сетей на «микрохирургическом» уровне может быть также дополнен наномасштабным исследованием тюркоязычных источников.

Методология исследования. В работе использованы методы диалектического, дискурсивного, сравнительного, компонентного, контекстуального анализа, классификации, апробированные в зарубежной и русском языкознаниях.

Анализ литературы по теме. Предметом нашего интереса является интерпретация текста. В упрощенном виде его можно сформулировать в вопросе: *О чем говорит адресант?* Ответ на него легко найти на линейном

уровне текста. Но мы, задавая этот вопрос, не имеем ввиду предмет дискурса, а подразумеваем нечто, что «говорящий хотел, чтобы слушающий воссоздал в данный момент развертывания дискурса». Мы переносим ее в ситуацию «пишущий – читающий» и анализируем посредством исследования художественного текста, заостряя внимание на механизме, провоцирующем генерацию в слове смыслов глубинных, не всегда объяснимых с позиций классических методов анализа значений слова. Эти глубинные значимости избыточны для узуса.

Микротекст – это любой отрывок литературного произведения, который может быть охарактеризован с точки зрения внутренней завершенности. Макротекст – это совокупность текстов определенного автора, объединенных общим эстетико-философским содержанием, вплоть до целого корпуса текстов данного автора. Интертекст – «совокупность всех возможных интерпретаций аллюзий и параллелей, имплицитно содержащихся в данном тексте» [2. 564].

Полагаем, что «отмеченность» некоторых слов, а порой и всего микротекста, объясняется допущением, что помимо сем, поддающихся анализу на уровне компонентного исследования структуры лексического значения слова, в коннотации слова можно выделить мельчайшие частицы смыслов, заряженные очень мощной энергетикой, способной «вытолкнуть» данный смысл из глубинных пластов нашего подсознания и архепамяти. Эти мельчайшие смысло-атомы находятся в постоянной диффузии и обладают способностью к сцеплению с другими, масштабно себе подобными, микроэлементами смысла. Это ведет к трансформации в смысловой структуре слова. В ней происходит процесс, напоминающий химическую реакцию, результатом которой может стать «выброс» на поверхность нового/неожиданного смысла-символа.

Смысл, создаваемый за счет движения в коннотации слова мельчайших энергетически заряженных частиц смысла, может создать при константе значения, зафиксированного посредством компонентного анализа, новое созначение. Это будет еще одна ипостась слова, возможно, элитарная.

Гиперсмысл слова можно представить как многоярусную абстракцию, в которой слово задано в совокупности своих ЛСВ; к этой системе подсоединяется модуль/модули – как некая общность понятия и отходящих от него образов, ассоциаций, коннотаций. Эта система диффузна и пластична. Мельчайшие частицы смысла не могут быть расшифрованными, если не произойдет известного совпадения целого ряда условий. Прежде всего, это – потребность автора «перезагрузить» слово, исходя из творческой задачи, ощущение автором пластики слова и почти интуитивной уверенности в способности данного семиотического знака «выдержать» нагрузку, иногда опираясь синтагматически, а в некоторых

случаях – на весь семантический крой текста. Но как бы изошренно ни была сплетена семантическая сеть, она будет абсурдом, если ее невозможно расплести и найти искомое – смысл. Значит, для гиперсмысла нужны двое: адресант и адресат, автор и собеседник, которому ведома игра автора, он ощущает приглашение к ней и включается в процесс, который есть движение в гиперсмысловом пространстве текста и самих слов[6.198-234].

За внешней формой языка – мысль, составляющая суть высказывания. Следовательно, предмет семантики – исследование структуры мысли. Каждый из периодов развития лингвистики, доминирование тех или иных подходов (структурализм, когнитивизм) вносит свой вклад в развитие человеческого представления об одной из самых больших тайн – языке и вербализации мысли. Проблемы языка и мышления, усвоения, осознания и обработки языковых знаков решаются в современной лингвистике с позиций когнитивизма, предполагающего известную степень допущений, что, прежде всего, связано с самим предметом исследования – ментальными процессами и их языковой экспликацией[1.197].

Нами проанализированы тексты современных узбекских прозаиков. В текстах определены микро-, и макро семантические поля экстралингвистических и внутритекстовых структур. Особенно проанализированы тексты видного узбекского прозаика Уткира Хашимова, Ш.Холмирзаева и др[3].

Одним из подходов в поиске предельных составляющих человеческой мысли, высказанной словом, может стать наномасштабное – первая часть сложных слов, обозначающих процессы, происходящие на атомно-молекулярном уровне) исследование лексических единиц. Его цель – выявить те мельчайшие частицы смысла, которые в ряде случаев остаются за пределами традиционного компонентного анализа слова, однако их существование – факт, который выражается в особых ощущениях и импульсах, генерируемых данным словом, сочетанием данных слов, декодируемых через микро- или макротекст. Оговорим, что наномасштабное исследование актуально при исследовании особого уровня, там, где традиционные операции разложения семной структуры не вскрывают механизмов, обеспечивающих «расширение» смысловых возможностей слова.

Наночастицы смысла, по всей видимости, структурируют «семантическую сеть», понимаемую как модель памяти. Идея семантической сети была разработана исследователями в области искусственного интеллекта, в дальнейшем она была развита в работах Ю.Черняка, Скэгга и других зарубежных лингвистов. В упрощенном виде семантическая сеть представляет собой совокупность точек, каждая из которых мыслится как узел; сцепление узлов – представление некоего понятия. Понятие в современной лингвистике трактуется как когнитивная категория, а система понятий – есть «форма выражения и

сообщения наших мыслей, форма анализа действительности» (1, 159). От понятия отграничивается концепт: понятия осмысливаются, концепты – переживаются[5.187].

Подчеркиваем, отграничивается, но не противопоставляется. Именно в своей совокупности, как рациональная и эмоциональная стороны одного явления, они удерживают в человеческой памяти объективные и субъективные представления о мире, выстраивая в сознании отдельного индивида его личностную систему ценностей и ориентиров в окружающей действительности[6.49-81]. Наша интерпретация увиденного, услышанного, прочитанного базируется на культурных концептах, на узловых точках семантических сетей. Анализ семантических сетей на «микрoхимическом» уровне может быть также дополнен наномасштабным исследованием.

Предметом нашего интереса является интерпретация текста. В упрощенном виде его можно сформулировать в вопросе: *О чем говорит адресант?* Ответ на него легко найти на линейном уровне текста. Но мы, задавая этот вопрос, не имеем ввиду предмет дискурса, а подразумеваем нечто, что «говорящий хотел, чтобы слушающий воссоздал в данный момент развертывания дискурса». Шаумиян рассматривает таким образом ситуацию «слушающий – говорящий» и далее развивает ее через понятие «сцена». Мы переносим ее в ситуацию «пишущий – читающий» и анализируем посредством наномасштабного исследования художественного текста, заостряя внимание на механизме, провоцирующем генерацию в слове смыслов глубинных, не всегда объяснимых с позиций классических методов анализа значений слова. Эти глубинные значимости избыточны для узуса.

Микротекст – это любой отрывок литературного произведения, который может быть характеризован с точки зрения внутренней завершенности. Макротекст – это совокупность текстов определенного автора, объединенных общим эстетико-философским содержанием, вплоть до целого корпуса текстов данного автора. Интертекст – «совокупность всех возможных интерпретаций аллюзий и параллелей, имплицитно содержащихся в данном тексте» [2. 564].

Читая литературное произведение, любой читатель встречает слова, «несущие дополнительную смысловую нагрузку, окруженные особым коннотативным ореолом и нередко получающие символическую функцию. Чем объяснить их отмеченность? Причина могут быть самые разные. Их часто видят в сохранившихся в подсознательном слое психики архетипах, в архаических схемах мифологического мышления[5.165] в культурах или библейских ассоциациях, ритуале или обряде – концептосфере, семиосфере, в личном опыте автора, иногда в самом звучании или совокупности слов» [5. 525].

Полагаем, что «отмеченность» некоторых слов, а порой и всего микротекста, объясняется допущением, что помимо сем, поддающихся анализу на уровне компонентного исследования структуры лексического значения слова, в коннотации слова можно выделить мельчайшие частицы смыслов, заряженные очень мощной энергетикой, способной «вытолкнуть» данный смысл из глубинных пластов нашего подсознания и архепамяти. Эти мельчайшие смысловые атомы находятся в постоянной диффузии и обладают способностью к сцеплению с другими, масштабно себе подобными, микроэлементами смысла. Это ведет к трансформации в смысловой структуре слова. В ней происходит процесс, напоминающий химическую реакцию, результатом которой может стать «выброс» на поверхность нового/неожиданного смысла – символа.

Смысл, создаваемый за счет движения в коннотации слова мельчайших энергетически заряженных частиц смысла, может создать при константе значения, зафиксированного посредством компонентного анализа, новое созначение. Это будет еще одна ипостась слова, возможно, элитарная.

Выводы и рекомендации. Гиперсмысл слова можно представить как многоярусную абстракцию, в которой слово задано в совокупности своих ЛСВ; к этой системе подсоединяется модуль/модули – как некая общность понятия и отходящих от него образов, ассоциаций, коннотаций. Эта система диффузна и пластична. Мельчайшие частицы смысла не могут быть расшифрованными, если не произойдет известного совпадения целого ряда условий. Прежде всего, это – потребность автора «перезагрузить» слова, исходя из творческой задачи, ощущение автором пластики слова и почти интуитивной уверенности в способности данного семиотического знака «выдержать» нагрузку, иногда опираясь синтагматически, а в некоторых случаях – на весь семантический край текста. Но как бы изощренно ни была сплетена семантическая сеть, она будет абсурдом, если ее невозможно расплести и найти искомое – смысл. Значит, для гиперсмысла нужны двое: адресант и адресат, автор и собеседник, которому введома игра автора, он ощущает приглашение к ней и включается в процессе, который есть движение в гиперсмысловом пространстве текста и самих слов[4.200].

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Арутюнова Н.Д. Символика уединения и единения в текстах Достоевского // Язык и культура. Факты и ценности. – М.: 2001.
2. Бродский И. Письма римскому другу. – СПб, 2000.
3. Проза У.Хашимова, Ш.Холмирзаева и др.
4. Семиотика. – М.: 2001. – с.200.
5. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры // Юрий Степанов. - 2. изд., испр. и доп. — Москва : Акад. проект, 2001. — 989.
6. Топоров В.Н. Миф, ритуал, символ, образ: исследования в области мифопоэтического: избранное; Изд. "Прогресс", 1995, 467.
7. Шаумян С. О понятии языкового знака // Язык и культура. Факты и ценности. – М.: 2001.



LINGVOPOETIKA VA INTERTEKSTUALLIK MASALALARI



RANO YUSUBOVA,
filologiya fanlari doktori, professor
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Badiiy matnning intertekstualligi zamirida adabiy asarning tarixiy, filologik va madaniy konteksti shakllanadi, matnni talqin qilish imkoniyatlari sifat jihatidan oshadi. Intertekstuallikning turli shakllari ichida reminissensiya alohida qimmatga ega, intertekstuallik ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi (Beaugrande, Dressler) maqomida bo'lib, o'quvchining xotirasi va assotsiativ idroki uchun mo'ljallanadi. Maqolada intertekstuallik reminissensiya asosida tahlilga tortilgan va badiiy matn misolida lingvopoetik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, intermatn, reminissensiya, badiiy matn, individuallik, olamning badiiy manzarasi.

Аннотация. Интертекстуальность художественного текста формируется в историческом, филологическом и культурном контексте литературного произведения, возможности интерпретации текста качественно возрастают. Среди различных форм интертекстуальности особое значение имеет реминисценция, интертекстуальность находится в статусе инвариантного содержания-воссоздания смысла (Богранд, Дресслер) в структуре данного вида текста и предназначена для памяти и ассоциативного восприятия читателя. В статье интертекстуальность подвергается анализу на основе реминисценций, а лингвопоэтический анализ проводится на примере художественного текста.

Ключевые слова: интертекстуальность, интертекстуальность, реминисценция, художественный текст, индивидуальность, художественная картина мира.

Annotation. In the intertextuality of an artistic text, the historical, philological and cultural context of a literary work is formed, the possibilities of interpreting the text are qualitatively increased. Within the various forms of intertextuality, reminiscence is of particular value, intertextuality is in the status of a re-creation of invariant content-meaning (Beaugrande, Dressler) within a given type of text, and is intended for the reader's memory and associative cognition. The article draws on analysis based on intertextuality reminiscence and provides linguopoetic analysis using the example of an artistic text.

Keywords: intertextuality, intermatn, reminiscence, artistic text, individuality, artistic landscape of the universe.

Kirish. Badiiy matn – nutqiy faoliyatning individual mahsuli, bu o'rinda, individuallik shartli tarzdadir, negaki har qanday matn mavzusi, g'oyasi har doim ham tamomila yangidan ishlangan mavzu, g'oya emas. Matn mavjud mavzu, g'oyalarning

navbatdagi ko‘rinishi sifatida yuzaga keladi, muallif pragmatikasiga ko‘ra ifoda vositalarining voqelantirilishi uni individual mahsul sifatida e‘tirof etadi, biroq mavzu – umumniki, jamiyatniki, shuning uchun matn yaratilgunga qadar bo‘lgan qarashlar asosida vujudga kelgan mushtarak voqelik mahsuli sanaladi. Natijada matn semantik-struktur ifodasida o‘zga matnlar bilan aloqadorlik, asoslanganlik, matnning boshqa matnlar bilan bog‘lash, matnning o‘zini to‘laligicha ikkinchi bir matnga olib kirish lingvopoetikada intertekstuallik tamoyili deb qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Intertekstuallik fanda fransuz olimasi Yu.Kristeva nomi bilan bog‘lanadi, olimaning «Baxtin, so‘z, dialog va roman» (Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman) [1, 465] nomli ilmiy risolasida qo‘llangan bo‘lib, M.M.Baxtinning “Og‘zaki badiiy ijodiyotda mazmun, material va shakl muammosi” (1924) risolasida tahlil qilingan dialogik matnlardagi aloqadorlik nuqtalarini birinchi bo‘lib ko‘rsatib berishi intertekstuallik nazariyasining yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan. Tilshunoslarning ayrimlari intertekstuallik matn tilshunosligiga turtki bo‘lgan deb ta’kidlashsa [2,193-217], ayrim olimlar intertekstuallikning presuppozitsiya bilan aloqadorligi va bu xususiyat matnda namoyon bo‘lishiga e‘tibor qaratishgan [3, 1380-1396], ba’zi ishlarda matn va intertekst masalasi chuqur tahlil qilingan [4, 106-135]. M.Homidova intertekstuallikning matn persepsiyasidagi o‘rni, turlari yuzasidan keng qamrovli tadqiqot olib borgan [5], Ushbu ishlarda reminissensiya intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida o‘rganilgan. O‘tgan asrning 60-yillaridayoq lug‘atlarda «reminissensiya» atamasi lotincha so‘zdan olinganligi, *reminiscentia*, ya’ni “xotira, eslash, aks-sado” ma’nolarini anglatishi keltirib o‘tilgan [6]. N.A.Fateeva reminissensiyani matnning eslanishi sifatida emas, havola sifatida tushunadi, boshqa bir muallifga taalluqli tanish voqeaning havola qilinishi deb qaraydi [7, 121-134].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu matnlararo aloqadorlikka asoslanganligi nazarda tutilib, tavsiflash, assotsiativ tahlil, intertekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta’kidlaganimizdek, *intertekstuallik* termini lotincha “inter – oraliq + lot. textus – matn; to‘qish; aloqa, uyg‘unlik so‘zlaridan olingan bo‘lib, biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishidir [8,39]. M.M.Baxtin “...adabiyotning mavjudlik dialektikasini tavsiflar ekan, ijodkor tasvirlanayotgan voqelikdan tashqari, o‘tmish adabiyoti va o‘ziga zamondosh bo‘lgan adabiyot bilan ham ish ko‘rishini, bu adabiyotlar bilan u doimiy “muloqot”da bo‘lishini qayd etadi” [9,114]. M.Baxtin dialog nazariyasining o‘ziga xosligi shunda ko‘rinadiki, u dialogni badiiy asar va undagi inson obrazi tahlili asosida ochib bergan, tashqi hamda ichki dialogik struktura va mazmunni farqlab bergan. Uning ta’kidlashicha, hech bir dialogik kontekstda so‘zlar qo‘llanishining chegarasi yo‘q, hech bir so‘z birinchi marta yoki oxirgi marta qo‘llanmaydi, so‘zlar uzoq o‘tmishdan cheksiz

kelajakka tomon o‘tib boraveradi [10,373]. Natijada Yu.Kristeva aynan ushbu muloqotni, tor ma’noda, alohida olingan matnning boshqa matn bilan o‘zaro interaksiyasiga (hamkorligiga) “intertekstuallik” deb qaragan. Har qanday matn tarixda mavjud bo‘lganlarni qaytadan o‘qish va yozish imkoniyatini ochib berishi, bu jarayon bugungi avlod adabiyotida sezilishini ta’kidlab, muayyan matn boshqa matn bilan birlashib, unga asoslangan holda yozilishi natijasida mavzu va matnlar mos kelishini intertekstuallik doirasida tahlil qilgan. Yu.Kristeva intertekstuallik go‘yoki ijtimoiy maqsadni matn maqsadi sifatida muhokama qilishdir [11,27], deb qaragan.

Badiiy asardagi mental yaratilma – badiiy mazmuniy persepsiya tafakkur, idrok bilan shartlashgan holda ish ko‘radi. Badiiy mazmuniy struktura mundariyasi “bilish – idrok” emas, balki “badiiy bilish – badiiy idrok” fonida chuqurlashtirilgan ekan, har qanday bilish muayyan matnga tayanish asosida kelib chiqadi va idrok jarayonida ana shu matnlardan olingan xulosalar mexanizmi harakatga keladi, natijada ko‘p hollarda implitsit yoki eksplitsit tarzda “intertekstuallik” badiiy g‘oyaning yangicha talqini tug‘ilishiga imkon yaratadi. Biz bejizga intertekstuallik implitsit tarzda mavjud bo‘lishiga ishora qilmadik, bizgacha bo‘lgan har qanday matn biz yaratayotgan matn uchun intermatn maqomidadir, degan nisbiy tushunchani to‘la rad etmagan holda shu fikrga keldik. Yondashuvlar, qadriyatlar, qarashlar, baholar, tamoyillar umummilliy yoki mushtarak ekan, har bir matn boshqa matnga nisbatan matnlaro matndir, matnning yaratilishiga qaysidir matn (agar badiiy matn bo‘lsa, jamiyatdagi muayyan voqelik, shaxslar hayoti) ta’sir qilishi yoki asos bo‘lishini intertekstuallikning implitsit ko‘rinishi sifatida baholash mumkin. Bu qarashlar matn muallifining mualliflik maqomini inkor etishdan mutlaqo yiroq. I.Arnold fikri bilan aytganda, intertekstuallikning darajasi shundaki, matnda “begona so‘z” – bu “linza”, u orqali badiiy asarning “optik maydoni”ni ko‘rish mumkin bo‘ladi [12,9].

R.Bartning fikricha, har qanday matn tugallangan, yopiq mahsulot emas, balki bizning ko‘z o‘ngimizda boshqa matnlarda, boshqa kodlarda (intertekstuallik doirasida) davom etayotgan, ularni jamiyat bilan, o‘tmish bilan bog‘lovchi mahsul sifatida kuzatilishi kerak [13, 423]. To‘g‘ri, biz ijodkor idiositili, mahoratiga doxil qilmayapmiz, lekin har qanday matnda qaysidir kichik bir semantik yoki kichik bir struktur element boshqa bir matnni “yodga soladi”.

Intertekst va intertekstuallik tushunchalari alohida tushunchalar sifatida farqlangan qarashlar kuzatiladi. Intertekst – bu bitta matn yoki matnlarning boshqa matnda mavjudligi bo‘lsa, intertekstuallik – intertekst asosida yuzaga keladigan turli hodisalar, munosabatlardir [7, 280], deb qaraladi. Bu kabi chegaralash intertekstuallikka tor va keng planda qarash natijasida kelib chiqqan. Intertekstuallik masalasida Yu.Kristeva, R.Bart, J.Derrida “har qanday matn intermatndir” deb keng planda qarashgan bo‘lsa, J.Jenett, L.Jenni, U.Broyx, M.Pfister, B.Shulte-Middelich tor planda qarashgan. J.Jenett

intertekstuallikni “transtekstuallik” tushunchasining turlaridan biri sifatida ko‘rib chiqqan va matnning boshqa matnlar bilan ochiq va yashirin aloqasi deb tushuntirgan [14].

M.Bart ta’kidicha, bir matnda yuzaga chiqqan madaniy-semiotik makon ikkinchi bir matnda ma’no shakllanishining zaruriy sharti hisoblanganda intertekstuallik yuzaga keladi [15, 218], ikki madaniy semiotik maydonning kesishuvidan intertekstuallik yuzaga kelar ekan, intertekstuallik ikki matnni o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlaydi, boshqa matnga xos unsurning ikkinchi bir matnga aralashuvi natijasida retsipient ongida yangi mental maydonlar qo‘shilmasi yuzaga keladi, “...intertekstuallik zaminida ko‘pincha presuppozitsion bilim zahirasi yotadi” [16, 205]. Matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari xususida gap ketganda, ulardagi o‘xshash jihatlar intertekstuallik doirasida voqelantirilganligi ko‘zga tashlanadi, badiiy matnda intertekstual birlik badiiy-madaniy yoki badiiy-umummadaniy fakt sanaladi.

Matnlararo aloqadorlikni va ularning turlarini yagona *intertekstuallik* termini ostida birlashtirish hodisaga doir xususiyatlarni chalkashtirishning oldini oladi, muhimi – hodisaning mohiyatini to‘g‘ri ochib berish. O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik masalasiga ilk bor jiddiy e’tibor qaratgan M.Yo‘ldoshev [9, 115-116] hamda intertekstuallikni monografik planda o‘rgangan M.Xomidova [17, 126] ham intertekstuallik terminini ma’qullaydilar. “Asosiy matnga olib kiriladigan o‘zga matn yoki uning muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko‘ra asosiy matn strukturasi turli qismlaridan joy olishi mumkin” [9, 116].

Reminissensiya – (lot. *reminiscentia* - xotirlash, yodga olish) biror asarda muayyan elementning boshqa asarga xos struktura yoki mazmuni yodga solishi, asosan, badiiy asarda boshqa asarning ongli tarzda eslatilishi bilan ko‘zga tashlanadi. Ushbu termin ilk marta 1907-yilda serb olimi V.Urbanchich tomonidan psixologiyada qo‘llanilgan. Reminissensiya, asosan, badiiy matnlarda shunchaki ikkinchi bir badiiy matnni yodga solish, ishora qilish maqsadi bilan namoyon qilinmaydi, balki ijodkorga kuchli ta’sir etgan badiiy detal yoki sintaktik strukturalardan olingan nusxa fikrni mustahkamlovchi intertekstual ko‘rinish sifatida yuzaga keladi.

Lug‘atlarda reminissensiyaning ikki turi ajratiladi:

1) adabiy hodisalarning dialogik munosabatda bo‘lishi natijasi o‘laroq, yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo‘lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalar. Bunday reminissensiyalar anglangan va anglanmagan (asarda ijodkor xotirasida muhrlanib qolgan o‘zga asardagi nuqtalarning g‘ayriixtiyoriy tarzda aks etishi) ravishda voqe bo‘ladi; ular ochiq-oshkor emas, shu bois ilg‘ab olinishi ham birmuncha qiyin va shu jihat bilan o‘zlashtirish va taqliddan farq qiladi.

2) adabiy asardagi o‘zidan ilgari adabiy hodisalarni eslatuvchi, ongli ravishda yoki anglanmagan tarzda yuzaga kelgan nuqtalarning bari, adabiyotdagi adabiyot

obrazi. Mazkur ma'noda terminning qamrov ko'lami kengayadi. Shuningdek, birinchi ma'noni ham o'z ichiga oladi. Bunda asardagi sitatalar, she'riy misralar (jumladan, muxammas, nazira), obrazlar (masalan, talmeh san'ati), g'oyaviy-tematik va emotsional motivlar (masalan, A.S.Pushkinning «Kuz» va A.Oripovning «Kuz xayollari» she'rlari) ham reminissensiya hisoblanadi [18,249].

U.Hamdamning 1996-yilda yozilgan “Qahramon” she'ri O'.Umarbekovning 1967-yilda yozilgan “Ko'prik” hikoyasi qahramoni Samad aka tomonidan xotirlangan (ya'ni Samad akaning urush yillarida o'zi guvoh bo'lgan) bir voqeani yodga soladi.

U.Hamdamda:

*Kimdir o'tishi kerak ekan,
lekin ko'prik yo'qligidan
bizni jarlikka qulata boshlashdi...
Nihoyat ko'prik paydo bo'ldi – odam ko'prik!..
O'sha kimdir dam qo'shiq aytib,
dam xushtak chalib,
ustimizdan g'arch-g'urch bosib
qadam tashladi...
Men esa o'yladim:
yotganmi qahramon, o'tganmi?..*

O'.Umarbekovda:

— *Qirq ikkinchi yil edi. Qish. Bizni Ukrainaning Martovaya qishlog'iga olib borishdi. Mudofaa chizig'i shu yerdan o'tardi. Sovuq qattiq. Tuplasang, tupuging qotadi, qor tizzaga chiqadi. Qishloqning yonidan Shimoliy Doneskning bir irmog'i o'tgan edi. Katta emas, shu kanaldek keladi, balki bundan kichikroq hamdir. Polkning xo'jalik qismi shu irmoqning berigi tomonida, biz esa narigi tomonida joylashgan edik. Irmoq muzlab qolgan, beti qalin qor edi. Shuning uchun bemalol, istagan joyimizdan o'tib yuraverardik. Fevralning oxirlarida kun, kutilmaganda, isib ketdi. Qor eriy boshladi. Lekin erigani qanday deysan, yer ustida bilinmaydi, shakarga o'xshab yaltirardi. Faqat irmoqda bilinardi. Uch-to'rt kun ichida uning o'rtasida qora ipdek ingichka chiziq paydo bo'ldi. Keyin kengayib, jildiragan suv ko'rindi. O'tish xavfli bo'lib qoldi. Xuddi boyagidek bironta ko'prik-po'prik bormikin, deb u yoq-bu yoqni tekshirdik. Biz turgan joyda yuz qadamcha narida kimdir irmoq ustiga ko'ndalang tushib yotgan bir narsani ko'rib qoldi. Bu xodami, taxtami, qor tagida bo'lganidan bilib bo'lmadi. Lekin baquvvat, ustiga chiqib bir-ikki tepdik. Ikki kishilab u yoqdan-bu yoqqa o'tib ko'rdik. Yo'q, baquvvat, sinmadi. Shu yerdan o'tib turadigan bo'ldik. Shu yerdan ovqat tashiy boshladik, shu yerdan muzni yorib, suv oladigan bo'ldik. Lekin polkning otliq otryadi bor edi, shu otryadning otlaridan bittasi ham uning ustidan o'tmadi. Qadam qo'yadi-yu, o'tmaydi. Ursang ham, so'ksang ham o'tmaydi. Bir qadam*

bosib to‘xtaydi, keyin tisarilib, yonidan sakrab o‘tadi. Albatta, bunga hech kim e‘tibor bermadi, sababini keyin bildik...

– *Nima ekan? – sabrsizlik bilan so‘radi yigit.*

– *Hozir, – dedi Samad aka va shoshmasdan zihigacha chekilgan papirosini yerga ezg‘ilib botirdi-da, gapida davom etdi:*

– *Bir kuni ovqat kechikib qoldi. Komandir meni chaqirib, xabar olib kelishni buyurdi. Yo‘lga tushdim. Irmoqqa yetib kelganimda, suv ichgim kelib qoldi. Chanqaganimdan emas, suvning tiniqligidan ichgim kelib ketdi. Ko‘prikchamizning o‘rtasiga kelib engashganimni bilaman, shalop etib, ko‘prik-po‘prik bilan suvga tushib ketdim. Belimgacha jiqqa ho‘l bo‘ldi. Lekin meni bu cho‘chitmadi, men ko‘priksiz qolishimizdan qo‘rqdim. Haqiqatan ham u oqib ketayotgan edi. Shaloplab ketidan chopdim, bir uchidan ushlab olib qirg‘oqqa suraman, qani endi surilsa?! Muz-da, sirpanadi. Hay, bir amallab olib chiqdim. Shu payt yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Biz ko‘prik qilib yurgan narsa – odamning murdasi edi.*

She‘rda hikoyadagi voqea poetik tus olib, U.Hamdam hikoyadagi voqelikka siyosiy mazmun bergan, mustaqillik yo‘lida biz millat uchun kurashgan qahramonlarimizni qurbon berganligimizga, shu kunlarga erishish yo‘lida ularning harakatlari, asarlari ko‘prik bo‘lganligiga ishoradek go‘yo.

Reminissensiya boshqa bir badiiy asarning ritmik-sintaktik tuzilishidan nusxa olish orqali yuzaga keltiriladi [19, 238], asl matn va reminissensiya ta‘sirida yuzaga kelgan matn o‘zaro qiyoslanganda, bir ijodkorning ikkinchi ijodkorga ta‘siri kartina misoli yaqqol namoyon bo‘ladi. H.Xudoyberdievaning “Xato ketdim” she‘rida remnissensiyaning aynan shu ko‘rinishi qo‘llangan:

Kulgan men emasman.

Menmas yig‘lagan,

Simsim sirqiragan sato, ketdim men.

Moziy qa‘rlaridan inju yig‘magan,

Bugunga sig‘magan sado, ketdim men.

Kulgan men emasman. Menmas yig‘lagan misralarining struktural-semantik qiyofasi Cho‘lponning “Men va boshqalar” she‘rining dastlabki ikki misrasini xotiraga keltiradi:

Kulgan boshqalardir,

yig‘lagan menman,

O‘ynagan boshqalar,

ingragan menman.

Badiiy idrok individuallik mezoni bilan baholanar ekan, olamning yangi badiiy manzarasini yaratishda mavjud bo‘lgan badiiy matnni anglatish orqali kirib borish shunchaki muallifning pragmatik yondashuvi sanalmaydi, bunday hollarda retsipient

nusxalangan matni “tanishi” kerak. Muayyan bir matn mazmunidan, strukturasi dan nusxa olish ijodkor kognitiv tizimida badiiy voqelik va matn strukturasi dagi muayyan elementlarning reprezentatsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan jarayondir. Shunga ko‘ra, har qanday badiiy matnning o‘z auditoriyasi bo‘ladi, har qanday badiiy matndan turfa xulosalar anglanadi.

O‘zbek badiiy adabiyotida U.Hamdamning “Yomg‘ir yog‘ar...” she‘ri R.Parfining “Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar” she‘rini, S.Sayyidning “Oylar va Oyjamollar” she‘ri A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Mehinbonu saroyidagi qizlar tasvirini yodga soladi.

Intertekstuallikning aynan reminissensiya turi mazmunni nusxalash bilan bog‘liqlikda yuz berar ekan, qayta ishlangan badiiy axborotni yodga olish retsipientning intellektual imkoniyatlarini belgilaydi, natijada mantiqan qiyoslash orqali matn mazmunini idrok qiladi.

Xulosa va takliflar. Kuzatganimizdek, intertekstuallik va intertekst mohiyatan bir-biridan farq qilib, butun-qism munosabatiga o‘xshaydi, intertekst matn tarkibida keluvchi, matni semantik-struktur, kommunikativ jihatdan shakllantiruvchi matniy birlik bo‘lib, ikkinchi bir matn birligi sifatida matn qurilishida ishtirok etadi, natijada matni mazmuniy idrok qilinishi osonlashtiriladi, intertekst bir matnning ikkinchi matn bilan o‘zaro aloqasidir. Intertekstuallik esa bevosita shu jarayonning nomlanishidir. Intertekstuallikning bir ko‘rinishi bo‘lgan reminissensiya vositasida muayyan matnda boshqa bir matn parchasining, pretsedent nomlar yoki matnning eslanishi, sharhlanishi va muhokama qilinishi orqali xotirada avvaldan mavjud bo‘lgan matni qayta tiklash va bu orqali matnning g‘oyaviy-estetik qiymatini oshirish ko‘zda tutiladi, reminissensiya poetik belgi sifatida matn va o‘quvchini o‘zaro bog‘laydi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.rose.uzh.ch> › dam › Kristeva2. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte // Critique, 33, 1967. T. 23, № 239.
2. Beagrande R. A. De. Dressier W. Introduction to text linguistics. L.:N.Y.,1981. - XVI. Fairclough, 1992b. N. Fairclough Discourse: Text: Linguistic and intertextual analysis within discourse analysis. Discourse & Society, 3 (1992).
3. Presupposition and Interrextuality Author (s): Jonathan Culler Source:MLN. Vol.91.NO.6 Comparative Literature(Dec., 1976).
4. Xolbekov M.N. Matn, intermatn va intermatnlik // Xolbekov M.N. Struktur adabiётshunoslik. Risola. – Toshkent: Navro‘z, 2014.
5. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filol.fan. fals.dok.(PhD) ...diss. Toshkent, 2021.
6. Словарь иностранных слов / Под ред. И. В. Лехина, С. М. Локшиной, Ф. Н.

Петрова (гл. ред.) и Л. С. Шаумяна. 6-е изд., перераб. и доп. М.: Советская Энциклопедия, 1964.

7. Фатеева, Н.А. Интертекст в мире текстов. Москва: КомКнига, 2007. – С.121-134.

8. Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Т.:Tubo nashr, 2022.

9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Т.: Fan, 2008.

10. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979.

11. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. // Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму / пер. С франц., сост., вступ.ст. Г.К.Косимова. – М.: ИГ.Прогресс, 2000.

12. Арнольд И.В. Читательские восприятие интертекстуальности и герменевтика // интертекстуальные связи в художественном тексте: Межвуз.сб.науч.трудов. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 1993.

13. Барт Р. Текстовый анализ одной новеллы Эдгара По [Текст] / Р. Барт // Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: пер. с фр. / сост. Г.К.Косиков. – М.: 1989.

14. Genette G. Palimpsestes: La litterature au second degre Texte. / G. Genette. – Paris: Seuil, 1982. – 467 pp.

15. Барт Р. Text. // Encyclopedia universalis. – Vol. 15. – P., 1973. – P. 78. (Цит. по: Интертекстуальность // Современное зарубежное литературоведение: Энциклопедический справочник / Под ред. И.П. Ильина и Е.А. Цургановой. – М., 1996.

16. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Т., 2010.

17. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Monografiya. –Т.: BOOKMANY PRINT, 2023.

18. Quronov D va boshqa. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Т., Akademnashr, 2013.

19. Квятковский А. Поэтический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1966

1.

RAUF PARFINING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

GULCHEHRA BOLTAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Rauf Parfining Abdulla Qodiriy g‘azaliga bog‘lagan taxmisida so‘z qo‘llash mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, mumtoz she‘riyat, o‘xshatish, kinoya, sifatlash, ko‘p ma‘nolilik.

Аннотация. В статье рассматриваются мастерство использования слов Рауфом Парфи в тахмисе, связанном с газелью Абдуллы Кадыри, яркого представителя узбекской литературы.

Ключевые слова: лингвопоэтика, классическая поэзия, сравнение, ирония, эпитет, многозначность.

Abstract. The article discusses Rauf Parfi’s mastery of word usage in the tahmis linked to Abdulla Qodiriy’s ghazal, a prominent figure in Uzbek literature.

Keywords: lingvopoetics, classical poetry, metaphor, irony, epithet, polysemy.

Kirish. XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakili, o‘zbek romanchiligi, realistik hikoyachiligining asoschisi, nasr va nazmda mohir ijodkor Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz” g‘azali asosida Rauf Parfi taxmis yozgan. Rauf Parfi – tom ma‘nodagi millat shoiri. “Rauf Parfining she‘riyatimizdagi tajribasi, eng avvalo, she‘r va shoirlikka xiyonat qilmaslik, nafs va manfaat hirsini bilan she‘rni bozorga olib chiqmaslik, mavqe, martaba, obro‘, unvon va mukofot poygalarida qatnashmaslikdir. Ayni shu jihatdan uning panjasiga panja uradigan iste‘dod bizda yo‘q hisobi” [5:253]. Bu ikki buyuk siymo yuragini bitta dard o‘rtagan: millat taqdiri.

Adabiyotlar tahlili. Musammam hamda uning tarkibiga kiruvchi muxammas janri genezisi, tadrijiy taraqqiyoti, shu jumladan sohir so‘z ustasi Alisher Navoiy muxammaslarining janr tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari, muxammas va taxmis turlari, mazkur janrning ayrim masalalari A.Hayitmetov, O.Nosirov, Yo.Ishoqov, A.Abdug‘ofurov, I.Haqqulov, R.Orzibekov, R.Vohidov, V.Rahmonov, N.Jumaxo‘ja,

N.Afoqova, I.Adizova, D.Yusupova, Z.Qobilova, G.Xalliyeva, Sh.Rahmonova, Z.Salimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rus olimlaridan Ye.E.Bertels, I.Y.Krachkovskiy, D.V.Frolov, D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy, L.I.Timofeyev, I.V.Ctebleva, V.M.Jirmunskiy, N.Y.Chalisova kabilarning darslik va o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tipologik, lingvistik, germeneytik, psixologik, biografik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Jadid adabiyoti vakili sifatida yangicha ruh, erkin fikr, yuksak badiiy-etetik did sohibi Abdulla Qodiriy qarashlari bilan Rauf Parfining ijodiy-ruhiy yaqinligi "Ahvolimiz" g'azaliga bog'langan muxammasda yorqin nazarga tashlanadi. Mazkur taxmis shoir ijodida bo'y ko'rsatgan an'ana va izdoshlikning yorqin namunasi sifatida ham ahamiyatlidir. She'rshunos N.Rahimjonov ta'kidlaganidek, "Rauf Parfi ijodiy tajribasining o'zbek poetik so'z madaniyatidagi novatorligi shundan iboratki, u boy badiiy an'analardan voz kechmadi... Mumtoz she'r madaniyati, xalq og'zaki ijodidagi she'r tuzilishining pinakka ketgan shakllari ko'zlarini uyqudan uyg'otdi. Qaytadan jon bag'ishladi... Ularga tayanib, o'z so'qmog'ini ochishga, o'z yo'lini belgilashga erishdi" [2:26]. G'azalda ilgari surilgan millat dardidan aziyat chekkan Rauf Parfi ham o'zining muxammasida ilmsizlik oqibati yurtni vayron qilib, tanazzulga uchratishi g'oyasini ilgari surgan.

Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz" nomli g'azali 7 banddan iborat. Rauf Parfining g'azalga bog'langan taxmisi esa 6 band 30 misrani tashkil qiladi. Taxmisning nazariy talabiga asosan g'azalning ramali musammani mahzuf vazni o'zgarishsiz saqlangan. Abdulla Qodiriy g'azali 1915-yilda, Rauf Parfi muxammasi esa 1994-yilda yozilgan. Asr boshi va so'ngida ikki buyuk ijodkor qalamidan yaralgan "ijod mevasi" bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Zero, millat ravnaqi va kelajagi faqatgina ilm orqali ro'yobga chiqishi tarix sahifalaridan ma'lum.

Muxammasda barcha davrlar uchun birdek muhim va dolzarb mavzu ifodalangan. Unda ilmsizlik tufayli g'aflat, jaholat botqog'iga botayotgan xalqning ayanchli ahvoli muxammas janrining poetik imkoniyatlari doirasida kengaytirilib, yanada yorqin tasvirlanadi:

*Yil o'tub, yillar o'tub tobora loyg'a botamiz,
Iblisning suprasinda vahdat mayini totamiz,
Onamiz balki gumroh, balki so'qirdir otamiz,
Ko'r bizim ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelg'on chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz [2:254].*

Birinchi band **aaaaa** tarzida qofiyalanib, zamonning tobora loyga botayotgani haqidagi tashvishli fikr bilan boshlangan. Bunda shoir tasavvufiy istilohlardan foydalangan. Ijodkorning Sharq mumtoz she'riyati ramzlaridan chuqur xabardorligi

uning bandda ilgari surilgan badiiy-estetik qarashlari vositasida yuzaga chiqqan. Ma'lumki, vahdat mayi – tasavvufiy istiloh bo'lib, Olloh vasliga intilish, ruhiy yagonalikka erishish, uning ishqidan sarmastlik, Ollohning zarrasi bo'lgan insonning Yaratuvchi – Mutlaq ruh bilan birlashuvi, shu tufayli oliy ma'naviy lazzat topishi nazarda tutiladi. Ammo muxammasda qo'llangan “Iblisning suprasinda vahdat mayini totamiz” misrasida asrlar osha yashab kelgan Sharq odob-axloqi, tafakkuri, qarashlarining mustabid tuzum tufayli o'zgarib borayotganligi, millat tanazzulga uchrayotganligi g'oyasi ifodalanadi. Bu Rauf Parfi muxammasida “xalqning Iblis bilan birlashuvidek” muhim ijtimoiy g'oyaning badiiy-estetik talqini sifatida umumbashariy va milliy mazmun kasb etgan. Iblis obrazida shoir sho'ro saltanatini nazarda tutgan. Keyingi misralarda onamiz gumroh, otamiz so'qirga sifatlanib, manqurtlik, otionalarning ilmsizligi tufayli ularning farzandlari ham bu ta'sirdan xoli emasliklari ta'kidlangan. Ya'ni Qodiriy zamonida ma'naviy jihatdan yuksalish, o'zlikni tanishga ijtimoiy tuzum yo'l qo'ymagan bo'lsa, Rauf Parfi ham aynan shunday davrning davomi bo'lmish XX asrning 70-yillarida yashagan ijodkor sifatida ilmsizlik, g'aflat va vijdonsizlikning ayanchli oqibati haqida kinoya bilan yozadi. Davr ko'pchilikni g'aflatda qoldirgan, xalqning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, bebaho qadriyatlarini tanazzulga yuz tutgan. Rauf Parfi muxammasda qo'llagan “ko'r bizim ahvolimiz” jumlasini shoirning ichki nidosidir. “Yillar o'tib, yillar o'tib” takrori orqali esa shoir bu holatning qariyb 70 yildan ortiq vaqt mobaynida hukm surayotganligi, mustabid tuzum mafkurasining oqibatlarini, erk tuyg'usidan mahrum etilgan millat loyga botayotganligini ifodalagan.

*Bizga or bo'ldi nahot, yorab, Vatanni kuylamak,
Zoru zoru bu zamin yetti falakni o'ylamak,
Qizimizga o'rgatib, suf, deb jahonni bo'ylamak,
O'g'limizg'a na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak,
Na xudoning buyrug'i bo'lg'on ulum o'rgatamiz [2:254].*

Ikkinchi band muxammasning an'anaviy kompozitsiyasiga muvofiq bbbba tarzida qofiyalangan. Taxmis misralarida Rauf Parfi shoirlar o'z Vatani haqida she'r yozolmaganini ta'kidlaydi. Buning ikkita asosiy sababi bor: birinchisi, ular davr mafkurasini hayot haqiqati deb o'ylashgan, ikkinchisi esa, ular xohlashsa-da, kuchli bosim ostida o'zlari va atrofdagilarning taqdiri uchun ham Vatan, millat, xalq tushunchalarini ulug'lab chiqisholmagan. Bunday kishilar Abdulla Qodiriy zamonida xalq dushmani, millatchi kabi ayblovlar bilan qatag'on qilingan. Millatning eng ziyoli, ilmparvar, vatanparvar qatlami otuvga hukm qilingan. Rauf Parfi yashab ijod qilgan davrda esa sobiq sho'rolar o'z mafkurasini jamiyat ongiga singdirib bo'lgandi. Keyingi misralarda dinimizda ta'qiqlangan irim-sirimlar, dam solishlar, folbinlik, bashoratchilikni avj oldirib, rivojlanishdan ortda qolib, o'g'il-qizlarimizga esa na ilm,

na odob o‘rgatilganligi Rauf Parfining ijtimoiy voqelikka munosabati sifatida achchiq qayg‘u bilan tilga olinadi. Misralarda qo‘llangan “Xudoning buyrug‘i ulum o‘rgatish” jumlasida islomga oid hadislarda haqiqiy musulmon kishi uchun ilm o‘rganish farz ekanligi nazarda tutilgan. Bizning xatomiz, hatto Ollohning buyrug‘iga ham bo‘ysunmay qo‘yganimizda ekanligi kabi diniy-falsafiy mazmun ilgari surilgan. A.Qodiriy g‘azalining uchinchi baytida bedanabozlik kasaliga yo‘liqqan kishilar tanqid ostiga olinadi. Millat qayg‘usi qolib, choyxonalarda faqat bedana sayratish bilan shug‘ullanayotgan dangasa, takasaltang kishilar haqida fikr yuritiladi. G‘azalning “Korimiz shundan iborat bo‘ldi ushbu vaqtda, // O‘ntadin bedona boqib yoz-u qish sayrotamiz” baytini Rauf Parfi tushirib qoldiradi va g‘azalning 4-baytida tasvirlangan g‘oya asosida muxammasning uchinchi bandini quyidagicha shakllantiradi:

*O‘lturur el xonavayron, botqon quyoshga ko‘z tikib,
Kulfat-u somon yig‘ib qolmish yana, bo‘ston ekib,
Nechalar narvondadir, nechalar yitmish ko‘z tegib,
Hamda har kun takyalarda nasha, ko‘knori chekib,
Bachchag‘a kokil solib oh-voh ila o‘ynotamiz [2:254].*

Taxmisning yuqorida keltirilgan bandida millat qayg‘usida “yonayotgan” ikki zabardast ijodkor – Rauf Parfi va Abdulla Qodiriyning ruhiy-ma’naviy dunyosi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari uyg‘unlashgan. Xalqimizning tinimsiz qora mehnat qilishi, ammo hech qanday boylikka, farovon hayotga munosib bo‘lmaganligi haqida aytilgan. Shoir xalqimizning hayoti og‘ir mehnatda o‘tganligi, ammo o‘zi yetishtirgan hosildan, mehnatidan ozgina bo‘lsa-da, foyda ololmaganligini “bo‘ston ekib” “somon yig‘ib” olgan birikmasi orqali ifodalagan. Bunda sobiq ittifoq tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston boyliklarining mustabid davlat tomonidan talon-taroj qilinganligi haqidagi fikr ilgari surilgan. 70-80-yillarda oliy ma’lumotli o‘qituvchilar dehqondan kam maosh olganliklarini o‘sha davrda yashagan kishilardan eshitamiz. Bundan davr siyosatining maqsadi millatni ilmsiz qilish ekanligini anglash mumkin. 80-yillarda ko‘plab begunoh kishilarning “paxta ishi” sabab qamoqlarda, surgunlarda halok bo‘lganlari ham tarixdan bizga ma’lum. Badda qatag‘on yillari tufayli otib tashlangan millat ziyolilarining taqdiriga ishora bor. Bu fikr “Nechalar narvondadir, nechalar yitmish ko‘z tegib” jumlasida o‘z aksini topgan. Misrada qo‘llangan “nechalar” takrori orqali shoirning poetik maqsadi, ta’kid kuchaytirilgan, teran ma’no yuzaga chiqqan. Shoir o‘quvchi ongida qatag‘on yillarini jonlantirishga harakat qilgan. Buni davrning ijtimoiy-siyosiy evrilishlari va adabiy hayotini chuqur o‘rgangan olim N.Karimovning qarashlari ham tasdiqlaydi: “Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta’sir o‘tkazgan kishilardan biri N.I.Ilminskiy maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktublarining birida shunday fikrni olg‘a surgan edi: “Olimlardan va o‘ta bilimli o‘qituvchilardan ehtiyot bo‘linglar. O‘ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga

qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar” [1:13]. Olim Ilminskiyning ana shu “dono” maslahatiga amal qilgan Rossiya politsiyasi tomonidan Turkistondagi har bir olim, ma’rifatli va bilimli kishilarni nazorat hamda ta’qib ostiga olinganligi, taraqqiyparvar nashrlarning Turkistonga kirib kelmasligi choralari ko’rilganligi, mahalliy ziyolilarni ikki qatlamga ajratilib, jadidlar va ulamolar bir-biriga qarshi qo’yilganligi, din arboblarning o’ta mutaassiblashishiga shart-sharoitlar yaratilganligini ta’kidlaydi. Bu masalada adabiyot va hayotda millatparvar shoir sifatida Rauf Parfi ham o’z qarashlariga ega edi. Uning qalbida Abdulla Qodiriydek millatparvar ziyolilarni qatag’on qilgan chor imperiyasiga nisbatan cheksiz nafrati bor edi. Shoir ushbu nuqtayi nazarini tasdiqlash uchun chor imperiyasi va sho’ro saltanatining kirdikorlariga alohida to’xtalib, shunday deydi: “Chor imperiyasi, keyinchalik qizil saltanat Turkiston musulmonlarining, ayniqsa, turk xalqlarining birlashuvidan qattiq qo’rqardi. Shuning uchun tish-tirnog’i bilan qurollanib turkchilarni, turkchi bo’lganlarni ham, umuman tub joy aholidan chiqqan munavvarlarni tirik qoldirmaslikka kirishdi. O’g’ri, bosqinchi, makkor, xudosiz maxluqlar muqaddas Turkiston tuprog’ini taladilar, bo’g’dilar, qonga botirdilar” [3:233].

Abdulla Qodiriy g’azalida XX asr boshlarida uchraydigan ko’knori yetishtirish, nasha chekish, bachchabozlik, besoqolbozlik kabi illatlar ham shafqatsiz qoralangan. Bu fikrlar Rauf Parfi e’tiboridan ham chetda qolmagan. Shoir bu illatlarga mos tasvirni muxammasda obrazli tarzda, nimtabassum bilan kengaytira olgan. Qolaversa, o’zini qori deb hisoblaydigan challa mullalar dindan noto’g’ri maqsadlarda foydalanib, oddiy xalqni aldab kelgan, qo’shxotinlik, folbin-u qushnochlik kabi nopok ishlar ko’payib ketgan. Takyaxonalarda diyonatsiz, imonsiz “mullalar” o’zlari boshchilik qilib nasha chekib, bunga atrofdagilarni ham da’vat qilishgan. Islom dinining asl missiyasi va amallari noto’g’ri talqin etilgan. Yurt qayg’usidan qattiq tashvishlangan ikki buyuk ijodkor yashagan davrlarda bunday fikrni baralla aytish qanchalar og’ir bo’lsa-da, ular she’rda buni yorqin ifoday olgan. Abdulla Qodiriy g’azalida asrimiz boshida ilgari surilgan millat qayg’usi mahorat bilan tasvirlangan. Adabiy-estetik qarashlarida erk tuyg’usi va yurt taqdiri yetakchi o’rin tutgan Rauf Parfi buni yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega taxmis orqali ifodalab bergan.

Muxammasning to’rtinchi bandida shoir Abdulla Qodiriy g’azali mohiyatiga singdirilgan ma’noni kuchaytirib, millatning qanday “balo”ga aylanganini ruhiy bezovtalik bilan tasvirleydi. Shoir manqurtlikka yuz tutayotgan kishilardan iborat jamiyatni nima deb atashni bilmay qoladi. “Ne balomiz”, “ne kasofat” birikmasida “ne” so’roq olmoshi vositasida muhim fikr bir nuqtaga jamlanib, ma’no ta’kidi kuchaytirilgan. Rauf Parfining “Benazir parrandamiz, qo’rdamiz, hayvondamiz” misrasi orqali savol-javobida chuqur badiiy-falsafiy talqin aks etgan:

Ne balomiz biz o’zi, to’rdamiz, ayvondamiz.

*Ne kasofat fe’li bu – qurdamiz, tayvondamiz,
Benazir parrandamiz, qo’rdamiz, hayvondamiz,
Qorimiz, boyonmiz, balki bu vaqt ahvondamiz,
Nogahon ko’rsak agar besoqolni qotamiz [2:254].*

Muxammasning beshinchi bandida yaxlit kompozitsion butunlik va mantiqiy izchillik asosida Rauf Parfining jamiyat tanazzuliga sababchi bo‘layotgan insonlarga nisbatan g‘azab va nafrati o‘z aksini topgan. Shoir ularni obrazli tarzda “takabbur”, “yaloqxo’ri balo” deb ta’riflaydi. Mustaqillikdan so‘ng yuz bergan o‘tish davrida bunday fikrlarni aytish shoir uchun oson bo‘lmagan. Bugungi kun o‘quvchisi she’rlaridagi realistik tasvir sabab Rauf Parfi shaxsi ma’lum muddat ta’qibga uchraganini ham yaxshi biladi. Ko‘rinadiki, shoirning ijtimoiy-siyosiy, milliy ozodlik g‘oyasi aks etgan bu muxammasi ham o‘tkir realistik ruh bilan sug‘orilgan. N.Rahimjonov ta’kidlaganidek: “Hayot haqiqatiga sadoqat, haq gapni obrazlar tiliga ko‘chira bilish realistik tasvir prinsiplarining asosidir. San’atda, demakki, badiiy ijodda realizmning ustivorligi uchun kurash Rauf Parfi adabiy faoliyatining bosh xususiyati bo‘lib qoldi. Adabiy hayotda hukmron mafkuraga og‘makashliklar avjiga chiqqan, marksizm-leninizm “dohiy”lariga o‘qilayotgan hamd-u sanolar osmoni falakka yetgan bir paytda she’riyatdagi kayfiyatni Rauf Parfi g‘oyat nozik his etardi” [3:233]. Bu hisni shoir she’riyatining o‘ziga xos jihati sifatida baholash mumkin. Badda Rauf Parfining yorug‘ kunlardan orzumandligi seziladi. “Bormikan olam aro ko‘ngilga malham qo‘yuvchi” misrasida bu umid uchqunini ko‘rish mumkin. G‘azalning Abdulla Qodiriy tasviridagi 6-bayti go‘yo adibning bashoratiga o‘xshaydi. Qodiriy tasvirlagan “millat deguvchilarning dahriy sanalib, tafoncha bilan otilishi” 1937-yildagi mudhish qatag‘on siyosatini xotirimizda gavdalantiradi.

*Qaydin ey sen, takabbur, ko’ksimni mixlab o‘yguvchi,
Ey yaloqxo’ri balo, ichib qonimni to‘yguvchi.
Bormikan olam aro ko‘ngilga malham qo‘yuvchi,
O‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguvchi,
Biz ani dahriy sanab tafoncha birla otamiz [2:254].*

D.Quronov ta’kidlaganidek, “bir narsaning mohiyatini ikkinchi narsada ko‘rish uchun aqlning o‘zi kamlik qiladi, buning uchun ijodkorda, avvalo, san’atkorona nigoh, san’atkorga xos “qalb ko‘zi” bo‘lishi lozim”[4:33]. Muxammasning so‘nggi bandida ana shu ruhni sezish mumkin. “Qalb ko‘zi” uyg‘oq Rauf Parfi va Abdulla Qodiriy so‘zlari yurt, millat, xalqqa murojaat tarzida da’vat mazmunini o‘ziga singdirgan. Taxmisda dunyoning o‘tkinchiligi, foniyy dunyoda qilgan har bir amalimiz oxiratimiz uchun tirgak bo‘lishi, kim qanday bo‘lsa, shunday kunga loyiqligi, qullik, asirlikdan yiroqlashib, o‘zligimizni anglash da’vati, ortimizda el-u yurt taqdiri borligini unutmashlik chaqirig‘i aks etgan. Abdulla Qodiriy g‘azali maqtasida yechim sifatida

ilgari surilgan millatni faqat yoshlar, ziyoli qatlam birlashib, jaholat va qullikdan ozod etishi, erkka erishtirishi mumkinligi g‘oyasi bilan shu qadar uyg‘unlashganki, bu muxammasning yaxlit badiiy-estetik kompozitsiyasini yuzaga keltirgan.

*Aqrabolar – ko‘z ochiq, dunyoi dun foniy biling,
El uchun, Alloh uchun, jonni tiling, tanni tiling,
Kelingiz, ul kun o‘tdi, qullik asirlikni tiling,
Kelingiz, yoshlar, ziyolilar bu kun g‘ayrat qiling,
Uxlag‘onlarni agar Qodir esak uyg‘otamiz [2:254].*

Rauf Parfi muxammasda xalqning ilmsizligi, jamiyatning davr mafkurasi ostida milliy o‘zlik va Vatanga sadoqat, muhabbat hislarini unutilib yuborganligini yaqqol ochib bergan. I.Haqqulov o‘rinli ta’kidlaganidek: “Rauf Parfiday shoir san’atkorlarning dunyoga kelishini adabiyot asrlar mobaynida orzu qiladi va kutadi...Bir orif adib darveshlik – olovdan ko‘ylak kiyish, deydi. Agar tab’ir joiz bo‘lsa, Rauf Parfi egnidagi “olov ko‘ylak”ni yechmay she’r yozib o‘tgan shoirimizdir. Shuning uchun uning ruhiy dunyosi va holatlari kabi she’rlarini anglash ham osonmas. U she’riyatning xolis, shaxsiy hayotni unutar darajadagi sodiq muhibi edi” [5:252]. Shuningdek, Rauf Parfi Abdulla Qodiriydan so‘ng bu mavzuga qo‘l urib, nega aynan shu she’rga muxammas bog‘ladi, degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Chunki ilmsizlik oqibatida haqiqiy iste’dod egalariga ma’naviy-ruhiy bosimlar XX asrning oxirlarida ham tugamagan, jamiyatimizda o‘zining keng ildizlarini yoyib ulgurgan edi. Abdulla Qodiriy g‘azalidagi g‘oya millat dardini yelkasiga olgan haqiqiy iste’dod egasi Rauf Parfi uchun umumiy dard, mushtarak mavzu edi.

Xulosa va takliflar. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotiga Abdulla Qodiriydek noyob iste’dodning kirib kelishi buyuk bir hodisa bo‘lganidek, Rauf Parfiday shoirning bu mavzuga qo‘l urib, unga qaytishi bejiz emasdi. Rauf Parfini millat qayg‘usi, yurt ravnaqi, inson taqdiri bezovta qilardi. Shoir she’rlaridagi tuyg‘ular va obrazlar tasvirida originallik, so‘z tanlashda individuallik, biror-bir ijodkorda uchramaydi. Shoir bu taxmisi orqali xalqning ilmi bo‘lishi, milliy o‘zligini anglashi, erk, hurlik tushunchalarining xalq ong-u shuuri, real hayotida aks etishi istagini ifodalagan. Rauf Parfi she’rda inson qalbiga yetib boruvchi so‘zlarni, takror, o‘xshatish, nido, sifatlashlarni qo‘llash orqali ko‘r-ko‘rona emas, balki ilm orqali islom dinining haqiqiy mohiyatini insonlar qalbi va amaliga singdirish, halol va haromni farqlash, turli nopok illatlardan hazar qilish kabi umuminsoniy, axloqiy-estetik g‘oyalarni aks ettirgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. –Тошкент: O‘zbekiston, 2008.
2. Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. –Тошкент: Muharrir, 2013.
3. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. –Тошкент: O‘qituvchi, 2012.
4. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. –Тошкент: Akademnashr, 2018.
5. Ҳаққул И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. –Тошкент: Тафаккур, 2019.

O‘ZBEK TILI FONETIKASIDA TOVUSHLAR TASNIFINING TAKOMILLASHISHI

FURQAT NURMANOV,

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
TMC instituti*

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tili fonetikasi tovushlar tizimi tasnifining tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fonetika, unli va undosh tovush, tasnif, nutq a‘zolari, artikulyatsiya, kombinator o‘zgarish, jarangli, jarangsiz.

Аннотация: в данной статье рассматривается историческое развитие и современные этапы классификации звуковой системы фонетики узбекского языка.

Ключевые слова: фонетика, гласные и согласные звуки, классификация, части речи, артикуляция, комбинаторное изменение, звонкие, глухие.

Annotation: this article examines the historical development and modern stages of the classification of the sound system of phonetics of the Uzbek language.

Keywords: phonetics, vowels and consonants, classification, parts of speech, articulation, combinatorial change, voiced, voiceless.

Kirish. Tilshunoslik fani rivojining ma’lum davriga qadar nutq tovushlari fonetika bo‘limida o‘rganilib kelingan bo‘lsa, bu soha taraqqiyotining navbatdagi bosqichida tadqiqotlar ko‘lami kengayib borishi natijasida fonologiya, fonosemantika, fonostilistika, fonopragmatika singari yangi sohalari vujudga keldi. Fonetik tadqiqotlarning tobora chuqurlashib borishi barobarida ushbu sohalarning tadqiqot ob’ekti, maqsad va vazifalari ham konkretlashdi.

Masalan, har qanday tovushning fizik-akustik tabiati va biologik asosi borligidan, nutq tovushi esa faqat insonlar tomonidan talaffuz etilishi va eshitilishidan, ya’ni uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib, fonetikaning o‘rganish obyekti sifatida belgilandi hamda ularni akustik-fiziologik (tovushning baland-pastligi, intensivligi, tembri, qisqacha‘ziqligi), anatomik-fiziologik (tovushlarning shakllanishida nutq a‘zolarining ishtiroki), eshitib his qilish (perseptiv) aspektlarini tadqiq etish maqsad qilib qo‘yildi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslik tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda til va uning strukturasi, davr taraqqiyoti natijasida til sohaslarida yuz bergan o‘zgarishlar hamda zamonaviy tilshunoslik shakllanishi uchun asos bo‘lgan jihatlarining nazariy asoslari bayon qilingan.

O‘zbek tilshunosligining shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti va tavsifi, manbalarga ko‘ra, uzoq qadimiy tarixga ega.

Turkiy tillarning o‘ziga xos lingvistik xususiyati, faqat shu tilning o‘ziga xos jihatlari xalifalik davrlari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshq.)da,[1] Qoraxoniylar davri (Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamxshariy va boshq.)da,[2] Temuriylar davri (Alisher Navoiy, Zahiridin Muhammad Bobur)da,[3] xonliklar davri (Abulg‘oziy Bahodirxon) da,[4] sho‘rolar davri(Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat) da,[5] mustaqillik yillaridagi ilmiy adabiyotlarda teran tavsiflangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik tarixida qadimgi hind tilshunoslari birinchilardan bo‘lib unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg‘aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya, cho‘ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik - artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta’siri bilan o‘zgarishi (kombinator o‘zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e’tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion - fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a’zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta’siridan, ya’ni tegishidan undoshlar hosil bo‘lishini qayd etganlar [6;11].

Hind tilshunoslari tovushlar tasnifida fiziologik tamoyilga asoslandilar. Shuning uchun tovushlar artikulyatsiyasi haqida aniq ma’lumot berdilar. Hind tilshunosligi g‘oyalari turli mamlakatlarga tarqalgan va tilshunoslik fanining shakllanishi hamda ravnaq topishiga zamin yaratgan.

Antik davrning buyuk olimi Aristotelning “Poetika” (Poeziya san’ati haqida)[7] asarida fonetikaga oid ilk ma’lumotlar kuzatiladi. Asarning “Til va fikr” (XIX fasl), “Nutq bo‘laklari” (XX fasl) kabi fasllari bevosita fonetikaga oid qarashlarni o‘z ichiga oladi. Asarda inson nutqi harf, bo‘g‘in, bog‘lovchi, ism, fe’l, a’zo, kelishik va gaplardan tashkil topishi bayon qilinadi. Arastu nutq bo‘laklarining eng kichigi harf bo‘lib, u bo‘linmas tovush ekanligi, ammo har qanday tovush harf bo‘la olmasligini ta’kidlagan.

Harflar, Arastuning fikricha, unli, undosh va unsiz turlarga bo‘linadi. Avvalo, undosh va unsizlar tilning ishtirok etish-etmasligi belgisiga ko‘ra, unlilarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Undosh va unsizlar talaffuzida til ishtirok etsa, unlilar talaffuzida ishtirok etmaydi. Zanonaviy o‘zbek tili fonetik tizimi tadqiqotlarida unli tovushlar tasnifi maslasida yangicha yondashuvlarni uchratamiz. Bu ham jamiyat taraqqiyoti bevosita til tizimiga ta’sir etishining bir ko‘rinishidir.

O‘z navbatida, undosh va unsizlar ham unning qatnashish-qatnashmasligi belgisiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Til ishtirok etib, faqat shovqindan iborat bo‘lgan

harflar undosh (masalan, p, k kabi), shovqinga jarang qo'shilgan harflar unsiz (masalan b, g kabi) hisoblanadi.

Arastuning tovush, bo'g'in haqidagi fikrlari tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Fonetika masalalariga alohida ahamiyat bergan yunon faylasuflari tovushlarni izohlashda akustik tamoyilga amal qildilar. Ularni unli va undosh tovushlarga bo'ldilar. Unlilar cho'ziq va qisqa unlilarga ajratildi. Dionisiy cho'ziq unlilar, diftonglarni ham farqlaydi [8;12].

Hind va yunon tilshunosligi yutuqlaridan arablar o'z tillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanganlar. Ular yunon tilshunoslaridan farqli, fonetika masalalariga g'oyat sezgirlik bilan munosabatda bo'lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, qat'iyon farqlaganlar. Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, undoshni *mohiyat*, unlini esa *o'tkinchi* deb ta'riflaganlar. Ular hindlar kabi, tovushlarni akustik va fiziologik belgilariga ko'ra farqlaganlar. Nutq a'zolari sifatida og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va bo'g'iz hisoblangan. Nutq tovushlarini hosil qilishda bo'g'iz, til, tanglay, milk, tish, lab xizmat qilishi ta'kidlangan.

Ma'lumki, til tovushlar tizimi, uning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti fonetika bo'limida o'rganiladi. Tilshunoslikning bu bo'limi tilni o'rganishning dastlabki bosqichi sanaladi, shu bilan birga ma'lum davrlarda tovushlar tizimi qonuniyatlari va ulardagi o'zgarishlarni to'g'ri anglashlashga yordam beradi.

Garchi tarixiy manbalarda til fonetikasi alohida tadqiqot sifatida tavsif etilmagan bo'lsa-da, matn, uning g'oyasi, mazmuni, ifoda maqsadi, lug'aviy, morfologik hamda sintaktik shakllar etimologiyasi uning tovushlar tizimi orqali izohlangan. Shuning uchun til fonetikasiga murojaat juda qadimdan boshlanib, u asosan nutq tovushlarini o'rganishga qaratilgan. Bu o'zbek tiliga ham mansub. Unda dastlabki xatlarni yaratish, yozuvlardagi ayrim harflarda berilgan tovushlarni tavsiflash bahonasida berilgan fikrlar bor. Tilshunos Q.Sodiqov yozma yodgorliklarning sahifalarida, hoshiyalarida ayrim nutq tovushiga berilgan tavsiflar ro'yxatini o'z asariga kiritgan [9;102]. Shunga o'xshash ayrim tovushlar tavsifi M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" lug'atida ham uchraydi [10;50].

O'zbek tili vokalizmi va konsonantizmining anatomik-fiziologik, akustik va lingvistik-funksional jihatlarini tadqiq etishga, shu asosda ularning fiziologik va akustik tasniflarini yaratishga hamda fonologik xarakteristikasini berishga doir A.Mahmudov, F.Abdullayev, S.A'zamov, S.Otamirzayeva, Sh.Shoabdurahmonov, A.Abduazizov, H.Yo'ldosheva, A.Ishayev, S.Rizayevlar kabi tilshunos-fonetistlarning o'zbek tili unli va undosh tovushlarini, shuningdek, bo'g'in strukturasi eksperimental tadqiqiga bag'ishlangan xarakterli tadqiqotlari yaratildi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetik sathi bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi atamalar, ularning qo‘llanilishi masalasi ham doimo dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Sh.Rahmatullaevning ovoz tovush (unli), shovqin tovush (jarangsiz undosh), ovozli tovush (jarangli undosh), ovozdor (sonor) tovush kabi atamalardan foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman, atamalarining har xil bo‘lishi, tabiiyki, o‘quvchi, talabalarimizni qiynab qo‘yadi[11;12].

Ko‘pchilik adabiyotlarda unlilar tasnifi quyidagi jadvallar tarzida beriladi:[12;53] (1-jadval)

№	Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra	Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga va lablarning ishtirokiga ko‘ra	
		Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan
1.	Tor unlilar	i	u
2.	O‘rta keng unlilar	e	o‘
3.	Quyi keng unlilar	a	o

(2-jadval)

Lablarning ishtirokiga ko‘ra	Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra		Tilning vertikal harakatiga ko‘ra (rezonator hajmi)
	old qator unlilari	orqa qator unlilari	
Lablanmagan unli	i		Tor unli
Lablangan unli		u	
Lablanmagan unli	e		o‘rta keng unlilar
Lablangan unli		o‘	
Lablanmagan unli	a		keng unlilar
Lablangan unli		o	

Sh. Rahmatullayev hozirgi o‘zbek adabiy tili unlilarining tasnifini quyidagi jadval shaklida beradi:

Til lablanmagan		U	til orqa lablangan	tor
	I			Tordan kengroq
		O‘		O‘rtadan tor
	E			O‘rtadan keng
		O		Kengdan torroq
	A			Keng

Maktab, AL va KHK, oliy o'quv yurtlari o'quvchi va talabalari, o'zbek tilini mustaqil o'rganuvchilar uchun chop ettirilgan o'quv qo'llanma hamda darsliklarda o'zbek adabiy tili unli va undosh tovushlari uch jihatiga ko'ra tasniflanadi.

Tilshunos M.Mirtojiyevning tadqiqoti o'zbek tili nutq tovushlarining eksperimental tahlillar asosida tasnif etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Turkiyshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida fonetikaga oid masalalarini tadqiq etish, o'rganish masalasi ham qadim tarixga ega. Bu masalalarning ilmiy asoslanishida Abu Ali ibn Sinoning umumiy fonetika masalalariga bag'ishlangan "Nutq tovushlari hosil bo'lishining sabablari" risolasi, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", A.Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" kabi asarlari soha tadqiqida alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi davrlarga kelib Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbek, Qayum Ramazon kabi tilshunos olimlar tovushlar tizimining o'rganilishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy qarashlari keyinchalik o'zbek tilshunosligidagi bu tizimning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XX asrning ikkinchi yarmi va undan keyingi davrda fonetika va fonologiya masalalarining tadqiqiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek tili fonetikasining bu davr oralig'idagi taraqqiyoti o'zbek adabiy tili vokalizmi va konsonantizmining anatomik-fiziologik, akustik va lingvistik-funksional jihatlarini tadqiq etishda A.Mahmudov, F.Abdullayev, S.A'zamov, S.Otamirzayeva, Sh.Shoabdurahmonov, A.Abduazizov, S.Rizayev, H.Yo'ldosheva, M.Mirtojiyev, H.Jamolxonov kabi tilshunos-fonetistlarning o'zbek tili unli va undosh tovushlarini, shuningdek, bo'g'in strukturasi eksperimental tadqiqiga bag'ishlangan xarakterli tadqiqotlari yaratildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шаҳри. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993; Абу Райхон Беруний. Избранные произведения. Т.1. – Тошкент, 1974; Абу Али ибн Сино. Фонетика ҳақида рисола / Нашрга тайёрловчилар А. Маҳмудов. Қ.Маҳмудов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Т.I – III. – Тошкент: Фан, 1960 – 1963; Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. – Тошкент: Фан, 1971.
3. Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1996; Назарова Х. Бобур ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1971.
4. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992
5. Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971.; Босимов Б. Абдулла Авлоний. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.; Қурбонова М. Фитрат - тилшунос. - Т., 1996.
6. Расулов Р.Умумий тилшунослик. -Тошкент,2010.

7. Аристотель. Поэтика, адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1980.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. Тошкент: “Академнашр”, 2012.
9. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент: Фан, 2006.
10. Кошгарий М. Девону луготит турк. Т.І. -Тошкент: Фан, 1960.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.- Toshkent: Universitet, 2006.
12. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Талқин, 2005.

QUR’ONI KARIMDA “OILA” KONSEPTI BILAN BOG’LIQ AYRIM MASALALAR IZOHI

OZODA ANORQULOVA,

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida diniy-ma’rifiy adabiyot tahlili bilan bog‘liq ayrim masalalar, islom olamining muqaddas kitobi sanalgan Qur’oni karim sura va oyatlarida “oila” konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar tahlilga tortilgan. Unga ko‘ra oilaning muqaddas ekanligi, uni tashkil qilishda nikoh, mahr, mahram kabi qoidalarining amal qilish tartibi batafsil yoritib berilgan. Shariatda oila halol yo‘l bilan qurilishi, unga sadoqat, adolat, mehr-muruvvat bilan munosabatda bo‘lish, nikoh qonun-qoidalariga qat’iy amal qilish bilan bog‘liq buyruqlar ham asosli tarzda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekcha diniy matnlar, Qur’oni karim, nikoh, mahr, mahram, mahram ayollar, mahram erkaklar, idda, taloq, farzand.

Аннотация. В данной статье анализируются некоторые вопросы, связанные с анализом религиозно-просветительской литературы в узбекском языкознании, понятия, связанные с понятием “семья” в Суре и аятах Корана, считающегося священной книгой исламского мира. В нем подробно описывается святость семьи, порядок действия таких правил, как брак, приданое, приданое при ее организации. В шариате также обоснованно прописаны заповеди, касающиеся построения семьи честным путем, отношения к ней с верностью, справедливостью, добротой, строгого соблюдения брачных законов.

Ключевые слова: узбекские религиозные тексты, Коран, брак, Махр, Махрам, Махрам женщины, Махрам мужчины, иdda, талак, дитя.

Annotation. In this article, some issues related to the analysis of religious and educational literature in Uzbek linguistics, the analysis of concepts related to the concept of “family” in karim sura and verses of the Quran, which is considered the Holy Book of the Islamic world. According to him, the sanctity of the family, the procedure for the observance of such rules as marriage, dowry, mahram in its organization are given in detail. In Sharia, orders related to the honest construction of the family, the treatment of it with loyalty, justice, kindness, strict adherence to the laws of marriage are also reasonably illuminated.

Keywords: Uzbek religious texts, Quran karim, marriage, mahr, mahram, mahram women, mahram men, idda, talaq, child.

Kirish. Yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi, xalqimiz milliy qadriyatlarining tiklanishi ijtimoiy hayotda Qur'on g'oyalari va Payg'ambar ko'rsatmalari asosida pokiza yashashga chaqiruvchi diniy matnlarning keng miqyosda taraqqiy etishiga olib keldi. Bu esa diniy matnlar doirasida qaraluvchi bir qator konseptlarni ilmiy tahlilga tortish imkonini yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qayd etish lozimki, sobiq sho'rolar tuzumi davrida islomiy ruhda yozilgan asarlar bilan yaqindan tanishish ma'lum darajada chegaralab qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda Milliy istiqlol sharofati bilan diniy notiqlikka, diniy matnlarning lingvostilistik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Mustaqillik davrida bu borada olib borilgan dastlabki kuzatishlar natijasi sifatida ayrim ilmiy-tadqiqot ishlari maydonga keldi[12].

Diniy ruhda yaratilgan matnlarda tilning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri – ta'sirchanlikning yetakchilik qilishi, nutq qurilishining o'ziga xosligi, badiiy, tasviriy vositalarga boyligiga ko'ra unga oid matnlar ko'pincha badiiy uslub doirasida qaralsada, ular o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Chunonchi islom dinining muqaddas deb tanilgan asosiy kitobi Qur'onning saj' usulida yaratilganligi va unda islom dinining aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy-axloqiy me'yorlari, cheklash hamda ta'qiqlari, Qur'ondan keyingi muqaddas manba – hadislarda Muhammad (s.a.v) hayoti, faoliyati va ibratli ko'rsatmalari badiiy matnlarga xos rivoya usulida berilganligi, umuman, bu turkumdagi matnlarning mohiyat va mazmuni insonlarni ma'naviy yetuklikka va axloqiy poklikka chorlashi kabi omillar diniy matnlarning badiiy matnlarga xos xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, olamning yaralishi, unda inson hayotining boshlanishi haqidagi asosli ma'lumotlar Islom dinining muqaddas kitobi "Quroni karim" oyatlarida belgilab qo'yilgan. Islom olamida oilaga bo'lgan munosabat, uni isloh etish bo'yicha buyruqlar bilan tanishgan holda "oila" konseptining diniy modelini yaratish maqsadi har qachongidanda dolzarb deb hisoblaymiz.

Yer yuzida har bir narsa (oy-quyosh, kecha-kunduz, osmon-yer, erkak-ayol, musbat-manfiy va sh.k.) juft-juft qilib yaratilgan. Ularning barchasi bir-biriga ehtiyoji bor va doim bir-birini to'ldiradi. Mana shu juftliklar natijasida mavjudodlar barqarorlikka erishadilar. Inson nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, erkak o'z jufti halolidan va ayol ham o'z jufti halolidan taskin topadi, ular yolg'izlikda barqaror bo'la olishmaydi. Zero Alloh o'z kitobida shunday marhamat qiladi: *Uning alomatlaridan (yana biri) - sizlar taskin topishlaringiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratishi va o'rtalaringizda inoqlik va mehribonlik paydo qilishidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavm uchun alomatlar bordi*[2]. Ha, Alloh bir-biriga begona, hattoki zid fe'l-atvorli insonlarni ham bir-birini to'ldiradigan darajada juft qilib yaratadi. Ularning birlashishidan oila yuzaga keladi, farzandlar, nabiralar tug'ilib, oila kengayadi va

yangidan-yangi oilalarning barpo bo'lishiga zamin yaraladi. Bu haqda Nahl surasining 72-oyatida shunday buyruq kelgan: *Alloh sizlar uchun o'z'laringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralarni paydo qildi*[9].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Islom dinida oila masalasiga juda jiddiy qaraladi va bunda erkak hamda ayol birdek targ'ib qilinadi. Islomiy ta'limotda oila Olamlar Robbisining roziligiga erishish, islomiy odob bilan oila qurish va pok yo'l orqali naslni davom ettirish maqsadida quriladi. Oila insoniy aloqalarning eng muhim sifati sanalgan nikoh orqali barpo bo'ladi. "Qur'oni karim" kitobida bir qancha suralar tarkibidagi oyatlar aynan oila, nikoh, qarindosh-urug', farzandlar bilan bog'liq masalalarga bag'ishlanganligi¹ yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Islom olamida oilaning asosiy bo'g'inlari erkak va ayol sanaladi, shu o'rinda alohida aytish kerakki, ayollarga bo'lgan munosabat, hurmat takrorlanmas darajada ifodalanadi. Bu borada alohida sura ham nozil qilingan bo'lib, *Niso (ayollar) surasida*, asosan oila, turmush, meros masalalari, yetimlarga munosabat, er-xotin huquqlari, fahsh va zino ishlarining zararlari va boshqa muhim ma'lumotlar o'z aksini topgan: *Ey, imon keltirganlar! Sizlarga xotinlarni majburiy ravishda meros qilib olishlik halol emasdir. Yana, ularga bergan mahrlaringizning bir qismini qaytarib olib ketish niyatida xotinlaringizga tazyiq qilmangiz! Agar ular aniq buzuqlik qilsalar (bu mustasnodir). Ular bilan totuv turmush kechiringlar. Agar ularni yomon ko'rsalaringiz, (bilib qo'yinki,) balkim sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshilik paydo qilar*².

Baqara surasida ham oila bilan bog'liq bir qancha qoidalar keltiriladi: *Mushrika ayollarni, to imon keltirmaganlaricha, nikohingizga olmangiz. Zeo, hur mushrika ayoldan ko'ra imonli cho'ri yaxshiroqdir, garchi u (mushrika) sizlarga yoqimli tuyulsa ham. Mushrik erkaklarga ham, to imon kelturmaganlaricha, (mo'mina qizlarni) nikohlab bermangiz. Zero, hu rmushrikdan imonli qul yaxshiroqdir, garchi u (mushrik) sizlarga yoqimli tuyulsa ham. Ular (mushriklar) do'zaxga chorlaydilar. Alloh (esa) o'z izni bilan jannatga va mag'firatga chorlaydi va eslatma olishlari uchun odamlarga o'z oyatlarini bayon etadi*³. Yoki: *Xotinlaridan qasam bilan voz kechganlar uchun to'rt oy muxlat bor. Agar (shu muddat ichida) qaytsalar (joizdir), zero, Alloh, albatta, kechirimli va rahmlidir*⁴.

Tahlil va natijalar. O'z-o'zidan oila nikoh orqali barpo bo'lishi ochiqdanadi. **Nikoh** so'zi "yaqinlik", "bog'lanish" degan ma'noni anglatadi. Alloh yaratgan

¹ Baqara surasining 221, 223, 226-237, 240-241-oyatlari, Niso surasining 3-4, 19, 25, 34-35, 128-130-oyatlari, Moida surasining 5-oyati, Nur surasining 32-33-oyatlari, Rum surasining 21-oyati, Ahzob surasining 4, 6, 36-38, 49-53-oyatlari, Mujodala surasining 1-4-oyatlari, Mumtahana surasining 10-11-oyatlari, Taloq surasining 1-7-oyatlari, Tahrim surasining 1-5-oyatlari

² Niso surasi, 19-oyat, 80-bet

³ Baqara surasi, 221-oyat, 35-bet

⁴ Baqara 226-oyat, 36-bet

jonzodlar orasida faqatgina insonlar uchun nikoh munosabatlariga ruxsat bor. Qur'onda zikr qilinishicha, nikoh aqdi (nikoh bitimi) bitimlar orasida eng yaxshisi sanaladi. Nikoh orqali ikki shaxs orasi muhabbat bilan bog'lanadi, u farzand ko'rish asosi, xaromdan tiyilish yo'lidir. Dinimizda nikoh "iyjob" va "qabul" ruknlaridan tashkil topgan bo'lib, *farz, vojib, sunnat, harom, makruh* kabi hukmlarga bo'ysunadi.

Nikohning shariatga mos bo'lishida 3 ta shartga bo'ysuniladi: 1) ikki tomonning biridan taklif, ikkinchisidan qabul qilish ochiq so'zlar bilan izhor etilishi (Iyjob va qabul). *Ey, imon keltirganlar! Sizlarga xotinlarni majburiy ravishda meros qilib olishlik halol emasdir* (Niso surasi, 19-oyat, 80-bet); 2) Nikoh jarayonida ikkita erkak guvohlarning bo'lishi; 3) erning xotiniga beradigan mahr miqdori aniqligi[1]: *Xotinlarga mahrlarini mamnunlik bilan beringiz! Agar sizlarga o'zlari undan biror narsani ixtiyoriy ravishda kechsa (bersa)lar, sizlar uni bemalol, ishtaha bilan tanovul qilaveringizlar.*(Niso surasi, 4-oyat).

Mazkur shartlardan tashqari oila va nikohning mustahkam bo'lishi uchun kafoatga amal qilish lozim, *kafoat* qo'shimcha shart bo'lib, u nikohlanayotganlarning ijtimoiy, moddiy, ma'naviy tomondan bir-biriga mos va teng bo'lishidir: *Nikoh (uchun) lozim mablag' topa olmagan kishilar - to Alloh ularni o'z fazli bilan boyitguncha - o'zlarini (haromdan, zinokorlikdan) pok tutsinlar!...*(Nur surasi, 33-oyat). Bu tenglik tomonlarning nasl-nasabi, dini, boyligi, kasb-hunari, e'tiqodi kabilarda namoyon bo'ladi.

Mahr nikohning zaruriy shartlaridan sanladi. Islom olamida bu tushunchani "sadoq", "sadaqa", "ajr", "fariza", "nihla"[4] nomlari bilan ham yuritiladi. Xalq tilida esa uni "qalin", "sut puli" kabi iboralar bilan ham atashadi. Mahr – bu ayoning haqqi, uni olgach, nimaga ishlatadi, o'zi biladi, hech kimning mahrda haqqi yo'q: *Agar bir xotinni (qo'yib), o'rniga boshqa xotinni almashtirmoqchi bo'lsangizlar, avvalgisiga garchi uyum-uyum molni (mahr qilib) bergan bo'lsangiz ham, undan biror narsani qaytarib olmangiz. Uni bo'hton va ochiq gunoh bilan olasizmi?!*(Niso surasi, 20-oyat).

Mahr farz amal bo'lganligi sababli, ikki tomon kelishgan holda uni inkor etishga da haqlari yo'q. Ba'zi insonlar ilmsizlikning oqibatida mahrni belgilamasdan turib oila qurishgan. Mana shunday holatlarda ham keyinchalik bo'lsa-da, o'z ayoliga mahrni berishi shart. Mobodo er mahr berishdan oldin vafot etsa, uning merosxo'rlari mahrni ado etishlari shart bo'ladi. Faqatgina mahrni belgilamasdan oilaviy munosabatlar boshlanmasdan erning xotiniga taloq berishida mahr bermaslik mumkin. Demak, mahr oilaning barpo bo'lishidagi muhim shartdir.

Mahram so'zi arabchadan tarjima qilinganda "qarindosh" degan ma'noni anglatadi. U shariatda o'zaro nikoh man etilgan va eng yaqin qarindoshlik aloqasida bo'lgan erkak yoki ayolga tegishli bo'lgan tushuncha. Shunga asosan, mahramlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin bo'ladi.

Nikoh tufayli mahram bo'lganlar:

1. Ota-onaning, ularning ota-onalarining juftlari (o'gay ota-onalar);
2. Farzandlarning juftlari;
3. Qaynona-qaynotalar, ularning ota-onalari (bunday mahramlikda nikohning bo'lishi kifoya);
4. Er-xotinning boshqa oilalaridan bo'lgan farzandlari har ikkala tomon uchun ham mahramdir.

Bu haqda Niso surasining 23-oyatida shunday marhamat qilingan: *Sizlarga (nikohi) harom qilingan (ayollar) - bu onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan "ona"laringiz, emishgan "opa-singil"laringiz, qaynonalaringiz, jinsiy yaqinlikda bo'lgan xotinalaringizning qaramog'ingizda bo'lgan qizlari - jinsiy yaqinlikda bo'lmagan bo'lsangiz, sizlarga gunoh bo'lmas - yana, o'z pushti kamarangizdan bo'lgan o'g'illaringizning xotinlaridir. Ikki opa-singilni qo'shib (nikohlab) olishingiz (ham harom qilindi). Magar ilgari o'tgan bo'lsa (Alloh afv etar). Albatta, Alloh mag'firatli va marhamatli zotdir.*

Nikoh tufayli mahram bo'lgan ayollar:

1. Otaning ayoli, u ayolning onalari, buvilari;
2. O'g'illarning, nabiralarning xotinlari – kelinlar;
3. Xotinning onalari, ota-onalarining onalari, bu ayollar nikoh o'qilishi bilan mahramga aylanadi;
4. O'gay qizlar, o'gay o'g'il-qizlarning qizlari, ya'ni xotinning avvalgi oilasidan bo'lgan qizlari, bunda erkak va ayoning qovushishi bilan mahramlik aloqasi paydo bo'ladi.

Nikoh tufayli mahram bo'lgan erkaklar:

1. O'gay otalar, ularning otalari;
2. Qizlarning, nabira qizlarning erlari (nikoh yetarli);
3. Erning otasi, er ota-onasining otalari;
4. O'gay o'g'illar, o'gay o'g'il-qizlarning o'g'illari[4].

Shariatimizda ayol kishi nomahram erkaklarga o'zini namoyon qilmagan (yuzlarini berkitishmagan), mahramlar oldida esa o'zlarini erkin tutishgan. Bu haqida muqaddas kitobda shunday oyat nozil qilingan: *Mo'minalarga ham ayting, ko'zlarini (nomahram erkaklardan) qo'yi tutsinlar. Va avratlarini (zinodan) saqlasinlar! Hamda ko'rinib turadiganidan boshqa ziynatlarini ko'rsatmasinlar va ro'mollarini ko'kraklari uzra tushirib olsinlar! Ular zeb-ziynatlarini erlari yo otalari, yo erlarining otalari, yo o'g'illari, yo erlarining o'g'illari, yo o'zlarining og'a-inilari, yo og'a-inilarining o'g'illari, yo opa-singillarining o'g'illari, yo o'zlari (kabi) ayollar, yo qo'l ostilaridagi (cho'ri)lar, yo (ayollardan) behojat bo'lgan (ya'ni, juda keksayib qolgan yoki aqlsiz-*

devona) erkak xizmatkor qullar, ayollarning avratlaridan xabardor bo'lmagan go'daklardan boshqalarga ko'rsatmasinlar! Yana, yashirgan ziynatlarini bildirib, oyoqlarini (yerga) urmasinlar! Barchalaringiz Allohga tavba qilinglar, ey mo'minlar! Shoyad, (shunda) iqbolli bo'lsangizlar. (Nur surasi 31-oyat).

Zino. Islom olamida xoh ayol bo'lsin, xoh erkak o'z nikohidagi insonga xiyonat qilishi, nomahramga nisbatan hirs nigoh bilan, hirs so'z bilan munosabatda bo'lishi zinodir.. Zinoning ham darajalari, turlari mavjud. Ushbu so'z arabchadan tarjima qilinganda "buzuqlik", "faxsh" degan ma'nolarni bildiradi[14]. Qur'onda ham zino eng yomon va kechirilmas illatlardan hisoblanadi. Aynan "Nur" surasida ijtimoiy hayotning illatlaridan biri sifatida zinokorlik islom shariati bo'yicha ulkan gunoh sanalishi, u isbotlangan taqdirda bu fahsh ishga qo'l urgan ikki tomonga belgilanadigan jazolar, shuningdek, birovni badnom qilish uchun uyushtirilgan soxta guvohlar o'z da'volarini isbotlay olmagan taqdirda o'zlarining jazolanishi, insonning izzat va obro'sini to'kishdan saqlanishning zarurligi, nikohli turmush qurishning ahamiyati va boshqa muhim masalalar o'z aksini topgan. Mazkur suraning ayrim oyatlarini keltirish bilan cheklanamiz:

Zinokor ayol va zinokor erkakning har biriga yuz darra uringlar. Agar Allohga va oxirat kuniga imon keltiruvchi bo'lsangizlar, Allohning dini (hukmi)da sizlarni ularga (zinokorlarga) nisbatan rahm-shafqat (tuyg'ulari) tutmasin! Ularning jazolanishiga bir guruh mo'minlar hozir bo'lsinlar! ("Nur" surasi, 2-oyat).

Zinokor erkak faqat zinokor ayolga yoki mushrikaga uylanur. Zinokor ayolga faqat zinokor erkak yoki mushrik uylanur. Va bu (ya'ni, zino) mo'minlarga harom qilindi ("Nur" surasi, 3-oyat).

Iffatli ayollarni (zinokor deb) badnom qilib, so'ngra (bu da'volariga) to'rtta guvoh keltira olmagan kimsalarni sakson darradan uringlar va abadul-abad ularning guvohliklarini qabul qilmanglar! Ana o'shalar fosiqlardir ("Nur" surasi, 4-oyat).

Taloq. Oilaning vujudga kelishida nikoh birlamchi vosita ekan, uning buzilishi bo'yicha ham islom olamida qonun-qoidalar bor. Qur'oni karimda nikoh buzilishi taloq orqali amaga oshishi va buning bir qancha qoidalari borligi aytilgan, hattoki alohida "Taloq" surasi ham nozil qilingan. Bundan tashqari, "Baqara" va "Niso" suralarida ham taloq haqida buyruqlar bor: *Taloq ikki martadir. So'ngra (oilani) yaxshilik bilan saqlash yoki chiroyli suratda ajralish (mumkin). Ularga (xotinlaringizga) bergan narsalardan (mahrlaridan) biror narsani qaytarib olishlaringiz sizlarga halol emas, magar (er-xotin) Allohning (oila to'g'risidagi) buyruqlarini bajara olmaslikdan qo'rqsalar (bu undan mustasno). Agar ularning Alloh buyruqlarini bajara olmasligidan qo'rqsalaringiz (eridan taloq olish niyatida) evaz berishida (va erning shu evazni olishida) er-xotin uchun gunoh yo'q. Bu Allohning (belgilab qo'ygan) hadlaridir. Ulardan tajovuz qilmangizlar! Kim Allohning hadlaridan tajovuz qilsa, ana o'shalar*

zolimlardir. ("Baqara" surasi, 229-oyat). Agar uni (uchinchi marta) taloq qilsa, (u ayol) to boshqa er bilan niqohlanmaguncha (va undan ham taloq olmaguncha), unga halol bo'lmaydi. Bas, agar (keyingi er) uni taloq qilsa, (qaraladi,) agar Allohning buyruqlarini bajara olishga ishonsalar, (avvalgi er bilan) turmushga qaytishlarida gunoh yo'qdir. Bular Allohning (belgilab qo'ygan) hadlaridir. Ularni anglaguvchi qavm (odamlar) uchun bayon qilur. ("Baqara" surasi, 230-oyat).

Taloq so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "biror narsaning bog'ichini yechish, bog'lanishni bo'shatish, uzish degan ma'nolarni bildiradi. Shariyatda esa nikohni yechish, uzish ma'nosida qo'llaniladi [13]. Shunday bo'lsa-da, taloq so'ngi chora, biroq sababsiz taloq qilish xarom sanaladi. Islomda taloq muboh ishlarning eng yomoni, nohushidir, shuning uchun ham bir oila buzilsa, Allohning uyi, Arshi larzaga keladi deyishadi. Islom dinida taloqning hasan taloq, ahsan taloq, bid'iy taloq, raj'iy taloq, boin taloq degan turlari bor [10]. Ushbu taloq turlariga qarab oilalar ajraladi yoki isloh qilinadi.

Idda. "Sanash", "hisoblash" ma'nolarini bildiradigan iddat al-mar'a ayollarga beriladigan muxlatni anglatadi [11]. Shariat nuqtayi nazaridan eri vafot etgandan yoki u bilan ajrashgandan so'ng saqlanishi lozim bo'lgan muddatni bildiradi. Idda, avvalo, vafot etgan erning o'ziga, birga o'tkazgan kunlariga hurmat bajo keltirish, shuningdek, xomilador emasligiga ishonch hosil qilish maqsadiga saqlanadi. Ayollarning holatiga qarab 3 oy, 4 oy-u 10 kun kabi muddatlar belgilanadi: *Xotinlarni taloq qilganlaringizda (idda) muddatiga yetsalar, bas, ularni yaxshilik bilan olib qolingiz yoki yaxshilik bilan javoblarini beringiz. Ularga zulm qilib, zararlantirish niyatida ushlab turmang! Kim shunday qilsa, demak, o'ziga zulm qilibdi.* ("Baqara" surasi, 231-oyat).

Demak, Qur'oni karimda "oila" konseptining bir xususiyatini tashkil etadigan nikoh o'z atrofida *mahr, mahram, taloq, idda* kabi tushunchalarni birlashtiradi. Ularning barchasi nikoh, uni hosil qilish, saqlab qolish, bekor qilish, mustahkamlash uchun xizmat qiladigan qoidalardan tashkil topgandir. Quyida oilaning boshqa jihatlariga ham to'xtalib o'tamiz.

Farzand. Oilaning mustahkamligi, avlodning davomiyligini ta'minlovchi Yaratgan tomonidan in'om etiladigan ne'mat farzanddir. Qur'oni karimda Alloh O'zi istagan kishisiga farzand ato etishi ta'kidlangan: *Osmonlar va Yerning hukmronligi Allohga (xos)dir. U O'zi xohlagan narsani yaratatur. U O'zi xohlagan kishiga qizlarni hadya etur va O'zi xohlagan kishiga o'g'illarni hadya etur.* ("Sho'ro" surasi, 49-oyat). *Yoki ularga o'g'illar va qizlarni qo'shib berur va O'zi xohlagan kishini tug'mas (bepusht) qilib qo'yur. Albatta, U (barcha narsani) biluvchi va (o'zi xohlagan narsani yaratishga) qodirdir.* ("Sho'ro" surasi, 50-oyat).

Oila qurilishidan oldin erkak kishining oldida farzandi uchun muhim bo'lgan vazifa – unga to'g'ri ona tanlash turadi []. Sababi, onaning jismonan va ma'nan

sogʻlomligi kelgusi avlodning sogʻlomligiga koʻp jihatdan bogʻliq. Oila qurilgach, ota-ona Allohdan solih va sogʻlom farzand tilashi lozim. Farzandli boʻlganda esa unga shukr qilishi, suyunishi va darhol Allohga hamd aytishi joiz boʻladi: *U (Alloh) sizlarni bir jondan yaratib, undan uning juftini unga (uylanib) taskin topishi uchun paydo qilgan zotdir. Unga yaqinlik qilgach, u (Havvo) yengil homilali boʻldi va u bilan (bir muddat) yurdi. (Yuki) ogʻirlashganda, har ikkisi (Odam va Havvo) Rabbilari (boʻlmish) Allohga duo qilib: "Agar bizga solih (farzand) bersang, albatta, shukr qiluvchilardan boʻlajakmiz" (dedilar). ("A'rof" surasi, 189-oyat).*

Farzandlarning taʼminoti otaning vazifasi oʻlaroq, onalarning zimmasida uni parvarishlash, chiroyli va toza kiyintirish, odob-axloq oʻrgatish va kabilar kiradi. Farzandli boʻlgan onaning galdagi vazifalaridan biri bolasini emizish, agar qodir boʻlmaganda ota tomonidan sut onalarning topilishi va taʼminlanishidir: *Onalar bolalarini toʻla ikki yil emizdilar. (Bu hukm) emizishni kamoliga yetkazishni istovchilar uchundir. Ularni (onalarni) meʼyorida oziqlantirish va kiyintirish otaning (erning) zimmasidadir. Hech kimga toqatidan ortiq (masʼuliyat) yuklanmaydi. Bolalari tufayli ota ham, ona ham zarar koʻrmasin! Meʼrosxoʻrning zimmasida ham xuddi shunday (masʼuliyat) bor. Agar ota-ona oʻzaro kelishib, maslahat bilan (Bolani sutdan) ajratmoqchi boʻlsalar, gunohkor boʻlmaydilar. Agar bolalaringizni (begona ayolga) emizdirmoqchi boʻlsangiz, haqqini meʼyorida toʻlab tursangiz, gunohkor boʻlmaysiz. Allohdan qoʻrqingiz va bilingizkim, albatta, Alloh qilayotganishlaringizni koʻrib turuvchidir. ("Baqara" surasi 233-oyat).*

Xulosa va takliflar. Xullas, farzand tugʻilgandan keyin xursandchilik qilish, razoʻ (emizish) qoidalariga amal qilish, qulogʻiga azon aytirish, tahnik qilish (bizda tanglay koʻtarish deyiladi), unga chiroyli va munosib ism qoʻyish, sochini olish, aqiqa qilish, oʻgil bolani sunnat qilish, goʻzal tarbiya berish, ilm-hunar oʻrgatish, pok imonli qilish, odob-axloqli qilish kabi nozik vazifalar ota-onalar tomonidan oʻrgatiladi. Albatta, bunda nasliy zehnlilik oilaviy barqaror muhit muhim rol oʻynaydi. Farzandlar tomonidan esa ota-ona haqini unutmaslik, ularga umrbod yaxshilik qilish, ularga oq boʻlishdan saqlanish, qarindosh-urugʻlarga sillayi rahmli boʻlish, odob saqlash, neʼmatlarni isrof qilmaslik, yaxshilikni targʻib qilish va amalda boʻlish, ustoz, qoʻshni, doʻst haqiga xiyonat qilmaslik kabi koʻplab fazilatlarga ega boʻlishlik buyuriladi.

Xulosa qilish mumkinki, har bir kichik oilada ham sevgi, quvonch, sabr-qanoat, tinchlik, rahm-shafqat, muloyimlik, imon, oʻz-oʻzini jilovlash, tiyilish, fidoyilik, kechirimlilik, zaiflik va kamchiliklarga yumshoqlik fazilatiga ega insonlar boʻlsa, ular oilaviy bayramlar, urf-odatlar hamda qadriyatlarga sodiqlik ruhida hayot kechirsa, xaromdan saqlansa, zinoga yaqinlashmasa, meros taqsimotida adolatli boʻlsa, oʻzgalar haqini, jumladan, qoʻshnilar, ustozlar haqini toʻla ado etsa, ana shunday oilalar jamiyatning taraqqiyotiga asos boʻla oladi.

FOYDANALILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2018. – 460 b. – B.13.
2. Qurʼon qissalari: Pайғамбарлар qissalari / таржимон А.Шоший. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016./ Б. 247.
3. Маҳмудов Қ., Мансуров Й. Имом Доримий. (“Мутафаккирлар” илмий-оммабоп рисолалар туркуми) / Таҳрир ҳайъати: У.Алимов ва бошқалар. – Тошкент: “Тафаккур”, 2010. – Б. 96.
4. Муҳаммад А. Ислом дини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. -272 б. 192-б.
5. Муҳаммад А., Жуман М.Ш. Ислом дини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 272.
6. Муҳаммадиев О., Жўраев О. Имом Бухорий – муҳаддислар султони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 152.
7. Раҳимжонов Д. Имом Бухорий ва Насаф ҳадис илми мактаби. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2000. – № 2. – Б. 91-93.
8. Раҳматова М. Қуръони каримда “гўзаллик” концептининг когнитив ифодаланиши // БухДУ илмий ахбороти. Бухоро,2018, №2. –Б.101-102.
9. Суютий Ж. Лубобул ҳадис. /Таржима ва шарҳлар муаллифи Олимхон Исахон ўғли. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2018. Б. 328.
10. Ўринбоев Б. Сўфизм атамалари луғати.-Самарқанд:1998, - 128- б.
11. Ҳакимов Д. Ҳозирги ўзбек адабий тилида исломий лексика. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон. – 64-68 бетлар.
12. Ҳасан Б. Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. – Тошкент, 1995. – 17-б.
13. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. – Т.: “Ҳилол-Нашр”, 2018. – Б.528.
14. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Одоблар хазинаси. - Тошкент: Шарқ, 2011. – Б. 527.



URF-ODAT IFODALOVCHI LEKSEMALARDA TABU VA EVFEMIZMLAR



GULSANAM NOROVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),

Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Urf-odat ifodalovchi soʻzlarning ifoda xususiyatlari, urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizlarning ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Tabu va evfemizm turkiy xalqlar keng foydalanadigan leksik qatlam boʻlib, u insoniyat jamiyati shakllanayotgan davrda individ xatti-harakatini jamoa manfaatlariga boʻysundirish ehtiyoji bilan bogʻliq ravishda kelib chiqqan boʻlishi mumkin. Jamiyat taraqqiy etgan sari Tabuning bir qismi odat huquqiy meʼyoriga aylangan, koʻpchiligi esa dinga taqiq sifatida kiritilib, uni buzish gunoh hisoblangan. Evfemizm esa soʻzlovchiga aytish noqulay, no oʻrin yoki qoʻpol tuyulgan soʻz va iboralarning sinonimi sifatida paydo boʻlgan soʻzlar. Bu ilmiy maqola asnosida oʻzbek va ozarboijon tillarida ularning qoʻllanish doirasi haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: lisoniy imkoniyat, lingvistik ekspertiza, muloqot madaniyati, tabu, evfemizm.

Аннотация: Рассматривались особенности выражения обрядовых слов, табу и эвфемизмы в обрядовых лексемах. Табу и эвфемизм-это лексический пласт, широко используемый тюркскими народами, который, возможно, возник в связи с необходимостью подчинения поведения индивида интересам сообщества в период становления человеческого общества. По мере развития общества часть табу становилась правовой нормой обычая, а большая часть вводилась в религию как запрет, нарушение которого считалось грехом. С другой стороны, эвфемизмы-это слова, которые кажутся синонимами слов и фраз, которые говорящему неудобно говорить, неуместно или грубо. В этой научной статье рассказывается о сфере их применения в узбекском и азербайджанском языках.

Ключевые слова: языковая возможность, лингвистическая экспертиза, культура общения, табу, эвфемизм.

Annotation: The expressive features of tribal expressions have been reflected on the representation of taboos and euphemisms in traditional lexemes. Taboo and euphemism are a lexical layer widely used by Turkic peoples, which may have originated in connection with the need to subjugate individ behavior to the interests of the community during the formation of human society. As society progressed, part of the taboo became the legal norm of custom, while many were included in religion as prohibitions, and it was considered a sin to break it. Euphemism, on the other hand, is words that appear as synonyms for words and phrases that seem uncomfortable, inappropriate, or offensive to the speaker. As part of this scientific article, Uzbek and Azerbaijani languages talk about their scope of application.

Keywords: linguistic opportunity, linguistic expertise, culture of communication, taboo, euphemism.

Kirish. Jahon tilshunosligida lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqda qo‘llanishi va ma‘no-vazifa xususiyatlarini ochib berishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Muloqot madaniyati, amaliy tilshunoslik, lingvistik ekspertiza kabi amaliy tilshunoslik sohalari salmog‘i kun sayin oshib bormoqda.

Bu dunyo miqyosida texnik-texnologik taraqqiyot natijasida ma‘naviyat muammosi dolzarblashayotganligi, mazkur muammolar yechimi markazida shaxsning nutq madaniyati, muloqot salohiyatini rivojlantirish turganligi, tilga ma‘naviyatni yuksaltiruvchi vositalardan biri sifatida munosabatda bo‘lish kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu sababli tilning boy va go‘zal ifoda imkoniyatlaridan biri bo‘lgan tabu va evfemizmlar rolini kengaytirish ijtimoiy ehtiyojga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida til hodisalarining shakllanish omili, etimologik manbai, ma‘noviy guruhi, funksional jihati, milliy-mental xususiyatlari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tabu va evfemizmlarni ham ortologik hodisa va madaniy muloqot vositasi sifatida gender, ijtimoiy, pragmatik, lingvomadaniy hamdalingvoma‘naviy, leksikografik jihatdan chuqur o‘rganishga imkoniyat yaratdi. [1]. Tabu va evfemizmlarni har tomonlama o‘rganish XX asrning 60-80-yillaridan boshlangan. Tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari rus va xorijiy tilshunoslar J.Eytoning “Evfemiyazmlar”, “Tabu va evfemizmlar leksikasining inglizcha-ruscha lug‘ati” [2], M.Kasevaning “Til tabu va evfemiyasi” [3], B.A.Larinaning “Evfemizmlar haqida” [4], S.Vidlaksaning “Til nazariy maydoni fonida evfemizmlarning roli” [5], o‘zbek tilshunosi N.Ismatullayevning “Zamonaviy o‘zbek tili efemizmlari” [6] nomli ishlarida o‘rganilganligini belgilash mumkin.

Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi keng tadqiq qilingan. L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin evfemizmi tarixiy nuqtai nazardan qadimiy tabu asosida o‘rgangan. Rus tilida evfemizmlashuvning vosita va maqsadlarini tasvirlash bilan L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, Y.P.Senichkina shug‘ullangan. A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Y.S.Baskova va Y.O.Miloyenko dissertatsiyalarida ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning xususiyatlari, G.A.Vildanovanning ingliz tili evfemizmlarining gender jihatlarini atroflicha yoritgan, N.Baskakov esa oltoy xalqlari tillaridagi evfemistik nominatsiyalarning muammolarini ochib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tillarning geneologik va morfologik qurilishlariga bog‘liq ravishda har bir tilda tabulashgan va evfemik ma‘no fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik, paremiologik va noverbal vositalar bilan ham ifodalanadi, evfemik ma‘noning namoyon bo‘lishida situativ-pragmatik va ijtimoiy omillar mazkur lisoniy vositalar bilan yaxlitlik hosil qiladi.

Tabu (polinezcha – taqiqlash) – 1) ibtidoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda tarqalgan taqiqlash tizimi. Tabuning eng mukammal ko‘rinishi Polineziyaaa saqlangan. Bu so‘z aslida Polineziyada paydo bo‘lib, dastlab mashhur ingliz dengiz sayyohi J.Kuk tomonidan Yevropaga ma’lum qilingan va bayon etib berilgan.

Polineziya xalqlari diniy e’tiqodlariga ko‘ra, har bir inson tug‘ilishi bilan qudratli g‘ayri tabiiy kuch – “mana”ga ega bo‘ladi.“Mana” juda xavfli bo‘lib, birovga tegsa o‘lim keltirishi mumkin.U tabaqalarga qarab har xil kuchga ega, qullarda “mana” bo‘lmagan, ammo aksincha, buyuk sardorlar qudratli "mana" egasi hisoblangan.“Mana” tushunchasi “tabu” so‘zi bilan bevosita bog‘liq. Nimaiki “mana” egasi bo‘lsa, o‘sha narsa xavfli, ya’ni unga tegish man qilingan – Tabu qo‘yilgan.

Polineziya xalqlarida juda keng tarqalgan tabu tizimini kim buzsa, rioya qilmasa qabila boshliqlari, zodagonlar tomonidan qattiq jazolangan. Shuningdek, o‘sha davr tasavvurlariga ko‘ra, tabuni buzgan odamning g‘ayri tabiiy kuchlar, ruhlar, xudolar kasallik yoki o‘lim bilan jazolaydi, deb tushunilgan. Orolliklarda xudo va ruhga, kohin va kabila boshliqlariga aloqador bo‘lgan hamma narsa tabulashtirilgan. Tabu tizimi jamiyatda tabaqalanishni ifodalagan. Tabu obyektlari – buyumlar, so‘zlar, hayvonlar va boshqa bo‘lishi mumkin. Aksariyat tabular moddiy buyumlarga taalluqli bo‘ladi [7].

Tabu insoniyat jamiyati shakllanayotgan davrda individ xatti-harakatini jamoa manfaatlariga bo‘ysundirish ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Tabu urug‘chilik jamiyatida inson hayotining muhim tomonlarini, avvalo nikoh me’yorlariga rioya qilinishi (masalan, urug‘ ichida jinsiy aloqalarning taqiqlanishi)ni tartibga solgan. Jamiyat taraqqiy etgan sari tabuning bir qismi odat huquqiy me’yoriga aylangan, ko‘pchiligi esa dinga taqiq sifatida kiritilib, uni buzish gunoh hisoblangan.

Hozirgi davrda ham tabuning ba’zi ko‘rinishlarini uchratish mumkin.Tilshunoslikda muayyan so‘zlar, iboralar yoki atoqli otlarni qo‘llashni taqiqlash, man etish. Ibtidoiy davrlarda tabiat hodisalarining sirini bila olmagan inson qo‘rquv uyg‘otadigan sehrli va zararli yovuz kuchlardan, jin, arvohlardan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning yagona chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan.

Ayniqsa, kishi nomiga nisbatan tabu keng tarqalgan. Masalan o‘lganning nomini, dohiy yoki podshohning, ma’budlarning nomini va ba’zi qarindoshlar (qaynота, qaynona, er, qaynog‘a)ning nomini aytish, ularni ovoz chiqarib chaqirish taqiqlangan va bunday atoqli otlar tegishli tavsifiy iboralar bilan almashtirilgan.

Ovlanadigan, tirikchilik manbai bo‘lgan hayvon nomlari, kishini seskantiradigan jonivorlar va boshqa voqea-jarayonlar ham ba’zan tabulashtirilgan. Masalan, chayon so‘zi o‘zbek shevalarida eshak, benom, gazanda, ayriquyruq, beshbo‘g‘in va boshqa nomlar bilan atalgan. Hozirgi tillarda o‘lim haqida, og‘ir kasallik haqida to‘g‘ridan-

to‘g‘ri gapirmaslik, yoqimsiz, noxush narsalarni eslash, eslatishdan qochish odatini ham tabuga kiritish mumkin [8]. Evfemizm (yun. yeirpegsha – yumshoq ifodalash) – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta‘sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me‘yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridanto‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta‘sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, o‘ldi deyish o‘rniga olamdan o‘tdi, ko‘z yumdi, vafot etdi; tug‘di deyish o‘rniga ko‘zi yoridi, yengillashdi kabi iboralardan foydalanish.

Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy-etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me‘yorlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me‘yorlari asosida evfemizmning yangi-yangi shakllari yuzaga keladi.

Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan Evfemizmham mavjudki, ularning ma‘nosi ko‘pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, “*Ra‘noni egasiga topshirmagunimizcha, – dedi Nigor oyim, – quyilmaydiganga o‘xshaydi*” (A. Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan *erga bermoq* iborasi o‘rnida *egasiga topshirmoq* shaklidagi evfemizm qo‘llangan. Evfemizmilmiy va rasmiy uslublarda keng qo‘llanadi.

Lingvistika ilmida tabu va evfemizmlar XIX asrning oxirlaridan boshlab tadqiq etila boshlandi. A.laye tabu va evfemizmlarning lingvistik tomonini o‘rganib, mazkur hodisalarni so‘z semantikasining o‘zgarishi asosida yuzaga kelishini belgilaydi. Tabu va evfemizmlarni har tomonlama o‘rganish faqatgina XX asrning 60-80-yillaridan S.Vidlaka, Dj.Keyni, Dj.Lorenslar tadqiqotlari bilan boshlab berildi. Tabu va evfemizmlar borasidagi ba‘zi munozarali qarashlarga qaramay, tadqiqotchilar ularning nutqiy jarayonda reallishishi borasida yagona ekstralingvistik omillar: nutqiy akt, nutqiy situatsiya sabab, deya talqin etishlarida ularning fikrlari mushtarakligini ko‘rish mumkin. Bunday holda, hodisani o‘rganishning sotsiolingvistik yo‘nalishi ustunlik qiladi [9]. Shuning uchun, evfemizmlar murakkab ko‘p qirrali lingvistik hodisa sifatida uchta o‘zaro bog‘liq omillar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi:

1) ijtimoiy evfemizmlarni yuzaga keltiruvchi: urf-odat, axloqiy va diniy qadriyatlariga ega sotsial-ijtimoiy evfemizmlar;

2) salbiy emotsiyalarni chaqiruvchi, nafratni qo‘zg‘atuvchi leksemalarning o‘rnini bosuvchi asosida nozik argumentlarni atashni ko‘zda tutuvchi ruhiy evfemizmlar;

3) disfemistik iboralarning ko‘payishiga sabab bo‘luvchi aynan lingvistik omilning talabi asosida, ya‘ni qo‘pol so‘zlarning o‘rnini almashtirish zarurati bilan yuzaga keladigan evfemizmlar.

O‘zbek tilshunosligida N.Ismatullayev va A.Omonturdiyevning ilmiy ishlarida evfemizm hodisasi, ularning uslubiy xususiyatlari, chorvador nutqida qo‘llanuvchi evfemizmlarning lingvistik o‘ziga xosliklari maxsus tadqiq qilingan. A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida keng doirada o‘rganib, “O‘zbek nutqining evfemik asoslari”, “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyalarida, “Bir so‘z lug‘ati”, “So‘z qo‘llash san‘ati”, “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati” kabi ishlarida o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

A.Mamatov, Z.Xolmanova, X.Qodirova va D.Rustamovanning ilmiy ishlarida esa frazeologizmlarning shakllanishiga evfemik va disfemik birliklarning ta‘siri, “Boburnoma” asarida qo‘llangan evfemizmlar, mualliflik evfemizmlari hamda evfemizmlarning metaforik xususiyatlari tahlil etilgan [10]. 1980-yillardan keyin chop etilgan tilshunoslikka oid darslik va qo‘llanmalarning so‘zshunoslik hamda uslubiyatga bag‘ishlangan o‘rinlarida evfemizm hodisasi izohlangan. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” darsligida va 1983-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” o‘quv qo‘llanmasida evfemizm hamda kokofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma‘lumotlar berilgan edi. Ammo o‘zbek tilshunosligida urf-odat leksemalarining tabu va evfemistik imkoniyatlari lingvomadaniy, lingvoma‘naviy jihatlari deyarli o‘rganilmagan tadqiqot obyekti sifatida maxsus o‘rganilmagan.

Urf-odat, marosim semali birliklar paremiologik birliklar o‘rtasida ham ko‘p uchraydi. Paremiologik birliklarni guruhlashda “marosim” semali birliklar mikromaydonini tashkil etgan elementlarning mazmuniy differensial belgilariga ma‘lum darajada tayanib ish ko‘riladi. Ya‘ni:

1. Tug‘ilish bilan bog‘liq tushunchalar asosidagi paremlar.

Bunday qurilmalar tarkibida beshik, chilla, beshik to‘yi, sumak, alla singari leksemalar qatnashib, bevosita tug‘ilish davriga bog‘liq ma‘lum marosimlarga ishorakuzatiladi. Masalan: *Beshik bolasi – bek bolasi; Beshikdagi bolaning bek bo‘larin kim bilar; Beshikdagi bola ming turlanadi; Beshikdagiga tegma betingni yular* kabi maqollarda beshik so‘zi qo‘llangan.

Bolasiz xotin sumakka to‘ymas ifodasi Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar tomonidan shunday ta‘riflanadi: “Odatda, xotinlar ko‘zlari yorishidan” oldin chaqaloq uchun zarur bo‘lgan asbob-anjomlarni hoziray boshlaydilar. Aslida esa, mazkur urf-odat tabu va evfemistik xarakteriga ko‘ra, majoziy ma‘noda molga xirsi bo‘lgan, o‘ziga kerak bo‘lmagan narsalarni ham yig‘averadigan odamlarga qarata kinoya tarzida aytilishi tus olgan.

O‘zbeklar urf-odatlarida ayrim holatlarda beshigini tebratish, oq sut berish tarzidagi barqaror birikmalar ham uchrab turadi. Bunday yaxlit qurilmalar ham bevosita urf-odatlarimiz, an‘analarimiz natijasida vujudga kelgan, ya‘ni o‘zbek xalqida tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onaning hurmatini joyiga qo‘yish, uni rozi qilish juda katta ma‘suliyat hisoblanadi.

2. Nikoh bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi urf-odat birliklari asosidagi paremlar [11].

Mazkur ifodalar tarkibida to‘y, kelin, kuyov, quda, qaynana, qaynisingil, qalin va boshqa urf-odat leksemalari denotativ va motivatsiya munosabatiga kirishadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilida nikoh nomi bilan aloqador urf-odat leksemalari asosidagi maqol va matallar ko‘p uchraydi. Ularda xalqimizning azaliy an‘analari, urf-odatlari ma‘lum darajada aks etadi. *Maslahatli to‘y tarqamas; O‘lganiga chidasang, qo‘y qil, yeganiga chidasang, to‘y qil; Osh-otliniki, to‘y-to‘nliniki* singari qator paremiologik birliklarda to‘y leksemasining ma‘nolari doirasidagi “marosim”, “urf-odat”, “ziyofat”, “xursandchilik” kabi semalar kuzatiladi.

3. Motam bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi urf-odat leksemalari asosidagi paremlar.

Ushbu guruhga tegishli tabu va evfemizmlarda aza, janoza, ma‘raka, qa‘da, hayit singari urf-odat leksemalari ma‘lum ma‘nolari orqali ishtirok etadi. Jumladan: *Yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydali; Kimga – to‘y, kimga aza; Azalik joyda odmi bo‘l* tarzidagi paremlarda aza, janoza leksemalariga xos “marosim”, “ko‘pchilikxos”, “motam, qayg‘u” semalar mavjud.

Ma‘rakada topib gapirgan – dono, O‘zini tutib gapirgan ham – dono, Osh ko‘p bo‘lsa, qa‘da ko‘p maqollarida ishtirok etgan ma‘raka, qa‘da leksemalari ma‘nolari tarkibidagi “marosim”, “ko‘pchilikka xos”, “motam, qayg‘u”, “yig‘in” kabi semalar kuzatiladi.

4. Farzand, ota-ona bilan bog‘liq tushunchalar asosidagi urf-odat ma‘nosini ifodalovchi paremiologik tabu va evfemizmlar.

Bunday guruhga o‘g‘il, qiz, ota, ona singari leksemalarning xilma-xil ma‘nolarini aks ettiruvchi paremlar kiradi. Masalan: *Kuyovning xo‘rdasidan –o‘g‘ilning yundisi yaxshi; O‘g‘ilnikini o‘ynab yeysan, qiznikini o‘ylab yeysan; Qiznikida go‘sh t yegandan o‘g‘ilnikida musht yegan yaxshi* kabi qurilmalarda muayyan semalar aks etgan.

Qizni so‘raganga ber, qimizni suvsaganga; Yaxshi yerga bersang qizni, silay-silay sulton qilur, Yomon yerga bersang qizni, ura-ura ul ton qilur qabilidagi maqollar orqali qiz uzatish muammolari, ayrim urf-odatlarimiz sezilib turadi. Qiz leksemasining “farzand”, “yaqinlik”, “jins”, “noziklik” semalari yuzaga chiqqan. Ota-onaning hurmati, ularni ardoqlash an‘analari ham maqollar vositasida ko‘rinadi.

Urf-odat semali birliklar mikromaydoniga mansub lug‘aviy birliklar orasida evfemik vosita sifatida qo‘llanuvchi birliklar ham uchraydi. Bunday vositalar boshqa urf-odatni ifodalovchi lug‘aviy birliklar bilan bir paradigmani tashkil qiladi. Masalan, *o‘lmoq* leksemasi bir tomondan *vafot etmoq, olamdan o‘tmoq, o‘zini topshirmoq, rixlat qilmoq, safar qilmoq, qazo qilmoq, ko‘z yummoq, qaytish qilmoq* singari yuzlab ma‘nodoshlariga, ikkinchi tomondan, *to‘ng‘iz qo‘pmoq, yer tishlamoq* kabi ikkinchi turdagi ma‘nodoshlariga egadir. Bulardan birinchi qatordagilar *o‘lmoq* leksemasi orqali ifodalangan tushunchaning yumshoqroq ifodasi bo‘lsa, ikkinchi qatordagilar uning qo‘pol ifodasi hisoblanadi.

Professor N.Mahmudov evfemistik vositalar borasida so‘z yuritib, ushbu leksema ma‘nosining ifodalanishi to‘g‘risida shunday to‘xtaladi: “Aytaylik, yaqin kishisini yo‘qotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma‘lum. Shunday odamdan ko‘nggil so‘rash, unga ta‘ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda “o‘lmoq” ma‘nosini ifodalash uchun aynan o‘lmoq so‘zini tanlash o‘rinli emas, bu so‘z so‘zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning jo‘yaliligini ta‘minlash maqsadida mazkur so‘zning *vafot etmoq, o‘tib qolmoq, olamdan o‘tmoq, olamdan ko‘z yummoq, u dunyoga ketmoq, boqiy dunyoga rixlat qilmoq* kabi “yumshoqroq” muqobillari qo‘llanadi”.

S.P.Vaynshteyn juda ko‘pgina xalqlarda, jumladan, Tuva tilida uchraydigan atoqli otlarning ko‘pchiligi oilada bolalarning o‘limi tufayli yomon ruhlardan saqlash ma‘nosida ularning nomi tilga olinmagan, yoki “ko‘cha” nomlari qo‘yilgan, uning biror xususiyati hisobga olingan. Masalan, *Chimit-O‘lmas, O‘g‘il bola, Qiz, Mergan* kabi. Bu odat dunyoning ko‘pgina xalqlarida borligi yoki xotin eri va uning qarindoshga urug‘larining nomlarini aytmashligini yozgan. Bu bevosita o‘zbek va ozarboyjon xalqlarining ham qon-qoniga singib ketgan qadriyatdir.

Tabu aslda etnografik tushuncha bo‘lsa-da, keyinchalik lingvistik termin sifatida ham qo‘llanila boshlangan. Shu sabab professor Adil Ahmedov ham etnografik va lingvistik tabu terminlarini qo‘llagan. Etnografik tabu, asosan, tarixiy-etnografik voqeliklarni, lingvistik tabu, asosan, til hodisalarini, shu bilan bog‘liq shakllangan evfemiologiya – uslubshunoslikni o‘rganadi. Bu uchala soha bir-biridan uzilgan, alohida sohalar emas, ular tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lmish etnolingvistikaning o‘rganish obyektidir. Bu fan – etnografiya, lingvistika va nutqshunoslikning shunchaki qo‘shilmasi emas, balki yangi shakllangan yaxlit ob‘yekt – bir butun fanning fazalaridir. Zotan, lingvistik tabu zaminida xalqlar tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, axloq-odobi, xulq-atvori, udumlari, ruhiy-psixologik, mifologik z‘tiqodi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi (mentaliteti) mujassam. Har qanday etnografik tabu – etnografik hodisadir. Masalan, sovchi qo‘yish, unashtirish udumi (etnografik hodisa) munosabati bilan sovchi nutqi tabulashtiriladi ya‘ni qizingiz Mehrinisoni o‘g‘lim Toshtemirga

xotinlikka bering – **qızın Mehrinisonu oğlum Toştəmirə ərə ver** – deyilmaydi, aksincha, qizingiz Mehrinisoni o‘g‘limiz Toshtemirga so‘rab keldik – **QIZINIZ Mehrinisonu oğlumuz Toştəmirə istəməyə gəlmişik** – deyiladi. Bu o‘zbek va ozarboyjon xalqlarining urf-odat hamda qadriyatları uyg‘unligidandir [12].

Ibtidoiy odam tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilmagan. Natijada, sayyoralar harakati, holati (**planetlərin hərəkəti, mövqeyi**): oy va quyosh chiqishi, botishi, tutilishi, qizarishi, kuyishi, yangi oy chiqishi, to‘lishi (**ay və günəşin doğuşu, batması, tutulması, qızarması, yanması, yeni ayın çıxması, tam**);

– yulduzlar harakati, holati (**ulduz hərəkəti, mövqey**): katta-kichikligi, uchishi, so‘nishi, somon yo‘li, hulkar, tarozi, yetti qaroqchi, katta ayiq, kichik ayiq, chaqmoq, momaqaldiroq (**böyük və kiçik, uçan, solğun, Samanyolu, Hulk, tərəzi, yeddi quldur, böyük ayı, kiçik ayı, ildırım, ildırım**);

–bulut, bulutlar harakati, rangi (**bulud, buludların hərəkəti, rəng**); qor, qizil qor, yomg‘ir, qurbaqa, ilon, tosh, qum kabilar yog‘ishi (**qar yağması, qirmızı qar, yağış, qurbağa, ilan, daş, qum**) kabi doimiy (yoki mavsumiy) yuz beradigan jarayonlar ilohiylashtirilgan. Bu esa bevosita yaxshilik va yomonlikni farqlashga undash bo‘lgan aslida. Bular o‘rtasida doim kurash bo‘ladi. Masalan, yoz g‘olib kelsa, qish yengilgan bo‘ladi, o‘z o‘rnini baqorga bo‘shatib beradi (**yay qalib gələndə qış məğlub olur, yerini soyuğa verir**). Bu g‘oya Maqmur Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida ham bor. Yorug‘lik (kun) g‘olib chiqsa, qorong‘ulik (tun) chekinadi (Tong otdi-kechani otdi shundan qolgan). Yil yaxshi kelib, to‘kin-sochinlik bo‘lsa, ezgulik kuchlari yovuzlik ustidan g‘alabasi, aksincha, baxtsizlik (to‘fon, zilzila, ocharchilik, qurg‘oqchilik, vabo, o‘lim kabilar) yuz bersa, yovuzlik kuchlari (shayton, jin, dev, alvasti kabilar)ning g‘alabasi deb tushunilgan. Bu g‘oya keyinchalik ilohiy adabiyotlarda ham aks etgan.

Islomda hayvonlardan, xususan, qo‘y, it, ot, tuya (qoyun, it, at, dəvə) madaniylashtirilgan. Qo‘y eng pok – behishtdan chiqqan. Ismoil alayhissalom joniga badal sifatida ham jannatdai qo‘chqor yuboriladi. Shundan boshlab odamni qurbonlikka so‘yish man ztiladi. (**Qoyun ən təmizdir - cənnətdən. İsmayılın həyatına töhfə olaraq cənnətə bir qoç göndəriləcək. Bundan sonra qurban kəsmək qadağandır.**)

Ot – inson najotkori, yo‘ldoshi. “Laylat ul-me‘roj” tunida Muhammad alayhissalomni Alloh huzuriga yetkazgan, asli nurdan bo‘lgan Buroq ham ot; olti oylik yo‘ldan Hazrat Alining nidosini eshitib yetib borgan Duldul ham ot (“Bobo Ravshan”), Alpomishni murodga yetkazgan nazarkarda, to‘rt yarim gaz qanoti bor Boychibor ham ot – (**At insanın xilaskarı, yoldaşdır. Buraq həm də əslən nurdan olan bir atdır ki, Məhəmməd sallallahu aleyhi və səlləm “Leylätül-merac” gecəsində Allah dərğahına gətirdi; Altı aylıq yoldan sonra Həzrət Əlinin nidasını eşidib gələn**

Düldül Ham ("Rövşən baba"), Ayapomışı könlünə çatdıran dörd yarım qaz qanadlı at Boyçibor).

Turkiy xalqlardaya'ni o'zbek va ozarboyjon tilida nom berishning odatdagi tartib va talabidan tashqari, quyidagi sabablari ham mavjud:

a) rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o'smir surunkali kasal bo'laversa, nomi (xususan, Alloh, payg'ambar, avlyyo yoki umuman, buyuklar nomi bilan atalgan bo'lsa, nomni ko'tarilmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo'shaloq nom (bir rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo'lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqllovchi nom sifatida faollashib ketadi;

b) oilada bola tura bermasa, tug'ilib o'laversa, navbatdagi tug'ilgan chaqaloqqa, o'g'il-qizligidan qat'iy nazar, O'lmas, Tursun, Turg'un, Umrzoq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yashar, Turdiboy, Bo'ri, Arslon (**Ölümsüz, Dursun, Turğun, Urmzaq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yaşar, Turdiboy, Börü, Aslan**) kabi balo-qazodan himoyalovchi, asrovchi, yomon ko'zdan saqllovchi, yovuz ruhlarni chalg'ituvchi ot yoki evfemik atamalar qo'yiladi;

v) ayrim sosial qatlam (masalan, shoirlar) ma'lum maqsad va niyat bilan o'zlariga taxallus tanlaydilar yoki laqab orttiradilar. Bu taxallus yoki laqab bora-bora faollashib, rasmiy atamaga aylanadi. Chaqaloqlik ism kishilar xotirasidan uzoqlashadi. Hozirgi ko'pgina yoshlar Ulug'bek, Fuzuliy, Muqimiy, Habibiy, Chustiy, Shayxzoda, Oybek, Uyg'un (**Uluqböy, Füzuli, Muqimi, Həbib, Çusti, Şeyxzadə, Öybək, Uyğun**)larning asl nomlarini bilmaydilar. Bundan qat'iy nazar, taxallus va laqablar muomala madaniyati rivojiga evfemik nutq taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladi.

Nutqning etik-estetik talab normasi tabulashtirilgach, ochiq yoki to'g'ridan-to'g'ri tilga olish noqulay bo'lgan voqeliklar, xususan, eng ko'p murojaat vositalarining evfemalashtirilishiga asos bo'ladi Quyidagi matnlarga e'tibor beraylik:

1. Jon olishga kelgan Azroil Payg'ambarimizga yuzlanib: Ey, Muhammad, Alloh Taolo Sizga muntazir, – dedi. Sarvari olam bu so'zni eshitiboq: – Ey, Azroil, o'z ishingizga kirishing, dedilar. Shu tariqa Muxammad alayhissalom dunyoi foniydan dunyoi baqog'a safar qildilar (**Can almağa gələn Əzrail Peyğəmbərimizə üz tutub dedi: Ey Məhəmməd, Allah-Təala səni gözləyir. Bu sözü kainatın Rəbbi eşitsin: - Ay Əzrayıl, get işinə, dedilər. Beləcə Məhəmməd sallallahu aleyhi və səlləm fani dünyadan bütün dünyaya səyahət etdi**) [13].

2. Husayn Boyqaroga sevimli xotining o'limi haqida Navoiy (**Nəvai sevimli həyat yoldaşının Hüseyin Boyqaroya vəfatı haqqında**): Sarvigul soyasida so'ldi gul, netmoq kerak? (**Bir sərvi kölgəsində solmuş çiçək, onu çıxarmaq lazımdır?**)tarzida xabar bergan. Husayn Boyqaro (**Hüseyin Boykara**): Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak (**Sərvidən tabut, güldən kəfən etmək lazımdır**) deb javob bergan [14].

3. Turkiy xalqlarda har bir erkak o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘li nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Agar ayolining ismi – Farida, qizining ismi – Hadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmonchilik sharmu hayosi yuzasidan ayolini Hadicha deb chahiradi. Aksar ona-bola “labbay” deydi. Shunda oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota: Kattangni aytayapman, kattangni! deydi. Hatto shunda ham Farida demaydi. **(Türk xalqlarında hər kişi halal yoldaşını qızının və ya oğlunun adı ilə çağırır. Arvadını onun adı ilə çağırmaq düzgün deyil. Əgər arvadının adı Fəridə, qızının adı isə Hədiçə olsa, mömin-müsəlman həyadan arvadını Hədiçə çağırır. Əksər ana və uşaq “labbay” deyir. Sonra ailənin əsl sahibi olan ata: Kəttanq deyirəm, Kattang! deyir. Onda da Fəridə demir.)**

Xulosa va takliflar. Tabu va evfemizmlar qo‘llanilish doirasi hamda nutq egasining muomala madaniyati, so‘zlovchi va tinglovchining salohiyatidan kelib chiqqan holda rang tanlanadi. Nafaqat so‘zlashuv jarayonida, balki badiiy adabiyotda ham tabu va evfemizmlarning keng tarqalganiga guvoh bo‘lamiz. Bu tilning ma‘no mazmun imkoniyatlarining ko‘pligini anglatadi. Endilikda bunday birliklar faqatgina yozuvchi yoki shoirlar, jurnalistlar asarlarida ifodalanihgina qolmay, shu tilda muloqot qiluvchilarning, qaysi jins vakili bo‘lishidan qat‘iy nazar, nutqida o‘z aksini topsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Tabu va evfemizmlar xushmuomalalik hamda yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu o‘z navbatida har bir so‘zlovchini tilning go‘zal va boy imkoniyatlarini ko‘rsatib berishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маматов А. Узбек тили frazeologiyasi shakllanishi masalalari: filol.fanlari d-ri... diss. avtoref. - Toshkent, 1999.
2. Эйто Дж Эвфемизмы. –М., 1994; Англо-русский словарь лексики табу и эвфемизмаю. –М., 2003.
3. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. / Учебное пособие к спецкурсу. - Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1988. – 80 с..
4. Ларин Б.А. Об эвфемизмах. –М., 1961.
5. Видлакса С. Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля. – М.,1965.
6. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дисс. ..канд. филол.; наук. - Ташкент, 1963. - 19 с/
7. Rustamova D. Metaforik evfemizasiyaning lingvokulturologik va sotsiopragsmatik aspektlari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. - Fargona, 2018.
8. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T.: O‘qituvchi, 1992.

9. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -T.: O'qituvchi, 1981.
10. Shomasudov A., Rasulov I., Qo'ung'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1983.
11. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012.
12. Махкамов Н., Исматуллаев Н. Эвфемизм современном узбекском языке: -Т., 1963.
13. Ларин Б.А. Об эвфемизмах /Ларин Б.А. Проблемы языкознания : Сб. статей, посвящ. 75 -летию акад. И.И.Мешанинова. – Л.: ЛГУ, 1961.
14. Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996. – 432 с

TILNING IFODA-TASVIRIY VOSITALARINI YUZAGA KELTIRISHDA TRANSPOZITSIYANING O'RNI

DINARA ISLAMOVA,

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarning emotsional-ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiluvchi lingvopoetik vositalar hamda ularning transpozitsiya bilan aloqasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, emotsional-ekspressivlik, transpozitsiya, metafora, ko'chim, badiiy asar tili.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвопоэтические средства, служащие для обеспечения эмоционально-выразительности художественного произведения, а также их связь с транспозицией.

Ключевые слова: художественный текст, эмоционально-выразительность, транспозиция, метафора, движение, язык художественного произведения.

Annotation. This article will talk about the linguistic means that serve to ensure the emotional-expressiveness of a work of art, as well as their relationship with transposition.

Keywords: artistic text, emotional-expressiveness, transposition, metaphor, moving, language of fiction.

Kirish. Ma'lumki, badiiy asarning emotsional-ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiluvchi lingvopoetik vositalar orqali tilning estetik funksiyasi namoyon bo'ladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili, demakki, talqinining pirovard maqsadi ana shu konseptning ifodalanishida lisoniy vosita va usullarning faoliyatini o'rganish ekan, badiiy matnga yaxlit estetik butunlik sifatida yondashuv favqulodda muhim tamoyil sifatida qimmatga ega. Lingvopoetik tahlil til sathlaridan muayyan biri bo'yicha amalga oshiriladimi yoki kompleks olib boriladimi, baribir, lisoniy vositalarning mazkur konseptni ifodalashdagi ishtirokini baholash asosiy jihatdir»[1].

Binobarin, badiiy nutqda lisoniy birliklar nominativ ma'no bilan birga konnotativ ma'nolarni ham ifodalashga xizmat qiladi. So'zning ma'no qirralari qanchalik ko'p va kutilmagan shaklda bo'lsa, badiiyat nuqtai nazaridan mukammal bo'lishi, ijodkor

mahoratini yuzaga chiqarishi mumkin. «Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishi trop (yoki ko‘chim) deyiladi... Ko‘chimlar, odatda, she’riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmuni ifodalovchi yangi so‘z yoxud so‘z birikmasini yaratadi, shoirning tasvir ob’ektiga munosabatini ifodalashga imkoniyat yaratadi. Shoir ko‘chimlar vositasida tasvir ob’ektini individuallashtiradi va uni yanada aniqroq – yorqinroq ochadi: kitobxon u haqda obrazli tasavvurga ega bo‘ladi»[2].

Shu bilan birga, har qanday nutqiy harakatda so‘zlovchining ma’lum niyatlari mavjud bo‘lib, unga bog‘liq holda ma’lumot beruvchi, undovchi, so‘roq, tasdiq, inkor, deklarativ, verdiktiv (hukmli) va boshqa nutqiy harakat (akt)lar alohida ajratiladi.

Obyektiv borliqdagi doimiy yuz berib turadigan o‘zgarishlar qatorida transformatsiya (ko‘chish) ham borki, u ham materiyaning universal voqelanish shakllaridan biridir. Tabiiyki, transformatsiya voqelikni ideal tizim sifatida o‘zida in’ikos ettiruvchi badiiy asar matni va tilidan ham o‘rin olgan. Zero, moddiy tizimda mavjud bo‘lgan asosiy qonuniyatlar ideal tizimlardan ham joy oladi, qiyosiyot qonun va kategoriyalarining universal xarakteri ham shundadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til transformatsiologiyasi (ko‘chish nazariyasi), V.I.Koduxovning ma’lumot berishicha, lingvistika tarkibida dastlab tilning material tarafi bo‘lgan tovushlar, o‘zaklar va qo‘shimchalarni o‘rganish jarayonida shakllandi.

Til sathlaridagi ko‘chish til birliklarining tashqi (formal) va ichki (mazmun) taraflarining o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. Mashhur lingvist Uolles L. Cheyf (Chafe, W.) qayd etganidek, tilning ma’no inventarlari uning shakliy (tovush-akustik) inventarlariga qaraganda taqqoslab bo‘lmas darajada ko‘p va xilma-xil, ana shu nomuqobillik til taraqqiyotining juda ko‘p qirralarini (jumladan, omonimiya, sinonimiya...), shuningdek, til transformatsiologiyasining ham mavjudiyatini belgilab beradi [3]. Til sathlaridagi ko‘chish avvalo vaqtinchalik, kontekstual-situativ til birliklarining vujudga kelishi, to‘g‘rirog‘i, ma’lum bir pozitsiyada til birligining kontekstual shakl va mazmun o‘zgarishi bilan boshlanadi.

Xuddi shunday holni so‘z turkumlari darajasida ham ko‘ramiz. Masalan, agar sifat uchun tipik sintaktik pozitsiyada ot, ravish uchun tipik sintaktik pozitsiyada sifat kelsa, unda bu so‘z turkumlari sintaktik transformatsiyalanish natijasida o‘zlarining turkumiga xos kategorial ma’nolarini ham o‘zgartiradilar va mos ravishda sifat va ravishning kategorial ma’nolarini ifodalay boshlaydilar: *Tilla uzuk muborak bo‘lsin!* (ot > sifat); *Yaxshi bola yaxshi o‘qiydi* (sifat > ravish). Demak, til transformatsiologiyasi hollarini o‘rganayotganda sathlararo aloqalarga ham e’tibor qaratish kerakka o‘xshaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy asar tilidagi ko‘chimlar va sintaktik figuralar orasida transformatsiologiya bilan aloqador ifoda-tasvir vositalari mavjud va uni quyida ko‘rib chiqamiz. Aytish lozimki, badiiy matndagi ko‘chim bilan bog‘liq jarayonlar so‘z turkumlarining badiiy matnda bir-biriga ko‘chishi bilan bevosita aloqasi bo‘lmagan holatlardir (bilvosita esa, yuqorida ta’kidlanganidek, aloqalar mavjud, bu til sathlariaro munosabatlarning doimiyligi qonuniyatidan kelib chiqadi). Masala bu ko‘chimlarning badiiy asar tili va badiiy nutqning turli ko‘rinishlarida (muallif nutqi, personaj nutqi, monolog, dialog, polilog...) qo‘llanilishi tufayli yuzaga chiqadigan ma’noviy-struktural va funksional-semantik o‘zgarishlarini qayd etish va baholashdadir. Binobarin, o‘zbek tilshunosligi fani oldida tilimiz transformatsiologiyasining nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqish jarayonida bu holatning badiiy nutqda ro‘y berish mexanizmi bilan aloqador tomonlarga ham jiddiy e’tibor berish vazifasi turibdi.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeyini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya’ni ko‘chma ma’nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo‘llanish zarurati ma’lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo‘lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bema’l, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo‘q. Boshqa uslublarda, asosan ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan, tilda qisman turg‘unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko‘rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo‘lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin. O‘zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o‘rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi, emotsional-ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo‘lamiz [4].

Ana shunday vositalardan biri, shubhasiz ko‘chimlardir va ularning tarkibidagi mazmun-ma’no planidagi ko‘chimlar – metafora va metonimiya bevosita biz bahsini yuritayotgan mavzuga aloqador ekanligi yuqorida aytib o‘tiladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilshunosligida ko‘chimlar leksik ma’no taraqqiyot yo‘llaridan biri bo‘lib, so‘zning uzual yoki okkazional ma’no doirasida hosil qilinadi. Ko‘chimlar badiiy matn doirasida talqin qilinganda ko‘proq ularning mohiyatiga (ob’ektivlikdan chekinmagan holda) sub’ektivlik nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Chunki yozuvchi (sub’ekt)ning ob’ektga shaxsiy munosabati, dunyoqarashi, baholashdan kutilgan badiiy niyati va maqsadi ko‘chimlarda o‘z in’ikosini topadi [5].

Metafora narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chish turi bo‘lib, lirik qahramonning voqelikka munosabatini

obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Metafora orqali ikki xil lingvistik hodisa yuz beradi: 1) nomsiz narsani nomlash; 2) nomli narsaga qayta nom berish (ikkinchi nom)[6].

Quyidagi namunalarga e'tibor beraylik:

Men, mana, doim xo 'jayinning qo 'ltiq'idaman [8].

Oqbadan olabo 'jilar boradi-boradi – dala kindigida oyoq iladi [7].

Men o 'ttiz yoshimda Xivani tiz cho 'ktirdim! Mana, o 'ttiz ikki yoshimda Qo 'qonni tariqday tirqiratdim! [7]

Ul mo 'lt-mo 'lt qora ko 'zlar oti — xalqdur, taqsir. Xalq bor — haq bor [7].

It-da ariq labidan yalab-yalab suv ichadi! [7]

Tog'ay Murod asarlari tilida xalqchilik, jonlilik, soddalik kuzatiladi. Bu holat yozuvchining badiiy tasvir vositalarian foydalanishida ham ko'rinadi. Masalan, umumxalq ishlatadigan bosh, oyoq, qo'l, lab, kindik kabi so'zlarning metafora bo'lib kelishi ham fikrimiz dalilidir. Bu yozuvchi tomonidan shakllantirilgan individual metafora emas. Qo'llanilgan metaforada reallik hamda xalqchilik ko'rinib turadi.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko 'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...Tollarning ko 'm-ko 'k sochpopuklari qizlarning mayda o 'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi [8].

Metafora emotsional-ekspressivlikni, estetik go'zallikni, ifodaviylikni hosil qilmoqda. Bu holat jonlantirish, insonga xos xususiyatlarni tabiat hodisalariga ko'chirish orqali hosil qilingan. Yozuvchi shu tasvirning o'zida bir necha metaforadan foydalangan *ko 'ngillarni qitiqlay boshladi, iliq qon yugurdi, tollarning ko 'm-ko 'k sochpopuklari, g'amli yuzlari kuldi* kabi metaforalar ifoda-tasvirni kitobxon ko'z oldiga keltirish bilan birga, uni qalb prizmasidan o'tkazishga undaydi. Yozuvchi esa oddiy bayonchi emas, holatni tasvirlovchi mohir shoirga aylanadi.

Ofarin, taqsir, ofarin, o 'ttizida er atangan, qirqida sher atanar, deydilar. Taqsir, men bir kam saksonda... [9]. Mazkur misolda metonimiyalar (*o 'ttizida, qirqida, bir kam saksonda*) tejamkorlik, qisqalikka intilish natijasida sodir bo'lgan. Aslida personaj nutqida maqoldan foydalanish orqali metonimiya hosil qilinmoqda. Keyingi metonimiya (saksonda) ham shu maqol ta'sirida shakllangan. Mazmunan kengayish hamda shaklan qisqarish yuz berib, otning ma'noviy xususiyatlari ham songa o'tmoqda.

..hamma vaqt o 'risning ichida qaynaydi, o 'ris tilini suv qilib ichib yuborgan... Kattalarimiz o 'rus-da, axir! [8].

Ma'lumki, badiiy nutqda asosan tejamlilik, ba'zan esa ortiqchalik tamoyillarining amalda bo'lishi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur misolda *kattalarimiz* metonimiya shaklida qo'llanilgan. Xalq tilida mansabdor hamda hurmati baland

insonlarga nisbattan katta sifati ishlatiladi. Shuningdek, transpozitsiyaga uchragan birlik otga xos grammatik ko'plik va egalik qo'shimchalarini qabul qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi uchun tilning badiiy-tasviriy vositalari hamda transpozitiv so'zlar muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. - Тошкент: Фан, 2008. – Б.30-31.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 326 б.
3. Чейф У. Значение и структура языка. – М.: Прогресс, 1975. –С.72-73, 75-78.
4. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. - Самарқанд: СамДУ, 1994. – Б. 5.
5. Ҳасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийлигини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 9.
6. Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърини мисолида): филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. - Самарқанд, 2021. –Б.63.
7. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Т.: Шарқ, 1994. – 170 б.
8. Чўлпон Абдулҳамид. Кеча ва кундуз. Роман. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 218 б.



**“SAB’AI SAYYOR” ASARIDAGI
QAVM-QARINDOSH MA’NOSINI
IFODALOVCHI LEKSEMALARNING
SEMANTIK TAHLILI**



SHAHNOZA XO’JANIYAZOVA,
*filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD),
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida qo‘llangan shaxs nomlarini ifodalovchi ot leksemalar leksik-semantik, tarixiy-etimologik jihatdan misollar yordamida tahlilga tortilgan. Ta’kidlash joizki, asar so‘z boyligida ma’no kengayishi va ma’no torayishiga uchragan leksemalar ham mavjud. Darhaqiqat, bu maqolada o‘z va o‘zlashma qatlamga oid so‘zlarning sinonimik qatorlari haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sema, oylan//o‘yul, bin, valad, qiz, nasl, qardash, tav’aman.

Аннотация. В данной статье на примерах с лексико-семантической, историко-этимологической точки зрения анализируются именной лексемы, обозначающие личные имена, использованные в эпосе Алишера Навои «Сабъай сайёр». Стоит отметить, что в словарный запас произведения входят лексемы с расширенным и суженным значением. Фактически, в этой статье также говорится о синонимическом ряде слов, относящиеся к родному и присвоенному слою.

Ключевые слова: сема, оулан//оуул, бин, валад, қіз, насл, қардаш, тавъаман/ сема, оглан//сын, бин, валад, девочка, отпрыск, брат.

Annotation. In this article, using examples from a lexico-semantic, historical and etymological point of view, the nominal lexemes denoting personal names used in Alisher Navoi's epic "Sabai Sayer" are analyzed. It is worth noting that the vocabulary of the work includes lexemes with expanded and narrowed meanings. In fact, this article also talks about a synonymous set of words related to the native and assigned layer.

Key words: sema, oylan//o‘yul, bin, valad, qiz, nasl, qardash, tav’aman.

Kirish. Dunyo tilshunosligida buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini sinchiklab o‘rganish, ular tomonidan yaratilgan olamshumul xarakterdagi asarlarning til xususiyatlari, chunonchi, so‘z boyligini atroflicha tahlil qilish, ona tili leksikonini boyitish va takomillashtirishdagi rolini ko‘rsatish, ona tili sofligini saqlash, uni ichki manbalar hisobiga kengayish jarayonlarini tahlilga tortish, ayni chog‘da, har qanday til so‘z boyligining taraqqiy etishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘rmini tahlil qilish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Chunonchi, o‘zbek adabiy tilining tom ma’nodagi asoschisi Alisher Navoiy qalamiga oid nasr hamda nazmda bitilgan

badiiy, tarixiy, ilmiy asarlarning til xususiyatlari dunyo Navoiyshunoslari diqqatini bir necha asrlar mobaynida o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qarindoshlik atamalarining leksik-semantik sohasi etnik guruh vakillari tomonidan dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, qarindoshlik munosabatlari qadriyatlarini ko‘lamini o‘rnatish imkonini beradigan omildir [Saidova, 2023:348]. Turkiy qavm-qarindoshlik terminlarini keng ko‘lamda tahlil qilish, ularning etimologiyasini aniqlash borasida L.Pokrovskaya, V.Sinsiuslarning hissasi katta. O‘zbek turkologlaridan I.Ismoilov monografiyasi hamda qator maqolalarida turkiy qavm-qarindoshlik terminlarini ko‘proq o‘zbek va uyg‘ur tillari materiallari misolida boshqa turkiy tillarga qiyos qilgan hamda adabiy tildagi muhim xususiyatlarini batafsil bayon etgan [Mamatov, 2009:15.]. Turkiy so‘zlarning aksariyati ko‘plab qarindosh tillar uchun umumiy, ya’ni mushtarak qatlam ekanligi ma’lum. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asl turkiy qatlamga mansub so‘zlar umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam tushunchalari ostida tahlil qilinadi [Begmatov, 1981:53]. Zotan, qarindoshlik terminlari hozirgi turkiy tillar leksikasining arxaik qatlamidir [Abdurasulov, 2009:55-56]. Ma’lumki, har qanday terminlar shu jumladan, qavm-qarindoshlik atamaları ham qanchalik turg‘un bo‘lmasin, zamon o‘tishi, jamiyat, oila, nikoh shakllari va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan qavm-qarindoshlik terminlarining ma’no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo‘ladi [Ziyotova., 2023:84].

Tadqiqot metodologiyasi. Qarindoshlik terminlarining leksik qatlami o‘zbek tili lug‘at fondining ajralmas qismidir [Saidova,2023:358]. Bu so‘z hozirgi zamon turkiy tillarning ko‘pchiligida mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida *qarindosh*, uyg‘ur tilida *qerindash*, qozoq tilida *qarshdas*; kirg‘iz tilida *karshdash*; turkman tilida *garshdash* va qoraqalpoq tilida *qarshdas* kabi fonetik variantlari bilan ma’lumdir [Ismoilov,1966:72]. Tilshunoslikda yozma va qo‘lyozma manbalar leksikasini statistik usulda o‘rganish bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Chunonchi, ““Boburnoma”-til qomusi” monografiyasida qarindoshlik, yaqinlik atamalarining 98% qadimgi turkiy til davrida qo‘llangan terminlar tashkil etadi [Xolmanova, 2021:181] “Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi”da jami 18, chunonchi, XMda 11 (0,54%), HSHAda 5 (0,55%), HPMda 2 (0,21 %) ta [Xo‘janiazova, 2022:64],“Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi”da hammasi bo‘lib, yigirma uchta [Abduvaliyeva, 2017:83] leksik birlik mavjud ekanligi tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar. Navoiyning “Sab’ai sayyor” asarida qarindosh-urug‘ nomlarini ifodalovchi leksemalar alohida ahamiyat kasb etadi. Qavm-qarindoshlik, yaqinlikni ifoda etuvchi leksemalar asosan oilada insonning qanday o‘ringa egaligini ham belgilaydi. Bularni, o‘z navbatida, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin [Pokrovskaya, 1961: 4-35]:

1) umumiy tarzda “qarindosh” tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar:

qavm, nasl, nasab, jigargoša, avlád, banī, xānaváda;

2) qarindoshlik tushunchasini individual tarzda ifodalovchi soʻzlar: *oylan//oyul, bin, valad, qiz, qardásh, farzand, ata, ana, sihil, ayal, záda, yigit, tav’amán- egizak;*

3) nikohdan keyin voqelanadigan qarindoshlik istilohi: *arus.*

Qavm soʻzi arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, “bir avloddan tarqalgan, oʻzaro qarindoshlik munosabatlari bilan bogʻlangan kishilar birlashmasi; urugʻ, aymoq, qabila” (OʻTIL, V, 201), eski oʻzbek adabiy tilida 1) toifa; kishilar toʻdasi, guruhi; 2) urugʻ, aymoq; 3) el, xalq sememalarida qoʻllangan (ANATIL, III, 422). Asar matnida ham ayni shu maʼnoda oʻn uchta oʻrinda ifodalangan:

1) toifa; kishilar toʻdasi, guruhi:

Andakim Mehrni qilib nášád,

Qavmu xaylini ayladi ázád (S.S, 528).

2) urugʻ, aymoq:

Dam-badam iztiráb aña artib,

Qavmu xayli bilä fiyan tartib (S.S,502).

3) el, xalq:

Qavmu xayli bari qalib yáfil,

Ul qarä tundä mastu láya ’qil (S.S,475).

“Avlod, sulola” maʼnosini ifodalovchi forscha *xānaváda* (NAL,660) leksemasi arabcha *avlád, banī* (ANATIL, I, 30, 160) oʻzlashmalari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan:

Šahrisabz ahli zadasidin men,

Sa’dniḡ xānavádasidin men (S.S,481).

Kim: Havádis eridürür álam,

Andin ázád emas banī ádam (S.S,403).

Eski oʻzbek adabiy tilida *jigargoša* oʻzlashmasi 1) aziz farzand; jigarpóra; 2) yaqin, qarindosh; avlod (ANATIL, I, 574) maʼnolarida qoʻllangan:

1) aziz farzand; jigarpóra:

Šáh xud Mehr ištiyáqidin,

Bal jigargošasi firáqidin (S.S,528).

2) yaqin qarindosh; avlod:

Tiy ilä bayrim aylasam pára,

Čun jigargošam itti, ne čara? (S.S,528).

“Ona” maʼnosidagi *ana* soʻzining antonimi hisoblanmish *ata* leksemasi VII-X asr qadimgi turkiy til manbalarida alohida holda mavjud emas. Uning ilk bor qoʻllanishga kirish vaqti aynan XI asrga toʻgʻri keladi [Dadaboev, 2014: 8-9].

A.Pokrovskayaning ta’kidlashicha, ozarbayjon, boshqird, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, tatar, turk, turkman, uyg‘ur tillaridagi *ata* shakli uning qadimgi turkiy yodnomalardagi shakliga mos keladi [Pokrovskaya, 1967:25].

“Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan) ma’nosidagi *ata* (O‘TIL, 3, 151) leksemasi qadimgi turkiy til va tubutlar tilida *ata* (DTS, 65; DLT, I, 113) eski o‘zbek adabiy tilida 1) ota, padar; 2) boshliq, oqsoqol, hurmatli; 3) ota; buyuk, ulug‘ (ANATIL,II,533) ma’nolarida qo‘llangan. Asar tilida faqat “ota, padar” semasida ishlatilgan:

*Atasi qirg‘ yil surib xánliq,
Qilmish erdi ulusqa sultánliq* (S.S, 397).

V.V.Radlov o‘zining lug‘atida *ana* so‘zining butun bir turkiy tillardagi va shevalardagi *ana, ena, änä, enäi* kabi ko‘rinishlarda keltirgan. O‘zbek tilida keng qo‘llanadigan *ana* varianti adabiy til uchun xizmat qilgani holda, o‘zbek tili sheva va dialektlarida *aba, acha, eba, aya, ena, opa, buvi, buv – mat, mama* tarzida ishlatilib kelinmoqda [Ismoilov, 1966: 64].

“Volida, ona” (ANATIL, II, 522) semasidagi *ana* leksemasi o‘g‘uzlar tilida *aba* (DLT, I, 113) tarzida qo‘llangan. Asar leksikasida quyidagicha:

*Meni bu nav’ vaqif ayladi Lát,
Ki, tugangan emish anamya hayát* (S.S,441).

O‘g‘il va qizga nisbatan qo‘llanuvchi *farzand* istilohi “ota-onaning bolasi” (TjRS, 406), so‘zlashuv tilida *f* tovushi *p* tovushiga almashtiriladi, ba’zan oxirgi *d* tovushi talaffuz qilinmaydi (O‘TEL, III, 232). Ushbu o‘zlashma eski o‘zbek adabiy tilida “o‘g‘il-qiz, bola; avlod” (ANATIL, III, 322), hozirgi o‘zbek adabiy tilida “bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o‘g‘il yoki qiz (ota-onaga nisbatan)” (O‘TIL, IV, 328) ma’nolarida ishlatilmoqda:

*Ul kelib tiyrä rosadaf mánand,
Tan yoq, olmaq sadafya dur farzand* (S.S,333).

Dostonda jins nuqtai nazardan farqlanuvchi shaxs nomlari ham salmoqli o‘ringa ega. Chunonchi, *yigit* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida “umuman yosh erkak, yosh kishi” (O‘TIL, II, 266), Navoiy asarlar tilida “yigit, o‘smir, yosh” (ANATIL, I, 78) ma’nosida ishlatilgan:

*Sen agar zahir ettiñ itlikni,
Men saña korguzay yigitlikni* (S.S,541).

“Shariat yo‘li bilan nikohlanmagan ota-onadan tug‘ilgan bola; o‘g‘il bola farzand” (O‘TIL, I, 437) ma’nosini anglatuvchi *valad* (ANATIL, I, 355) leksemasi *záda* (ANATIL, I, 642) va *oyul* o‘zlashmalari bilan sinonimik qatorni voqelantiradi:

*Balki ádam oyulluyiñdin šád,
Valadiñya jahán eli avlád* (S.S,288).

L.Budagov lug‘atida *xátun, xadun, kat* leksemalari “zavja; xotin kishi; xonim” ma’nolarida qo‘llangan (BD, I, 524). *Qatun//xátun* o‘zlashmasining ma’noviy taraqqiyot yo‘lini tubandagicha sharhlash mumkin. Dastlab, u “zodagon ayol, xonim, malika”, so‘ngra “zavja; ayol kishi” ma’nolarini anglatish uchun xizmat qilgan. Lekin “beka, xonim” ma’no ottenkasi ushbu so‘z tomonidan ifodalanavergan [Dadaboyev., Hamidov., Xolmanova Z, 2007: 32]. Tadqiqotlarda e’tirof etilishicha, juda qadim zamonlarda turkiy tilga kirib kelgan bu leksik birlik ilk marta qadimgi run bitigi “Kultegin” bitiktoshida “xonima, zodagon ayol, oqsuyak ayol” ma’nosida *qatun* fonetik variantida ishlatilgan [Abduvalieva, 2017: 51].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 1) jins jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko‘rish qobiliyatiga ega odam; ayol; 2) biror erkak nikohidagi ayol (O‘TIL, IV, 415) ma’nosidagi *zaiifa* o‘zlashmasi *ayál* so‘zi bilan sinonimik qatorni voqelantirgan:

*Šáh čun bildi andaq afsána,
Qildi ta’yin zaiifalär yana* (S.S,541).

*Iffati zabtidin jahán ičrä,
El ayali kirib amán ičrä* (S.S,330).

“Xotin, ayol” jinsini ifodalovchi so‘zlarning ma’noviy tasnifi ularni “erga chiqqan, turmush qurgan” hamda “erga chiqmagan, turmush qurmagan” tarzida guruhlash zarurligini ko‘rsatadi. *Tiši* leksemasi bilan “erga chiqqan, erga tekkan” ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ma’nodoshlik qatorida faqat “Devon” da ilk bor ishlatilgan *urağut* leksemasi faoliyat ko‘rsatgan: *Urağut oğul toğurdi “Xotin o‘g‘il farzand ko‘rdi”* (11,84) [Dadaboyev, 2022: 353].

Kelin so‘zi turkiy tillarda nikohdan keyin paydo bo‘lib, o‘zbek, uyg‘ur, qoraqalpoq tilida *kelin* qozoq tilida *kelin*; turkman tilida *gelin*, xorazm shevasida *geli:ng* kabi fonetik variantlari mavjud [Abdullaev, 1966: 31]. O‘rxun-Enasoy bitiklari tilini tadqiq qilgan V.V.Radlov va P.M.Melioranskiylar *kelin* leksemasi *kel* fe‘liga *-in* so‘z yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalganini ta’kidlaydilar [Radlov, 1897: 59]. Eski o‘zbek adabiy tilida ikkita: 1) kelin, kelinchak; 2) erta bahor chechaklari (ANATIL, I, 117) asar matnida ham ayni shu ma’nolarda qo‘llangan:

1) kelin, kelinchak:

*Čun saxar xutbasini čekti xurus,
Jilvagar buldi kün nečukki arus* (S.S, 415).

2) erta bahor chechaklari:

*Kok arusi tonin qilib zarkaš,
Čiqti andaqki gulruxi mahvaš* (S.S,428).

“Oltin yoruq”da *qiz* leksema “qiz (farzand)” ma’nosida ishlatilgan (DTS,449). Mahmud Koshg‘ariy *qiz* ma’nosida *tilkÿ* (tulki) so‘zi ham qo‘llanishini yozadi: “*tilkÿ*”

(tulki) so‘zi bilan qiz bolaga kinoya qilinadi. Biron xotin tuqqanda doyardan tulki tug‘dimi yoki bo‘rimi deb so‘raladi, yani qizmi yoki o‘g‘ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo‘lganlari uchun tulkiga, o‘g‘il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo‘riga o‘xshatiladi” [Roziqova, 2019: 138].

“DLT”da *qiz* tub so‘zining yuqoridagi semalardan tashqari “cho‘ri, joriya”, “bo‘yi etgan va uyda o‘tirgan qiz” (I,315) ma‘nosida ham qo‘llangan.

“Qiz bola, bokira” (ANATIL, IV, 48) semasidagi *qiz* atamasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma‘no kengayishiga uchrab, quyidagi ma‘nolarda qo‘llanmoqda: 1) balog‘at yoshiga etmagan ayol; 2) xotin jinsiga mansub farzand (o‘z ota-onasiga nisbatan); 3) balog‘atga etmagan, ammo hali erga tegmagan ayol; ma‘suma, bokira; 4) qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib, hurmat, erkalash, o‘ziga yaqin olish (O‘TIL, 5, 276). Asar tilida tubandagicha:

Yetti iqlim šahidin eti qiz,

Har biri lutfu husni yaysiz (S.S,318).

Xulosa va takliflar. “Saba‘i sayyor” dostonida qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma‘nosini ifodalovchi o‘z qatlamga oid so‘zlar salmoqli qo‘llangan.

1. Tub turkiy so‘zlarni gneologik jihatdan qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyosiy o‘rganish natijasida umumiy va farqli xususiyatlari mavjudligi aniqlandi.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mazkur istilohlarning ko‘pchiligi faol qo‘llanadi, ba‘zilari esa iste‘moldan chiqqan.

Asar leksikasi tarkibida qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma‘nosini ifodalovchi atamalar mavzuviy guruhlariga ajratilib, tahlilga tortildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab‘ai sayyor. – Toshkent. 2013. – 270-635 b.
2. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий– тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 55-56.
3. Абдувалиева Д. Алишер Навоийнинг тарихий асарлар лексикаси. Фил фан.бўйи.ф.док дисс... (PhD)– Тошкент. 2017. – Б. 51.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фан, I. 1966. –Б. 31.
5. Бегматов Э. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.53.
6. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”да эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. Лингвист V. – Тошкент: Akademnashr, 2014.– Б. 8-9.

7. Dadaboyev H. “Devonu lug‘otit turk”da ayol jinsining ifodalanishi. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Toshkent. 2022. 19- oktabr. –B. 353.
8. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. XIV аср иккинчи ярми- XX аср боши. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 32.
9. Зиётова С. “Меҳробдан чаён” лексикаси. Монография. – Тошкент. 2023. – Б. 84.
10. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 72.
11. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар //Андижон тип шевадарда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент. 2009. – Б.
12. Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексик тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, 1967. – С. 25.
13. Радлов В.В. Die Alttrükischan schriften. – СПб., 1897. – С. 59. 12.
14. Розикова Г. “Девону луғотит турк” асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид лексемаларнинг семантик хусусиятлари. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Тошкент. 2019. №12.– Б. 138.
15. Saidova M. Qarindoshlik hodisasiga yondashuvlarning shakllanish tarixi. “Antropotsentrik tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I kitob. – Farg‘ona. 2023. – B. 348.
16. Saidova M. Namangan o‘zbek shevalaridagi uda, jiyani terminlarining etimologiyasi va leksik–semantik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Тошкент. 2023. №3. 2023. – B. 358.
17. Холманова З. Бобурнома лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 76.
18. Xo‘janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Fil fan.bo‘yi.f.dok diss... (PhD). – Toshkent. 2022. – B. 64.

Shartli qisqartmalar

- ANAL** – 2013. – 2006. Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент.
- ANATIL** – 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. –Тошкент: Фан.
- DLT** – Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б.
- NAL** – Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – 782 б.
- NTL** – Юсуф Б. Навоий тили луғати. Т. I. Тошкент, 2018. – 493 б.
- S.S.** – 2013. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab‘ai sayyor. – Toshkent.
- TjRS** – Таджикско-русский словарь. – М.: Государственное издательство иностранных и национальный словарей, 1954. – 789 с.
- O‘TIL**– Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. – 679 б.; Т. II. 2006. – 671 б.; Т. III. 2007. – 687 б.; Т. IV. 2008. – 608 б.; Т. V. 2008. – 591 б.
- O‘TEL**– 1) Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет.
- 2) Раҳматуллаев Ш. 2001. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет.
- 3) Раҳматуллаев Ш. 2009. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча-тожикча, тожикча бириклар ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет.

**ALLITERATSIYA POETIK INDIVIDUALLIKNI
BELGILOVCHI VOSITA SIFATIDA
(Mirtemir she'riyati misolida)**

NARGIZA GULOMOVA,

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Navoiy innovatsiyalar universiteti*

Annotatsiya: Jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo'llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbai hisoblanishi bilan zamonaviy tilshunoslikda nazariy hamda amaliy yo'nalishlarning muhim qismiga aylanib ulgurdi. Maqolada mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'libgina qolmay, muayyan muallif tilining turli shakllari axborot tizimiga kiritilgan, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan innovatsion tizim ekanligi haqida ma'lumotlar yiritilgan. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusining takomillashda foydalanilgan statistik tahlillar maqolaning asosini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: statistik tahlil, tavsiflash, Alisher Navoiy mualliflik korpusi, lingvistik ta'minot, lug'at, semantik kategoriya, g'azal.

Аннотация: Создание и использование авторских корпусов становится социальным запросом в мире. Авторские корпуса считаются наиболее удобным источником информации для исследователей и стали важной частью теоретических и практических направлений современной лингвистики. В статье представлена информация об авторских корпусах не только как о средстве ускорения технического процесса, но и как об инновационной системе, в которой различные формы авторского языка включены в информационную систему и могут отвечать даже на неожиданные вопросы об авторе. В основу статьи положен статистический анализ, использованный при совершенствовании авторского корпуса Алишера Навои нового типа.

Ключевые слова: статистический анализ, описание, авторский корпус Алишера Навои, лингвистическое обеспечение, словарь, семантическая категория, газель.

Abstract: Creation and use of author corpora is becoming a social demand in the world. Author corpora are considered the most convenient source of information for researchers and have become an important part of theoretical and practical directions in modern linguistics. The article provides information about author corpora not only as a means of speeding up the technical process, but also as an innovative system in which various forms of the author's language are included in the information system and can answer even unexpected questions about the author. The basis of the article is the statistical analysis used in the improvement of Alisher Navoi's authorship corpus of a new type.

Key words: statistical analysis, description, authorship of Alisher Navoi, linguistic support, dictionary, semantic category, ghazal

Kirish. So'nggi yillarda o'zbek korpus lingvistikasida leksik birliklarni modellashtirish, korpus matnlarini morfologik va semantik tahlil qilish, omonimlarni

aniqlash, leksik birliklarni grammatik va semantik teglash masalalari o‘rganildi. Bugungi kunda o‘zbek tili korpuslari uchun morfoanalizator, parser, semantik analizator imkoniyatlarini yaratish bilan birga o‘zbek tili Milliy korpusining xususiy / tarkibiy korpusi – (subkorpusi) mualliflik korpusi (MK)ni yaratish korpusshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy MKni takomillashtirish va buning uchun Navoiy ijodiy merosini semantik teglash muhim vazifadir [1]. Korpusni takomillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:


1. Alisher Navoiy mualliflik korpusining innovatsion baza va ta’lim resursi sifatidagi ahamiyatini oshirish;
2. Korpusning ta’limiy ahamiyatini oshirish va mumtoz adabiyot materiallari asosida o‘quvchilarning lingvistik, adabiy-nutqiy, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini oshirish maqsadida “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallarning semantik bazasini yaratish;
3. G‘azallardagi izohtalab leksik birliklarning semantik tavsifini berish va ularning ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
4. Foydalanuvchilarning ma’naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish maqsadida she’riy san’atlari mavjud baytlarni leksik-semantik tahlil qilish;
5. Alisher Navoiy g‘azallari leksikasining mazmuniy semantik kategoriyalari tasnifini tuzish [2].

Mualliflik korpuslarini takomillashtirish texnologiyasi prinsiplari, yangi tipdagi Alisher Navoiy MKdan foydalanishning afzalliklari va uning leksik-semantik teglar bazasiga qo‘yilgan talablar aniqlanib, [3] korpusga ma’lumotlarni taqdim etishni konseptualashtirish tamoyillari nazariy jihatdan asoslandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKni takomillashtirishda asosan, *statistik metodga* tayanildi. Mutafakkirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini mantiqiy mezonlar asosida tartiblaganlifini kuzatish mumkin. Kulliyotning har bir devonida 650 tadan g‘azal joylashtirgan bo‘lib, qofiyalanishiga ko‘ra arab alifbosi asosida, miqdori bo‘yicha qat’iy tarzda tartiblagan [4]. Jumladan, “alif” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallar to‘rtala

devonda ham 39 ta, “be” harfi bilan 27 ta, “pe” harfi bilan tugallangan g‘azallar 2 ta kabi joylangan:



1-chizma. “Xazoiyin ul-maoniy” kulliyotida g‘azallarning arab alifbosi tartibida joylashuvi.

Mutafakkir kulliyotni tartiblar ekan, har bir devonda bir xil radifli g‘azallar teng miqdorda kelishiga katta ahamiyat bergan. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida hammasi bo‘lib “Ango” radifli 12 ta g‘azal mavjud [5]. Bu g‘azallar to‘rtala devonga uchtadan teng tarzda taqsimlangan va har bir devonning 8-9-10-o‘rinlarida joylashtirilgan. Shuningdek, kulliyotda “Manga” radifli g‘azallar jami 20 ta bo‘lib, har bir devonda beshtadan (11-12-13-14-15-o‘rinlarda), “Sanga” radifli g‘azallar esa jami 8 ta, har bir devonga ikkitadan (16-17-o‘rinlarda), “Aro” radifli g‘azallar beshtadan, jami 20 ta (18-19-20-21-22-o‘rinlarda) berilgan [6]. Devonlardagi g‘azallarning bunday mutanosiblikda keltirilishi Navoiyning mantiqiy mulohazasi o‘ta kuchliligidan darak beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

“Xazoin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azalda Navoiyning ijod uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, g‘azallarda qo‘llangan so‘zlar ko‘lamini, o‘ziga xos yozish uslubi *statistik tahlil* metodi yordamida aniqlandi. Alisher Navoiy mualliflik korpusiga g‘azallardagi so‘zlarni semantik teglab joylashtirishda, har bir g‘azalda, devonlarda, umumiy kulliyotda nechta so‘zshakl borligini aniqlash muhimdir.

1-jadval. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlarda so‘zshakllar miqdori.

“G‘aroyib us-sig‘ar”	4975 bayt – 9950 misra	Jami 75 ming 350 ta, g‘azallarda 66 954 ta so‘zshakl
“Navodir ush-shabob”	4998 bayt – 9996 misra	Jami 71 ming 527 ta, g‘azallarda 66 596 ta so‘zshakl
“Badoye’ ul-vasat”	5001 bayt – 10002 misra	Jami 71 ming 580 ta, g‘azallarda 66 539 ta so‘zshakl
“Favoyid ul-kibar”	5029 bayt – 10058 misra	Jami 75 ming 911ta, g‘azallarda 66 722 ta so‘zshakl
Jami:	20003 bayt – 40006 misra	Jami 294 368 ta, g‘azallarda 266 811ta so‘zshakl mavjud.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyotida 5-10 baytli g‘azallar ko‘p uchraydi. “Xazoyin ul-maoniy”da g‘azallar hajmi 5 baytdan 13 baytgacha: 5 baytli – 2 ta, 6 baytli – 5 ta, 7 baytli – 1747 ta, 8 baytli – 58 ta, 9 baytli – 695 ta, 10 baytli – 19 ta, 11 baytli – 69 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 5 tani tashkil etadi. Demak, Navoiy lirikasida 7 baytdan 9 baytgacha hajmda bo‘lgan g‘azallar ko‘p [7]. Alisher Navoiy MKda bu kabi *statistik tahlillar* muhim hisoblanib, foydalanuvchiga aniq hisobni beradi va ma’lumotlar bazasi ustida ishlash qamrovini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda shoir g‘azallarini lingvistik va lingvopoetik mezonlar asosida tadqiq etish orqali o‘zbek adabiy tilining tarixiy tadriji haqida aniq xulosa chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar

Alisher Navoiy korpusida semantik teglash xususiy negizga, ya’ni mohiyatga ega. Ma’lumki, XV asr tili hozirgi o‘zbek tilidan farq qiladi va bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘plab iste’moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o‘tgan leksik birliklar mavjud. Ularni biz izohtalab so‘zlar deymiz [8]. Bunday so‘zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko‘rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Shu bois, g‘azallar konseptuallik tamoyini asosida, ya’ni muayyan so‘z o‘zi bilan bir baytda kelgan boshqa so‘zlar qurshovida, baytning asosiy mazmunidan xulsosalanib tahlil qilindi hamda ma’lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo‘ldi [9]. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlarda yuqorida qayd etilganidek, 20003 bayt (40006 misra), 266 811ta so‘zshakl mavjud bo‘lib, korpus bazasiga quyidagi ma’lumotlar kiritildi.

2-jadval. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasidagi tahliliy ma'lumotlar.

Teglan gan so'zlar	Maqol	Ibora	Talmeh	Tanosib	Tazod	Tashbih	Tasdir	Tasbe'
266 811 ta	124	92	883	3000 mingdan ortiq	253	124	145	32

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallarda izohtalab “ganj” so‘zi 65 o‘rinda qo‘llanilgan bo‘lib, turli semantik ma‘nolarni ifodalab kelgan E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “ganj”so‘zining 6 xil ma‘nosi baytlar misolida izohlangan. [10]. Aksariyat g‘azallarga ganj xazina, boylik ma‘nolarini ifodalshda xizmat qilgan:



1-rasm. Ganj so‘zining semantik ma‘nolari.

Korpusdan foydalanuvchi kursorni izohtalab so‘z hisoblangan ganj so‘zining ustida harakatlantirsa, misrada qaysi leksik ma‘noni anglatib kelishi ma‘lum bo‘ladi. Bu innovatsion yondashuv orqali foydalanuvchi qisqa vaqtda izohtalab so‘z(shaklning) aniq ifoda ma‘nosini anglab oladi. Ganj leksemasini ko‘p ma‘noli bo‘lib, leksek-semantik guruhga tasniflashda misralarda uchragan barcha ma‘nolarini hisobga olish zarur. Quyida “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni g‘azallarida uchragan ganj so‘zining leksik-semantik ma‘nolari tahlil qilindi:

18-g‘azal 1-baytda “ganj” so‘zi – *husn ganji, husn xazinasi* ma‘nosida qo‘llangan. Ma‘shuqaning alifdek go‘zal qomati oshiq jonining o‘rtasida joylashib, unga hayot

bag‘ishlaydi. Tengsiz husning xazinasini vayron, ya‘ni qiynalغان oshufta ko‘ngilga (javhar – nozik his-tuyg‘ular ma‘nosida kelgan) ajib tuyg‘ular soladi, deya oshiq iztirobini aks etadi:

Ey alifdek qomating mayli buzulg‘an jon aro

Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro.

98-g‘azalning 6-baytida “*ganj*” leksemasi *xazina*, *boylik* ma‘nolariga ishora qilmoqda. Oshufta jonimga sening sof ishqing kimgach ko‘nglimni halok qildi, bu holat sulton xazinani yashirganda guvohi bo‘lgan sirdoshi yoki hamdamining jonini olgani kabidir mazmuni ifodalangan:

Jong‘a qo‘yg‘ach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok,

O‘lturur mahramni sulton **ganj** pinhon aylagach.

Navbatdagi baytda “*ganj*” nozikfahm ma‘nosini anglatib qilmoqda:

Tab’ **ganj**idini maoni xurdasin, yuz qatla hayf

Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

Shohlarga ko‘nglingdagi ma‘noli so‘zlarni aytishing yuz marta hayf, bekordir, chunki men bunday so‘zlarni tinglaydigan biror o‘tkir zakovatli, nozikfahm shohni topa olmadim, – deydi shoir 412-g‘azalning 9-baytida.

Ganji ilm ettim ko‘ngul kunjin, yetishkach sayli ishq,

Har imoratkim, qilib erdim xarob o‘ldi yana.

Ushbu baytda “*ganj*” so‘zi *ilm makoni*, *ilm xazinasini* ma‘nolarini yoritish uchun xizmat qilgan. G‘azal sof ishqiy mazmunda bo‘lib, ma‘shuqaning ishq yo‘lida oshiqqa qilgan sitamlari yoritilgan. Ko‘nglimning har kunjiga, ya‘ni har burchagiga ilm xazinasini terib ajib imorat qurgan edim, ammo ko‘nglimga ishq sayli (*sayl* so‘zi g‘azallarda ikki xil ma‘noda qo‘llanilgan: 1. sel, qattiq yong‘in; 2. kuchli suv oqimi, to‘lqin), ya‘ni ishq seli yetgach, ko‘nglim ichra qurgan imoratlarim xarob bo‘ldi, deydi shoir.

Muflis erdim may qilib sing‘on safolim jomi Jam,

Xotirim vayronasin xud **ganji** Qorun qildilo.

Devondagi “Qildilo” radifli 573-g‘azalning 6-baytida “*ganj*” leksemasi – *oltin*, *kumush* kabi ma‘nolarni ifodalamoqda. Baytda afsonaviy podshoh hisoblangan Jamshid hamda cheksiz boylik va xazinaning ramziy timsoli Qorun obrazlari keltirilgan. Manbalarga ko‘ra, *Jamshid* – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi, “Jomi jahonnamo” – jahonni ko‘rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o‘tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo‘ladigan voqealar ham aks etar ekan. Demak, “jomi Jam” – tunganmas boylik va ishrat, saltanat ramzi. *Qorun* – Muso payg‘ambar (a) zamonida yashagan xasis boyning nomi, Qur‘oni Karim (28-sura, 76-oyat; 29-sura, 38-oyat)da zikr qilingan g‘oyatda badavlat kishi [11]. Olloh uni imtihon qilish va insonlarga ibrat bo‘lishi uchun hisobsiz boyliklar berdi. Uning mol-u-davlati

shu darajada ko'p ediki, boyliklari saqlanadigan xazinalarining kalitlarini ko'tarib yurish uchun bir nechta odam xizmatda bo'lganligi manbalardan ma'lum. Sehr-jodu tufayli juda ko'p boylikka ega bo'lib, Muso (a)ga qarshi fitna uyushtiradi [12]. Muso (a) duosi tufayli yer qa'riga kirib ketadi. Rivoyatlarga ko'ra, bugun topilayotgan oltin konlari aslida Qorun xazinasi bo'lgan ekan [13]. Bayt mazmuni quyidagicha: muflis, ya'ni faqir, bechora holimda siniq sofolda may ichdim-u, jarohatlangan bu ko'nglim hisobsiz xazina egasi Qorundek bo'ldi. Baytni tasavvuf nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, Olohni sevgan, uning jamoliga talpinib yashagan ko'ngil borki, garchand uning moddiy boyliklari bo'lmasa ham, qalban boy va ma'nau qudratlidir. Shoir ushbu baytda ham tasavvufiy e'tiqodga amal qilib, Olohga ko'ngil bog'lagan kambag'al, bechoraning faqir hayotini kibrga berilgan podshohlarning hashamatli hayotidan ustun qo'yadi.

Korpus bazasiga kiritiladigan har bir izohtalab leksema uchun informatsion qidiruv imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular quyida ko'rsatilgan tizimli ketma-ketlik asosida ishlaydi:

- korpus bazasiga kiritiladigan ma'lumotlarni jamlash;
- korpus bazasiga kiritiladigan ma'lumotlarni maxsus tartib asosida tasniflash (4-jadval).
- so'z(shakl)larning qidiruv obrazini yaratish;
- bazada ma'lumotlarni qidiruv uchun qulay tarzda kiritish va saqlash;
- korpus bazasiga kiritiladigan ma'lumotlar asosida qidirish va natijani chiqarish (2-rasm).

Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko'p jihatlari bilan farqlanadi, xususan, g'azallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda ma'no torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, o'qishli bo'lishini ta'minlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim [14].

Alisher Navoiy MKning arxitekturasi va algoritmining o'ziga xosligi uni mavjud boshqa mualliflik korpuslaridan farqlaydi. Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKning arxitekturasi, korpusning ishlash algoritmi, tarkibiy tuzilishlari quyidagi ko'rinishda loyihalashtirildi: Alisher Navoiy MKda ish jarayoni quyidagi biznes-jarayon modelga ega:

Korpus bazasiga ma’lumotlarni kiritishda qo‘yiladigan asosiy talablardan biri materiallar mashina formatida qayta ishlanishi kerak. Bu elektron formatga o‘tkazilgan matnlardagi har bir lingvistik birlik ustida statistik, grammatik va semantik amallarni bajarishga zamin yaratadi. Mazkur tadqiqotimizda Alisher Navoiy MK uchun obyekt sifatida tanlab olingan 1950 ta g‘azal 1) uch devonning pdf formatidan qayta ishlash va mashina o‘qishi uchun word formatga o‘tkazildi; 2) g‘azallar tahrirlandi; 3) kirill yozuvidan lotin grafikasiga o‘tkazilib, asosiy imlo qoidalariga muvofiq qayta tahrir qilindi; 4) g‘azaldagi lingvistik birliklar grammatik teglandi; 5) izohtalab so‘zlarga semantik tavsif berildi; 6) “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi lingvistik birliklar semantik teglandi. Semantik teglarga ega birliklar, 12ta semantik guruhni tashkil etdi; 7) baytlardagi irsoli masal, talmeh, tasbe’, tasdir, tanosub, tazod san’atlariga oid birliklar jamlandi; 8) tarixiy so‘zlar, jumladan, arxaizm va istorizmlar bazasi shakllantirildi, arxaizmlarning bugungi kundagi muqobillari berildi [16].

Teglash jarayonida Alisher Navoiy g‘azallarida bir misrada muayyan so‘z kollokatsiya holatida kontekstual ma’noni bera olishi, aniqrog‘i, Alisher Navoiy nazarda tutgan ma’no butunligi yuzaga kelishi e’tiborga olinib, muayyan bir ma’noni beruvchi so‘z birikmalari bitta semantik guruhga kiritildi, bunday holda ular bitta belgi bilan kodlanadi. Masalan, 590-g‘azalning “Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni” misrasidagi izohtalab so‘zlar semantik teglanganida maxsus 13536 kod raqami misradagi barcha so‘zshakllariga biriktirib chiqiladi. Bu, birinchidan, misrani mashinaga tanitish usuli hisoblansa, ikkinchidan, ushbu satrdagi so‘zlarga berilgan semantik tavsif aynan 13536 kodga ega 590-raqamli g‘azalga mansub semantik izoh ekanligini mashina qabul qilinadi[17].

4-jadval. Misralarning kodlanishi

10691	13536	Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni.	590
10692	13537	Dahr bog‘ida nechuk vast guli butankim.	590
10693	13538	Hajr o‘qdir yog‘ini, ashk suydir javuni.	590
10694	13539	Gar Navoiy so‘ngakiga tutashur ko‘nglidin o‘ti.	590
10695	13540	Ne ajab, ishq o‘tidur ulu bu aning o‘tuni.	590
10696	13541	Ul quyosh oquyda-yu men muztaribmen har san.	591
10697	13542	Uylakim, fomsdin parvona qolg‘ay tashqari.	591

4-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan misradagi: 1) *dayr* – *dunyo*; 2) *falak* – *osmon*; 3) *eng* – *yuz*; 4) *xirqa* – *eski juldur kiyim*; 5) *yurun* – *yamoq* so‘zshakllari 13536 raqam bilan identifikatsiyalangan.

5-jadval. Misradagi soʻzlarga semantik tavsif biriktirishi

11970	590	Davr	davr – davro	13536
11971	590	eng yul	eng yul	13536
11972	590	falak	falak – osmon	13536
11973	590	yuruni	yurun yurmoq	13536
11974	590	xirqa	xirqa – eski jildu kiyim	13536
11975	590	hujr	hujr ayriliq	13538
11976	590	yogʻini	yogʻin – yongʻin	13538
11977	590	ashk	ashk koʻz yoshi	13538
11978	590	javoni	javon – darvo	13538

Teglashning boshqa turlarida boʻlgani kabi semantik tegning ham yagona shakli boʻlmaydi. Soʻzlarni semantik teglash jarayonida harf va raqamlardan iborat ramzlardan foydalaniladi.

Xulosa va takliflar

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti gʻazallaridagi izohtalab soʻzlarning semantik ifodasi teglanib, korpusga jamlanishi Alisher Navoiy MK bazasining boyitilishiga erishiladi va oʻzbek milliy korpusshunosligimizning taraqqiyotiga bir hissa boʻladi.

Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika koʻp jihatlari bilan farqlanadi, xususan, gʻazallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda maʼno torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, oʻqishli boʻlishini taʼminlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim. Korpus bazasida koʻp maʼnoli soʻzlarning misralarda ifodalab kelgan har bir maʼno munosabatini eʼtiborga olib, semantik guruhlariga ajratish, foydalanuvchining soʻz boyligini oshishida yordam beradi. Mualliflik korpusini yaratishda korpus bazasiga kiritiladigan matnlarning semantik xususiyatlarini kengroq yoritib berish, ijodkor foydalangan leksemalarni bir teg ostida leksik guruhlariga ajratish muhim hisoblanadi. Gʻazaldagi soʻzlarni leksik-semantik guruhlariga ajratish orqali shoirning uslubini, soʻzni qoʻllash mahoratini, aniq va toʻliq tarzda, qisqa vaqt ichida bilish imkoniyati mavjud boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qoʻllanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733>
3. Abjalova M., E. Adali and O. Iskandarov, “Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities,” 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.

4. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-4-жилдлар. – Тошкент: Фан, 1959-1960.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977. – В. 56.
7. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences; Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850. 2022.9919546
8. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5
9. Abjalova M.A. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 1 жилд – Тошкент: Фан, 1983-1985. – В. 32.
11. Носириддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – В. 271.
12. Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – В. 23.
13. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – В. 721.
14. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 22.04.2022. – В. 89-93.
15. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – В. 103.
16. G‘ulomoav N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodur ushshabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. Ўзбекистон

Миллий университети хабарлари. – Тошкент. ISSN 2181-732472-752024. №1/3/1. – Б.72-76.

17. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston: til va ma’naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B. 14-32.



XORAZM ADABIY MUHITIDA ARAB TILIDAGI MANBALARNING PAYDO BO'LISH OMILLARI



Azamat Atayev,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitini o'rgangan xorijlik olimlardan Hind Husayn Toha, Yoqut al-Hamaviy ma'lumotlariga tayanilgan. VIII–XIII asrlarda yashab o'tgan shoirlardan Muhammad Avfiy, Abul Fazl Hiloliy, Ali ibn Ma'mun ibn Muhammad xorazmshoh va ukasi Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun xorazmshohga vazir bo'lgan Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Suhayliy, Abul Fazl Ahmad ibn Ali Saffor Xorazmiylar xususida to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, somoniylar, g'aznaviylar hamda saljuqiylar hukmronligi davridagi adabiy muhit ilmiy misollar orqali qiziqarli ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: arabiyzabon, tarixiy manba, adabiy manba, adabiy muhit, arab adabiyoti, ijtimoiy omillar, siyosiy omillar, balog'at, fashohat, manbashunoslik, matnshunoslik.

Аннотация: Данная статья опирается на сведения Хинд Хусейна Тоха и Якута аль-Хамави, среди зарубежных учёных, изучавших литературную среду Хорезма. Среди поэтов, живших в VIII-XIII веках, Мухаммад Ауфи, Абул Фазл Хилали, Али ибн Ма'мун ибн Мухаммад Хорезмшах и его брат Абул Аббас Ма'мун ибн Ма'мун, который был министром хорезм-шаха, Абул Хусейн Ахмад ибн Мухаммад Сухайли, Абул Фазл Ахмад ибн Али Саффар даёт полную информацию о Хорезме.

Ключевые слова: Арабский язык, исторический источник, литературный источник, литературная среда, арабская литература, социальные факторы, политические факторы, взрослая жизнь, красноречие, источниковедение, текстоведение.

Annotation: This article relies on the information of Hind Husayn Toha and Yaqut al-Hamawi, among the foreign scholars who studied the literary environment of Khorezm. Among the poets who lived in the 8th-13th centuries, Muhammad Awfi, Abul Fazl Hilali, Ali ibn Ma'mun ibn Muhammad Khorezmshah and his brother Abul Abbas Ma'mun ibn Ma'mun, who was a minister to Khorezm Shah, Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Suhayli, Abul Fazl Ahmad Ibn Ali Saffar provides complete information about the Khorezms.

Key words: Arabic language, historical source, literary source, literary environment, Arabic literature, social factors, political factors, adulthood, eloquence, source studies, textual studies.

Kirish. Dunyo xalqlari tarixi, xususan, Sharq mintaqa hududida Xorazm kishilik jamiyatining koʻhna manzillari qatorida eʼzozlanadi. Rivojlangan davlatlar bilan oʻzaro savdo-sotiq, diplomatik aloqalarning yoʻlga qoʻyilishi hududga yangiliklarning tez kirib kelishini taʼminlagan. Tabiiyki, qadim karvon yoʻllarida joylashgan Xorazm bu davrda yashash uchun eng qulay hudud sifatida dong taratgan. Xorazm shohlarining qudrati, ilm-fanga boʻlgan eʼtibor, qizgʻin ijodkorlik muhiti iqtidorli kishilardagi qobiliyatning yuzaga chiqishiga turtki boʻlgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi tarixiy, adabiy, ilmiy manbalarda Xorazmning boy tarixi, isteʼdodli kishilari haqida qimmatli maʼlumotlar yozib qoldirilgan. Xususan, jugʻrofiy olim Qudoma ibn Jaʼfar (320-hijriy) Xorazmni Xuroson mulkidan, Istaxriy esa Movarounnahr mulkidan, Yoqut al-Hamaviy "Movarounnahr va Xurosondan ayro oʻlka", yaʼni ularga oʻxshamaydigan alohida bir oʻlka deb hisoblagan. Xorazm Ummaviylar va Abbosiylar hukmronligidan soʻng Somoniylar (261–389-hijriy), Saljuqiylar (552-hijriy yilga qadar) va Xorazmiyshohlar (628-hijriy yilgacha) tarkibida boʻldi. Jumladan, arab sayyohi Ibn Batuta: "Xorazm – bu turklarning katta, muhim, chiroyli va ulugʻvor shahri boʻlib, ajoyib bozorlari, keng koʻchalari, koʻplab imoratlari, jozibador va koʻrkam joylari bor. Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik koʻpki, u mavjlanib turgan dengizni eslatadi" [1], – deb taʼriflaydi. Abulqosim Zamaxshariy "Xorazmda boshqa yurtlarda topilmaydigan fazilatlar bor [2]", – deya eʼtirof etadi. Koʻrinadiki, Xorazm Movarounnahr va Xuroson hududida oʻziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi eʼtiborga sazovor oʻlka sifatida qadrlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Islom dini kirib kelgandan soʻng Xorazmda arab tilidagi adabiyotning paydo boʻlishi va rivojlanishida hukmdor doiralarning taʼsiri katta boʻldi. Bu hudud aholisi asta-sekinlik bilan islom dinini qabul qilib, Qurʼoni karim tili boʻlgan arab tilini oʻrgana boshladilar. Natijada, arab tili ilmiy va adabiy til sifatida ziyolilar orasida yuqori mavqega ega boʻldi, adabiy muhit, ijodiy muloqot arab tilida olib borildi. Ayniqsa, vazir Abu Muhammad Abdulloh ibn Ibrohim Raqqoshiy (hijriy 418, milodiy 1027-yilda vafot etgan), vazir oilasida tarbiya topgan xorazmshoh Ali ibn Maʼmun va Abu Abbosga vazir boʻlgan uning ukasi Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Suhayliy, Xorazmda vazir boʻlgan Abu Abdulloh ibn Ibrohim Tojir [3] va "Al-Muhammaduna minash shuaro va ashʼoruhum" ("Shoirilar ichida Muhammad ismli boʻlganlari va ularning sheʼrlari") kitobida alohida tilga olingan Muhammad ibn Ibrohim Abu Abdulloh Bajiriy [4] kabi oʻz davrining yuqori martaba va baland maqomga ega insonlari Xorazm va Movarounnahrda arab tilidagi adabiyot rivojida muhim oʻrin tutdilar.

Mujib Misriy bu xususda shunday deydi [5]: "Arab, fors va turk adabiyotida mushtarak boʻlgan jihatlardan biri bu – xalifa, sulton, podshoh va vazirlar orasidan koʻplab shoirlar chiqqanidir. Adabiyot roviylari ushbu uch millat (arab, fors va turk)

orasidan ilk she'riyatni saltanatda dong taratgan podshohlardan chiqqan shoirga nisbat berishga ijmo' qilishdi. Bu borada Abulqosim Ismoil bin Abbod bin al-Abbos bin Ahmad bin Idris at-Tolqoniy (hijriy 326–385-yillarda yashagan mashhur olim) o'zining: “She'r podsho bilan boshlanib, podsho bilan tugadi” – degan mashhur gapini aytadi (Bunda u Imriul Qaysni va Abu Forisni nazarda tutgan)” [2].

Forslar nazdida esa she'r adabiyot roviylari zikr qilganidek, sosoniy amirlaridan biri Bahrom Go'r tomonidan yaratilgan [6]. Arablar nazdida esa, Sohib ibn Abbod ishora qilib aytganidek, Imriul Qays ilk she'r muallifi sifatida tilga olinadi.

Tahlil va natijalar. Bu davr adabiy muhiti haqida Hind Husayn Toha: “Biz aqliy hayotni o'rganish asnosida ushbu mintaqqa olimlari fiqh, hadis va shu kabi ilmlardan bahramand bo'lish maqsadida uzoq shaharlarga safar qilishgani guvohi bo'ldik. Bu mintaqadagi adiblar ham Bag'dod, Shom va Misr singari shaharlarga safar qilishgan va qadim adabiyotni naql qilib, o'zlariga hamzamon adiblar adabiyotidan xabardor bo'lishgan” – deb qat'iy ishonch bilan yozgan edi [2]. Misol uchun, Abu Bakr Xorazmiy ko'plab shaharlarni kezgan. Shom, Halab, Ray, Nishopur va boshqa shaharlarda arab tarixi haqida ma'ruzalar qilib, shuningdek, lug'at, nahv fanidan darslar ham bergan edi [7].

Islom fathidan uch asrcha vaqt o'tgach, Xorazm mintaqasi ko'plab arab tilida ijod qiluvchi shoirlarni etishtirib chiqardi. Ularning tarjimayi hollarini o'rganar ekanmiz, ayrim shoirlar ijodining bir qismi saqlanib qolgani, Abu Bakr Xorazmiyning devoni esa butunlay yo'qolib ketganini ko'ramiz. Ayniqsa, mo'g'ullar istilosi davrida Movarounnahr shaharlarida deyarli barcha narsalar vayron qilingan.

Ta'kidlash joizki, Hind Husayn Toha Xorazmdagi arab tilida yaratilgan adabiyotni e'tirof etar ekan, “Xorazm adiblari she'rlaridan voqif bo'lar ekanmiz, biz arablar Xorazm shoir-u adiblari ila faxrlanishga haqli bo'lganimizdek, Xorazm ahli ham shoir-u adiblari ila faxrlanishga munosibdirlar. Chunki ularning ajdodlari arab tilida beqiyos meros qoldirib, arab adabiyotining nazmu nasrida ulug' maqomlarga erishishgan” [2], deb ta'kidlagan edi.

XI asrda Xorazm vohasida ijod qilgan ko'plab shoirlar uchun qadim boy an'analarga ega arab adiblariga taqlidan qalam tebratish tabiiy hol bo'lgan. Muhammad Avfiy fikricha, “Hanafiy mahzabining quyoshi Ajam xalqlar uzra chiqa boshlagach, forslardan latif tabiat sohiblari arab fozillari bilan birga yashab, ularning nurlaridan (ya'ni arabiy adabiyotdan) iqtibos olar, ularning uslublaridan voqif bo'lib, bahrning daqiq jihatlaridan xabardor bo'lar va vazn, qofiya, roviy, sanad, arkon, fosila kabilarni o'rganib [8], so'ngra ushbu uslubda ijod qilar edilar”, – deydi [9].

Somoniylar davrida ham arab tilida ijod qiluvchi ko'plab shoirlar yetishib chiqqan. Jumladan, Abu Sa'iyd Shabiybiy somoniylar va buvayhiylar davlatini madh

etishda birinchilardan bo‘lib tanilgan shoirdir. Shu sababli u “ikki qo‘shin egasi”, “ikki davlat shayxi” deb nom olgan [10].

Somoniylar davri haqida so‘z ketganda ma‘muniy xorazmshohlar saroyi haqida ham to‘xtalib o‘tishimiz zarur. Ma‘lumki, Abu Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun Xorazmshohning saroyida adabiyotga e‘tibor katta bo‘lgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy aytganidek, ma‘muniy shohlar o‘z hayotlarini somoniylarga tobe‘ voliylik bilan boshlashgan. Somoniy davlatining qulashi va g‘aznaviylar davlati tiklanishi orasidagi bir muddat davomida mustaqil bo‘lganlar. Ma‘mun ibn Muhammad Xorazmshoh, uning o‘g‘li Ali ibn Ma‘mun ibn Muhammad Xorazmshoh, Abu Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun ibn Muhammad Xorazmshohlar mazkur sulolaning mashhur hokimlari bo‘lishgan. Aruziy Samarqandiy fikricha, Abu Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun ibn Muhammad Xorazmshoh ma‘muniy podsholarning afzali, ilm va hikmat ahlining sadoqatlisi bo‘lib, uning saroyi adiblar maskan tutgan joy bo‘lgan.

Xorazmshohlar asridagi mashhur shoirlardan biri Abul Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun ibn Muhammad Xorazmshoh davridagi Abul Fazl Hiloliydir. Imom Qiftiy u haqda: “U buyuk shoir va adibdir” – deya ta‘rif bergan.

Shoirlardan yana biri Ali ibn Ma‘mun ibn Muhammad xorazmshoh va ukasi Abul Abbas Ma‘mun ibn Ma‘mun xorazmshohga vazir bo‘lgan Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Suhayliydir.

Bu asrda yashab o‘tgan shoirlardan yana biri Abul Fazl Ahmad ibn Ali Saffor Xorazmiy bo‘lib, u haqida Yoqut al-Hamaviy “Mu‘jam ul-udabo” asarida: “Xorazmning fozillari, bolig‘lari va kotiblaridan edi. U o‘ziga xos she‘rlar ijodkori va risolalar sohibi bo‘lgan” – deya ta‘rif bergan.

G‘aznaviylarning hukmronligi hijriy 408 (milodiy 1107)-yilda nihoyasiga yetgach, ulardan keyin taxtga kelgan Banu Buvayhning bu o‘lkada hukmronligi uzoq davom etmagan. Biroq arab adabiyoti rivojida ular yuksak e‘tirofga loyiq, hatto aksariyat amirlar she‘r yozishi bilan arab adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishgan. Biz ularning fazilatlarini haqida gapirar ekanmiz, g‘aznaviylar hukmronligi ostida yashab, ular madhida she‘rlar bitgan ulug‘ adib Abu Bakr Xorazmiyni misol qilganimizdek, arab tilidagi adabiyot bayrog‘ini yuqori ko‘targan ularning vazirlari – Abul Fazl Ibn Amid va Sohib ibn Abbodlarni ham ta‘kidlab o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Saljuqiy sulton Sanjar va xorazmiy sulton Otsiz o‘rtasidagi qattiq bellashuvning ta‘siri saljuqiylar davrida ham yetuk shoirlar dong taratishiga sabab bo‘lgan. Eron olimi Zabihullo Safo ishonchli manbalar asosida: “Otsiz oilasi tomonidan xorazmshohlar hududining katta qismi barpo qilingan edi. Unga hukmronlik qilgan hukmdor va amaldorlar turkiy xalq vakillari bo‘lishgan” – deb yozadi [11].

Otsiz iste‘dodli kishi bo‘lib, she‘riyatga o‘zgacha ixlos bilan yondashgan. U Abul Fazl Ahmad ibn Ali Saffor Xorazmiyni juda hurmat qilgan, uning san‘atiga xaridor edi. U

bo‘sh vaqtlarini shoirlar va ahli fozillar davrasida o‘tkazgan. Shoh sifatida shoirlarni juda katta mablag‘lar bilan ta‘minlagan. Sulton Sanjar huzurida bo‘lgan shoir Anvariyy va Xorazmshoh xizmatidagi Rashididdin Vatvot o‘rtasidagi mushoira, ayniqsa, mashhurdir. Ushbu voqea Davlatshoh Samarqandiy tomonidan ham keltirilgan [12].

Ba‘zan saljuqiyy va xorazmiyy hukmdorlar o‘rtasida kechgan janglar shoir va adiblarning faollashuviga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Sababi o‘zaro jang olib borayotgan ikki tomon o‘rtasida *hamosiy* (jangu jadallar haqida yozilgan she‘riyy to‘plam) va *hijoiiy* (dushman tarafni hajv qilib yozilgan she‘riyy to‘plam) she‘rlar ham ko‘payardi. Yuqorida aytganimizdek, bu holat sulton Sanjar Hazorasp qal‘asini qamal qilganida (hijriyy 117, milodiy 542-yil) o‘zaro dushman bo‘lgan ikki davlat shoirlari – Otsizning shoiri Rashididdin Vatvot va sulton Sanjarning shoiri Anvariyyning she‘riyy kurashlarida, she‘riyy tortishuvlarida yaqqol ko‘rinadi [2].

Mazkur turkiyy hukmronlik asrida yetishgan ijodkorlardan ulug‘ adib va mufasssir Jorulloh Zamaxshariyy, “Shamsul Mashriq” (“Mashriq quyoshi”) nomi bilan mashhur Mahmud ibn Aziz Oriziy [10], faqih, nahv olimi, lug‘at, bayon, adab, aruz va she‘r ilmida tengsiz bo‘lgan Abul Fath Nosiruddin ibn Abul Makorim [10] va Abul Qosim ibn Husayn ibn Muhammad Xorazmiyy (hijriyy 617-yilda mo‘g‘ullar jangida o‘ldirilgan)larni qayd etish mumkin [13]. Abul Qosim ibn Husayn ibn Muhammad Xorazmiyy haqida Yoqut al-Hamaviyy “Mu‘jamul udabo”da “Haqiqatda, fazilatli kishilarning peshvosi, arab ilmida zamonasining tengsizi, o‘tkir zehn, teran aql sohibi, adabiyotda benazir, she‘r va xutbalarni nazm qilishda beqiyos, o‘z zamonasida “Aynuz zamon” deya tan olingan” – deya ta‘rif bergan [14].

Yuqoridagilarga asosan xulosa qilish mumkinki, turkiyy millatga mansub adiblar g‘aznaviyy, saljuqiyy va xorazmiyy sulolalar davrida o‘z hukmdorlarining she‘r va adabiyotga qiziqishlari, ijodga e‘tibor, o‘zaro raqobat natijasida asrning mintaqadagi eng ulug‘lariga aylanishgan.

Ushbu mintaqadagi adabiy muhit va hukmron sulolalar holatini o‘rganar ekanmiz, avvalgi uch asr, ya‘ni VII–IX asrlar adabiyot rivojining dastlabki bosqichi bo‘lgani, arab tili bu mintaqada yuksalish cho‘qqisiga yetib, adabiy tillar o‘rnini egallagani ko‘ramiz. Arab va fors tilida ijod qiluvchi adiblarning har ikki tilda yozilgan asarlari ko‘payib borgan, X asrga kelib esa arab tilini puxta o‘zlashtirib, ikki tilda ham barobar kitoblar ta‘lif qiladigan, nazm va nasrni go‘zal tarzda ifoda eta oladigan adib va shoirlar yetishib chiqqan. XII asrga kelib, mahalliy xalq o‘z ona tili – milliy til rivojiga jiddiy e‘tibor qarata boshlagan. O‘zlarining qadimiy shon-shuhratini tiklash, siyosiy, ilmiy va adabiy faolligini saqlab qolishga harakat boshlangani sababli o‘lka madaniy hayotida arab tilidagi ijod muhiti biroz susayadi. Natijada, mahalliy xalq orasida arab tilida ijod qiladigan adiblar anchayin kamayib ketadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, XII asr Jorulloh az-Zamaxshariyy, Faxriddin ar-Roziyy, Rashididdin Vatvot, Imroniyy, Ibn Shirin

al-Jundiyy, Qosim ibn Husayn va Mutriziyy kabi olimu adiblar ko‘pligi bilan boshqa asrlardan ajralib turadi [2].

Shuningdek, vohaga kelib, adabiyot rivojiga hissa qo‘shgan insonlar ham alohida bir guruhni tashkil qilgan. Balxlik Rashididdin Vatvot, xurosonlik Kulsumiy, shomlik Ibn Aniyn, Andalus shaharlaridan biri G‘ornotadan G‘ornotiy va nisolik Imom Nasaviylar shular jumlasidandir.

Yana g‘urbat bu o‘lkaga chorlab, to vafotigacha ushbu o‘lkada muqim bo‘lgan olimlardan biri – “qassob” nomi bilan tanilgan, “sori’ul ka’s” (jom sindiruvchi) laqabi bilan mashhur kotib Muhammad ibn Husayn ham asli Nishopur ahlidan bo‘lib, imom Qiftiyning aytishicha, u go‘zal husnixat va ko‘rkam nazm sohibi bo‘lgan [4].

Xorazmda arab tilidagi adabiy muhitni to‘la tasavvur qilish uchun, nazarimizda, ijtimoiy-siyosiy omillarni yuzaga keltirgan tarixiy jarayonga nigoz tashlash maqsadga muvofiqdir. X asrning oxirlarida Shimoliy Xorazmning hukmdori bo‘lmish Ma‘mun ibn Muhammad mamlakatni birlashtirib, o‘zini Xorazmshoh deb e‘lon qildi va Gurganjni poytaxt qildi. Ma‘muniylar – Ma‘mun ibn Muhammad (995–997), Ali ibn Ma‘mun (997–1009), Ma‘mun ibn Ma‘mun (1009–1017) hukmdorligi davrida Xorazmning mavqeyi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kuchaydi. Xorazmda ilm-fan ravnaqi ham shu davrda ortgani kuzatiladi, buyuk xorazmlik alloma Abu Rayhon Beruniy ham ushbu Xorazmshohlar davlatida yetishib chiqqan. Xorazm 1017-yilda sulton Mahmud tomonidan bosib olingach, bir asr davomida mustaqil davlat maqomini yo‘qotdi. 1040-yilgacha Xorazm – g‘aznaviylar davlati tarkibida, so‘ngra saljuqiylar davlati tarkibida bo‘lgan.

Juvayniy, Qazviniy, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Jamol al-Qarshiyning mo‘g‘ul hukmronligi davrida yaratilgan “Mulhaqot bis-Suroh” asarida xorazmshohlar – anushteginlar haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan [15]. Kelib chiqishi o‘g‘uzlardan bo‘lgan Anushtegin saljuqiy hukmdorlarning Xorazmdagi vakili edi. Anushtegin Saljuqiylarning amiri Bilgategining quli bo‘lib, G‘arjistonda uni sotib olgani uchun shunday nomga ega bo‘lgan. Bilgategindan Anushtegin Malikshoh saroyi xizmatiga olinadi. 1097-yili Xorazm voliysi Ikinchi/Ekinchi ibn Qo‘chqor (*Ekinchi* – dehqon bo‘lgani ehtimolga yaqin) amirlar isyoni natijasida o‘ldirilgach, Sulton Barqiyoriq Xuroson noibi etib Dod-Habash ibn Oltuntoqni tayinlaydi. U esa o‘z navbatida Marvda bo‘lgan Anushteginning o‘g‘li Qutbiddin Muhammadni Xorazm voliysi etib tayinlaydi va u xorazmshoh unvonini oladi [16]. Sulton Sanjar ham uning nomzodligini tasdiqlab, unga Tug‘rultegin ibn Ikinchi qo‘zg‘olonini bostirishda madad beradi [16]. U o‘zining o‘ttiz yillik hukmronligi davrida saljuqiylarga to‘la qaram edi va ularga sadoqat bilan xizmat qildi, ayni paytda Xorazm ham o‘z mavqeyini mustahkamlab bordi. Anushtegin Alouddin Otsiz Xorazmshoh (1127–1156) mustaqil siyosat yuritishga harakat qildi va shu sababdan Saljuqiylar davlatining hukmdori Sulton Sanjar (1118–1157) bilan uzoq

muddat urush-talashlar olib bordi. 1156-yili Xorazmshoh Otsiz vafotidan so‘ng El-Arslon Xorazmshoh bo‘ladi. Sulton Sanjarning vorisi Xurosonda Mahmudxon bo‘ldi. Saljuqiylar sulolasining boshlig‘i Sanjardan so‘ng Iroq hukmdori G‘iyosiddin Muhammad ibn Mahmud (1153–1159), Malikshohning nevarasi bo‘ldi. U ham El-Arslon (Alouddin Otsizning o‘g‘li)ga elchi jo‘natib, Sharqqa yurishga shaylanayotganidan uni xabardor qilmoqchi bo‘ldi. Biroq ko‘pgina sabablar, jumladan, sultonning xalifa bilan o‘zaro adovatlarini bu yurishni amalga oshirishga mone‘lik qildi.

Alouddin Otsiz vafotidan so‘ng (1156-yil) Xorazm taxtini egallagan o‘g‘li El-Arslon ham qoraxitoylarga qarshi kurash olib bordi va bu siyosatda, qoraxitoylardan ta‘qibga uchrab, Xorazmdan himoya izlagan qarluq qabilalaridan foydalanishga ham harakat qiladi.

Takash qoraxitoylar yordamida taxtga chiqqach, ular bilan birga tinch tura olmasdi. Odatdagidek, qoraxitoy elchisining Xorazmdan o‘lpon olish uchun kelib, takabburlik bilan ish tutgani navbatdagi qo‘zg‘olonga sabab bo‘ldi. Takash Go‘rxonning qarindoshi bo‘lgan elchini o‘ldiradi. Bundan tashqari, Ibn al-Asirning so‘ziga qaraganda, Alouddin Takash o‘z amaldorlariga har biri bir nafardan xitoylikni o‘ldirishni buyuradi [16].

Xulosa va takliflar. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy omillar ta‘sirida Xorazm muhitida arab tilida bitilgan adabiy manbalar paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Jumladan, Xorazmshohlar davri tarixiga oid muhim manbalardan mursalot (yoki maktubot, insho) janridagi asarlarni tilga olish mumkin. To‘plamda Rashididdin Vatvot qalamiga mansub xat va nomalar (masalan, El-Arslonning xalifa devoniga yuborgan xati), shuningdek, Otsizning Sanjarga itoat etgani haqidagi nomasi, Otsizni o‘z isyonini oqlab, sulton Sanjarni ayblashi haqidagi ko‘plab qiziqarli materiallar mavjud [17].

Ikkinchi hujjatlar to‘plami esa “At-Tavassul ila-t-tarassul” (Maktublar ila yaqinlashmoq) bo‘lib, muallifi Bahouddin Muhammad ibn Muayyad al-Bag‘dodiy, Xorazmshoh Takashning devoni inshosi qalamiga mansub [18]. Bahouddin Muhammad Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilgan mashhur shayx Majiduddin Bag‘dodiyning akasi bo‘ladi. Asar matnidan hujjatlar 578–579/1182–1184-yillarga to‘g‘ri keladi. Ayrim manbalarda esa undan keyingi davrga oid hujjatlar ham uchraydi.

Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, badiiy ijodda X asrdan to XIII asr boshlarigacha Xorazm adabiy muhiti taraqqiyotiga arab adabiyoti kuchli ta‘sir ko‘rsatgani va natijada arab tilida qalam tebratuvchi ijodkorlar adabiy muhitning o‘zagini tashkil etishi ma‘lum bo‘ldi [14]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1] Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Тошкент: Шарк баёзи, 1993. – Б. 58.
- [2] Hind Husayn Toha. Al-adab-ul-arabī fi iqlim Xorazm. Silsilat-ul-kutubi-l-hadisa. –

Bag‘dod: Manshurot Vizorati-l-i’lom, 1976. – B.78.

[3] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim Tojir Xorazmda vazir bo‘lgan. Bu haqida qarang: Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiy an-Niysaburiy. Yatiymatud dahr fii mahasini ahlil ‘asr. 4-juz. Doktor Mufid Muhammad Qamiha sharhi va tahqiqi ostida. – Bayrut – Lubnon: Dorul kutub al-ilmiyya. 1983. – S. 244.

[4] Ali ibn Yusuf al-Qiftiy. Al-Muhammaduna minash shuaro va ash’aruhum. – Parij universiteti, Odob va insoniy ilmlar fakulteti, 1970. – B. 96.

[5] Mujib Misriy. Al-adabul arabiy vat turkiy. – Qohira: Ad-dor as-saqofiyya lin-nashr, 1962. – S. 364-365.

[6] Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 17.

[7] Qarang: Jaloliddin Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiyning “Al-makarim val mafaxir” kitobi muqaddimasi; Abu Mansur as-Saolibiyning “ينيمة الدهر في شعراء اهل العصر” kitobi, 4-juz, 204-bet; Abdurrahmon ibn Abu Bakr Jaloliddin as-Suyutiyning “بغية الوعاة في طبقات اللغويين و النحاة” kitobi, 1-juz, 125-bet; Ibn Xollikonning “وفيات الاعيان و انباء ابناء الزمان” kitobi, 4-juz, 33-bet.

[8] Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

[9] Muhammad Avfiy. Lubob ul-albob. I-II jild. Nashrga tayyorlovchi Edvard Brovn. – London – Layden. 1903–1906. – B. 21.

[10] Yoqut al-Hamaviy ar-Rumiyy. Mu’jam ul-udabo. 4-juz. – Bayrut–Lubnon: Dor al-arabiy al-islomiy, 1993. – B. 242.

[11] ذبيح الله صفا تاريخ ادبيات در ايران . باب سوم (فصل اول) ص ۳۰

[12] Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 49-50.

[13] Mustafu ibn Abdulloh Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. 2-jild. – Bayrut – Lubnon: Dor al-ihya at-turos al-arabiy, 1941. – S.1729.


[14] Элмуродов И.К. Ёқут Ҳамавийнинг “Муъжам ул-удабо” асари X–XII асрлар Хоразм илм-фани ва адабиёти тарихини ўрганишда муҳим манба. Тарих фанлари номз... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002.

[15] Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-Сурах. Введение, перевод с арабского и персидского, текст, факсимиле и комментарии и указатели. – Алматы: Дайк-Пресс. 2005. – 410 с.


[16] Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. –Ташкент: Узбекистан, 2006. – С. 231.

[17] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. – С. 23-26, 30-32, 43-44.

[18] Китоб ат-Тавассул ила-т-тарассул. Бо саъй ва эҳтимоми Баҳманёр ва муқаддимайи Мирзо Муҳаммадхон Қазвини. Техрон, 1315/1936. Баъзи хужжатларнинг нашри: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. – С. 73-82.



TIBBIY REKLAMA MATNLARIDA KREOLLASHTIRILGANLIK, MANTIQUIY UZILISH VA INTERPRETATIVLIK



DILNOZA SOBIROVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatini reklamalarsiz tasavvur etish imkonsiz. Inson salomatligini ta'minlash eng ustuvor vazifa sanalayotgan bugungi globallashuv davrida tibbiy reklamalarning ahamiyati va ta'siri tobora ortib, taraqqiy etib borayotgani ularni antropotsentrik asoslarda lingvistik jihatdan chuqur o'rganish zarurligini taqozo etmoqda. Mazkur maqolada psixolingvistik tahlil uchun muhim sanalgan kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish va interpretativlik kabilarning reklama matnlarida namoyon bo'lishi, ularning o'ziga xosliklari xususida so'z boradi. Bayon etilgan mulohazalar tibbiyotga oid reklamalar misolida asoslanadi.

Kalit so'zlar: kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish, interpretativlik, reklama matni, tibbiy reklama.

Аннотация. Невозможно представить современное быстро развивающееся мировое сообщество без рекламы. В современную эпоху глобализации, в которой важнейшей задачей является содействие здоровью человека, значение и влияние медицинской рекламы возрастает и развивается, что требует глубокого лингвистического изучения ее на антропоцентрической основе. В данной статье говорится о проявлении креолизации, логической разрывности и интерпретативности в рекламных текстах, а также об их особенностях, которые считаются важными для психолингвистического анализа. Изложенные соображения основаны на примере медицинской рекламы.

Ключевые слова: креолизация, логическая разрывность, интерпретируемость, рекламный текст, медицинская реклама.

Abstract. It is impossible to imagine today's rapidly developing global community without advertisements. In today's era of globalization, in which the promotion of human health is the most important task, the importance and influence of medical advertisements is increasing and developing, which requires a deep linguistic study of them on an anthropocentric basis. This article talks about the manifestation of creolization, logical discontinuity and interpretativeness in advertising texts, as well as their peculiarities, which are considered important for psycholinguistic analysis. The stated considerations are based on the example of medical advertisements.

Keywords: creolization, logical discontinuity, interpretability, advertising text, medical advertising.

Kirish. Ma'lumki, reklamalar bugun ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda reklamalarning salmog'i kun sayin ortib bormoqda. Bu esa reklamalarni turli aspektlarda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi dasturida «...ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish...» [14] ustuvor vazifasi belgilanganki, yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning negizida inson qadri tamoyili bosh mezon bo'lib xizmat qilayotgan ayni damda jamiyat salomatligi bilan bevosita daxldor bo'lgan tibbiy reklama matnlarini tadqiq etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiyotga oid reklamalarning lisoniy tadqiqi bilan L.Debora [3], Y.N.Posnova [9], B.Briaukiene [2], Eusebi J.Kastano Riera [4] shug'ullangan bo'lsalar, G.T.Karimova [6], E.R.Minlibayeva [7], T.O.Oladejo [8] kabi olimlar tibbiy reklamalarning antroposentrik tadqiqini amalga oshirganlar. O'zbek tilshunosligida reklama diskursida tibbiyot leksikasi, uning funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlari B.Z.Gafurov [5] tomonidan tadqiq etilgan. Qayd etish lozimki, matnda kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish va interpretativlik bilan bog'liq qarashlar D.Xudoyberganovaning o'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqiniga bag'ishlangan tadqiqotida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Reklama matnlarining tadqiqi bugungi kun tilshunosligi oldida ijtimoiy zarurat sifatida maydonga keldi. Xususan, “Reklama to'g'risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinganligi, reklama va uning tili, matni yuzasidan belgilangan me'yorlar reklamalarni tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq etishda dasturil amal vazifasini bajaradi. Shuningdek, matnning antroposentrik tadqiqi, xususan, psixolingvistik tahlil asoslari reklama matnlarida kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish va interpretativlikning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Manbalarda qayd etilishicha, psixolingvistik tahlilda matnlarning kreollashtirilganligi, mantiqiy uzilish va interpretativlik kabi omillarni inobatga olish muhim sanaladi [12, 19]. “Kreol” atamasi ispanchadan olingan bo'lib, “barpo qilmoq” degan ma'noni anglatadi. Mazkur atama dastlab tarixiy taraqqiyot natijasida turli millatga mansub kishilar nikohidan tug'ilgan avlodga nisbatan qo'llangan. “Kreol” termini tilga nisbatan, shu bilan birga, matnga nisbatan ham qo'llaniladi. Mediamatn yaratishda kreollashuv jarayoni yuzaga keladi va bu bilan har qanday reklama matni og'zaki-grafik yoki audio-vizual timsollarning yaxlitligida reklama sifatida qabul qilinadi [1, 14]. Kreol matnlari – illyustratsiyalar bilan birga og'zaki matnlar – hozirda ommaviy axborot vositalarida axborotni taqdim etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yil ichida reklama mahsulotlarining

hajmi va ishlab chiqarilgan illyustratsiyali jurnallar soni sezilarli darajada oshdi. Ulardagi deyarli barcha matnlar kreolizatsiya qilingan [11]. Kreollashtirilganlik (rus tilida креолизованность) “kreol” soʻzidan hosil qilingan boʻlib, oʻquvchiga taʼsir qilish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uygʻunlashtirilishini bildiradi [12, 29]. Xullas, reklamalarda matn, vizual tasvir va ovoz (asosan video koʻrinishidagi reklamalarda) uygʻun holda ifoda etilishi ularni kreollashtirilgan matnlar deya nomlashga imkon beradi. Faqatgina matndan iborat boʻlgan reklamalardan koʻra vizual tasvirlar orqali yaratilgan (kreollashtirilgan) tibbiy reklamalar inson psixologiyasiga kuchliroq taʼsir etadi. Kuzatamiz:

Ogʻriq turli xil boʻlishi mumkin: keskin, siqadigan, oʻtkir... Ogʻriq, ogʻriq, ogʻriq! Toʻxta! Tempalgin bor. Tempalgin ikkita komponentni oʻz ichiga oladi: birinchisi ogʻriqni qoldiradi, ikkinchisi asab tarangligini yoʻqotadi.

Tempalgin – turli xildagi ogʻriqdan samarali vosita. Asab tarangligisiz Tempalgin.

Mazkur reklama matni ogʻzaki tarzda ifodalangan reklama roligida “ogʻriq” darajasi (*keskin, oʻtkir* sifatlari, *siqadigan* sifatoshi) oshxonada yegulik tayyorlash jarayoni orqali koʻrsatilgan (1-rasmga qarang). Qayd etish joizki, ogʻriq mavhum tushuncha boʻlib, u inson ongida turli xil assotsiatsiyalar qurshovida yashaydi.



1-rasm. Tempalgin dori vositasi reklamasi matnidagi ogʻriqni ifodalovchi birliklar(*keskin, siqadigan, oʻtkir*)ning tasvirlar bilan uygʻun holda berilishi

Tasvirlar ogʻriqning qay darajada ekanligini tasavvur etishga imkon beradi. Bu esa reklamaning adresantlar ongiga tez muhrlanishiga, agar ularda shu kabi ogʻriq sezilsa, darhol Tempalginni qabul qilish orqali muammoni bartaraf etish mumkinligi xususidagi axborotning shakllanishiga sabab boʻladi.

Yana bir televizion tibbiy reklamani kuzatamiz:

Shamollash rejani oʻzgartirdimi? Teraflyuning vaqti keldi. Teraflyuning kuchi grippning yetti simptomlarini yengishga yordam beradi va siz yana oʻyindasiz.

Ekkranda: tananing zirqirashi, burun bitishi, et uvishishi, bosh og‘rig‘i, aksirish, isitma, tumov.

Mazkur tibbiy reklama matnida Teraflyu dori vositasi grippning yetti simptomini yengishga yordam berishi xususida og‘zaki bayon etiladi. Grippning yettita belgisi esa ekrandagi yozuv orqali retsiptiyentga yetkaziladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Teraflyu dori vositasi reklamasi tasvirida grippning yetti simptomining berilishi

Xullas, kreollashtirilgan matnlar faqatgina so‘zdan tashkil topgan matnlarga nisbatan inson ongiga tezlik bilan, shu bilan birga, samarali ta’sir eta oladi.

Mantiqiy uzilish ham psixolingvistik tahlilda muhim ahamiyatga ega. Olima D.Xudoyberganova o‘zining matnning antroposentrik tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotida mantiqiy uzilish hodisasini matnda jummalarning ketma-ket, mantiqan o‘zaro bog‘liq bo‘lgani holda mana shu bog‘liqlikning kutilmaganda uzilishi sifatida ta’riflaydi [12, 29]. Mantiqiy uzilishdan reklama matnlarida ko‘p foydalaniladi. Kuzatamiz:

Ona: – *Bolam, shifokor antibiotik qabul qilishni buyurdi.*

Bola: – *Nega dorilardan keyin qornim og‘riydi?*

Enterojermiina ichak mikroflorasini tiklashga yordam beradi.

Enterojermiina – baxtli qorinchalar uchun.

Mazkur parcha Enterojermiina dori vositasi reklama matnidan olingan bo‘lib, unda ona va bola suhbatini ifodalaydi. Onaning nutqidan bola antibiotik qabul qilayotganini anglash mumkin. Bola esa onasiga dorilarni ichgandan keyin qorni og‘rishining sababini so‘raydi. Bolaning savoliga javob berilmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri dori vositasi tanishtiriladi, reklama matnining mana shu o‘rnida mantiqiy uzilish kuzatiladi. ... mantiqiy uzilish, aytish mumkinki, matn va retsiptiyent munosabatlariga, ya’ni matnning mazmuniy idrokiga oid hodisa bo‘lib, nutqiy kompressivlikning yuzaga

kelishiga xizmat qiladi [12, 30]. Reklama matnida savolning javobi aynan berilmagan bo‘lsa-da, butun boshli reklamadan antibiotiklar tufayli ichaklarda og‘riq (bolaning tili bilan aytganda, “qorin og‘rishi”) kuzatiladi qabilidagi javobni anglash mumkin. Xullas, reklama matnlarida mantiqiy uzilish hodisalari kuzatilishi tabiiy holat. Birinchidan, bu reklamanning pul va vaqtga daxldorligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, qisqalikka erishish usuli hamdir. Zero, qisqalik – samarali reklama matnlarini yaratishning muhim omillaridan biridir [10].

Har bir retsipiyent axborotni o‘z tafakkur doirasi, psixikasidan kelib chiqib qabul qiladi hamda o‘zi qabul qilgan axborotni o‘z dunyoqarashi, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa bir retsipiyentga yetkazadi. Mana shu jarayonda interpretativlik namoyon bo‘ladi. Qayd etish lozimki, tibbiy reklama matnlarining aynan o‘zida interpretativlik kuzatilmadi. Boisi reklama matni –retsipiyentlar uchun mo‘ljallangan axborot. Mazkur axborotning retsipiyentlar tomonidan qabul qilinib, turlicha talqin etilishi interpretativlikning bir ko‘rinishidir.

Xulosa va takliflar. Xullas, matnlarning kreollashtirilganligi, mantiqiy uzilish, interpretativlik kabi hodisalarning idrok etilishi retsipiyentning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Xususan, kreollashtirilgan reklama matnlari faqatgina verbal vositalardan tashkil topgan reklama matnlariga nisbatan inson ongiga tez ta’sir ko‘rsatadi hamda retsipiyentda unga yetkazilayotgan axborot yuzasidan yorqin tasavvur paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Mantiqiy uzilish reklama matnlariga xos hodisa bo‘lib, u reklamanning qisqa bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday bo‘lsa-da, retsipiyent butun boshli reklama bilan tanishgach, mantiqiy uzilish yuzaga keltirgan bo‘shliqni tafakkuri yordamida to‘ldira oladi. Interpretativlik ham bevosita retsipiyentning tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Aytish mumkinki, reklama orqali yetkazilayotgan axborotning retsipiyentlar tomonidan qabul qilinib, turlicha talqin etilishi interpretativlikning bir ko‘rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1] Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт. Филол. фан. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Андижон, 2020. – 65 б.
- [2] Briaukienė V. Medicinos prekių reklaminių leidinių kalba (The Language of Medical Advertising Materials). *Respectus Philologicus*, 2015, 27(32), – Pp. 166-173.
- [3] Debora L. The Construction Of Patienthood in Medical Advertising. *International Journal of Health Services*, Vol. 23, – №4, 1993. – P. 805-819.
- [4] Eusebi J. Castaño Rieraa, David Oterino de la Fuenteb, Rosa M. Rodríguez Rodríguez. El mensaje publicitario de los anuncios de fármacos en las revistas médicas españolas. *Gaseta Sanitaria*. 007; 2021(5). – P. 371-377.

[5] Гафуров Б.З. Реклама дискурсида тиббиёт лексикаси: функционал-семантик ва лингвомаданий жиҳатлар (рус ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Бухоро, 2023. – 102 б.

[6] Каримова Г.Т. Лингвопрагматика медицинскогo рекламного дискурса. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – С. 26.

[7] Минлибаева Э.Р. Манипулятивная стратегия и ее тактики в немецком рекламном медицинском дискурсе (на материале печатной рекламы безрецептурных препаратов). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2021. – С. 24.

[8] Oladejo O.T. The Pragmatics of Online Medical Advertisements. Dutsin-Ma Journal of English and Literature. Bookworks Publisher. 2021. Vol. 4. – №2. –P. 56-75.

[9] Поснова Е.Н. Медицинская лексика в текстах социальной рекламы: онтологический аспект. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2013. – С. 24.

[10] Sobirova D.R. Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro, 2021-yil, 11-noyabr. – B. 141-145.

[11] Вашунина И.В. Взаимовлияние вербальных и невербальных (иконических) составляющих при восприятии креолизованного текста тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.19, доктор филологических наук. 2019. <https://www.dissercat.com/content/vzaimovliyanie-verbalnykh-i-neverbalnykh-ikonicheskikh-sostavlyayushchikh-pri-vozpriyatii-kr>

[12] Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

[13] Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2015.– 102 б.

[14] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60- сонли Фармони.

[15] Ўзбекистон Республикасининг «Реклама тўғрисида»ги Қонуни. № ЎРҚ – 776. 07.06.2022.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ СИНТАКСИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ЯЗЫКЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

ДИЛОРОМ ШАМСИЕВА,
*доктор философии по педагогическим
наукам, доцент НавГПИ*
НОДИРА КАЮМОВА,
*студентка 4 курса направления
русского языка и литературы НавГПИ.*

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу функционирования синтаксических фразеологизмов в языке средств массовой информации. Исследование проводится на материале текстов различного типа, таких как новостные статьи, интервью, комментарии и др. Целью работы является выявление особенностей употребления синтаксических фразеологизмов в речи журналистов и их влияние на структуру текста. В ходе исследования были выявлены основные типы синтаксических фразеологизмов, которые чаще всего встречаются в языке средств массовой информации.

Ключевые слова и выражения: фразеологизмы, синтаксические фразеологизмы, социолингвистический аспект, парадигматическое отношение, разговорный стиль, научный стиль.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ommaviy axborot vositalari tilida sintaktik frazeologik birliklarning ishlashini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot har xil turdagi matnlar, masalan, yangiliklar maqolalari, intervyular, sharhlar va boshqalar asosida olib boriladi. Ishning maqsadi jurnalistlar nutqida sintaktik frazeologik birliklardan foydalanish xususiyatlarini va ularning matn tuzilishiga ta'sirini aniqlashdir.

Kalit so'z va atamalar: frazeologik birliklar, sintaktik frazeologik birliklar, sotsiolingvistik jihat, paradigmatic munosabat, so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub

Введение. Человек непрерывно ощущает влияние средств массовой информации. Язык, используемый в СМИ, откликается на различные социальные явления и влияет на восприятие людей, способствуя развитию информационного общества и формированию их мышления и мировоззрения. В текстах средств массовой информации отражаются новые языковые тенденции и проблемы, связанные с использованием языка в данной сфере, а также

социолингвистические аспекты массовой коммуникации. При создании информационных текстов важен выбор языковых средств, влияющих на восприятие реальности. Среди особенностей современных текстов СМИ можно выделить использование устойчивых выражений, идиом, экспрессивности языка и разговорной лексики, что может вызывать трудности при их переводе на другой язык. Также в последнее время наблюдается множество фразеологических неологизмов в статьях современных СМИ, где активно проявляются семантические возможности новых слов.

Анализ литературы по теме. На данный момент актуальным является исследование использования конструкций, которые изначально присущи разговорной речи, в современном русском литературном языке. Мы сосредотачиваем внимание на особых конструкциях - синтаксических фразеологизмах, которые широко используются как в современной русской литературе, так и в материалах массовой информации. Наличие таких конструкций в письменной речи свидетельствует о демократизации языка. Разговорный синтаксис характеризуется специфическими синтаксическими моделями, которые существенно отличаются от общелитературных и письменно-литературных моделей.

Исследование синтаксических фразеологизмов включает в себя анализ их семантической и синтаксической структуры. Согласно работе В. Г. Гака "К проблеме семантической синтагматики", естественные языки характеризуются тем, что синтаксис является семантическим и семантика синтаксична. Таким образом, исследователи стремятся выявить отражение парадигматических отношений в синтаксисе и синтагматических отношений в семантике.

Фразеологизация синтаксиса охватывает разнообразные явления, которые подвергаются идиоматизации в различной степени. Особенности фразеологизации на уровне синтаксиса были выявлены ещё в 1873 году И. И. Срезневским. Согласно исследованию И. Н. Кайгородовой, развитие учения о синтаксической идиоматичности опирается на идеи Л. В. Щербы, который считал, что семантическая сущность слова проявляется в его отношениях с другими словами в высказывании.

Л. П. Якубинский также отмечал существование сложных синтаксических шаблонов, которые формируются благодаря повторному употреблению определенных фраз в конкретных ситуациях. Такие шаблонные фразы становятся как бы окаменелыми и не разлагаются на отдельные элементы при произнесении. Синтаксические фразеологизмы, следовательно, воспроизводятся говорящим как готовые шаблоны, построенные по устоявшимся схемам, и не декомпозируются для выяснения их значений. В соответствии с точкой зрения Л. П. Якубинского,

модель построения таких фраз следует рассматривать как шаблон, состоящий из постоянного и изменяемого компонентов.

Методология исследования. До некоторого времени считалось, что разговорная речь отделена от речи письменной и не влияет на неё, тем более не оказывает воздействия на речь средств массовой информации. Однако, практические исследования показывают, что такое взаимодействие становится все более обыденным в последние десятилетия. Несмотря на это, изучение влияния устной речи на синтаксис языка средств массовой информации не получило особого внимания. В свою очередь, язык средств массовой информации становится одной из ключевых областей современного языкового развития.

Язык журналистики осуществляет разнообразные функции, связанные с политикой, наукой, литературой, административной и хозяйственной деятельностью и т. д. [1]. Тексты средств массовой информации адресованы широкой аудитории, отличающейся по уровню развития, образованию и др. В связи с этим требования к точности и понятности речи в текстах средств массовой информации особенно высоки.

Особенности языка средств массовой информации выражаются определенным набором лингвостилистических свойств и признаков, которые отличают его от разговорной речи. Например, тексты печатных СМИ не используют интонацию, но при этом могут содержать конструкции, типичные для разговорной синтаксиса. Язык средств массовой информации быстро реагирует на изменения в обществе. Он отражает разнообразие норм поведения различных социальных групп, демократизацию публицистического стиля и расширение языковых норм в области массовой коммуникации. Также наблюдается динамическое развитие языковой моды и усложнение сфер речевой коммуникации в языке массовой информации.

Для исследования функционирования синтаксических фразеологизмов мы выбрали главные газеты Российской Федерации, что делает интервью особым объектом изучения. В центральных газетах широко распространены политические интервью. Политическое интервью можно рассматривать как публичный и социально обусловленный речевой жанр с особым распределением ролей участников диалога. Журналист в таком интервью стремится показать характеристики политика даже те, которые могут быть считаться "опасными", в то время как последний, отвечая на вопросы журналиста, стремится убедить общество в своей важности [2].

Тексты печатных изданий изначально направлены на передачу информации. Использование синтаксических фразеологизмов в них способствует созданию эффекта непринужденного устного общения, которое придает тексту

естественность и диалогический характер [3]. Синтаксические фразеологизмы не характерны для всех жанров печатных изданий, однако они чаще всего встречаются в интервью, где предполагается обмен репликами и реакция интервьюируемого на вопросы или ситуации.

Стоит отметить, что синтаксические фразеологизмы употребляются как в текстах с неполитическим содержанием, так и с политическим. Они встречаются в речи обычных людей, известных личностей и политиков, и придают текстам особую выразительность и эффект.

Фразеологические конструкции в синтаксисе применяются не только для отклика на информацию и сообщения, но и часто используются в форме вопросительных риторических выражений. Например, "есть вещи, которые меня устраивают, а есть и неудовлетворительные. Я рад, что наконец-то появился газ. Строительство ГРС, безусловно, повлияет на наши возможности развития. Преведняя станция была перегружена на 132%, и мы не могли привлечь новых абонентов. Какое тут развитие?!" [4]. В контексте синтаксические фразеологизмы выражают отрицательное утверждение. Эти конструкции можно рассматривать как отрицательно-риторические выражения с вопросительной интонацией, придающие высказываниям выразительность и оценочность [5]. В текстах СМИ синтаксические фразеологизмы подходят для монологического высказывания, преподнося мнение журналиста или другой личности по какому-то вопросу. Например, в статье о кандидате в президенты России можно встретить фразы вроде "У него зарубежные счета, имущество за границей, он идеальный коммунист - защитник угнетенных", [6] или в других политических статьях: "Александр Лукашенко, видимо, обиделся. Такой хороший союзник и партнер в евразийском экономическом пространстве - и теперь хочет выступать как миротворец" [7].

Синтаксис текстов из газет, радио- или телетекста балансирует между неформальностью разговорного стиля и умеренной научной точностью [8]. Использование синтаксических фразеологизмов в печатных СМИ направлено на привлечение внимания читателя, оказание воздействия и формирование позитивного отношения к передаваемой информации. Важно отметить, что синтаксические фразеологизмы присутствуют не только в текстах, но и в заголовках, которые играют ключевую роль в привлечении внимания читателя и кратком отражении основного содержания материала.

Таким образом, следует говорить о том, что синтаксические фразеологизмы представляют собой не какой-либо конкретный трансформированный фразеологизм, а лишь воспроизводимую в речи конструкцию, которая строится по определенной фразеологической схеме, определяющей точный порядок слов,

грамматические формы переменного компонента и наличие необходимых служебных слов. При этом постоянный компонент в подобных структурах – это переосмысленные слова или сочетания слов. Синтаксические фразеологизмы широко используются в текстах средств массовой информации, включая публицистические жанры и заголовки. Они применяются для передачи аутентичной речи респондентов, а также для оказания воздействия на читателя. Использование таких фразеологизмов придает текстам выразительность и эмоциональность, их схема легко узнаваема и помогает привлечь внимание аудитории. В отличие от художественной литературы, тексты средств массовой информации также отражают современные тенденции в области синтаксиса русского языка, так как язык СМИ более подвержен внешним влияниям.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Гвоздѣв, А. Н. Очерки по стилистике русского языка [Текст] / А. Н. Гвоздѣв. – 3-е изд. – Москва: Просвещение, 1965. – 408 с.
2. Чащина, А. М. Политическое интервью как особый жанр политического дискурса [Текст] / А. М. Чащина // Вестник челябинского университета. – 2013. – Вып. 86. – № 37 (328) – С. 60–62
3. Элатик, А. А. Элементы разговорного синтаксиса в языке современных российских электронных СМИ) [Текст] / А. А. Элатик // Филологические науки. Вопросы теории и практики: Науч.-теорет. и прикладной журн. – 2016.– N 10. – Ч. 3. – С. 161–168.
4. Коммерсантъ, 2018.14.08
5. Канафьева, А. В. Мотивация отрицания в вопросительно-исторических конструкциях [Текст] / А. В. Канафьева // Языковые категории и единицы: синтагматический аспект. Материалы XII Международной научной конференции (Владимир, 26–28 сентября 2017 года), посвящённой 65-летию кафедры русского языка. – Владимир: Транзит-ИКС, 2017. – 576 с. – С. 190–196.
6. Коммерсантъ, 2018.02.05.
7. Коммерсантъ, 2018.01.19.
«Культура русской речи. Учебник для вузов» под ред. проф. Л. К. Граудиной и проф. Е. Н. Ширяева. — М.: Издательская группа «НОРМА-ИНФРА

PROSODIK INTERFERENSIYANING OG‘ZAKI NUTQQA TA’SIRI

ISTODA RASULOVA,

*O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya: Biz ushbu ishda prosodik interferensiyaning og‘zaki nutqqa ta’sirini, ona tili prosodiyasining xususiyatlari o‘rganilayotgan prosodiyaga qanday ta’sir qilishini, bilingv nutqida yuzaga keladigan prosodiyalarni o‘rgandik hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berdik. Bu intonatsiya, temp, ritm, urg‘u va tovushlarning talaffuzidagi xatolarda namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa suhbatdoshni tushunishni, his-tuyg‘ularni noto‘g‘ri talqin qilishni va ma’ruzachini noaniq idrok etish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kalit so‘zlar: prosodik interferensiya, talaffuz, tovush, perseptiv (tinglash), artikulyasion (talaffuz qilish).

Аннотация. В данной работе мы изучили влияние просодической интерференции на устную речь, как особенности просодии родного языка влияют на изучаемую просодию, просодии, возникающие в билингвальной речи, и дали рекомендации по их преодолению. . Это может проявляться в ошибках интонации, темпа, ритма, акцента и произношения звуков, что может вызвать такие состояния, как непонимание собеседника, неверное толкование эмоций и неоднозначное восприятие говорящего.

Ключевые слова: просодическая интерференция, произношение, звук, восприятие (слушание), артикуляция (произношение).

Annotation. in this work, we studied the effect of prosodic interference on oral speech, how the features of the prosody of the mother tongue affect the prosody under study, prosodies that occur in bilingv speech, and made recommendations on their elimination. This can be manifested in errors in the pronunciation of intonation, tempo, rhythm, accents and sounds, which can provoke such situations as understanding the interlocutor, misinterpreting emotions and an ambiguous perception of the speaker.

Keywords: prosodic interference, pronunciation, sound, perceptive (listening), articulation (pronunciation).

Kirish. Chet tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida asosiy e’tiborni tilning fonetik va intonatsion sistemasini o‘rganishga qaratish lozim. Bizning tadqiqotimizning obykti prosodik interferensiya bo‘lib, bu ona tilining fonetik me’yori ta’siri natijasida ikkinchi tilning og‘zaki nutqida yuzga keladigan doimiy xatolarni yuzaga chiqaruvchi

omillar hisoblanadi. Hozirgi kunda “prosodiya” termini turli xil ma’no talqinlariga ega va juda keng tarqalgan. O‘z ishida M.Ye.Krasilnikova nutqda prosodik tizimni tinglovchilarning matnni eshitish qobiliyatini osonlashtirishga va shunga mos ravishda eng yaxshi ta’sirga ega bo‘lgan og‘zaki nutqning maxsus “qobig‘i” sifatida o‘rganadi. [3. 6-7]

Prosodik interferensiyani o‘rganish zarurati dastlab boshqa tilda nutq so‘zlash, ma’lum bir etnosotsumda ular bilan kommunikativ balansni ushlab natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, shu sababli, prosodik interferensiyani o‘rganishning dastlabki qadamlari lingvodidaktik paradigma oqimida qo‘llanilgan. [2. 657] Maqolada *o‘g‘zaki nutqda prosodik interferensiyani o‘rganish* va ularni bartaraf etish bo‘yicha bir qancha yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalar ko‘rsatilgan bo‘lib bu til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi.

Og‘zaki nutq — nutqning so‘zlashuv shakli. Og‘zaki nutq yozma nutqdan tovush orqali farqlanadi. Og‘zaki nutq ikki shaklga ega: monologik nutq va dialogik nutq. [10] Og‘zaki nutq, yozma nutqdan farqli o‘laroq, bir qator xususiyatlarga ega. Muayyan tilda tiniq nutq so‘zlash uchun prosodik tizim muhim bo‘lib, u og‘zaki nutqning muhim semantik yukini ko‘taradi. Turli tillar turli xil ma’no beruvchi prosodik vositalar bilan tavsiflanadi. Prosodik interferensiya – bu tillarning o‘zaro ta’siri paytida, bir tilning xususiyatlari boshqa tilning prosodik tizimiga ta’sir qilganda yuzaga keladigan hodisa. U turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: aksent (urg‘uning noto‘g‘ri ishlatilishi), tonning o‘zgarishi, tempning o‘zgarishi, noto‘g‘ri pauzalarning ishlatilishi...

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prosodik interferensiya haqida tilshunolar Rossixina va Ikatovalarning yozishicha, [7.8] prosodik interferensiya nutqni tushunish va idrok etishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ular ona tilining chet tilining prosodik xususiyatlariga ta’siri bo‘yicha tadqiqot olib bordilar. Tilshunolarning ta’kidlashlaricha, til o‘rganuvchilar ko‘pincha o‘z ona tililarining prosodik tizimini boshqa til (ko‘pincha yangi o‘rganilayotgan til) chet tilining prosodik tizimiga o‘tkazishini, bu esa tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkinligini aniqladilar. Laptepova o‘zining dissertatsiyasida prosodik interferensiyani maxsus mashqlar va amaliyot bilan bartaraf etish mumkinligini e’tirof etib, ona tilining ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan chet tili prosodiyasini o‘qitish metodikasini ishlab chiqdi. U bu usullarini muntazam ravishda qo‘llagan talabalar o‘zlarining prosodiyalarini yaxshilashlari va prosodik interferensiyani minimallashtirishlari mumkinligini ko‘rsatdi. [4.82] Olima Pleshkovaning fikricha, prosodik interferensiyaga nafaqat ona tili va chet tili o‘rtasida, balki dialekt va adabiy til orasida kuzatilishi mumkingini aytib o‘tdi. U turli lahjalarda so‘zlashuvchi o‘quvchilar turli xil prosodik xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligini aniqladi, bu esa tushunmovchilikka olib kelishi mumkinligini alohida qayd etdi. [6.70] Shunday ekan, prosodik interferensiyani

o‘rganish, tahlil qilish va bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Prosodik interferensiya qo‘sh til sohibining ona tilidagi perseptiv (tinglash), ham artikulyasion (talaffuz qilish) alohidaliklariga tegishli bo‘lib, xatolar ham tinglash (qabul qilish), ham ro‘yobga chiqarish (gapirish) paytida hosil bo‘ladi. Boshqa tildagi nutqni perseptiv (tinglash) idrok etish jarayoni ona tili tovushlarini qabul etishga moslashgan. Shuning natijasida o‘rganilayotgan boshqa til tovush tizimini idrok qilish malakasi noto‘g‘ri shakllanadi. Masalan, rus tili o‘quvchisi ona tilida [o‘, q, g‘, h] fonemalari mavjud emasligi tufayli o‘zbek tilining ushbu fonemasini o‘z nutqida noto‘g‘ri qabul qiladi va xatoga yo‘l qo‘yadi. [8.54]

Tahlil va natijalar. Prosodik interferensiyaning yana bir sababi ona tili va o‘rganilayotgan tillar tovushlar tizimidagi farqlargina emas, balki tovushlar guruhining birikishini yozuvda bir xil harflar bilan ifodalashi natijasi deb ham tushunsa bo‘ladi. Ko‘p paytlarda nutq xatolari ona tili va o‘rganilayotgan tillarda bir xil harflar bilan har xil tovushlarning yozuvda ifodalanishi sababidan kelib chiqadi. Masalan, (a) grafemasi ham o‘zbek, ham ingliz yozuvida mavjud, ammo u o‘zbek tilida faqat [a] tovushini (aka, dada, lola kabi so‘zlarda) bildirsa, ingliz tilida ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘inda kelishiga qarab to‘rt xil talaffuz qilinadi, shu sababli o‘zbek o‘quvchisi inglizcha so‘zlarni o‘qishda talaffuz xatosiga yo‘l qo‘yadi.[5.55]

U. Vaynrayxning fikricha, fonetik interferensiyaning aniqlashda qiyosiy tahlil eng samarali yo‘l,[1.35] hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, fonetik interferensiyaning aniqlashda tovushlarni qiyosiy o‘rganishdan tashqari bilingv talaffuzida yuzaga kelgan xatoliklar asosida tahlil etilsa, yaxshiroq natijaga erishish mumkin. Talaffuzni o‘rganish haqida gap ketganda, boshqa til vakillarining o‘zbek tovushlari talaffuzidagi xatoliklarini ajratish va ularni tasniflash muhim hisoblanadi.

Masalan, o‘zbek tilida «gul» so‘zida «l» harfidan keyin yumshoqlikni anglatuvchi belgi qo‘yilmasa ham, uni yumshoq talaffuz qilamiz. Lekin ruslar «gul» so‘zini yozmoqchi bo‘lsa, albatta, «gul'» tarzida yozadi va talaffuz qiladi. Mana shu noo‘ng‘ayliklar til o‘rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, o‘zbek va rus tilida muloqot jarayonida undoshlarni noo‘rin, almashtirib qo‘llash nutqning kommunikativ sifatiga zarar yetkazadi. Til o‘rganish jarayonida tilning prosodik xususiyatlariga jiddiy e‘tibor qaratish segment birliklarni e‘tibordan chetlamlaslik muhim ekan. O‘zbek tilini rus guruhlariga o‘rgatish uchun asosiy e‘tiborni prosodik xususiyatlarga qaratilsa, bu til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие. *Новое в лингвистике*. Вып. 6. М.: Изд-во Прогресс. 1997. - С. 35.

2. Дубовский Ю. А., Заграевская, Т. Б. Просодическая интерференция в условиях искусственного билингвизма (накопление экспериментальных данных для целей лингводидактики конца XX В.). *Известия Самарского научного центра Российской академии наук*, 16 (2-3), 2014. – С. 657-666.

3. Красильникова, Е.М. Просодическая реализация функции воздействия в текстах информационного и ораторского стилей (экспериментально-фонетическое исследование на материале американского варианта английского языка). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Волгоград, 2005. – С. 22.

4. Лаптева Е. В. Просодическая интерференция в оформлении английских нефинальных синтагм носителями русского языка: Экспериментально-фонетическое исследование на материале подготовленной и неподготовленной монологической речи. Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. 2001.

5. Любимова Н.А. Фонетическая интерференция. *Л.: Изд-во ЛГУ, 1985. - С.55*

6. Плешкова, Т. Н. Процессы интерференции диалекта и литературного языка. *Гуманитарный вектор*. Серия: Филология, востоковедение, (4). 2012. – С. 67-71.

7. Россихина М. Икатова И. Лингвистика и межкультурная коммуникация. *Новосибирский национальный исследовательский государственный университет*, 20(1),2022. – С. 6-20.

Расулова И.А. Лингвомаданий интерференция ҳамда уни бартараф этиш йўл-йўриқлари. *Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси*. – Самарқанд, 2022. – 177 б.



**JORJ BAYRONNING “DON JUAN”
SHE’RIY ROMANIDA PRETSEDENT
BIRLIKLAR TAHLILI**



ZEBOXON MALLAYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ingliz badiiy matnida yunon afsonalari qahramonlari yoki qadimgi Rim imperatorlari pretsedent birlik sifatida matn tarkibida kelishi, xususan, “Don Juan” she’riy romanida Axill, Priam kabi antik davr adabiyoti qahramonlari pretsedent nom sifatida, ular bilan bog‘liq pretsedent jumlar yoki qadimgi Rim imperatori Kaligulaning so‘zlari pretsedent matn bo‘lib pretsedentlik mexanizmining vositasi sifatida matnda ishtirok etishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antropotsentrik paradigma, badiiy matn, pretsedent fenomen, pretsedent nom, pretsedent jumla, pretsedent matn, kognitiv baza, til egasi.

Аннотация. В статье анализируется, что в английском художественном тексте герои греческих мифов или императоры Древнего Рима появляются в тексте как прецедентные единицы, в частности, в романе-поэме “Дон Жуан” герои античной литературы, такие как Ахилл, Приам, как прецедентные имена, связанные с прецедентные предложения или слова древнеримского императора Калигулы, являются прецедентным текстом как средство механизма прецедентности. участие в тексте анализ сделано.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, художественный текст, прецедентное явление, прецедентное имя, прецедентное предложение, прецедентный текст, когнитивная база, носитель языка.

Annotation. The article analyzes the arrival of Heroes of Greek myths or ancient Roman emperors as a precedent unit in the text in English fiction, in particular, the poetic novel “Don Juan”, in which heroes of ancient literature such as Achilles, Priam as a precedent name, the related precedent sentences or the words of the ancient Roman Emperor Caligula as a predictive text, as a means.

Keywords: anthropocentric paradigm, artistic text, precedent phenomenon, precedent noun, precedent sentence, precedent text, cognitive base, language possessor

Kirish. Hozirgi vaqtga kelib tilshunoslik fani sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda – til tizimini uning egasi bo‘lgan inson bilan birgalikda har tomonlama

o'rganish zarurati sabab tilshunoslik insonga murojaat qilishga extiyoj sezdi. Til alohida bo'lmagan, ammo ma'lum bir madaniy jamoa (millat) ta'siri ostida shakllanadigan hodisa sifatida tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi, chunki tilda til egasining madaniy mansubligi, kognitiv jihatlari, psixologiyasi, sotsiologik xususiyatlari, saviyasi, mentaliteti yuzaga chiqadi, umumiy jihatdan olib qaralganda, til madaniyat bilan yaqin aloqada yuzaga chiqadi.

Til va madaniyatning o'zaro ta'siri masalalariga, madaniyatlararo va tillararo aloqalar tilshunoslarning pretsedent nomlarga qiziqishiga ham sabab bo'lgan, pretsedentlik insonning o'tmishga, atrofga, jamiyatga munosabati in'ikosi sifatida maydonga kelgan.

Antroposentrik paradigma tilshunoslikni tadqiq etishda tadqiqotning asosiy ob'ekti sifatida insonni o'rganishi natijasida, kommunikatsiya jarayonini tashkillashtiruvchi shaxsning tilini o'rganishga e'tibor qaratildi. Demak, har qanday matnning, shu jumladan, badiiy matn tarkibini ham shakllantiruvchi shaxs ekan, demak, shaxs, ya'ni til sohibi matnning mazmuniy, strukturaviy tarkibini o'zining kognitiv bazasidan kelib chiqib yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'tgan asrda tilshunoslar semantikani kategoriyalashtirish xususida gapirish lozim topilganda, o'zida yirik mazmun qatlamini mujassamlashtirgan, yuqori darajada abstraksiyalashtirgan, tilda turli tiplarda vujudga kelishiga sabab bo'lgan pretsedentlikka tilning yangi kategoriyasi sifatida qaraganlar. Masalan, L.Talmi pretsedentlikning kognitiv jihatlari ishlab chiqqan, gap yoki nutqning boshqa qismi tinglovchining ongida uning tajribasining ma'lum bir qismini, ya'ni kognitiv tasvirni faollashtirishini ta'kidlagan [1].

Jonatan Kuller pretsedent birliklar presuppozitsiya bilan aloqadorligi, natijada matnda mazmunan keng, hajman tor ifoda yuzaga kelishini ta'kidlagan bo'lsa [2], R.Miola intertekstuallikning yetti turi xususida fikr yuritir ekan, yettinchi tur sifatida pretsedent birliklarga to'xtalgan [3].

Ingliz tilidagi lug'atlarda pretsedent terminiga quyidagicha ta'rif keltiriladi: *precedent* – 1[C] an action, situation or decision which has already happened and which can be used as a reason why a similar action or decision should be performed or taken: There are several precedents for promoting people who don't have formal qualifications. Some politicians fear that agreeing to the concession would set a dangerous precedent [4]. Ikkinchi bir lug'atda quyidagicha izohlangan: *precedent* – an earlier event, action, or legal case that is taken as an example to be followed in a similar situation. [5]. Lug'atlardagi izohlarga tayanilsa, *pretsedent* so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, *praecedens (praesedentis)* – "ilgari bo'lib o'tgan voqea", "avval bo'lib o'tgan voqea", "ahamiyatga molik hodisa" degan ma'nolarni beradi.

Rus tilshunosligida nutq rivojlanishining muhim belgisi unda intertekstuallikning o‘shishi, ya’ni matnda boshqa matnlardan foydalanishning ko‘payishi deb qarala boshlandi. Dastlab maqollar, matallar, aforizmlar, epigraf, allyuziya, iqtiboslar asosan nutqni bezashga qaratilgan bo‘lsa, antropotsentrik yondashuv natijasida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushunila boshlandi. Bunday matnlarni tushunish yuqori nutq va umumiy madaniyatning ko‘rsatkichi sifatida insonning ma’lum bir ijtimoiy-madaniy guruhga, millatga, davrga mansubligini namoyon qiladiki, zamonaviy filologiya uchun pretsedent matnlarning ahamiyati ushbu masala bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Birinchi marta “pretsedent matn” atamasi 1986 yil rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining VI Xalqaro kongressida Yu.N.Karaulov tomonidan taqdim etilib [6], olim iqtiboslar, personajlar nomlari, asarlarning sarlavhalari, shuningdek, ularning mualliflari nomlari, Injil matnlari, folklor matnlarini pretsedent birlik sifatida qaragan; pretsedent birliklar masalasini lisoniy shaxs tushunchasi doirasida ko‘rib chiqqan; ulardan foydalanishni, birinchi navbatda, insonning kommunikativ faoliyatidagi ehtiyoj bilan izohlagan [7].

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida M.M.Baxtin, Yu.Kristeva, R.Bart, E.Popova, I.Arnold, V.G.Kostomarov, N.D.Burvikova, A.Suprun, D.B.Gudkov, V.V.Krasnix, I.V.Zaxarenko pretsedent hodisasiga munosabat bildirishgan. Shuningdek, Yu.N.Karaulov, umuman olganda, intertekstuallik tushunchasi o‘rnida pretsedent birliklar tushunchasini qo‘llagan bo‘lsa, Yu.M.Sorokin, I.M.Mixaleva, V.G.Kostomarov, N.D.Burvikova, V.V.Krasnix, D.B.Gudkov, I.V.Zaxarenko, Yu.E.Proxorov, A.E.Suprun, G.G.Slishkin kabi olimlar ham hodisani ushbu pozitsiyada turib o‘rgananlar [8].

O‘zbek filologiya ilmda ham pretsedent birliklar masalasi birmuncha o‘rganilgan, xususan, M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzayeva, D.Xudoyberganova, M.Homidovalar badiiy matnning mazmuniy mustahkamligini ta’min etuvchi intertekstuallik masalalarini pretsedent matnlar misolida ham o‘rganishgan [9]. D.Xudoyberganova «Matnning antropotsentrik tadqiqi» nomli monografiyasida pretsedent matnlarni intertekstuallikni hosil qiluvchi asosiy birliklar sifatida baholaydi [10]. Olima: “O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini ham beradi. Ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholash mumkin”, - deb ta’kidlaydi. Albatta, pretsedent birlik ko‘p hollarda millat, qardosh xalqlar uchun mushtarak, ular uchun muxtasar tushuncha ifodalovchi tayyor matn parchasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy adabiyot tili rivojlanishining muhim belgilaridan biri sifatida pretsedent birliklarning faol qo‘llanishi, ya’ni asar muallifining o‘z asarida boshqa matnlardan keng foydalanishini ham ko‘rsatish mumkin. Agar dastavval maqollar, matallar, aforizmlar, qanotli so‘zlar, antroponimlar, iqtiboslar,

asosan, nutqni bezashga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda u ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushunilmoqda. Bunday matnlarni bilish insonning ma’lum bir ijtimoiy-madaniy guruhga, millatga, davrga mansublik bilan belgilanadi. Pretsedent birliklarning yuqori nutq va umumiy madaniyatning ko‘rsatkichi sifatida badiiy matnda ishtirok etishi mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnni idrok etish jarayoni o‘quvchining faol nutq – fikrlash faoliyati bo‘lib, doimo muallifning ijtimoiy va lingvistik tajribasini, kognitiv bazasini, axborot ko‘lamini namoyish etish bilan birga vujudga keladi. Badiiy matnni yetarli darajada idrok etishga imkon beradigan dastlabki bilimlar sifatida voqelik, madaniyat va tarixiy faktlarni bilish tushuniladi. Badiiy asar matni dunyo, ma’lum bir davr haqidagi bilimlarni to‘plash usullaridan biridir.

Semiotik tizim orqali intertekstuallikni hosil qilishda pretsedent nomlardan keng qo‘llaniladi, masalan, o‘zbek badiiy matnida *Alpomish, Yusuf, Hizr, Majnun, Farhod, Jaloliddin, Amir Temur* kabi, ingliz badiiy matnida *Robin Gud, Puaro, Sezar, Kolumb, Don Juan* kabi intertekstual birliklar she’riy va nasriy matnlarda faol qo‘llanilib, ushbu leksik birliklar butun bir matn mazmuniga ishora qilinadi. Bunda pretsedent nom bilan aloqador matn oldin yaratilgan matn parchasi yoki yangi matn bilan o‘zaro dialogga kirishadi. Bu holat, ayniqsa, she’riy matnlarda ko‘p uchraydi.

Tilshunoslikda muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror birikmalar, jummlalar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida e’tirof etiladi. Til egalarining lisoniy ongida pretsedent birliklar tayyor tushuncha – izohi bilan yashaydi, ko‘p hollarda o‘tmishdan zamonlar oshib borib, barcha davrlarda birdek tushunarli bo‘lgan, har doim qaytadan tiklanganda mazmunini o‘zgartirmaydigan murojaatlardir. Masalan, Jorj Noel Gordon Bayronning “Don Juan” she’riy romanida keltirilgan quyidagi pretsedent birlikni misol qilish mumkin: *O‘layotgan bir turk mahkam ushladi Dushman tovonini sezib nogahon, Axill deb atalmish joyni tishladi.*

Asar qahramoni Don Juan rus sarkardasi Suvorov armiyasida turklarga qarshi Izmail qal’asi uchun janglarda qatnashadi, ushbu qonli jangda bir rus zobiti yaralangan turk sarbozi ko‘kragiga oyoq qo‘yganda, sorboz rus zobitining tovonini qattiq tishlaydi, shunda uning boshini qilich bilan shartta uzib tashlashadi va uning tanasi rus zobitining oyog‘iga osilib qoladi. J.Bayron ushbu detalni emotsional va bo‘rttirib tasvirlash uchun nafaqat Yevropada butun insoniyat tilida faol qo‘llanuvchi “*Axill tovonini*” tushunchasiga murojaat qilgan. Ma’lumki, Homerning “Iliada” dostoni qahramoni Axill//Axilles xususida yunon afsonalarida shunday keltiriladi: podsho Peleyning o‘g‘li bo‘lgan Axillni tug‘ilgan onidanoq o‘lim kutayotganligi bashorat etiladi. Uning o‘limini istamagan onasi – dengiz ma’budasi Fetida Axillni o‘limdan asrab qolish uchun uni

tovonidan ushlab muqaddas Stiks daryosining suviga botirgan, biroq onasi uning tovonidan ushlab turgani uchun suv uning chap tovoniga tegmagan va natijada tovonining zaif, ojiz nuqtasi bo‘lib qolgan. Axill buyuk janglarda ishtirok etgan qahramon sifatida tasvirlangan.

Axillesning o‘limi Gomerning “Iliada” dostonida Gektor tomonidan bashorat qilingan bo‘lsa-da, lekin u keyinchalik yunon va rim she‘riyatida Troya urushi nomini bilan tasvirlangan. Afsonalarga ko‘ra, Urushda Axilles o‘qqa tutilgan va Priamning o‘g‘li Paris tomonidan ojiz joyi – chap tovoniga nayza sanchilishidan xalok bo‘lgani keltiriladi. “Ojizlik hududi”, “zaif nuqta” degan ma‘noni anglatuvchi ibora sifatida “Axill tovonini”ning qo‘llanilishi faqat 1840-yilga to‘g‘ri keladi, lekin 1810-yilda ham Samuel Teylor Kolerij tomonidan ham “Axillesning zaif tovonini” iborasi qo‘llanilgan. She‘riy romandagi “Axill deb atalmish joyni tishladi” jumlasida shu voqeaga ishora qilingan tarzda, ya‘ni “tovonini tishladi” mazmunini ifodalash uchun keltirilgan.

Ushbu pretsedent jumla istalgan matn turida qo‘llanishi mumkin, masalan, internetda keltirilgan “Markaziy Osiyo suvsiz qoladimi?” [11] nomli publitsistik janrdagi tahliliy maqolada “Suv muammosi Markaziy Osiyo davlatlari uchun – “Axilles tovonini” deb nomlangan kichik paragraf bo‘lib, shunday boshlanadi: *Tarixdan “Axilles tovonini” degan atama mavjud va u zaif nuqta degan ma‘noni anglatadi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv muammosi “Axilles tovonini”ga o‘xshatiladi. Ha, suv muammosi mintaqada zaif nuqta bo‘lib qolayotgani ayni haqiqatdir.*

Mazkur pretsedent jumla ijobiy mazmunda qo‘llanmaydi, muallifning salbiy munosabatini ifodalash maqsadida keltiriladi. “Hali-hamon “Axilles tovonini” jumlasini kishining jisman yoki ruhan nozik, zaif, og‘riqli tomoniga nisbatan aytiladi. Shubhasiz, har qanday insonning ojiz tomoni muhabbatidir. Menelay va Parisning qaltis jihati bo‘lmish Yelena qanchalab odamni halokatga yulladi. Shuning uchun ham Kristina Lenner, Andrey Kraevskiy, Aleksandr Nadejdin, Konnor Frenk, Djosh Prentislar “Axilles tovonini” nomli sevgi romanlarini yozgan. Bu asarlardan farqli o‘laroq, Igor Talpa “Axilles tovonini” nomli jangovar serialni suratga olgan [12].

Mag‘lubiyat bilan tugagan har qanday munosabat: iqtisodiy, ijtimoiy, maishiy, siyosiy, tibbiy munosabatlar, urushlar, zaif nuqtalar, ojiz holatlar, harakatlarga nisbatan “Axill tovonini” pretsedent jumlasini qo‘llanadiki, bugun ziyoli qatlamning deyarli barcha a‘zosi ushbu jumla mazmunini darrov tushunadi.

Yu.N.Karaulov ta‘kidlashicha, “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo‘lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan, ya‘ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo‘lgan va nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar” pretsedent matnlardir [13]. Olim pretsedent fenomenlarni pretsedent matn, pretsedent ifoda va pretsedent nom

tarzida turlarga ajratadi. Pretsedent matn – ona tilida gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lgan “xrestomatik” matn. Pretsedent ifoda – ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan qabul qilinadigan avtonom lingvistik birlik. Sitata, maqol, asarning nomini matn tarkibiga kiritishdir. Pretsedent nom – ma’lum bir voqea, hodisalarning ramzi bo‘lgan aniq nom [14]. Y.N.Karaulov nazariyasini davom yettirib, A. A. Yevtyugina "pretsedent matn – bu ma’lum bir yozma matnning mavjud bo‘lmagan matn bilan munosabatini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan pragmatik funksiyani bajaradigan, madaniy xotirasi yangi matn muhitiga tushib qolgan pretsedent tomonidan saqlanadigan minimal madaniy belgi"deb yozadi. [15].

Shu o‘rinda aytish kerakki, bir matn boshqasi bilan shunchaki aloqador bo‘lib qolavermaydi, ko‘p o‘rinlarda intertekstuallik mexanizmi amal qiladi, bir asar bilan ikkinchi asar o‘rtasida umumiy jihatlarning mavjudligi pretsedentlik asosida yuzaga chiqadi. Eng muhimi, bu jarayonda tinglovchi, ya’ni kitobxon darajasi e’tiborga olinishi lozim. Pretsedentlikni yuzaga keltirish uchun muayyan pretsedent birliklar, masalan, *pretsedent matnlar*, *pretsedent jummlalar*, *pretsedent vaziyatlar va pretsedent nomlar* [16] tarzida bo‘lishi lozim, ular jamlangan holda pretsedent fenomen deb ataladi, chunki til egalarining barchasi uchun ma’lum bo‘lgan, uning mavjudligi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lgan hodisalar jamlamasi pretsedent fenomen deyiladi [17].

Pretsedent nom – ma’lum matn bilan bog‘liq bo‘lgan, pretsedent vaziyat bilan bog‘liq individual nom; o‘ziga xos murakkab belgi; kommunikatsiyada denotatning (referentning) o‘ziga emas, balki berilgan pretsedent nomning differensial belgilariga murojaat qilinadi [18]. Pretsedent nom ikki ko‘rinishda yuzaga chiqishi mumkin: 1. Adabiy asarlar qahramonlari yoki badiiy matn mualliflari nomi kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. 2. Tarixiy shaxslar va muallifning zamonaviy qarashlari kontekstual aloqadorlikda bo‘ladi.

D.Xudoyberganova pretsedent nomlarga quyidagi ta’rifni keltiradi: “Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar. Masalan: Alpomish, Majnun, Suqrot, Hotam, Napoleon, Rim, Samarqand, Kolumb” [19]. She’riy romanda *Axill* nomi pretsedent nom sifatida ham keltirilgan, asar qahramoni Don Juanning Jonson ismli britan do‘sti bo‘lib turklarga qarshi jangda Suvorov qo‘shinida ishtirok etadi, Jonson qo‘rqmas zobit bo‘lib, Don Juandan farqli o‘laroq, shuhratga intiladi:

*Jonsonni qahramon demadim bekor,
Garchand unga qismat Axill kabi yo
Ayaks nomiday xushyoqar, dildor
Bir nomni ko‘rmagan bo‘lsa ham ravo,*

Pretsedent nomlar ham boshqa pretsedent fenomenlar singari til egalarining kognitiv bazasida avvaldan mavjud bo‘ladi, biroq, vaqt o‘tishi bilan, obyektiv

sabablarga ko‘ra, yadroni to‘ldirish va kognitiv asosning periferiyasi o‘zgarishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy o‘quvchi uchun o‘tgan asrlardagi badiiy asar matnida qo‘llanilgan pretsedent nom badiiy asar matnini yetarli darajada idrok etish va tushunishni qiyinlashtiradigan noaniqlik nuqtasiga aylanishi mumkin.

“Don Juan” she‘riy romanida ham urush tasviri voqealari keng tasvirlangani uchun ham aynan urush voqealari keng tasvirlangan yunon afsonalari, Homer asarlari pretsedent birlik sifatida tanlangan. Bu esa urush tasvirining ayanchli jihatlarini, qahramonlik sifatlarini to‘laroq, jonliroq gavdalantiradi. Asarni o‘qiyotgan kitobxon agar izoh berilmasa, keltirilgan ko‘plab pretsedent nomlar (ularning ko‘pchiligi Homer asarlaridan olingan) bilan bog‘liq mazmuni bilmasligi mumkin, natijada asosiy matn bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mazmuni tushunish murakkablashadi. Antik davrga xos yoki olis o‘tmishga xos manbalarda qo‘llanilgan pretsedent nomlar badiiy asar matnini yetarli darajada perseptiv qabul qilishni qiyinlashtiradigan noaniqlik nuqtasiga aylanishi mumkin. Asosiy matn va pretsedent nom mazmuni o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunishga putur yetishi mumkin. Masalan:

Priam yodimga tushar shu fursat!

Qo‘ldan ketganiga chindan-da shahar

Ishonmas bu oqsoch, sodiq pahlavon,

Jasur va muhtaram, matonatli xon.

Priam kim? Matnda “Homer «Iliada»si qahramoni, Troya shohi. Uning ellikta o‘g‘li va ellikta qizi bo‘lgan” deb keltirilgan. Biroq bu ma‘lumotning o‘zi yetarli emas.

Qadimgi yunon afsonalarida keltirilishicha, Zevsning o‘g‘li Herakl o‘zini aldagan Troya podshosi Laomedontdan qasos olish uchun Troya ustiga yurish qiladi, podsho Laomedontdning barcha o‘g‘illarini o‘ldiradi, faqat qizi Hesionani va kenja o‘g‘li Podarkni o‘ldirmaydi. Hesona asir tushganlardan birortasini tanlash va uni ozod qilish uchun izn berganida, u ukasi Podarkni tanlaydi. Shunda Herakl Hesionaga biror narsa bersa, ukasini ozod qilishini aytadi, shunda Hesiona boshidagi yopinchig‘ini ukasi evaziga beradi. Shundan so‘ng Podarkni Priam (ya‘ni sotib olingan) deydigan bo‘lishadi. Herakl Troya hukmdorligini Priamga topshiradi va ketadi[20]. Aynan “Troya” afsonasida Priam katta boylik sohibi ekanligi, ellikta o‘g‘li va ellikta qizi bo‘lganligi keltirilgan [20].

“Don Juan” asarida keltirilishicha, Don Juanni turk sultonining xotinlaridan biri Gulbeka qulbozorda ko‘rib sevib qoladi va sotib oladi. Don Juanga qiz libosini kiygizib, haram qizlari ichida sultondan yashirincha saqlaydi. Ammo Don Juan haram qizi Dudu bilan Gulbekaga xiyonat qiladi, natijada o‘limga buyuriladi, Ismoil qal‘asini qamal qilib turgan Suvorov qo‘shinlariga kelib qo‘shiladi. Janglardan birida 10 yoshli qizchani ikki kazakning qo‘lidan qutqarib qoladi, do‘sti “Qo‘rg‘onga kirib podshoni qo‘lga olish imkoni turganda bu qizni nima qilasan? Undan ko‘ra “Georgiy” nishonini olib

qahramon bo‘lamiz” desa ham, qizchani omon saqlash uchun ko‘nmaydi. Shunda do‘sti Jonson qizchani 3-4 askarga topshiradi va uni eson-omon rotaga yetkazishni tayinlaydi. Don Juan do‘sti bilan qo‘rg‘onni zabt etishga ketadi, kekxa xon va besh o‘g‘li ular bilan mardona kurashadi, shoir shu besh o‘g‘ilni Vatanini mardlarcha qo‘riqlovchi besh pahlavon deb ataydi, ular so‘nggi tomchi qonlari qolguncha otasi yonida turib kurashishadi, shu sabab muallif afsonaviy Troya shohi Priam va uning farzandlarini esga oladi.

Olimlar pretsedent matnni nutqiy mazmunni tushunish uchun yetarlicha tugallikka ega matn; (poli) predikativ birlik; tarkibiy qismlarining qiymatlari yig‘indisi uning ma‘nosiga teng bo‘lmagan murakkab belgi sifatida ta‘riflaydilar [21]. G.G.Slishkinning qaydicha, pretsedent matn tushunchasi nisbatan Yu.Karaulov ta‘rifidan farqli o‘laroq, ancha keng tushuncha. Har bir millatga xos pretsedent matn yoki umumbashariyatga xos pretsedent matn bo‘lgani kabi, tor doiradagi odamlar uchun, masalan, kichik ijtimoiy guruhlarga xos pretsedent matn, ya‘ni oilaviy pretsedent matn, talabalar orasida mavjud pretsedent matn kabi. Ikkinchidan, G.G.Slishkinning so‘zlariga ko‘ra, ayrim pretsedent matnlarning qo‘llanishi qisqa davrni o‘z ichiga olsa, ayrimlari esa uzoq davr qo‘llanib kelishi mumkin. G.G.Slishkin qisqa vaqt ichida pretsedent bo‘lgan matnlarga reklama roliklari va anekdotlarni kiritadi, ular ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchilarning nisbatan keyingi avlodi uchun tushunarligini yo‘qotadi va foydalanilmaydi.

O‘zga bir matnda pretsedent matndan foydalanish o‘quvchidan yuqori bilimlarni talab qiladi. Matnda ifodalangan turli voqealar muallifga tegishli bo‘lsa-da, shu voqelikni tushunishga ko‘maklashuvchi ba‘zi ifodalar muallifga tegishli emas, balki roman muallifining tarixdagi shaxsning o‘rni haqidagi mulohazalari bilan bog‘liq. Biror bir shaxs tabiatini, voqelikni, holatni, xususiyatni pretsedent matn orqali to‘laroq idrok etish mumkin. Tahlil qilinayotgan she‘riy romandagi personaj mavjud holatni tarixiy jarayonlarning sabablari va qonunbuzarliklarini keltirib chiqargan zotlarning so‘zlariga ishora qilish orqali tushuntiradi.

J.Bayron asarida Rimning uchinchi imperatori Gay Yuliy Sezar Avgustus Germanikus – Kaligula so‘zlarini pretsedent matn sifatida keltirar ekan, Kaligula yashagan davrni, yashagan joyni aniq keltirmasdan, hatto uning nomini aytish o‘rniga “zolim” sifatlagan holda ishora qiladi, masalan, *Qachondir, qaydadir demish bir zolim* tarzida. Insoniy sifatlardan yiroq ushbu Rim imperatori to‘g‘risida bugungi o‘quvchi to‘la xabardor. Keltirilgan pretsedent matn mazmunida ham Kaligulaning qanday shaxsligi to‘la namoyon: telba va zolim odamga xos ifoda:

*Ayolni sevaman, sevganman doim,
To hanuz pushaymon emasman; zang‘ar,
Qachondir, qaydadir demish bir zolim:*

«*Dunyoning bir bo‘yni bo‘lsaydi agar,
Bir qilich sermashda uzib olardim!*»

V.G.Belinskiyning quyidagi so‘zlari, garchi bo‘ o‘rinda pretsedentlik xususida gapirilmagan bo‘lsa-da, pretsedent birliklarning mohiyatiga ishora qiladi: “Har bir xalqning o‘z qahramoni bo‘lib, yaratgan epopeya va qo‘shiqdarida o‘shanigina gavdalantiradi, masalan, greklar Axillni, ispanlar Don Juanni, nemislar Faustni va hokazo. Bolgarlarning qahramoni Marko Krlevichdir” [22]. “Don Juan” she’riy romani muallifi esa Axillga murojaat qildi, uni yodga oldi, asar voqealarini “tanish voqealar” bilan uyg‘unlashtirdi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy sharoitda biz kishilarning turmush tarzidagi dinamik o‘zgarishlar bilan bir qatorda, tilni idrok etishning dinamik o‘zgarishlarini ham kuzatib bormoqdamiz. Bugun nafaqat badiiy asar, balki o‘zaro muloqotda ham kishilar nutqining sayqallanib, boyib borayotganligi jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlar, axborotlashtirish asri sabablidir, insonlarda til o‘rganishga ishtiyoq, muloqotning samarali yo‘llarini qidirish, suhbatning ishonarli kechishini ta’minlash maqsadida nafaqat badiiy adabiyot, balki o‘zaro suhbatlar yangi so‘zlar va iboralar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ularning muhim qismi pretsedent fenomenlar bilan ifodalanadi. Har bir inson faoliyatini ijtimoiy hayotda nutqiy faoliyat qamrab olgan ekan, insonning qanday sotsial guruh vakili ekanligi madaniy jamoada, ya’ni jamiyatda yuzaga chiqadi.

Ingliz adabiyotida keltirilgan pretsedent birliklar, G‘arb adabiyotida an’anaga aylangan antik davr ijodkorlarining asarlari nomi, asar mualliflari nomi, asar qahramonlari nomlari, asarlardan olingan parchalardan tuzilganligini kuzatish mumkin. Pretsedent birliklar lingvokulturologik birlik sifatida asar matnida berilganda o‘sha matnning aynan o‘zini yodga tushiradi va o‘quvchiga tanish bo‘lgan bu parcha uning ongida qayta tiklanadi, aslida pretsedentlik o‘zga matnini yodga tushirishdir.

Kuzatishlar, barcha davrlarda yaratilgan badiiy matn namunalarida pretsedent birliklar mavjudligini ko‘rsatadi, matnda pretsedent birlikka singdirilgan implitsit mazmuni tushunish uchun o‘quvchidan kognitiv, madaniy bilimlar talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Talmi L. *Force dynamics in language and thought.* – Chicago Linguistics Society – 21, Pt. 2: parasession on Causatives and Agentivity. – 1985. – S. 293-337.

2.Presupposition and *Intertextuality* Author(s): *Jonathan Culler* Source: MLN, Vol. 91, No. 6, Comparative Literature (Dec., 1976), pp. 1380-1396. <https://sng1lib.org/book/2288102/8a3fad?id=2288102&secret=8a3fad>

3.Qarang: Robert S.Miola. Seven types of intertextuality. <https://loyolanotredamelib.org/Chaired/docs/SevenTypesIntextuality-04.pdf>

4. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. Elektron lugat, available at: <https://dictionary.cambridge.org/n>.

5. Oxford Dictionary of Current English. Oxford university press. 2006. - 706 p.

6. Караулов Ю.Н. Роль прецедентных текстов в структуре и функционировании языковой личности // Научные традиции и новые направления в преподавании русского языка и литературы: Докл. сов. делегации на 6-м конгр. МАПРЯЛ. – М., 1986. – С.105–126.

7. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987. – С.218.

8. Сорокин Ю.А., Михалева И.М. Прецедентный текст как способ фиксации языкового сознания // Язык и сознание: парадоксальная рациональность / под ред. Е. Ф. Тарасова. М: Ин-т языкозн., 1993. С. 98–117; Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Как тексты становятся прецедентными // Рус. язык за рубежом. 1994. № 1. С. 73–76; Красных В.В. Виртуальная реальность или реальная виртуальность. – М.: Изд-во “Диалог МГУ Москва”, 1998. – С. 19; Гудков Д.Б. Прецедентные феномены в языковом сознании и межкультурной коммуникации: дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1999; Супрун А.Е. Текстовые реминисценции как языковое явление // Вопросы языкознания. 1995. - №6. – С. 17- 29; Прохоров Ю.Е. Национальные социокультурные стереотипы речевого общения и их роль в обучении русскому языку иностранцев. М., 1996; Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000.- С.128.

9. Yuldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -Toshkent: Fan, 2008. -159 b.; Boymirzaeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri ...diss. –Т, 2010. – 320 b.; Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Т., 2013. – 136 b.; Homidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Monografiya. – Т., 2023. –126 b.

10. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Т., 2013. – В.129-154; – В.88.

11. <https://www.qalampir.uz/news/markaziy-osiye-suvsiz-k-oladimi-96432>

12. Mingboeva D. Timsollar tilsimi. Timsollar tavsifi va tarjimalar. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Adabiyot, 2022. – В.35.

13. Qarang: Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. – Т., 2013. – В. 88.

14. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. М. : Едиториал УРСС, 2003. – С. 84.

15. Евтюгина А.А. Прецедентные тексты в поэзии В.Высоцкого: (к пробл.

идиостиля) : автореф. дис ... канд. филол. наук. Екатеринбург, 1995. –С.4.

16. Захаренко И. В. Прецедентное имя и прецедентное высказывание как символы прецедентных феноменов // Язык. Сознание. Коммуникация: сб. статей / Ред.В.В.Красных, А. И. Изотов. -М.: Филология, 1997. Вып. 1. – С.84.

17.Красных В.В. Свой среди чужых: миф или реальность? – М.: Гнозис, 2003. – С.169. – URL: <https://www.twirpx.com/file/231832/>

18.Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М., 2002. – С.48.

19. Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B.81.

20. Kun N.A. Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari. Samarqand: Zarafshon, 2005. –B.81; – B. 132.

21. Багаева Д.В., [Гудков Д.Б.](#), [Захаренко И.В.](#), [Красных В.В.](#) Некоторые особенности функционирования прецедентных высказываний // Вест. Моск. ун-та. 1997. № 4. – С.106.

22. Qarang: Qayumov L. Chet el adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – B.46.

TOG‘AY MUROD QISSALARIDAGI O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

GULHAYO JO‘RAYEVA,

*Navoiy davlat pedagogika instituti
10.00.01 – O‘zbek tili tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tog‘ay Murod qissalarida qo‘llangan ayrim o‘xshatishlar umumlashtirilib, mavzuiy guruhlarga birlashtirilib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. O‘xshatish predmeti, o‘xshatish etaloni, personifikatsiya, reifikatsiya, obraz, madaniy kod, stereotip.

Аннотация: В данной статье некоторые сравнения, использованные в рассказах дяди Мурада, обобщены, объединены в тематические группы и проанализированы с лингвокультурологической точки зрения.

Ключевые слова: Объект сравнения, эталон сравнения, персонификация, овеществление, образ, культурный код, стереотип.

Annotation: In this article, some similes used in the stories of Uncle Murad are summarized, combined into thematic groups, and analyzed from a linguistic and cultural point of view.

Key words: Object of simile, standard of simile, personification, reification, image, cultural code, stereotype.

Kirish. O‘xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan bo‘lishi bilan birga, eng sodda va ko‘p ishlatiladigan, tez-tez qo‘llaniladigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

Aristotel “Poetika” asarida inson jonivorlardan tashqi voqelikdagi predmet va hodisalarni o‘xshata olishi bilan farq qilishi va o‘zining dastlabki bilimlarini o‘xshatishdan olganini yozgan edi⁵. Arastu fikriga ko‘ra, inson tafakkurining negizi qiyoslash va o‘xshatishdan iborat. Har bir narsa boshqa bir narsaga qiyoslanib, o‘xshash yoki farqli narsa sifatida baholanadi. Shu bois o‘xshashlik doim farqlilik tufayli mavjud bo‘ladi.

Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va

⁵Aristotel. Poetika. –T.:Yangi asr avlodi, 2004. 20-bet.

o'xshatishning muntazam to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki obyekt; 3) o'xshatish belgisi yoki asosi; 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi⁶. O'zbek tilida ham, boshqa tillarda bo'lgani kabi, o'xshatishlar to'rt unsurdan tashkil topadi va biz ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakily ko'rsatkichi, deb nomlaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.Mukarramov o'xshatishning uch komponentdan(o'xshatiluvchi obyekt, o'xshatilayotgan predmet, o'xshatma belgi) iboratligini ko'rsatsa, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, M.Yoqubbekovalar to'rt unsurdan(to'rtinchi uzv- o'xshatishning shakily ko'rsatkichi) tashkil topishini ta'kidlaydilar.

V.Maslova o'xshatishlarning antroposentrik jihatlariga alohida e'tibor berib, shunday yozadi: "O'xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq bo'lgan turli doiralarga mansubligi o'zida bir-birini taqozo etuvchi qo'shimcha assotsiyatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to'laqonli bo'lishini ta'minlashi bilan birga ta'sirchanlikni ham kuchaytiradi; o'zaro o'xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qanchalar uzoq bo'lsa, ulardagi ekspressivlik shuncha yorqinlasha boradi. O'xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko'rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko'pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi"⁷. Shunga ko'ra, D. Xudoyberganova o'xshatishlarni lingvokulturologik adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralarda ishtirok etishi, tilning lingvomadaniy boyligi ekanini e'tirof etadi.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi bo'yicha R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov (o'xshatishlarning semantik-grammatik, semantik-stilistik tadqiqi) faoliyat olib borgan. R.Qo'ng'urov o'zbek tilining tasviriy vositalariga bag'ishlangan kitobi⁸da o'xshatishlarning sintaktik tuzilishi, uslubiy xususiyatlari masalasini yoritgan. M.Mukarramovning tadqiqotida o'xshatishlarning morfologik xususiyatlari, uning yondosh masalalarga munosabati kabilar o'rganilgan. Olim o'xshatishlarni sezgilar yoki tasavvurlar orqali ro'yobga chiqishiga qarab konkret va absrakt, badiiy adabiyot tilida qo'llanilishiga ko'ra an'anaviy va individual, komponentlarning soniga ko'ra to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab tarkibli, uzilgan kabi turlarga ajratgan⁹.

O'xshatish olamni bilish jarayonidagi o'ta muhim operatsiya bo'lib, uning amalini biz personifikatsiya va reifikatsiyada ko'rishimiz mumkin¹⁰. "Personifikatsiya –

⁶ Bu haqida qarang. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: Ma'naviyat, 2013. 5-bet.

⁷Bu haqida qarang: Xudoyberganova D. O'xshatish mazmunini ifodalovchi matnlar.//O'zbek tili va adabiyot ijurnali. 2012-yil 6-son. 15-bet.

⁸Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. –T.: Fan, 1977. 152-bet.

⁹Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. –T.: "Fan", 1976. 25-30-betlar.

¹⁰Usmanov F.F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan.fals.dok. (PhD) diss. T.:2020. 25-bet.

kishiga xos narsa, belgi, harakat kabilarning jonsiz predmetga ko‘chirilishidan iborat uslubiy qo‘llanish”¹¹, ya’ni jonlantirishdir.

Reifikatsiya esa mavhum g‘oya va tushunchalarni predmetlashtirishdir¹². Keng tarqalgan reifikatsiyaga uchrovchi tushunchalardan biri so‘zdir: So‘z – zabarjad, so‘z – gavhar, oltin (E.Vohidov).

Ma’lumki, inson hayoti his-tuyg‘ulardan iborat. Reifikatsiya hodisasi ta’sirida yuzaga kelgan o‘xshatishlar orqali inson hissiyotlari ravshan tasavvur etilishiga erishish mumkin. “Non sindirildi! Buni eshitgan Bo‘ri polvon yarasiga tig‘ tekkan bemorday seskanib, ingrab yubordi”¹³. Ko‘rinadiki, bu misoldagi reifikatsiya hodisasi ham inson kognitiv faoliyatining natijasi bo‘lib, o‘xshatishga asos esa inson tafakkuridagi o‘xshatish-qiyoslash amaliyoti hisoblanadi. O‘xshatish-qiyoslash amaliyoti olam tuzilishi aks etgan inson ongini namoyon etadi, ya’ni millat tafakkurida aks etgan olamning lisoniy manzarasini yaratadi. Olamning lisoniy manzarasi millatning milliy dunyoqarashini, milliy tafakkur tarzini, millatning idrok-intizomini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar xazinasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi dastlabki omil – bu shu millat yashab turgan geografik mintaqa, hududning tabiiy iqlim sharoitlaridir. Qaysidir millat vakillari uchun o‘rmon va unga tegishli tushunchalar, qaysilari uchun dengiz yoki sahro ahamiyatga ega. Inson borliqni qiyos yordamida anglar ekan qiyos etaloni vazifasini obyektiv olam unsurlari bajarishi tabiiy.

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek lingvomadaniyatida inson go‘zalligi ko‘proq tabiat go‘zalliklariga qiyoslanadi va shu tarzda ayol go‘zalligi ta’rifidagi iboralar yuzaga keladi: suv bilan yutguday (*Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar! Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar!**), yuzlari kulchaday, ko‘zlari zig‘ir guliday (*Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi yo suluvmi? Ko‘zlari qorami yo zig‘ir guldaymi?**), paxtaday oppoqqina ayol (*Bir ko‘kko‘z o‘rinbosari bor. Paxtaday oppoqqina ayol.**

O‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi etalonlardan biri bu – oy. Tog‘ay Murod asarlarida esa oy etalon, ya’ni obyekt emas, subyekt vazifasini bajargan. “*Zardoli bargi misol qayrilma oy bulutsiz osmon oqshomida havolandi*”¹⁴. Ushbu gapda oy qayrilma zardoli bargiga o‘xshatilgan.

¹¹Hojjiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent:O‘zbME,2002. –B.130.

¹²<https://ru.wiktionary.org/wiki>.

¹³ T. Murod.Tanlangan asarlar. Romanlar, qissalar. Yulduzlar mangu yonadi. –T.: “Sharq”,2019. 360-bet.

* TA, 405-bet.

* TA, 411-bet.

* TA, 611-bet.

¹⁴ T.Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. 163-bet.

Yana bir o‘rinda muallif Oymomo tilidan “*Oy-da menday tug‘madi, olam-da taqdirimday zim-ziyo*”¹⁵ deb yozish orqali oyni Oymomoga o‘xshatadi. Muallifning asar qahramoniga Oymomo deb nom berishiga ham oy etaloni sabab bo‘lgan.

O‘zbek tilida oyday o‘xshatish etaloni juda keng qo‘llanadi. Bu o‘xshatish etalonini semantik va lingvokulturologik jihatdan quyidagicha izohlash mumkin: 1. Chiroyli, go‘zal. Asosan, ayollar haqida; 2. Porlamoq, balqmoq, ajralib turmoq, kuchaymoq; 3. To‘lmoq, yana-da go‘zallashmoq; 4. Ravshan, ayon, ma‘lum, shubhaga o‘rin qoldirmaydigan darajada aniq bilingan. Bundan tashqari, ayolning go‘zalligini ta‘kidlaydigan o‘n to‘rt kunlik oyday turg‘un o‘xshatishi ham ko‘p uchraydi.

Ammo rus lingvomadaniyatida oy o‘xshatish etalonining o‘zbek tilidagi mazkur to‘rt mazmunidan birortasi ham mavjud emas, bu lingvomadaniyatda oy obrazi ko‘proq g‘amgin, ma‘yus, sovuq manzara bilan bog‘lanadi, shu holat rus mental tasavvurotida an‘anaga kirgan. Xitoy va koreyslarda esa oy etaloni faqat musbat o‘lchovlarda talqin etiladi, go‘zal ayolning oyga o‘xshatilishi juda keng tarqalgan, xuddi o‘zbeklardagi kabi oy obrazi go‘zallik, yorqinlik, yoqimlilik kabi sifatlarni tamsil etishga xizmat qiladi. Yoki xitoy va koreyslarda ayol yuzining o‘rikka, majnuntol novdasiga o‘xshatilishi, go‘zal yuz aylanasi (oval shakli)ning oshqovoqning urug‘idan iborat etalon vositasida ta‘kidlanishi mavjudki, ular o‘zbek, rus va boshqa lisoniy mental an‘analariga begonadir. Demak, turli tillarda o‘xshatish etalonlarining tanlanishida ham farqli milliy- etnik idrok hal qiluvchi o‘rin tutadi¹⁶.

O‘xshatish etalonlaridan faol qo‘llanuvchilaridan biri bu – olma etalonidir. O‘zbek lingvomadaniyatida yuzni, yanoqni olmaga o‘xshatish uning go‘zal, yoqimlilikidan darakdir: “*Ayollarning oppog‘i, Misli olma yanog‘i, Gulsun opamga salom*”¹⁷.

Ko‘rinadiki, o‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o‘rinda ma‘lum predmet bir predmetga o‘xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o‘rinda ikkinchi narsaga o‘xshatilishi mumkin. Prof. R.Qo‘ng‘urov o‘xshatish haqida o‘zining “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o‘xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qimmatini yo‘qotgandir. Bu tipdagi o‘xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.

Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida ham o‘xshatishlar orqali milliy mentalitetimizga xos elementlar ko‘rinadi. Asarda og‘ir tabiatli inson saman otga¹⁸, polvon ko‘pkariga boqilgan asov otga¹⁹ o‘xshatiladi. Ma‘lumki, ot qadim-

¹⁵ O‘sha asar, 143-bet.

¹⁶ Bu haqida qarang: Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma‘naviyat”, 2013. 15-bet.

¹⁷ T.Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. 40-bet.

¹⁸ Qarang: Murod T. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. 10-bet.

¹⁹ T.Murod. Tanlangan asarlar. Romanlar, qissalar. Yulduzlar mangu yonadi. –T.: “Sharq”, 2019. -359-bet.

qadimdan insonga xizmat qilib kelgan. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, otlar miloddan taxminan uch ming yil ilgari xonakilashtirilgan. Uni mashq qildirish va har xil ishlarga, harakatlarga o‘rgatish – boshqa hayvonlarga nisbatan ancha qulay. Ot kuchli, sabr-chidamli, ko‘rkam, pokiza, ziyrak, hushyor, biror narsani darhol payqash, ko‘rish, hid bilish, tovushni, hatto bilinar-bilinmas sharpani eshitish, sezish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do‘sti, vafodori, og‘ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jangu jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko‘pincha kishini o‘limdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir²⁰.

O‘zbek tilida ot komponentli birikmalar shaxsning faoliyati, uning sifatii ko‘rinishlari, psixik holati, kechinmalari, intellektual qobiliyati, emotsiyasini ifoda etadi. *“ Ammo ulug‘ shoir ertalab otday o‘ynoqlab keldi* ”*, *“ Ulug‘ iflos esa o‘ziyam otday, asarlari ham otday* ”*, *“ Sog‘liq qalay, o‘rtoq Qurbonov? ”* kabi misollardan ko‘rinadiki, o‘zbek mentalitetida “ yaxshi, zo‘r ” so‘zlariga sinonim ravishda otday so‘zi qo‘llanilishi ham ot etalonining til qatlamida faol o‘ringa ega ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, o‘xshatishlarning turg‘un yoki individual(badiiy) turlari farqlanadi. Turg‘un o‘xshatishlarning doimiy belgisi obrazli etalonning til egalari lisoniy ongida turg‘unlashganligidir. Nizomiddin Mahmudovning fikrlariga ko‘ra, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar garchi muayyan shaxs, ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da vaqt o‘tishi bilan til jamoasida ufga kirib, doimiy ifodachilar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi²¹.

Turg‘un o‘xshatishlar tarkibidagi o‘xshatish obrazi, ya’ni o‘xshatish etaloni alohida ahamiyatga ega. U o‘xshatishning mazmunini kasb etadi, o‘xshatish subyekti va asosi shu etalon atrofida birikadi. Turg‘un o‘xshatishlarni fitonim, zoonim predmet komponentli turlarini farqlash mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘zbek mentalitetida zoonim komponentli turg‘un o‘xshatishlarning ot (*Otday bo‘lib yuribsizmi?**), it (*Itga o‘xshab o‘zi ketib, o‘zi keldi*.*), tozi (*Qizbeli toziday chopdi*.*), tulki (*Tarlton tulkiday chopdi*.*), qo‘chqor (*Qo‘chqorday-qo‘chqorday o‘g‘illarim bor*.*), baliq (*Baliq tangasiday-baliq tangasiday qor uchqunlari yilt-yilt etdi, ko‘zdan yosh oqizdi*.*) etalonli individual turlari faol ekanligi aniqlandi.

²⁰ Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: ЎМЭ, 2001. –Б.263.

* TA, 634-bet

* TA, 635-bet

²¹Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –T.: “Ma’aviyat”, 2013. 6-bet.

* TA, 416-bet.

* TA, 461-bet.

* TA, 427-bet

* TA, 430-bet

* TA, 454-bet

* TA, 477-bet

Xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy ma’lumot ayni shu o‘xshatish etalonida o‘z aksini topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi. Mutaxassislarning qayd etishicha, “o‘xshatish etalonlari an’anaga kirgan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan obrazlar sifatida xalqning dunyoni o‘ziga xos idrok etishining ifodachisi bo‘lgani uchun etalonlar komparativ iboralar tarkibida alohida o‘rin tutadi va lingvokulturologik, ya’ni til, milliy madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan favqulodda muhimdir”²². Masalan, o‘zbek tilidagi qip-qizil anorday yuzli o‘xshatishi boshqa tillarda uchramasligi mumkin. “Qip-qizil anorday”²³ o‘xshatish etalonida o‘zbekcha milliy-madaniy qarash, tasavvur yorqin aks etgan. Bu yerda qizil rangi ham o‘ziga xos ma’no tashiydi.

Tog‘ay Murod qissalaridagi madaniy kodlar tahlil qilinar ekan inson haqidagi turg‘un va individual o‘xshatishlarni quyidagicha ma’naviy guruhlariga tasnif qilish mumkin:

1. **Inson a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *zilday og‘ir yelka, yuzlari kulchaday, ko‘zlari zig‘ir guliday, qo‘lining joni yo‘qday, sfinksdek bashara, kulcha yuz, qo‘y ko‘z, sarv qad, Barchin yuzli, ikki yuzi qip-qizil anorday;*

2. **Inson tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *suv bilan yutguday qizlar, paxtaday oppoqqina ayol, yelkasiga uy tiksa bo‘ladigan, polvonqomat ayol;*

3. **Inson jismoniy xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *zarang tayoqday baquvvat, qo‘chqorday o‘g‘il;*

4. **Inson xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *otday asov polvonlar, misoli og‘ir tosh polvonlar, o‘zi minayotgan mashinaga o‘xshaydigan farzandlar, ignaday nimani tog‘day qilmoq, yulduzday qaynona;*

5. **Inson holati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *yarasiga tig‘ tekkan bemorday seskanmoq, otday bo‘lib yurmoq, chumchuqdayin tizilib o‘tirmoq, yog‘day yoqmoq, emchakdoshi urushdan qaytmagan bo‘zbola misol mung‘ayib qolmoq, parday yengil bo‘lmoq, osmondan tushganday bo‘lmoq, otday o‘ynoqlab kelmoq, yarasiga tig‘ tegmish bemor misol qaltirab ketmoq, qurbaqa o‘ligini ushlaganday bo‘lmoq;*

6. **Inson xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:** *nopok erkakni tappiday yerga yopmoq, toziday chopmoq, itga o‘xshab o‘zi ketib, o‘zi kelmoq, itday tentirab kelmoq, baliqdayin suzmoq.*

Tog‘ay Murod qissalaridagi inson bilan bog‘liq o‘xshatishlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, yozuvchi asarlarida o‘zbek tilida bo‘lganidek, inson holati bilan bog‘liq o‘xshatishlar yetakchi, undan keying o‘rinlarni esa inson xarakteri va xatti-harakati

²² Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma’naviyat”, 2013. 10-bet.

²³ T.Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. 181-bet.

bilan bog‘liq o‘xshatishlar, inson a‘zolari hamda tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq o‘xshatishlar egallaydi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalari ko‘proq insonning holatini obrazli tarzda ifodalaydi.

S.V.Ivanova va Z.Z.Chenisheva stereotiplarning etnomadaniy konnotatsiyasi, asosan, metaforik va metonimik ko‘chimlar, o‘xshatishlar, ibora va maqollarda ko‘rinadi, deb hisoblaydi²⁴. Darhaqiqat, madaniyat kodlari tilda asosan turg‘unlik kasb etgan birliklar orqali aniqlanishi mumkin. Demak, obrazlar til egalari milliy-madaniy etalon va stereotiplar bilan aloqasini ko‘rsatadi.

Til egasi biror bir voqelikni o‘xshatish uchun etalon tanlashda asosan tabiat unsurlari, kundalik duch kelinadigan predmetlarni ifodalovchi so‘zlardan faol foydalanadi. O‘xshatishlar tadqiqi bilan shug‘ullangan tilshunos F.Usmanov o‘xshatishlarning tahlili o‘xshatish etalonlarining milliy-madaniy konnotatsiyalariga oydinlik kiritishdan boshlanishini ta‘kidlab, o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni obrazli asosiga ko‘ra "Inson", "Tabiat hodisalari va unsurlari", "Fauna", "Flora", "Maishiy turmush realiyalari", "Diniy, mifologik va folklor personajlari" hamda "Boshqalar" guruhlariga tasniflaydi hamda turg‘un o‘xshatishlarda qo‘llaniluvchi eng ko‘p etalon leksemalar maishiy turmush realiyalari bilan bog‘liq ekanini aniqlaydi²⁵. Darhaqiqat, ro‘zg‘or buyumlari hayot uchun muhim oziq-ovqatlar, kiyim-kechak kabilar maishiy turmush realiyalari turkumini tashkil etib, bu predmetlar juda qadimdan insonga hamroh.

Bizningcha, Tog‘ay Murod qissalaridagi o‘xshatish etalonlarini statistik tahlil qilib quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

1. Inson:

a) *inson*: bemor, bo‘zbola, ayol;

b) *inson a‘zosi*: bel, ko‘ngil;

2. Tabiat:

a) *tabiat hodisalari*: qora kun, qyun, yel, soya;

b) *tabiat unsurlari*: tosh, par, saraton, buloq, suv;

d) *samoviy unsurlar*: yulduz, osmon;

e) *flora*: zarang tayoq, gilos, zig‘ir guli, olma, qayrag‘och, gul, paxta, somon, savr, zardoli bargi, anor;

f) *fauna*:

-*hayvonlar*: ot, ilon, tozi, tulki, qo‘chqor, it, bo‘taloq, baliq, buzoq, qurbaqa, qo‘y, qunduz;

-*qushlar*: chumchuq;

-*parrandalar*: xo‘roz;

²⁴Iqtibos manbasi: Иванова С.В., Ченьшева З.З. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография. – Уфа, 2010. –С.327-328.

²⁵Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan.fals.dok(PhD)diss. T.:2020. 68-bet.

g) *maishiy turmush realiyalari*: samovar, munchoq, soyabon, kulcha, non, igna, yogʻ, oʻq, tappi, tanga, moyak, surp, mashina, oyna, kulcha, paxta xirmoni, tosh.

3. Diniy-mifologik va folklor personajlari:

a) diniy obrazlar: behisht.

b) mifologik va folklor personajlar: sfinks.

Xulosa va takliflar. Oʻxshatish uchun etalon sifatida tanlangan soʻzlar oʻzbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini koʻrsatuvchi til birliklari hisoblanadi. Koʻrinadiki, Togʻay Murod qissalarida tabiat unsurlari hisoblanmish flora, fauna va maishiy turmush realiyalarini ifodalovchi soʻzlar oʻxshatish etalonlari sifatida boshqa guruhlariga nisbatan faol.

Bir shoir yoki yozuvchi tilidan hatto biror alohida olingan asar tilida ishlatilgan oʻxshatishlar, undagi muallif individual uslubi xususiyati, shu asar tilida oʻxshatishlarni ishlatishdagi novatorligi uning boshqa yozuvchi yoki boshqa asarlarda ijodning dastlabki va keyingi davrdagi oʻxshatishlardan foydalanishdagi taraqqiyot masalalari, maʼlum adabiy oqimlarga mansub boʻlgan shoir yoki yozuvchining oʻxshatishdan foydalanishdagi uslubi kabi masalalar oʻzbek tilshunosligida tadqiqini kutayotgan masalalardir.

Xulosa qilib aytganda, oʻxshatishlar lingvomadaniy adabiyotlarda metafora, ibora va maqollarda tilning beqiyos madaniy boyligi sifatida eʼtirof etiladi. Bu kabi birliklar oʻzida biror xalqqa xos mentallikni til vositasida ifodalanish darajasini koʻrsatuvchi boylik hisoblanadi. Bir vaqtning oʻzida ular xalqning ijtimoiy, maʼnaviy rivojlanishi aks etgan koʻzgu vazifasini ham oʻtaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Aristotel. Poetika. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Аристотель. Риторика / Античные риторики. –М.: МГУ, 1978.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: OʻzbME, 2002.
4. Иванова С.В., Ченьшева З.З. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография. – Уфа, 2010.
5. Мамадалиев М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан. номз. дисс... –Тошкент: 1998.
6. Mahmudov N. Termin, obrazli soʻz va metafora //Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. 2013-yil 4-son.
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati. T.: Maʼnaviyat, 2013.

8. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010
9. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. –Т.: “Fan”, 1976.
10. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. –Т.: Fan, 2006. –В.183.
11. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. –Т.: “Fan”, 1977. 152-bet.
12. T.Murod. Tanlangan asarlar. Romanlar, qissalar. –Т.: “Sharq”,2019
13. Usmanov F.F. O'zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan.fals.dok(PhD)diss. Т.:2020
14. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
15. Xudoyberganova D. O‘xshatish mazmunini ifodalovchi matnlar.//O‘zbek tili va adabiyot ijurnali. 2012-yil 6-son. 15-bet.
16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: ЎМЭ, 2001. –Б.263.
<https://ru.wiktionary.org/wiki>.



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNING TADQIQI XUSUSIDA



MIRJALOL RUSTAMOV,
*SamDUKF, O'zbek tili va gumanitar
fanlar kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi haqida to'xtalib o'tilgan. Bizga ma'lumki, tilimizda eng ko'p foydalaniladigan gap turlaridan biri bu sodda gaplardir. Sodda gaplar so'z va so'z birikmalaridan tashkil topgan bo'ladi. Lekin sodda gaplar tarkibida so'z va so'z birikmalaridan tashqari ular bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan, ammo sintaktik musosabatga kirishib sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar ham mavjud bo'ladi, bunday birliklar introduktiv munosabat ifodalovchi birliklardir.

Kalit so'zlar: uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение простых высказываний, которые являются сложными в узбекском языкознании. Мы знаем, что одним из наиболее распространенных типов речи в нашем языке являются простые высказывания. Простые слова состоят из сочетаний слов и словосочетаний. Однако, кроме сочетаний слов и словосочетаний, простые слова содержат единицы, не имеющие с ними грамматических связей, а являются синтетическими, усложняющими простые слова, такие единицы являются единицами, представляющими вводное отношение.

Ключевые слова: унифицированные фигуры, стимулы, устройства ввода и вывода, разделенные фигуры, качественные и сопутствующие кадры, системы, называемые движением.

Annotation. This article discusses the study of simple statements that are complicated in Uzbek linguistics. We know that one of the most widely used types of speech in our language is simple statements. Simple words are made up of combinations of words and phrases. In addition to combinations of words and phrases, however, simple words contain units that do not have grammatical connections with them but are synthetic, complicating simple words, such units are units that represent an introductory relationship.

Key words: unified pieces, incentives, input and input devices, separated pieces, quality and companion frames, systems called movement.

Kirish.Til - millatning millat bo‘lib shakllanishida xizmat qiluvchi, milliy o‘zlikni anglatuvchi eng qudratli vosita. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng esa tilga e‘tibor ayniqsa kuchaydi. Yurtboshimizning sa‘y-harakatlari bilan tilga oid qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytib o‘tganlaridek “Dunyodagi boy va qadimiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta‘sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehri qo‘shiqclariga quloq tutsin” [1]. Zero, til - millatning sha‘ni, g‘ururi sanalishi bilan ham qimmatli sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘z yoki birikma orqali ifodalangan gap sharoitga, suhbatdoshning fikriga va umuman fikrning rivojiga qarab kengaya boradi. Natijada sodda gaplarning murakkablashgan turi yuzaga keladi.

Eng avvalo, ushbu sintaktik birlikning nomlanishi haqida bir to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Chunki adabiyotlarda ularni turlicha nomlash holatlari ko‘zga tashlanadi. Ilk bor ushbu sintaktik kategoriya haqida “O‘zbek tili grammatikasi” nomli kitobda gap yuritilgan. Bu kitobda murakkablashish xususiyatiga ega bo‘lgan sodda gaplar turini murakkab gap konstruksiyasi [2] deb nomlangan.

A. G‘ulomov, M. Asqarovalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida shunday yozilgan: “Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma-xil: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish konstruksiyalar, kiritma konstruksiyalar va undalmalar. Bunday murakkablashtirish gapni sodda gap doirasidan chiqarib yubormaydi, balki murakkablashgan sodda gap hosil qiladi” [3].

Atoqli olim G‘. Abdurahmonov bu turdagi sintaktik birliklar haqida shunday deydi: “Murakkab gap sintaksisining tarkibiy qismini ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish yoki izoh bo‘lak va birikmalar tashkil etadi. Bu sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo‘laklaridan ham, qo‘shma gapni hosil qiluvchi qurilmalardan ham farqlanib, murakkab gap qurilmalari deb yuritiladi” [4].

N.Mahmudov va A. Nurmonovlar esa murakkab gap atamasi ko‘proq qo‘shma gap turiga nisbatan qo‘llanishini e‘tiborga olib, sodda gap doirasidagi bunday qurilmalarga nisbatan murakkablashgan gaplar atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblashadilar [5].

B. O‘rinboyev ushbu sintaktik kategoriyaga quyidagicha ta‘rif beradi. “Sodda gapning tarkibida uyushiq bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan

bo‘laklar, sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar qatnashib sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi” [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Faqat til mustaqilligi va yurt mustaqilligi o‘z tilimizning ichki qonuniyatlari asosida o‘rganishga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Hozirda fanning barcha sohalari bo‘yicha mavjud muammolarni o‘rtaga tashlash, ularga nisbatan o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirishga hech qanday ta‘qiq yo‘q. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida mustaqillikkacha va mustaqillikdan so‘ng sintaksis tizimida, asosan, sodda gaplarning murakkablashuvi hodisasi ya‘ni murakkablashgan sodda gaplar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, bu sintaktik birlikning o‘ziga xos xususiyatlari, murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi grammatik vositalar sirasiga kiruvchi introduktiv munosabat ifodalovchi birliklarning gaplarni sintaktik, semantik jihatdan murakkablashtirishi, murakkab fikrning yuzaga chiqishidagi o‘rni yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tmoqchimiz.

Bizga ma‘lumki inson, eng avvalo, muloqat qilish uchun, so‘ngra o‘z bilimlarini boyitish uni boshqalarga yetkazishda tildan foydalanadi. Tilning eng kichik ma‘no ifodalovchi birligi esa gapdir. Voqelikni va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan ohang va mazmun jihatidan nisbiy tugallikka ega bo‘lgan so‘z va so‘zlar bog‘lanmasiga gap deyiladi. Gap asosan so‘zlarning ma‘lum grammatik qoidalari asosida birikuvidan hosil bo‘ladi. Nutqimizda eng ko‘p foydalaniladigan gap turlaridan biri sodda gaplardir. Sodda gaplar kommunikativ vazifani bajaruvchi eng kichik lekin muhim sintaktik birlikdir. Sodda gaplar fikr bildirishning, o‘zaro so‘zlashuv nutqining asosiy xususiyatlaridan biridir. Gaplarning qurulishiga ko‘ra boshqa turlari, ya‘ni murakkablashgan sodda gaplar, qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplarning shakllanishida ham sodda gaplar asos sifatida muhim o‘rin tutadi. Ma‘lum bir fikr so‘z yoki predikativ munosabatdagi birikma orqali yuzaga chiqadi. Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatilgan adabiyotlarda murakkab ko‘rinishga ega bo‘lgan sodda gaplarning nomlanishi borasida ham olimlarimiz bir atamani tanlashmaganlar. “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida “murakkab gap konstruksiyasi”, A.G‘ulomov, M. Asqarovalar “murakkablashgan sodda gap”, G‘. Abdurahmonov “murakkab gap qurilmalari”, N. Mahmudov, A. Nurmonovlar “murakkablashgan gaplar”, B. O‘rinboyev “murakkablashgan sodda gaplar” deb nomlaganlar. Vaholanki, tilshunoslikdagi ma‘lum bir til kategoriyasi olimlar o‘rtasida bir xil nomlanishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bu ba‘zi bir chalkashliklarning kelib chiqishining oldini olar edi. Chunki til fani ham aniqlikni talab qiladigan fanlardan hisoblanib, aniq va tog‘ri javobni talab qiladi. Albatta, yuqoridagi ta‘rif va nomlanishlar

ham biz o‘rganayotgan sintaktik birliklar xarakterini u yoki bu darajada ochib bergan. Lekin yuqorida ta’kidlaganimizdek, atashda bir xillik bo‘lishi juda ko‘p anglashuvmovchiliklarning oldini olgan bo‘lar edi.

Bizningcha, yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan holda ushbu sintaktik birliklarni “murakkablashgan sodda gaplar” deb atash o‘rinlidir. Chunki, ushbu gap turi sodda gapning turli til birliklari vositasida murakkablashishi natijasida hosil bo‘ladi. Ya’ni u qo‘shma gap darajasiga yetmaydi, sodda gapdan esa tarkibi va fikr to‘liqligi bilan farqlanadi. Faqat sodda gap murakkablashish xususiyatini kasb etadi.

Bundan tashqari tilda ma’lum sistema mavjudki, u hamisha soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga harakatlanadi va bir xillikni ta’minlashga harakat qiladi. E’tibor qilsak, so‘z birikmasi sodda va murakkab gap bo‘laklari ham sodda va murakkab ko‘rinishlarga ega. Shuningdek, qo‘shma gap ham murakkab turiga ega. Shularni inobatga olgan holda, sodda gapning bu ko‘rinishini “murakkablashgan sodda gaplar” deb atash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu ta’rif A. G‘ulomov, M. Asqarova va B. O‘rinboyevlarning fikrlari bu sintaktik birliklar xarakteriga mos keladi va shunday deb atash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlarni har tomonlama tahlil qilgan holda, o‘rganayotgan obyektimizni “murakkablashgan sodda gaplar” deb nomlash to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Sodda gap tarkibini murakkablashtiruvchi uyshuq bo‘laklar o‘ziga xos xususiyatga ega. “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “uyushiq bo‘lakli gaplar”, “murakkab gaplar”, “uyushiq qurilmalar” kabi atamalar sifatida nomlanib kelinayotgan bu sintaktik birliklarning qo‘llanilishini qadim davrlar yozma manbalarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, XI asr yozma yodgorligi bo‘lgan “Devonu lug‘atit turk”da uyushiq bo‘laklar fikrni ta’sirchan ifodalash vositasi sifatida qo‘llanilgan:

Qush, qurt qamug‘ tirildi,

Erlik tishi terildi.

O‘kur olib tarildi

Yinqa yana kirgusuz (M. Qoshg‘ariy. “Devoni lug‘atit turk”).

Asarda qo‘llanilgan **qush, qurt, erlik, tishi** so‘zlari uyushiq ega sifatida to‘rtlikning poetik ta’sirchanligini aks ettirish uchun xizmat qilmoqda. Ma’lumki, Fitratning “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Nahv” kitobi o‘zbek tilshunosligi tarixidagi muhim manba hisoblanadi. Hali o‘zbek tili sintaksisi deyarli rivojlanmagan, ayrim sintaktik atamalar tizimi izga solinmagan davrda Fitratning ushbu darsligi o‘zbek tilshunosligi tarixida katta yangilik bo‘ldi. Bu darslik 1925-1930- yillar davomida uch marta nashr etildi. Uning 1930-yilda nashr etilgan varianti nisbatan mukammal bo‘lib, “gapning uyushg‘on bo‘laklari yoki qisqacha uyushmalar” atamalari bilan nomlangan uyushiq bo‘laklar dastlab Fitratning shu asarida keltiriladi. Shuningdek, aniqlov va sifat uyushmalarida qaratqich va sifatlarning birdan ortiq kelishi ta’kidlanadi [7]. “Til

saboqlig‘i” va “Nahv” asarlaridagi uyushiq bo‘laklarga oid fikrlar hozirgi davrga nisbatan ancha sodda bo‘lsa ham, lekin tilshunoslik uchun muhim ilmiy qarashlardan hisoblanadi. O‘zbek tilshunosi A. G‘ulomov qayta tahrirdan chiqqan “Sodda gap” ilmiy asarida gapda qo‘llaniladigan uyushiq bo‘laklar, ularning turlari va ifoda etish yo‘llari haqida ma’lumot beradi [8].

D. Ashurova, F. Ubaeva, H. Boltaboevalarning “Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari” ilmiy asari 2 qismdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismda uyushgan bo‘laklarning semantik-logik xususiyatlari, morfologik hamda sintaktik belgilari, ularning o‘zaro bog‘lanish usullari yoritilgan [9].

Sodda gap tarkibini murakkablashtiruvchi uyushiq bo‘laklar o‘ziga xos uslubiy xususiyatga ega. Uning bu xususiyati, asosan, badiiy uslubda namoyon bo‘ladi. Murakkablashgan sodda gapni yuzaga keltiruvchi ushbu sintaktik birlik badiiy asar ta’sirchanligini ta’minlovchi uslubiy vosita sifatida peyzaj detallari, harakat dinamikasini ifodalash uchun ishlatiladi. Shunga asosan tilshunos H. Xoliqov yozuvchi Abdulla Qahhor asarlari misolida murakkablashgan sodda gaplar uslubiyatini tadqiq etish jarayonida uyushiq bo‘laklarning uslubiy xususiyatlarini maxsus tadqiq etgan [10].

Badiiy uslub faqat zamonaviy yoki tarixiy asarlarga oid bo‘lmasdan, xalq og‘zaki ijodi namunalari ham shu uslubda yaratiladi. Ertaklarga ma’lum xalqning og‘zaki ijodi namunasi sifatida ta’rif berilar ekan, ularning mazmunini yoritish til birliklari vositasida amalga oshiriladi. Yuqorida uyushiq bo‘laklarda harakat dinamikligini amalga oshiruvchi xususiyat borligini ta’kidlagan edik. Ertaklarda voqea-hodisalar, albatta, xatti-harakat orqali ifodalanadi. Shu jihatdan o‘zbek xalq ertaklaridagi aniqllovchilarni maxsus tadqiq etgan N. Dosanov bu bo‘laklarning uyushiq holda qo‘llanilishiga ham e’tiborni qaratadi. Uning fikricha, uyushiq bo‘laklar fikrni aniq, to‘liq, obrazli ifodalab, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko‘tarinkilik berish uchun xizmat qiladi. Bular, ayniqsa, ertak tili uchun juda zarur xususiyat ekanligini ta’kidlaydi.

An’anaviy tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganilayotgan ega tarkibi va kesim tarkibi, rema va tema kabi ilmiy atamalar har qanday gap uchun aloqadordir. Bu aloqadorlikka binoan so‘z va gaplar mazmunan hamda shaklan kengayadi. Tilshunos Yo.Tojiyev mana shu jarayonga e’tiborini qaratgan holda sodda gapdagi tema va rema qismlarining kengayishidan murakkablashgan sodda gapning hosil bo‘lishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, sodda gapning murakkablashgan sodda gapga aylanishini belgilovchi aniq bir o‘lchov, me’yor yoki qandaydir aniq chegara, tamoyil yo‘q. Barcha murakkablashishlar tema va remaning kengayishi va izohlanishi natijasida yuzaga kelishini aytadi. Murakkablashgan sodda gaplarning barcha asosiy andozalarini belgilab chiqish esa gap tema va rema qismlarini belgilovchi ega va kesimning kengayishi imkoniyatlari va qonuniyatlarini belgilashdan boshlanadi [11].

Xulosa va takliflar. Uyushiq bo'laklar tilshunoslikda ma'lum darajada o'rganilgan va o'rganilmoqda. Tilshunos olimlarni qiziqtirayotgan mavzu bo'lgani uchun ushbu sintaktik birlik to'g'risida bahsli fikr-mulohazalar ham bo'lmoqda. Muayyan mavzu atrofidagi bahsli fikrlar esa har doim qiziqarli va salmoqli ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O'zbekiston NMIU, 2017. –B.57.
 2. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. – Т.: Фан, 1976, 208 б.
 3. Ғуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1987, 140 б.
 4. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 47 б.
 5. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: 1995. – 97 б.
 6. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Самарқанд, 2006, 120 б.
 7. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Т.: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
 8. Ғуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
 9. Ашурова Д. , Убаева Ф. , Болтабоева Ҳ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. –Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – Б. 179.
 10. Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилидамураккаблашгансодда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
- Тожиев Ё. Туркий тилларда гап бош бўлақларининг кенгайиш имкониятлари ва қонуниятлари // Тил илмига садокат. (Тўплам) –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 3-9.

GAP QOLIPLI FRAZEMALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

YULDUZ RAHMATOVA,

*10.00.01 – O‘zbek tili tayanch doktoranti
Navoiy davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. So‘nggi yillarda tilshunoslikda leksik birlik sanaluvchi frazemalarga milliy-madaniy birlik sifatida e‘tibor qaratilib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, gap qolipli frazemalar barcha nutq uslublarida faol qo‘llanib, tarkibida shaxs va joy nomlari ishtirok etuvchi bu kabi frazemalarda milliy-madaniy mansublik, diniy e‘tiqod, xalqning yashash tarzi ifodalanadi. Maqolada ushbu jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: frazema, frazeologik birlik, lingvomadaniylik, semantika, gap qolipli frazema, antroponim, toponim.

Аннотация: В последние годы лексическим единицам в лингвистике уделяется внимание как национально-культурным единицам и анализируются с лингвокультурологической точки зрения. В частности, фразеологизмы в форме речи активно используются во всех речевых стилях, причем такие фразеологизмы, включающие в себя имена лиц и мест, выражают национально-культурную принадлежность, религиозные убеждения, образ жизни народа. Эти аспекты рассмотрены в статье.

Ключевые слова: Идиома, фразеологизм, лингвокультура, семантика, идиоматическое словосочетание, антропоним, топоним.

Annotation: In recent years, lexical units in linguistics have been paid attention to as national-cultural units and are being analyzed from a linguo-cultural point of view. In particular, idioms in the form of speech are actively used in all speech styles, and such idioms, which include names of persons and places, express national-cultural affiliation, religious beliefs, and the way of life of the people. These aspects are covered in the article.

Key words: Idiom, phraseological unit, linguistic culture, semantics, idiomatic phrase, anthroponym, toponym.

Kirish. Leksik birlik sifatida alohida mavqega ega frazemalar ham qurilishi jihatidan nutqiy hosila bo‘lib, nutqda tayyor material, yaxlit ma‘noga ega nominativ birliklardir. Tildagi bir qator milliy-madaniy bo‘yoqqa ega leksik birliklar qatorida

frazemalarning ham mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Frazemalar struktur-semantik xususiyatlari bilangina emas, balki milliy-madaniy axborot tashuvchi birliklar sifatida tilning lug‘at boyligida o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Ularning semantikasini tahlil qilishda, imkoniyatlarini ochishda qanday madaniy mohiyat kasb etishi darajasini aniqlash lingvomadaniy tahlilni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologik birliklar bo‘yicha jahon tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Har bir tilning milliy-madaniy boyligi bo‘lgan frazemalar shu tilning leksikasi boyishiga ham xizmat qiladi. O‘z davrida I.V.Arnold tilning boyishi frazemalar hisobiga ham amalga oshishi masalasiga to‘xtalgan [1]. Frazemalar struktur jihatdan komponent tahlilni talab etadi, o‘zbek tilshunosligida dastlab Sh.Rahmatullaev [2], E.A.Umarov [3], A.Isaev [4], A.R.Rafiev [5] frazemalarni komponent tadqiq etishgan bo‘lsa, keyinchalik Sh.Almamatova, G.Adashulloeva, Sh.Ganieva [6]. izlanishlarida o‘zbek tili frazemalari ushbu muammoni qamrab olgan. Shuningdek, o‘tgan asrning 90-yillarida Q.Hakimov tomonidan frazemalarning struktur tahlili sodda gap qolipli frazemalar misolida monografik tarzda o‘rganilgan. [7] o‘zbek olimlaridan faqatgina G.S.Qurbonova [8], M.A.Radjabova [9] tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi onomastik komponentli frazeologik birliklarning milliy-lisoniy xususiyatlarini o‘rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy tahlil, sinxron-tasviriy, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yangi asrga kelib frazeologik birliklarning milliy-madaniy birlik ekanligiga e’tiborning qaratilishi dunyo tilshunosligida muhim o‘rin egalladi. Frazemalarning, asosan, so‘zlashuv va badiiy nutqning bezagi bo‘lganligi ularni milliy-madaniy birlik deyilishga yo‘l ochdi, aslida frazemalarning ushbu nutq turlarida ko‘p ishlatilishi ularning shakllanish tarixi, ma’lum bir xalqning madaniyati va uzoq asrlik tarixi bilan bog‘liqligidandir. Xususan, antroponim birlik ishtirok etgan frazeologik birliklar barcha xalqlarning milliy-madaniy mansubligi, yashash tarzi, folklor namunalari, mifologik qarashlari, e’tiqodi, diniy manbalariga borib taqaladi. Antroponim tarkibli frazeologik birliklar asrlar davomida shakllanib, xalqning qadim tarixi va madaniyatini, turmush tajribasi, yashash tarzi, dunyoqarashini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘lib kelgan va bu omillarning semantik tabiatini, boshqa tillarda muqobili uchramaydigan ko‘rinish va shakllarini lingvomadaniy tamoyillar asosida ilmiy o‘rganishni talab etadi.

O‘zbek tilidagi gap qolipli frazemalarning oxirgi komponenti gap tarkibida ot kesim yoki fe’l kesim bo‘lib keladi, ayniqsa, fe’l kesim bo‘lib kelganda zamon kategoriyasiga ega bo‘ladi.

Tarkibida antroponimlar ishtirok etgan frazeologik birliklar o‘zbek nutqida faol kuzatiladi:

1. Shaxs nomlari ishtirok etgan gap qolipli frazemalar: *Hazil, hazilni tushunmagan* – *kal Fozil* gap qolipli frazemaning “Hazilni ko‘targanga chiqargan” kabi muqobili mavjud bo‘lib, “agar hazilda me‘yor bo‘lmasa, bemavrid qilingan beandisha hazil yaqin do‘stlar o‘rtasiga rahna soladi, hattoki ashaddiy yovga aylanishi mumkin. Shuning uchun hushyor bo‘lish, avval o‘ylab, keyin so‘zlash lozimligi” kabi ma‘no anglashiladi. Masalan: – *Chilimni sol, cho‘loq, hazilni bilmagan kal Fozil! To‘g‘ri, o‘zi cho‘loq-ku, lekin shamoldan tez uchadi, hayronman. Ham o‘zi dilkash yigit. Ishni puxta qiladi. Bir aybi shuki — cho‘loq. Xax-xax, xax.* (Oybek, Qutlug‘ qon). «Fozil» nomi frazema tarkibida kal so‘zi bilan o‘zaro ohangdoshlikni ta‘minlashga xizmat qilishi uchun qo‘llanilgan.

Diniy e‘tiqod bilan bog‘liq frazemalar arab, fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar asosida yuzaga kelgan bo‘lib, hozirgi zamon o‘zbek tili frazeologik zaxirasida to‘laqonli birlik sifatida ham og‘zaki, ham yozma nutq jarayonida qo‘llanib kelinadi. Diniy tushunchalar, e‘tiqod, xalqning dunyoqarashi orqali yuzaga kelgan frazemalar so‘zlashuv nutqida ko‘p qo‘llanadi. Masalan, diniy tushunchalar asosida umumxalq tilida qo‘llanib kelinadigan iboralardan biri sifatida «*Isoning alamini Musodan olibdi*» gap qolipli frazemani keltirish mumkin. Ushbu frazema «qattiq jahlgaga berilib, alamini keltirgan kishiga kuchi yetmaganidan, o‘jizroq kishiga jahl qilish, kuchsiz insonga qahr qilish» ma‘nolarini anglatadi. Masalan, O.Yoqubovning “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim” asarida shu ma‘noda qo‘llanilgan: *H u r i. Holvani hokim yesin, kaltakni yetim! Isoning alamini Musodan olasizmi?*

Yoki R.B.Sapaevaning keltirishicha, “aytilmagan joyga bormoq”, “chaqirilmagan yerda hozir bo‘lish” kabi ma‘nolarni anglatuvchi *Ismomutda is bor desa, boradi* iborasi aslida Ismi Mahmud qadamjosiga nisbatan uzoq bo‘lgan hududda shakllangan”. [10]. So‘zlashuv uslubida qo‘llanuvchi har ikkala frazemaning birinchisi hol+ega+kesim modeli bo‘lsa, ikkinchisi qo‘shma gap modeli frazema sanaladi.

O‘zbek tilida badiiy adabiyot hamda xalq og‘zaki ijodi asosida yuzaga kelgan shaxs nomi ishtirok etgan frazemalarda badiiy qahramonlar, personajlar, xalq latifalarida uchraydigan to‘qima obrazlar nomlarini ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Echkining oti – Abdulkarim frazemasining «Zamona oxir bo‘lsa, uloqning otini «Abdulkarim» qo‘yadilar», «Qiyomat yaqinlashsa, echkining oti «mulla Abdulkarim», «Qishloqda odam qolmasa, echkining oti «mulla Norquzi» bo‘ladi» kabi variantlari mavjud. Ushbu frazema bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyat bor: «O‘tgan zamonlarda Abdulkarim degan bir qassob bo‘lib, u qo‘y go‘shiga echki go‘shini aralashtirib qanoraga osib qo‘yarkan-da, xaridorlariga echki go‘shini ham qo‘y go‘shini deb sotarkan. Buni sezib qolgan odamlar Abdulkarim qassobga «Echki» degan laqab qo‘yib, hamma yerda uning ustidan kuladigan, la‘natlaydigan bo‘lgan ekanlar...» «Echkining oti – Abdulkarim» iborasi ham shundan kelib chiqqan bo‘lib, shu ibora asosida yuzaga

kelgan maqol bilan: «Zamona oxir bo‘lsa (ya’ni, zamon buzilsa) yomon odamlar quturadi, yaxshi odamlarga pand beradilar, ularni har qanday yo‘llar bilan ezishga harakat qiladilar». [11]. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, Sh.Rahmatullaevning talqinicha, har qanday frazemani frazeologik variant deyish uchun quyidagi belgilar inobatga olinishi lozim: “1) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatik o‘zgartishlar tufayli biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan bo‘lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim; 2) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko‘ra so‘nish-so‘nmasligidan, qay darajada uqilishidan qat’i nazar); 3) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma’noii anglatishi lozim (ular o‘zaro ma’noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin); 4) o‘zaro o‘sib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo‘lishi shart (ikki va undan ortiq frazeologizmning qurilishida umumiy leksik komponentning mavjud bo‘la olishidan qat’i nazar)” [12].

2.Tarkibida toponim ishtirok etgan gap qolipli frazemalar: *Onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq* kabi. *Ustozim ikkimiz laboratoriyaga o‘tib olib, shunaqangi sehrlil dorilar yasaylikki, ey iblis, endi onangni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsan.* (H.To‘xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati) sintaktik mavqeyiga ko‘ra to‘ldiruvchi+hol+kesim modeli bo‘lib, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da polisemantik frazema ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. 1. do‘q qilishni, qo‘rqitishni ifodalaydi: “Bu hiyonatingdan Bek akam xabar topsa, **onangni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatadi**” (T. Malik. Shaytanat. 77). 2. Qo‘rqitishni, hadiksirashni ifodalaydi: “**Kim menga dahl qiladi? Onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman!**” (T. Malik. Murdalar gapirmaydilar. 145.) [13]. Lug‘atda ushbu ko‘p ma’noli frazemaning har ikki ma’nosi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlar ham keltirilgan. Masalan, birinchi gapda “*onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq*” frazemasining dastlabki ma’nosi ifodalanganda grammatik jihatdan ikkinchi shaxs tuslovchisi va birinchi shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelmaydi. Bu iboraning keyingi ma’nosi ifodalanganda grammatik jihatdan birinchi shaxs tuslovchisi va ikkinchi *shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelmaydi. Ushbu uch komponentli ibora “onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatadi*” frazemasini “do‘q qildi, qo‘rqitdi, adabini berdi” ma’nosini anglatadi.

Frazemalarning shakllanishida toponimlarning ishtiroki til semantik qamrovini yangi tushunchalar bilan to‘ldiribgina qolmasdan, tarixga ishora ham qiladi. Masalan, hol+to‘ldiruvchi+kesim modeli *So‘rab-so‘rab Makkani topibdi* frazemasida makon bilan bog‘liqlik (Makka) qaysi dinga e’tiqod qilishlikni mujassamlashtirgan.

Xulosa va takliflar. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, frazemalarning asosiy xususiyatlaridan biri emotsional-ekspressivlikni ta’minlash bo‘lsa, antropotsentrik nuqtai nazardan qaraganda olamning milliy lisoniy manzarasining yuzaga chiqishi, til birligining milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon

qilishidir. Xalq yangi-yangi tushunchalarni nomlash, etnik yondashish, tabiiy sharoitdan, milliy mansublikdan kelib chiqib yondashish, turli ijtimoiy holatlarni voqelantirish maqsadida yoki mavjud tushunchalar, voqeliklarning turli qirralarini ochish niyatida chuqur ifodali ma'noga ega til birliklarini yaratgan. O'zbek xalqining ko'p yillik tajribasidan o'tgan, millat, elat, qavm uchun tushunarli bo'lgan frazemalar nominativ birlik sifatida matnda turli ma'nolarni yuzaga chiqaradi, undagi bo'yoqdorlik so'zlovchining borliqqa bo'lgan munosabatini ham baholaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М.,1969. 187-с.
 2. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (frazelogik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik). Filol. fan. dok. ... diss. T., 1966.
 3. Умаров Э.А. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов дивана "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои. Автореф. дисс... канд. филол. наук. Л., 1968.
 4. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Тошкент, 1977. – 22 с.
 5. Рафиев А.Р. Структурно-функциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Тошкент, 1982. – 19 с.
 6. Almatatova Sh. O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili. Filol. fan. nomz. ...diss. T., 2008. 21-b.; Adashulloyeva G. Tojik va o'zbek tillarida shaxs xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili. Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. Samarqand, 2018. 59-b.; Ganieva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi. Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. Farg'ona, 2017. 71-b.
 7. Hakimov Q. M. O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanliklari: Filol.fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 1994. 24-b.
 8. Qurbonova G.S. Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. aftoref. Toshkent, 2019. – 50 b.
 9. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvistik talqini. Buxoro, 2022. – 168 b.
 10. Sapayeva R.B. Qarindosh bo'lmagan tillar frazemalarining antropotsentrik qiyosi (o'zbek va nemis tillari misolida): Filol.fan. fals. d-ri. diss. avtoreferati. Urganch, 2023. 24-b.
 11. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvistik talqini. Buxoro, 2022. 110-b.
 12. Rahmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (Frazelogik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik). Filol. fan. dok. ... diss. T., 1966. 145-b.
- Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1978. 195-b.



BADIIY MATNDA MILLIY KONNOTATSIYANING AKS ETTIRILISHI



MUHABBAT TOLIBOVA,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: So‘nggi yilliklarda tilni o‘z egasi, uning milliy mentalligi, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tilda milliy konnotatsiyani ifodalovchi ma‘lum birliklar mavjud, masalan, maqollar, frazemalar, o‘xshatishlar, milliylik bo‘yog‘iga ega so‘zlar millatning milliy-mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida qarash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Zero, milliy konnotatsiya xalqning milliy tafakkuri bilan bog‘liq jihatlar asosida shakllanib, tilning asrlar davomida shakllangan birliklarida yorqin aks etadi.

Kalit so‘zlar: milliy-madaniy sema, milliy konnotatsiya, madaniy fon, madaniy sema, ekspressiv ma‘no, stilistik ma‘no.

Аннотация: В последние годы особое внимание уделяется изучению языка вместе с его носителем, его национальным менталитетом, национальной культурой. В языке имеются определенные единицы, выражающие национальную коннотацию, такие как пословицы, фразеологизмы, сравнения, слова с окраской национальности, что порождает необходимость рассматривать их как важный лингвокультурный инструмент, отражающий национально-ментальные особенности нации. Ведь национальная коннотация формируется на основе аспектов, связанных с национальным мышлением народа, и ярко отражается в единицах языка, формировавшихся веками.

Ключевые слова: национально-культурная сема, национальная коннотация, культурный фон, культурная сема, экспрессивное значение, стилистическое значение.

Annotation: in recent years, special attention has been paid to researching the language along with its owner, its national mentality, its national culture. There are certain units in the language that represent national connotation, such as Proverbs, phrasemes, metaphors, words with a paint of nationality, which raises the need to be viewed as an important linguistic tool that reflects the national-mental characteristics of a nation. After all, national connotation is formed on the basis of aspects related to the National thought of the people and is vividly reflected in the units of the language that have formed over the centuries.

Keywords: national-cultural samo, national connotation, cultural background, cultural samo, expressive meaning, methodological meaning

Kirish. Har bir tilda milliy-madaniy semaga ega leksemalarning keng qo'llanishi shu millat va xalqning milliy muomala madaniyatining muhim belgisidir. Antroposentrizm yo'nalishining asosiy masalasi hisoblangan inson omili bilan aloqadorlik milliy-madaniylik semantikasini badiiy nuqtai nazardan tahlil etishni, yangi tushunchalarning shakllanish jarayonini izohlashni, ma'no imkoniyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Milliy konnotatsiyaga ega leksemalarning millat hayotida tutgan o'rni, milliylik bo'yog'iga ega so'zlar semantikasining maqollar, iboralar, hikmatli so'zlar tadqiqi til birliklarining kommunikatsiyadan tashqari emotsional-ekspressiv xususiyatlarini yoritishda ahamiyatlidir. Milliy konnotatsiyaga ega leksemalar va ularning semantik taraqqiyoti tillarning umumiy rivojlanish bosqichidan hozirgacha bo'lgan leksik-semantik jarayonlarni kuzatishda muhim qiymatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Til va madaniyat munosabati masalasi V.N.Teliya [1], V.I.Karasik [2], S.V.Ivanova [3], V.A.Maslova [4], Z.K.Sabitova [5], N.F.Alefirenko [6], L.A.Lebedova [7] kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritildi. Frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlari G.Kurbonova [8], M.A.Radjabova ishlarida [9], o'xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlari N.Mahmudov, D.Xudoyberganova [10] tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. So'zda mavjud bo'lgani kabi milliy-madaniy birliklar sanalmish maqollarda, frazemalarda, o'xshatishlarda, milliy mansublikni ifodalovchi so'zlar, xalq o'yinlarida ham ekspressiv va stilistik ma'no bilan birga, ushbu lug'aviy birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini ham o'rganish muhim sanaladi. "Madaniy konnotatsiya – madaniyat kategoriyalaridagi denotativ yoki majoziy-motivlashgan ma'no jihatlarining talqini. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko'rsatkichini ifodalaydi". [11]

AYAGAN KO'ZGA CHO'P TUSHAR DEGANLARIDAY, QO'YARGA JOY TOPMAY, YERU KO'KKA ISHONMAY YURGAN KELINIDAN TUG'ILGAN MUSHUK BOLASIDAY BIR HOVUCH BO'LIB YOTGAN NABIRASIGA MULLA RAHMON KATTA UMIDLAR BILAN QO'YGAN TUPPA-TUZUK «BOYQUL» ISMI O'RNIGA TENG-TO'SHI, UYLI-JOYLI BO'LIB KETSA HAM, TO'QAYDA YOSH BOLALAR BILAN «ZUVILLOQ» O'YNAB YURGAN, «YIGIT» DEYISHSA, ONA SUTI OG'ZIDAN KETMAGAN GO'DAKKA, «BOLA» DEYISHSA, BIR RO'ZG'ORGA QORA BO'LADIGAN YOSHGA YETGAN, QOQSUYAK YUZI, HOZIR YIG'LAB YUBORADIGANDAY HAMISHA YOSHGA TO'LIB TURADIGAN KO'ZLARI, CHALA TUG'ILGANINI HALIGACHA KO'Z-KO'Z QILAYOTGAN SUNU SUMBATIDA NOQISLIK SEZILADIGAN, XUDO AQLDAN HAM, BO'YDAN HAM, BU PAYTDA DO'RILLAY BOSHLASHI KERAK BO'LGAN OVOZDAN HAM QISGAN QISHLOQDOSHLARIGA PANJI MUALLIM TOPIB BERGAN «SANCHO» ISMI BUTUN QISHLOQDAGI YOSHU QARINING QULOG'IGA OG'IR XARSANGDAY SINGIB QOLDIKI, BU LAQABNI KEYINCHALIK XOTINI HAM, IZMA-IZ TUG'ILIB, QISHLOQNING OLD YIGITLARIGA

AYLANGAN O‘G‘ILLARI HAM, TOJIKCHA SHIRIN TALAFFUZI BILAN BUTUN QISHLOQNI OG‘ZIGA QARATIB O‘TIRADIGAN KALTALIK KELINI HAM TERSOTADAN SURIB CHIQAROLMADI... (NAZAR ESHONQUL, FARISHTA).

“Hikmatnoma” asarida *Ayagan ko‘zga cho‘p tushar* maqolining “*Ayagan otning oyog‘i sinar*”, “*Tashlaganga tosh tegmas*” kabi variantlari borligi keltiriladi. Ushbu maqol “Ba’zan ko‘z qorachig‘idek avaylab kelinayotgan narsaga, papalab kelinayotgan bolaga, xuddi o‘chakishgandek, biror shikast yetadi. Ayamay, o‘z holiga tashlab qo‘yilganga esa balo ham urmaydi. Mazkur maqollar shunday hollarda aytiladi.” [12] Keltirilgan hikoyada *qo‘yarga joy topmay, yer-u ko‘kka ishonmay* sinonim frazemalari, *ona suti og‘zidan ketmagan, bir ro‘zg‘orga qora bo‘ladigan, og‘ziga qaratib o‘tiradigan* kabi frazemalar ham milliy konnotatsiyani bo‘rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

N.Eshonqul hikoyalarida madaniy fon muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida, madaniy fon – ijtimoiy hayot va tarixiy hodisalarni ifodalaydigan nominativ birliklarning (so‘zlar va frazemalarning) tavsifi. Masalan: *1.Kelin erining belbog‘iga yemaklarni tugib, bolalarga qo‘shib molning izidan to‘qayga jo‘natardi. 2....Kelin eriga favqulodda mehribon chiqdi: uni ikki yilgacha boshqa kuyovlarning havasini, kelinlarning hasadini keltirib xuddi sunnat qilingan boladay yasantirib, boshiga qati buzilmagan do‘ppi, egniga oppoq ko‘ylak, baxmal chopon kiydirib olib yurdi. 3.Ular et bilan suyakni ajratib bo‘lmasligiga nihoyat amin bo‘lishgan edi.* (Nazar Eshonqul, Farishta). Demak, badiiy matnda madaniy fonning o‘rni ham alohidalik kasb etib turadi. Har bir millatning o‘ziga xos tashqi va ichki olami bo‘lgani kabi, ularning iboralari, idiomalari, qochirimlari ham o‘ziga yarasha bo‘ladi va bular badiiy matnda muayyan fonning yuzaga kelishini ta’minlab beradi.

Milliy konnotatsiya leksikada aniq ifodalanadi, bunday leksika inson hayoti va uning barcha rang-barangliklarini aks ettiradi. Millatning turmush tarzi va madaniyatining o‘ziga xosligini ifodalovchi leksemalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, milliy kiyimlar nomlari, o‘simlik va rang ma’nosini anglatuvchi so‘zlar, rasm-rusumlar, an’ana va odatlar, diniy qarashlar nomlari, konnotativ va tasviriy ifoda ma’nolariga ega so‘zlar milliy konnotatsiyani anglatuvchi so‘zlar xisoblanadi. Milliy konnotatsiya tushunchasi orqali milliy o‘ziga xos voqelik, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, milliy madaniyat, an’ana va marosimlarning ma’lum bir xususiyatlari tushuniladi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik tushunchasi milliy-madaniy ma’noga ega leksik qatlamni, madaniy komponentli ma’noga ega so‘zlarni, milliy-madaniy konnotatsiyaga ega so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Madaniy konnotatsiyaga ega so‘zlar o‘zida milliy madaniyatning o‘ziga xos ma’nosini ifodalaydi Masalan, o‘zbek tilidagi “sandiq” so‘zini olaylik. Masalan, *sandiq* o‘zbek tilidagi milliy konnotatsiyaga ega madaniy komponent ma’noni ifodalaydi. *Sandiq*, odatda, uy-ro‘zg‘or jihozi

hisoblanadi. Lekin, qadimdan o‘zbek xonadoniga sandiq ko‘rk bag‘ishlaydi, uying mehrobiga joylashtiradi, ichiga kiyim-kechaklar solinadi, asosan, xonadon egalariga tegishli bo‘lgan muhim narsalar saqlanadi va ustiga ko‘rpa-to‘shaklar yig‘ib qo‘yiladi. Bundan tashqari, o‘zbek xalqi rasm-rusumlariga ko‘ra, kelinning ota-onasi kelinni kuyov honadoniga ketayotgan paytda beriladigan “kelin sepi” deb atalgan turli uy-ro‘zg‘or anjomlari, ko‘rpa-to‘shaklar qatorida sandiq ham bo‘ladi. Ushbu jihatlar milliy konnotatsiya hisoblanadi, madaniy fonni hosil qiladi.

N.N.Amosova Maqol va matallar til tizimiga kirmaydigan va mustaqil kommunikativ birliklar ekanligi, ular na leksik birliklar va na leksik birliklarning ekvivalenti bo‘la olmasligi, agar leksik birlik ostida har qanday turg‘un, metaforik va hech bo‘lmaganda an’anaviy mazmunga ega lisoniy shaklni nazarda tutsak, folklorning kichik birliklari bo‘lgan topishmoq, tez aytish va hokazolarni ham kiritish kerak bo‘ladi.” [13].

Muayyan millat madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, belgilari madaniy fon sifatida tilda aks etadi, millatga xos xususiyatlar tilda milliy konnotatsiyani hosil qiladi, odatda, milliy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega frazeologik birliklar orqali milliy konnotatsiya namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida, *sevmoq* so‘zi o‘rnida qo‘llanuvchi *ko‘ngil qo‘ymoq* frazemasi evfemizm sifatida qo‘llanganligini kuzatish mumkin: «**Ko‘ngil qo‘ygan** ayoli tufayli bir umr befarzand o‘tishga ham rozi bo‘lgan, bilib turib, bepusht ayol bilan umrguzaronlik qilayotgan amakimga orqaravotdan tasannolar aytishar ... edi. (Nazar Eshonqul, Bepoyon osmon).

So‘zga nisbatan kichikroq bo‘lgan semantik birliklar, semantik belgilar madaniy sema sifatida tilga olinadi. Masalan, N.Eshonqul hikoyalarida keltirilgan ishlatilgan *qishloq*, *xonadon* so‘zlaridagi quyidagi madaniy semalarni ajratish mumkin: *Biroq uning hovlini til tegsa yalagudek supurib-sidirganlari ham, uy-ro‘zg‘or uchun ertayu kech jonini jabborga berishlari ham ammamning butun qishloqning har bir ko‘chasida, har xonadonida tug‘ kabi hilpirab turadigan tilini tiyolmasdi.* (Nazar Eshonqul, Bepoyon osmon). Masalan, *qishloq* – o‘zbeklarning aksariyati maskan tutgan, shu hududda istiqomat qiladigan turar joy. O‘zbek xalqi yashaydigan qishloqlar istiqomat qiluvchilarining o‘zaro munosabatlari, inoqligi, tutumi, qadriyatlarini, muomala usullari bilan, turli urf-odatlarini bilan ajralib turadi; *xonadon* – “bir oilaning o‘g‘il-qiz, kelinlari, nevara-chevaralari bilan istiqomat qiladigan maskan” sanaladi.

Xulosa va takliflar. Milliy konnotatsiyaning yuzaga kelishi madaniy sema, madaniy fonni beruvchi milliy-madaniy birliklar vositasida namoyon bo‘ladi. Milliy konnotatsiya xalq qarashlarining tilda gavdalangan, ifoda topgan ko‘rinishidir. O‘z ifodalovchisiga ega bo‘lish esa milliy madaniyatning millat lisonida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Madaniyat millatning madaniy me‘yorlari, milliy mentaliteti va qadriyatlarining yig‘indisi bo‘lib, tilda milliy konnotatsiyani maqollar, frazemalar,

o'xshatishlar, milliy-madaniy mansublikni ifodalovchi leksemalar asosida yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. –288 с.
- 2.Карасик В.И. Лингвокультурные концепты: подходы к изучению / Социоллингвистика вчера и сегодня. Сб. научных трудов. – М., 2004. – С.136-146.
- 3.Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ...д-ра филол. наук. – Уфа, 2003. – 364 с.
- 4.Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010. – 208 с.
- 5.Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 528 с.
- 6.Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, Наука, 2014. – 283 с.
- 7.Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии. – Краснодар, 1999. –196 с.
- 8.Kurbonova G. Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2019. –194 b.
- 9.Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o'zbek, rus tillari materialida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2020. – 56 b.
- 10.Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 320 b.
- 11.Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B.43.
- 12.Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –Т., 1990. 25-b.
- 13.Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: ЛГУ, 1963. – С.145.

O'ZBEK VA RUS MIFOLOGIK AFSONALARI POETIKASI

MAHBUBA RAHMONOVA,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi xalqning eng qimmatli boyligi, deb bejiz aytilmagan. Unda millatning tarixi, urf-odati, dini va beg'ubor go'zalligi yashiringan. Afsonalar ham boy va g'ayrioddiy tarbiyaviy kuchga ega. Maqolada o'zbek va rus mifologik afsonalarining poetikasi ko'rib chiqiladi. Tahlil o'zbek va rus xalq og'zaki ijodi misolida olib borilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, afsonalar, obrazlar, qahramonlar, syujet.

Аннотация: фольклор не зря считается самым драгоценным богатством народа. В нём скрываются и история, и традиция, и религия, и безупречная красота нации. Легенды также богаты и имеют необыкновенную силу воспитания. В статье рассматривается поэтика узбекских и русских мифологических легенд. Анализ производится на примере узбекского и русского фольклора.

Ключевые слова: фольклор, легенды, образы, герои, сюжет.

Abstract: Folklore is not in vain considered the most precious wealth of the people. It hides history, tradition, religion, and the impeccable beauty of the nation. Legends are also rich and have an extraordinary power of education. The article examines the poetics of Uzbek and Russian mythological legends. The analysis is made on the example of Uzbek and Russian folklore.

Keywords: folklore, legends, images, heroes, plot.

Kirish. Afsonalar o'ziga xos obrazlar tizimi va tarkibiga ega. Afsonalarda obrazlarning ishtiroki turlicha. Ko'pgina afsonalarda ikki yoki uch tipdagi obraz qatnashganligi kuzatiladi. Bular: a) inson personaj yoki asosiy qahramon; b) mifik obraz; v) epik raqib timsollaridir. Ko'rinyaptiki, afsonalarning obrazlar tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lmaydi.

Ayrim afsonalar syujetida personajning mifologik timsollar bilan to'qnash kelishi yoki jang qilishi tasvirlanadi. Bunday afsonalar syujet motivlarining qiziqarliligi jihatidan xalq ertaklariga, uning personaji esa ertak qahramonlariga yaqin turadi va tinglovchilarga katta badiiy zavq bag'ishlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mifologik qarashlar, asotiriy obrazlar afsona janri badiiy tizimida o'ziga xos alohida o'rin tutadi. O'zbek xalq afsonalari syujet silsilasidagi mifologik qatlam qadimiyliги va an'anaviyligi bilan e'tiborni tortadi. Rus afsonalari esa Bibliya va rus diniy tarixining haqiqatlari va mavzularini, shuningdek, ko'plab butparast e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. "Rus afsonalarida klassik misollardan tortib, janr-munozarali hikoyalargacha, an'anaviy ong tashuvchisi bo'lgan shaxsga borliqning deyarli barcha savollariga javob berishga, uning axloqini himoya qilishga va dehqon jamoasidagi xatti-harakatlarini tartibga solishga qodir. Koinot va Xudoning o'rni, iblis, inson va barcha tirik mavjudotlar, dunyoning boshlanishi va oxiri, Isoning hayoti va Muqaddas An'ana va Bitik qahramonlari, ona yurtning diniy tarixi, inson gunohlari va fazilatlar" [5] - bu rus diniy folklor afsonasi qamrab olgan mavzularning to'liq ro'yxati emas? Lekin eng asosiylaridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Shunday qilib, mif va afsona janri munosabati, ayniqsa, afsonalardagi mifologik obrazlarning hamda asotiriy tasavvur-tushunchalarning haligacha saqlanib kelayotganligi misolida yorqin kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Rus va o'zbek afsonalarda eng ko'p qo'llanadigan asotiriy obrazlardan biri samoviylar obrazlardir. Masalan, o'zbek samoviy afsonalarda, asosan, Kun, Oy, Yulduzlar obrazi shaxslantirish orqali badiiy talqin qilinishi ularga xos muhim xususiyat sifatida gavdalanadi. Oy va yulduz haqida aytilgan afsonalarda, oy ba'zan ayol jinsida, ba'zan erkak jinsida talqin qilinadi. Bizningcha, bunga xalqning onalik (matriarxat) va otalik (patriarxat) urug'chiligi davridagi qarashlari ta'sir ko'rsatgan. Masalan, yuqorida keltirilgan ikkinchi afsonada Oy Kunning xotini, yulduzlarning onasi sifatida talqin qilinayotgan bo'lsa, "Oy va Yulduz" afsonasida "Oy va yulduz" afsonasida u yulduzga oshiq, Quyosh esa ularning muhabbatiga raqib qiyofasida gavdalantirilgan. Bu afsonada aytilishicha, osmonda turib olam-jahonni yorituvchi Oy tun malikasi Yulduzni sevib qolibdi. Yulduzning ishq ham Oyga tushibdi. Ikkalovi bir yostiqa bosh qo'yib, birga yashaymiz deb ahdu paymon qilishibdi. Buni Quyosh bilib qolibdi va u Oy bilan Yulduzning bir-birini sevib, ahil oila qurishiga qarshi chiqibdi. Oyga: "Bu yo'lingdan qayt", - debdi. Oy: "Yo'q, qaytmayman, ahdim ahd, Yulduzga uylanaman", - debdi. Quyosh Yulduzga: "Bu niyatingdan qayt", - debdi. Yulduz: "Yo'q, bu yo'ldan qaytmayman. Va'dam va'da", - debdi. Quyosh: "Hali shunaqami, mana bo'lmasa", - deb Oy bilan Yulduzga tashlanibdi. Yulduz qochib qolibdi. Oy qocholmabdi. Quyosh uning yuzini timdalab olibdi. Yulduzning uchishi shundan emish. Oyning yuzida dog' bo'lishi shundan emish [2]. Rus afsonalarida samoviylar obrazlar sifatida xristian dini asosidagi mo'jizaviy avliyolar dunyoga kelishi mobaynida Quyosh bilan Oyning bir payta paydo bo'lishi va ularni qutlashi haqida, va yana boshqasi

quyosh va oyning kelib chiqishi bilan bog‘liq turli afsonalar: bu afsonada Quyosh bilan Oyning o‘zaro do‘stligi, keyinchalik ularning maqtanchoqlik illatiga berilishlari tufayli do‘stliklari raxna topishi motivi orqali tabiatda kun bilan tun almashinishi badiiy ko‘rinishda izohlanayotir. Bu o‘zbek va rus afsonalar misolida shuni anglash mumkinki, qadimgi insonlarning samoviy jismlar haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari asosida paydo bo‘lgan asotirlar davrlar o‘tishi bilan kishilarning ijtimoiy qarashlari bilan qo‘shilib ketgan.

Samoviy miflarning ayrimlari qadimiy marosimlarga xos irim-sirim va ular bilan aloqador aytim hamda alomatlar, turli-tuman e‘tiqodlar va taqiqlarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, shu jarayonning yuz berganiga ishontirish afsonalarga xos yetakchi vazifadir. Bu haqda taniqli folklorshunos M.Jo‘rayev haqli ravishda: “Samoviy qarashlar asosida yaratilgan miflar davrlar o‘tishi bilan afsonalarga aylandi” – deb yozadi [3]. Ko‘rinyaptiki, miflardagi talqinlarga asta-sekin yanada kengroq badiiy-estetik mohiyat baxsh etilganligi afsonalarning badiiyati kuchayishiga olib kelgan.

O‘zbek va rus xalqlari orasida tabiat hodisalarini izohlash, tushuntirish uchun yaratilgan afsonalar ham mavjud. Ularda, asosan, tabiat hodisalarining jonlantirilganligi kuzatiladi. Chunki qadimgi insonlar ularga nisbatan g‘ayritabiiy qudratga ega jonli narsalar sifatida qaragan.

O‘zbek va rus afsonalarda mifologik obrazlar ishtiroki uning janriy tabiatini belgilovchi muhim xususiyatlardan biridir. O‘zbek folklorida “Pari bilan dev”, “Devsolgan”, “Devqal’a”, “Jin o‘ti”, “Ajdar ko‘zlari” va rus folklorida esa “Птица Сирин”, “Чернобог и Белобог”, “Вихрь”, “Змей Горыныч”, “Русалка”, “Кошцей Бессмертный” [1] kabi bir qator afsonalar uchraydiki, ular syujetida inson personaj uchramasligi bilan alohida e‘tiborni tortadi. Ma‘lumki, o‘zbek va rus folklori namunalari uchraydigan dev, ajdar, simurg‘, pari, jin, alvasti, ajina kabi obrazlar, odatda, afsonaviy obrazlar sifatida e‘tirof qilinadi. Qizig‘i shundaki, bu mifologik personajlar afsonalarda xuddi insonlar kabi harakatda ko‘rsatiladi.

Masalan, “Pari bilan Dev” o‘zbek afsonasi Sulaymon payg‘ambar nomi bilan bog‘lab talqin qilinsa-da, unda mifologik obrazlar asosiy o‘rin tutadi. Afsonalarga ko‘ra, Sulaymon payg‘ambarning xizmatida juda ko‘p dev va parilar bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kuni payg‘ambar parilaridan biriga jahl qilibdi va uni jazolash uchun dunyoning eng uzoq burchiga surgun qilishni lozim topibdi. Gunohkor parini o‘sha olis yurtda yashovchi bir dev ixtiyoriga beradi. Sulaymonning xizmatkor devlaridan biri parini o‘z ustiga mindirib, payg‘ambarning buyrug‘ini bajarish uchun yo‘lga chiqadi. Ko‘p vaqt cheksiz mashaqqatlar chekib, moviy samoda parvoz qilib, uzoq manzillarni bosib o‘tgandan keyin o‘sha zamonlarda hali inson qadami tegmagan Xorazm degan makon ustiga kelib qoladi. Kimsasiz manzilga ko‘zi tushgan dev o‘sha yerga qo‘nadi. Uzoq vaqt birga bo‘lgan dev badarg‘a qilingan pariga oshiq bo‘lib qolgan ekan. U

sevgilisi qoshida qolishga qaror qiladi. Dev pariga uylanib, nabira, evara-chevaralar ko‘radi. Xorazmliklar o‘sha dev va parining avlodlari emish deyiladi [4].

Rus folklorshunosligida mifik mavjudotlar haqidagi afsonalarni “Bilichki” deb ataydilar. Ular kichik hajmli ertakka o‘xshash hikoyalar bo‘lib, syujetida insonning yovuz ruhlarga duch kelishi voqeasi bayon etiladi. Ularning syujetida jin, ajina, alvasti, parilar, momolarga duch kelish haqida hikoya qilinadi. Ulardagi uchrashuv real manzaralar vositasida talqin qilinadi. Masalan, “Птица Сирин”, yoki “Вихрь” ajinaga ulkan yong‘oq ostida yoki jiyda ustida yoxud alvastiga, suv parisiga ariq va quduq bo‘ylarida duch kelish manzarasi real ko‘rinishda aks ettiriladi. Ana shu nuqtada afsonalarda reallik bilan xayoliy uydirma tenglashtiriladi. Natijada asarning badiiyati o‘ziga xoslik kasb etadi.

Shunday qilib, afsonada mifologik personaj inson bilan munosabatda aks ettiriladi. U insonga yo yordam beradi, yo zarar yetkazadi. Bunday mifologik afsonalarda mifik personajlarni tasvirlashda ularning portretini, ko‘rinishini, badiiy vazifasini bayon etishda ham xususiylikka, ham umumiylikka rioya qilinadi. Shuning uchun alvasti haqidagi afsona ajina haqidagi afsonadan personaj ko‘rinishidagi o‘ziga xosligi bilan farqlanib turadi. Lekin ularning har ikkalasida ham mifik personajning tashqi ko‘rinishi, albatta, tasqara, yovuz ko‘rinishda chizib beriladi. Shu bilan birga, odamzotga ular kimsasiz joyda, yolg‘iz paytda uchrashi ta’kidlanadi. E’tiborli tomoni shundaki, har bir xalqda o‘ziga xos mifologik personaj talqiniga oid afsonalar ko‘p uchraydi. Masalan, O‘rta Osiyo xalqlari orasida ajina, alvasti, jin va parilar haqidagi afsonalar ko‘proq uchrasa, ruslarda jin – leshiy va uy ruhlari – domovoy, serblarda divalar haqidagi afsonalar ko‘p uchraydi.

Ko‘pincha epik asarlarda insonning mifologik personaj bilan to‘qnashuvi, olishuvi, jang qilishi aks ettiriladi. Bunda inson o‘z aql-zakovatini va jismoniy kuchini ishga solib, yovuz mifologik kuchni yengadi. Aslida bu kabi afsonalar orqali insonning tabiatdagi stixiyali kuchlarga qarshi kurashib, ularni yengishi badiiy talqin qilingandir. Afsonalarda ko‘pincha epik qahramonning bahaybat va dahshatli mifologik maxluq – uch, yetti yoxud to‘qqiz boshli ajdarhoga qarshi mardlarcha kurashishi tasvirlanadi. Masalan, bir afsonada aytilishicha, qadim O‘zgan juda farovon yurt ekan. Ammo bir payt bu yurtda baxtsizlik ro‘y beribdi. Savdo-sotiqalar to‘xtab, aholi ko‘cha-ko‘yga chiqolmay qolibdi. Sababi to‘qqiz boshli ajdarho paydo bo‘lib, odamlarni kattami-kichik, ayolmi-erkak, bir boshdan yutaveribdi. Nima qilishni bilmay qolgan o‘zganliklardan besh-o‘ntasi ajdarhoga uchrashib, uning shartini so‘rashibdi. Ajdarho insofga kelibdi-yu, ammo dahshatli shartlar qo‘yibdi. Sharti shunday ekanki, o‘zganliklar har kuni ajdarhoning tanovul qilishi uchun o‘ttiz o‘g‘il bilan o‘ttiz qiz beradigan bo‘lishibdi. Sarosimaga tushgan va noilojlikdan nima qilishni bilmay boshlari qotib qolgan o‘zganliklar shartga rozi bo‘lishibdi ham, shu-shu o‘zganliklar ko‘p

vaqtlargacha yosh farzandlarini to‘qqiz boshli ajdarhoga qurbonlikka berib kelibdilar. Har kuni, har soat “Shu bahaybat balo-qazodan O‘zganni qutqaz”, deb Xudoga iltijo qilibdilar. Aziz avliyolar va pirlarni ziyorat qilibdilar. Ammo to‘qqiz boshli ajdarho yosh yigit-qizlardan o‘ttiztadan yutishni davom etaveribdi. Qarasa, ishlar chatoq emish. “Bola ketsa botir qolmas, qiz ketsa ona qolmas, har ikkisi ketsa el-yurt qolmas” deganlariday, yurtda pichoqqa ilinadigan bola yo qiz qolmabdi. Nihoyat, o‘zganliklarning oh-vohlari Xudoga yetib, yosh bir yigitni safardan qaytaribdi. U Qilichbek degan juda baquvvat, kelishgan yigit ekan. Xaloskor to‘ppa-to‘g‘ri ajdarhoning oldiga tik borib, unga salom ham bermabdi, salomiga alik ham olmabdi. Ajdarho bilan adi-badi aytishib o‘tirmasdan yakkama-yakka turib olisha ketibdi. Olishuv yetti kechayu yetti kunduz davom etibdi. Bahodir ajdarhoning boshlaridan birini uzib tashlasa, yana chiqarmish, ikkinchisini kesib tashlasa boshqasi chiqarmish. Qilichbek nima qilishni bilmay toza o‘ylabdi, fikr qilibdi. Miyasiga lip etib bir fikr kelibdi. “Bu ajdarhoning to‘qqizta boshini birdan kesmasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Birovini kessam boshqasi paydo bo‘lyapti, to‘qqiztasini kessam, balki o‘lar”, deb o‘ylabdi. Keyin bor kuchini bilagiga yig‘ib, aql-idrokini ishga solib, ajdarhoga ro‘baro‘ kelibdi-da, “Yo, Bahovuddin pirim, yo hazrati Ali, madadkorim bo‘lingizlar. Alloh, sen marhamatingni darig‘ tutmag‘il!” deganicha chinqirib ajdarhoga tashlanibdi. Shunda bir gaz qilichi qirq gaz yozilib isfihonga aylanibdi-da, bir siltovdayoq ajdarhoning to‘qqiz boshini sapchaday uzib tashlabdi. Bahaybat ajdarho “E, bahodir yeding, yeding!” deganicha ag‘darilib tushibdi. Qon daryo-daryo bo‘lib oqibdi. Ajdarho pastda hayqirib oqayotgan Qoradaryoga qarab ag‘anab-dumalab ketibdi. Nihoyatda charchagan, qonli qilichiga qarab hayron bo‘lib turgan Qilichbekka, ajdarho shamoli tegib, u ham nobud bo‘libdi. Xaloskordan nihoyatda minnatdor bo‘lgan xalq ajdarho bilan olishgan shu joyga hashamatli maqbara quribdilar va unga jasadni qo‘yibdilar. Qilichbekning ruhi o‘zganliklarning har bir ishida madadkor emish [4]. Xuddi shunday syujetga ega bo‘lgan “Змей Горыныч” rus afsonasi ham mavjud .

Bu afsonada o‘zbek va rus xalqi juda ko‘p ertakka xos an‘naviy motivlardan foydalanilgan. Masalan, ko‘p boshli ajdarhoning yurtga xavf solishi va aholi oromini buzishi, har kuni yosh yigit-qizlarni yeyishi, epik qahramonning ajdar bilan salomlashmasdan yakkama-yakka jangga kirishishi, bu olishuvning yetti kecha-kunduz davom etishi, ajdarhoning kesilgan boshlari yana tirilishi, nihoyat, botir va qo‘rqmas qahramonning ajdar kallalarini bir hamlada bir yo‘la sehrli isfahon qilichi bilan uzib tashlashi motivlari shular jumlasidandir. Shunga qarab, ba’zi afsonalarning sehrli ertaklar ta’sirida ham yaratilganligini anglash mumkin. To‘g‘ri, ertaklar aslida afsonalardan keyingi stadial bosqichda paydo bo‘lgan. Shunday esa-da, ertak va afsonalar yonma-yon yashab kelar ekan, shu jarayonda ularning bir-biriga ta’sir ko‘rsatib kelganligi ayonlashadi.

Afsonada ajdarho obrazi orqali, o'z navbatida, feodal davr bosqinchi hukmdorlari timsoliga ham kinoya qilingan. Bunda ajdarhoning o'zganliklardan har kuni tanovul qilish uchun o'ttiz o'g'il bilan o'ttiz qiz so'rashi motivi aslida bosqinchi hukmdorning o'zi bosib olgan hududlardan katta o'lpon undirishi yoki yiliga ko'plab yosh yigit-qizlarni qullikka olib ketishi g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan. O'z farzandlarining qullikka olinishi esa odamlarni qattiq larzaga solgan. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, afsonada xalqning katta ijtimoiy dardi badiiy ko'rinishda bayon etilganligi anglashiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilinganda, syujet voqealarida mifologik qahramonlar bilan real tarixiy shaxslar obrazi yonma-yon faoliyat ko'rsatishi afsonalarning o'ziga xos janriy belgilaridan biridir. Shu orqali o'zbek xalq afsonalari syujetining murakkab qatlamga ega ekanligi anglashiladi. Ulardagi mifologik qatlam esa qadimiyligi va an'anaviyligi bilan e'tiborni tortadi. Mifologik personajlar ishtirok etgan afsonalarda, asosan, insonning aql-zavovati, kuch-qudrati har qanday tilsimli kuchlardan yuksakligi ulug'lanadi. O'zbek va rus afsonalarda xalqning ma'naviy, ruhiy, moddiy madadkoriga aylangan mifologik obrazlar ham alohida o'rin tutadi. Ular goh odam, goh jonivor, goh narsa-buyum shaklida namoyon bo'lib, ko'pincha odamlarga og'ir vaziyatlarda madad beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akhmedova, M. (2024). Question of Typology of the Image of Stepan Gorinoch in Russian Legends. *Modern Science and Research*, 3(1), 1–6. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27872>
2. O'zbek xalq asotirlari. Jahon xalqlari ertaklari. O'n jildlik. 3-jild. O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.182.
3. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995. – B.9.
4. Ipak yo'li afsonalari. (Joy nomlari bilan bog'liq afsonalar). Tuzuvchi, nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi M.Jo'rayev. – Toshkent: Fan, 1993. – B.18.
5. Суслов, А. А. (2012). Мифологические образы пространства русской сказки. *Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение*, (1 (5)), 18-24.

"HOLAT" KATEGORIYASI TAHLILIGA DOIR MULOHAZALAR

ABDULAZIZ MATTIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Holat" ob'yektning o'zgaruvchan parametrlarining barqaror qiymatlari to'plamini bildiruvchi tushunchaga izoh keltirilgan. Holat muayyan obyektning o'zgaruvchan xususiyatlarini tavsiflashi bilan izohlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Holat, kategoriya, munosabat, mohiyat, izohlash.

Аннотация: «Состояние» — понятие, обозначающее совокупность устойчивых значений переменных параметров объекта. Состояние характеризуется описанием изменяющихся свойств конкретного объекта.

Ключевые слова: Статус, категория, отношение, сущность, интерпретация.

Annotation: "State" is a concept denoting a set of stable values of variable parameters of an object. State is characterised by describing the changing properties of a specific object.

Keywords: State, category, relationship, essence, interpretation.

Kirish. Kategoriyalar (yun. kategoria – mulohaza, fikr; belgi) (falsafada) – voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriyalar bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan. Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "izohlash", "tushuntirish", "ko'rsatish" degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan. Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Aristotel ta'riflab bergan. Manbalarda aytilishicha, kategoriyalar haqidagi ilk ta'limot qadimgi Hindistonning ayrim falsafiy maktablarida uchraydi. Yunon faylasufi Platon dunyodagi narsa va hodisalar tushunchalarning ifodasi shaklida hosil bo'ladi deb hisoblaydi. Aristotel o'zining "Kategoriyalar" asarida kategoriyalarni obyektiv reallikning in'ikosi hamda eng yuksak umumlashmasi deb izohlaydi. Aristotel 10 ta kategoriya to'g'risida

ma'lumot beradi: mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, qoida, holat, xatti-harakat va qiynalish. Keyinchalik Arastu “Metafizika” asarida “mohiyat”, “holat” va “munosabat” kategoriyalarini ham izohlagan. Ko‘rinadiki, holat falsafada alohida kategoriya sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aristotelning kategoriyalar haqidagi ta’limoti Kindiy, Forobiy, Ibn Sino tomonidan rivojlantirildi. O‘rta asr sxolastikasi 6 ta kategoriyaning bir-biridan farq qiladi: borliq (mohiyat), sifat, miqdor, harakat (o‘zgarish), munosabat, egali. Bu yerda holat alohida kategoriya sifatida ajratilmagan.

Dekart va Dokk 3 ta kategoriyaning farqlaydi: substansiya, holat (modus) va munosabat.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, faylasuflar ta’limotida holat alohida kategoriya sifatida ajratiladi. Holat kategoriyasi turli fanlarda turli ma’noni ifodalaydi.

Fizikada, klassik mexanikada faza fazosidagi nuqtani bildirsa, statistik klassik mexanikada faza fazosida ehtimollik zichligini taqsimlash funksiyasini; kvant tizimining holati to‘lqin funksiyasi yoki vaqtning ma’lum bir momentida tizimni tavsiflovchi kvant sonlari to‘plami bilan aniqlangan zichlik matritsasi bilan tavsiflanadi.

Informatika fanida avtomatlar nazariyasida “avtomatning holati” tushunchasi avtomat berilgan algoritmnig amalga oshirishda avtomat tomonidan yaratilgan belgilarning kirish tilining belgilariga funksional bog‘liqligini o‘rnatish uchun ishlatiladi. Dasturlashda obyektning harakatini belgilovchi atributlar to‘plamini ifodalab kelad.

“Holat” tushunchasining atama sifatidagi ma’nosini o‘rganmoqchi bo‘lganimizda, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ushbu tushunchaning lug‘at so‘zligidan joy olmaganligi ma’lum bo‘ldi.

“Holat” so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha sharhlanadi:

HOLAT [a. – hol, ahvol; tuzilish] **1** Yuzaga kelgan, mavjud bo‘lgan vaziyat, ahvol. Jangovor holat. Harbiy holat. *Shahar qamal holatda. Ishlayotgan odamlar uni [Olaxo‘jani] bu holatda ko‘rib, juda hayron bo‘lib, ishdan to‘xtab qoldilar.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Hamma sergak tortdi, unga qulog‘ini tutib jim qoldi. Bu holatdan foydalangan shayx so‘ziga pardozi berib, davom etdi.* K.Yashin, Hamza. *Shyerali ham bu to‘qnashuvdan To‘lg‘onoy bilan yolg‘iz qolgandagi holatga tushdi.* S.Karomatov, Oltin qum.

2 Jismoniy yoki ruhiy jihatdan bo‘lgan ifoda, qo‘rinish; qiyofa, avzo. Asabiy holat. Kulgili holat. Ayanchli holat. *Men ushng holatidan nimadir ichini kuydirayotganini... bshib turardim.* S.Ahmad, Yulduz. *Uning majaqlanib, tanib bo‘lmas holatga kelgan yuzini oq shohi bilan yopib qo‘ydilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Bir holatda Achinarli, nochor, puturdan ketgan ahvolda. Qandolat bibi bir holatda bo‘lib*

cho‘kib qolgan, rangi za‘faron. R.Fayziy, Hazrati inson. Endi bukchayib qopti. Kiyimlari ham bir holatda. S.Ahmad, Ufq.

Jon holatda q. jon.

3 shv. Kuch-quvvat, darmon, mador; qudrat. *G‘ozning bir oyog‘i singan, bir qanoti mayib bo‘lgan, o‘q tegib holati ketib, shu yerga yiqilgan. “Alpomish”. Endi mendan holat ketdi, bek Shakar, Bu cho‘llarda endi goldim xoru zor. “Shirin bilan Shakar”.*

Izohli lug‘atda berilgan ta‘rifdan ko‘rinadiki, “holat” leksemasi ko‘p ma‘noli bo‘lib, *yuzaga kelgan, mavjud bo‘lgan vaziyat, ahvol (1), jismoniy yoki ruhiy jihatdan bo‘lgan ifoda, qo‘rinish; qiyofa, avzo (2), kuch-quvvat, darmon, mador; qudrat (3 shv.)* kabi ma‘nolarni anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Holat” so‘zning ingliz tilidagi ekvivalenti “condition” va “state” bo‘lib, ular ingliz tili izohli lug‘atlarida quyidagicha ifodalanadi:

CONDITION noun the [particular state](#) that something or someone is in (holat – biror narsa yoki kimdir bo‘lgan muayyan holat):

Mum's still got [our pram](#) - it's very [old](#), but it's [in perfect condition](#).

They [left](#) the [flat](#) in a [terrible condition](#) - there was [mess everywhere](#).

The [hospital](#) say her condition (= [state of health](#)) is [improving slowly](#).

He's [in no condition](#) (= he is too [sick](#) or too [drunk](#)) [to drive home](#).

CONDITIONS [plural] the [physical situation](#) that someone or something is in and [affected](#) by (kimdir yoki biror narsa bo‘lgan va ta‘sir qiladigan jismoniy holat): [weather conditions](#).

CONDITION any of different [types](#) of [diseases](#) (har xil turdagi kasalliklar): to [suffer](#) from a [heart/skin condition](#) (yurak/teri kasalligidan aziyat chekmoq); a [medical condition](#) (tibbiy holat).

CONDITION verb (TRAIN)

to [train](#) or [influence](#) a [person](#) or [animal](#) [mentally](#) so that they do or [expect](#) a [particular](#) thing without [thinking](#) about it (odamni yoki hayvonni o‘ylash yoki o‘ylamasdan ma‘lum bir ishni qilish yoki kutish uchun ruhiy jihatdan ta‘sir qilish):

a conditioned [reflex/response](#)

[+ to infinitive] Pavlov conditioned [dogs](#) [to salivate](#) at the [sound](#) of a [bell](#).

Women were conditioned [to expect lower wages](#) than men²⁶.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi izohlardan ko‘rinadiki, Kembrij lug‘atida *condition* so‘zi polisemantik va polifunksional so‘z sifatida ta‘riflanadi, ya‘ni ushbu so‘z ot va fe‘l turkumi sifatida bir necha ma‘nolarni ifo etishi ko‘rsatiladi.

CONDITION noun

1a: a premise upon which the fulfillment of an agreement depends : STIPULATION

b *obsolete* : COVENANT

c: a provision making the effect of a legal instrument contingent upon an uncertain event must meet the terms and *conditions* of the contract *also* : the event itself

2: something essential to the appearance or occurrence of something else : PREREQUISITE: such as

a: an environmental requirement Available oxygen is an essential *condition* for animal life.

b: the clause of a conditional sentence

3a: a restricting or modifying factor : QUALIFICATION

b: an unsatisfactory academic grade that may be raised by doing additional work

4a: a state of being the human *condition*

b: social status : RANK

c: a usually defective state of health a serious heart *condition*

d: a state of physical fitness or readiness for use The car was in good *condition*. exercising to get into *condition*

econditions plural: attendant circumstances poor living *conditions* safe working *conditions*

5a. obsolete : temper of mind

b. obsolete : TRAIT

conditions plural, archaic : MANNERS, WAYS

CONDITION verb

conditioned; conditioning \ kən- 'di-sh(ə-)niŋ \

Definition of *condition* (Entry 2 of 2)

intransitive verb

archaic: to make stipulations

transitive verb

1: to agree by stipulating

2: to make conditional

3a: to put into a proper state for work or use

b: AIR-CONDITION

4: to give a grade of condition to

5a: to adapt, modify, or mold so as to conform to an environing culture traditional beliefs *conditioning* a child's attitude

b: to modify so that an act or response previously associated with one stimulus becomes associated with another²⁷.

STATE _{noun} a condition or way of being that exists at a particular time:

The building was in **a state of disrepair**.

She was found wandering in a confused state (**of mind**).

Give me the keys - you're not in a state to drive.

After the accident I was in a state **of shock**.

I came home to an unhappy state **of affairs** (= situation).

The kitchen was in its original state, with a 1920s sink and stove²⁸.

STATE _{verb} to say or write something, especially clearly and carefully:

Our warranty clearly states the limits of our liability.

[+ (that)] Union members stated (**that**) they were unhappy with the proposal.

[+ question word] Please state why you wish to apply for this grant.

Children in the stated (= named) areas were at risk from a lack of food, the report said.

Lugʻatdagi tavsifdan koʻrinyapdiki, holat maʼnosini ifodalovchi condition va state soʻzlarining ikkalasi ham polifunksional soʻz. Ot va feʼl soʻz turkumi sifatida ish harakatning holatini bildirishini koʻrsatadi. Bu ikki soʻz maʼno jihatdan yaqin, lekin state umumiyroq soʻz, condition esa holat haqida batafsilroq tavsif beradi. State maʼlum vaqtda inson yoki narsa mavjud boʻlgan muayyan “holat” maʼnosini bildiradi (ing. stare). Masalan, sogʻlik holati, ruhiy holat, fizik narsa-buyumning agregat holati yoki kvant holat. Condition soʻzi ham holatni bildiradi, shu bilan birga shu holatni ifodalagan shart va holatni ifodalaydi (lot. *Condicere* soʻzidan). Masalan, yashash sharoitlari, mantiqiy holat, kasallik (baʼzi simptomlar bilan bogʻliq tibbiy holatni anglatadi).

Psixologiyaga oid manbalarda holat psixologik kategoriya sifatida qaraladi hamda asosan, insonning emotsional holatini ifodalab keladi.

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli boʻlib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. Oʻzgarishlar oʻz navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo boʻlishiga yoki yoʻqolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. His-tuygʻular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari poʻstida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar: Holat – obʼyektning oʻzgaruvchan parametrlarining barqaror qiymatlari toʻplamini bildiruvchi tushuncha. Holat muayyan obʼyektning oʻzgaruvchan

xususiyatlarini tavsiflashi bilan tavsiflanadi. Ob'yektda biror harakat bajarilmaguncha holat barqaror bo'ladi; ob'yektda qandaydir harakat bajarilsa, uning holati o'zgarishi mumkin. Ob'yekt holatlarining ketma-ket o'zgarishi jarayon deyiladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, holat alohida kategoriya bo'lib, uni atovchi so'zlar turli turkumlarga mansub bo'lishi ham mumkin. Ishning keyingi bo'limida holat bildiruvchi so'zlar va ularning lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том.
2. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. I китоб. – Тошкент, 2002. – 238 б. – Б. 182.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Б.107-108.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%8F%D0%BD%D0%B8%D0%B5>
5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/condition>
6. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kategoriyalar-uz/>
7. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9863-2021-02-01-07-40-38>
8. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kategoriyalar-uz/>



**OG’ZAKI REKLAMALARNING
PAYDO BO’LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.
(O’rta asrlargacha bo’lgan davr)**



BEGZODBEK ABDULLAYEV,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Andijon davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada og’zaki reklamalarning paydo bo’lishi va rivojlanish tarixi o’rin oldi. Qadimiy manba’lardan misollar va jahon marketologlarining ta’riflari tahlil qilindi. Og’zaki reklamaning bozor iqtisodiyotidagi o’rni va lingvistik tomonlari o’rganildi.

Kalit so’zlar: Og’zaki reklama, reklama matni, O’rta asrlarda reklama, Reklama tarixi, Reklama tushunchasi

Аннотация. В данной статье представлена история возникновения и развития устной рекламы. Проанализированы примеры из древних источников и определения мировых маркетологов. Изучена роль вербальной рекламы в рыночной экономике и ее лингвистические аспекты.

Ключевые слова: словесная реклама, рекламный текст, реклама в средние века, история рекламы, понятие рекламы.

Annotation. This article presents the history of the emergence and development of word-of-mouth advertising. Examples from ancient sources and definitions of world marketers were analyzed. The role of verbal advertising in the market economy and its linguistic aspects were studied.

Keywords: Verbal advertising, advertising text, advertising in the Middle Ages, history of advertising, concept of advertising.

Kirish. Rivojlanayotgan jamiyat bozor iqtisodiyotini reklamasiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Reklama taklif qilinayotgan mahsulot haqidagi asosiy ma’lumotlarning qisqa shaklini o’z ichiga olgan xabardir. Bunday axborot turi reklama matnidan joy olib, xizmat yoki maxsulotlar, mahsulot haqidagi ma’lumotlar va chegirmalar, manzil va aloqa raqamlarini targ’ib qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Reklamaning eng asosiy maqsadi xaridorning ongida reklama qilinayotgan mahsulotning ijobiy imidjini yaratish va unga jalb qilish orqali harid qilishga undashdir. Reklamaga talabgor buyurtmachi mahsulot yoki xizmatni har qanday ko’rinishda: matn, og’zaki-jonli, animatsion yoki vizual, televidenie yoki radio,

bosma ommaviy axborot vositalari(jurnal, gazeta), bannerlar yoki billboardlar, transport vositalari va indoor monitor yoki infokiosk va turli vizitka yoki flayer varaqalari kabi turli vositalari orqali sotishga harakat qiladi. Bularning barcha umumiy tarzda mahsulotni tanitish va boshqa shu kabi mahsulotlardan afzalliklarini ko’rsatish uchun xizmat qiladi. Ammo, reklamaning barcha turida matndan foydalaniladi. Shuning uchun reklama mahsuloti matn tilshunoslikning predmeti sanaladi.

Reklama “lingvistik tadqiqot yo’nalishi bo’lib, uning ob’ekti izchil matnni qurish qoidalari va ushbu qoidalarga muvofiq ifodalangan semantik kategoriyalari” [1: 07].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Reklama matnini o’rganish va tadqiq qilish davomida o’z-o’zidan katta tadqiqot mavzusi ekanligi isbotlangan. Reklama matnining eng qadimiy ta’rifi D. E. Rozental va N. N. Kokhtev tomonidan aytilgan bo’lib, “reklama matnini yaratishning muhim talabi minimal so’zlar bilan maksimal ma’lumotdir”. [2: 125]. Ushbu ta’rifdan shunday hulosalar qilamiz: reklama matnlaridagi eng asosiy xarakterli xususiyatlaridan biri ularning hajmi qisqaligi va mazmundorligidir.

Reklama mahsuloti ko’p xollarda taqdimot ko’rinishida omma e’tiboriga havola etiladi. Bu qadimiy reklama turlaridan biridir. Qadimda qullar savdosini ko’z o’ngizga keltiring. Bunday ko’rinishidagi reklamalar ko’pincha og’zaki bo’ladi (asosan monologik nutq va marosim ko’rinishida). “Rus tili mavjudlikning ikkita asosiy shakliga ega; og’zaki va yozma. Og’zaki shakl asosiy hisoblanadi, kitob tili esa yozma va og’zaki shaklda ishlaydi (ma’ruza, ma’ruza, yig’ilishda nutq, radio, televidenie va boshqa ommaviy kommunikatsiya turlari)” [3: 582].

Tahlil va natijalar. Reklamaning ilk ko’rinishlari og’zaki shaklda namoyish qilingan bo’lib, qadimdan bozor va do’konlarda juda keng tarqalgan. Og’zaki reklamalar bosma matnlarning paydo bo’lish vaqtigacha reklamaning asosiy turi sifatida namoyish qilingan. Bunday reklamalarni ommaga namoyish qilish jonli tarzda olib borilganligi uchun, reklama tarqatuvchi baland ovozga, chiroyli nutqqa ega bo’lishi



talab etilgan.

Rivojlangan o'rta asrlarda jarchilarning funktsiyalari qayta tiklana boshladi. 12-asrda ularning vazifalari qonunchilik qoidalari bilan qat'iy belgilangan va tartibga solingan. 13-asrdan boshlab - jarchilarning professional uyushmalari mavjud edi. Feodal mulklarida jarchilar vazifasini jarchilar bajargan. Ularning vazifalariga ko'ngilochar tadbirlar yoki ma'muriy tadbirlar haqida e'lon qilish kiradi. [4]

Og'zaki reklama tarixi juda qadimiy bo'lib, insoniyatning dastlabki jamoa bo'lib yashagan kunlaridan boshlangan. Og'zaki reklamalarning evolutsion davrini quyidagicha ajratildi:

1. Dastlabki davrlar.
2. Antik davrlar.
3. O'rta asrlar.
4. Yangi davr.
5. Zamonaviy davr.
6. Kelajak davri.

1. Dastlabki davrlar. Odamlar mahsulotlar va xizmatlar haqida og'zaki suhbatlarda fikr almashgan. Bu davrda og'zaki reklama asosiy axborot manbai bo'lgan. Barcha mahsulotlar ayriboshlash orqali amalga oshirilgan bo'lsa-da, reklama bu davrda odamlarga mahsulotni e'lon qilish vazifasini bajargan. Chunki, mahsulotning turlari yoki raqobatdoshi bo'lmagan. Shuning uchun jalb qilish yoki qiziqtirish, boshqa mahsulotlardan afzalliklarini ko'rsatish kabi vazifaga ehtiyoj bo'lmagan.

2. Antik davrlar. Gretsiya va Rimda bozorlar va jamoat joylarida sotuvchilar o'z mahsulotlarini baland ovozda reklama qilganlar. Bu davrda og'zaki reklama qilingan joydan mahsulotning o'zini harid qilish mumkin edi. Bu haridor va iste'molchi muloqot imkoniyatlari keng bo'lganligidan dalolat beradi. Reklama mahsulotini targ'ib qilishda jarchi xizmatidan foydalanilgan. Antik davrda jarchi kasbi shu qadar ommalashganki, ko'plab badiiy va adabiy asarlarda qayd etilgan. "Marketologdan eslatmalar(Записки маркетолога)" saytida shunday yozilgan: Rim yozuvchisi Apuliy o'zining "Metamorfozlar yoki Oltin eshak" romanida) sevgi ma'budasi Venera qochib ketgan psixikani topmoqchi bo'lib, qadimgi Rim savdo xudosi Merkuriyga jarchi vazifasini berganini tasvirlab bergan. Unga murojaat qilib, Venera so'radi:

"... Uning qayerdaligini ko'rsatgani uchun mukofot berilishini sizning jarchingiz orqali oshkora e'lon qilishdan boshqa ilojim yo'q. Shunday ekan, mening ko'rsatmalarimni bajarishga shoshiling..." [5]

3. O'rta asrlar. Bu davrda savdo birmuncha rivojlangan. Mahsulotlar va xizmatlar haqida xabar tarqatish uchun yarmarkalar va bozorlar muhim rol o'ynagan. Raqobatdosh mahsulotlar, savdo-sotiqda pulning muomalaga kiritilishi, iqtisodiy aloqalarning kegayib borishi reklamaga bo'lgan ehtiyojni yanada ortishiga sabab bo'lgan. Bu davrda

jarchi vazifasini savdogarlarning o'zlari bajargan. Savdogarlar va hunarmandlar o'z mahsulotlarini og'zaki ravishda tavsiya qilishgan va bu yo'l bilan mijozlar bazasini kengaytirgan. Bu davrda savdo-sotiq shaxar markazlarida avj olgan. Reklama qilish jarayonida savdogarlar folklor, musiqa kabi san'at turlaridan foydalana boshladilar. Yevropa shaxarlarida markazlashish kuchaygan davrda bozor munosabatlari ham birlasha boshladilar. Savdo qonunchiligi yo'lga qo'yila boshladi. Misol uchun 1368 yilgi ingliz qonunlari quyidagilarni talab qiladi:

“Agar biror kishi biror narsani sotishi kerak bo'lsa, u bu haqda tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan jarchi orqali xabardor qilishi kerak. Va hech kimning hech narsani baqirib reklama qilishga haqqi yo'q. Kim shunday qilsa, hokim uni sudga berib, jarima solishga haqli.”[6]

Xulosa. Aynan shu davrda jarchilar faoliyati tartibga solindi. Jarchilar uyushmasi paydo bo'ldi. Ammo, savdogarlarning bu kasb egalariga pul mablag'lari to'lshi ortiqcha harajat edi. Mahsulot narxiga jarchi harajatlari ham qo'shilishi talab etilgan. Raqobatdosh bozorda mahsulotning narxi ko'tarilishi savdoning pasayishishiga olib kelar edi. Shuning uchun ham savdogarlarning o'zlari jarchi vazifasini o'z zimmasiga olgan. Bu davrda reklamalarning rivojlanishida siyosiy tizimning aralashuvi boshlangan. Chunki, shaxar tinchligi va tartib qoidasini xokimiyat nazorat qilishga to'g'ri kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Яшина, Н. К. Лингвистика текста и перевод : монография / Н. К. Яшина ; Владим. Гос. Ун-т им. А. Г. И Н. Г. Столетовых. – Владимир : Изд-во влгу, 2013. – 116 с.
2. Розенталь Д. Э., Кохтев Н. Н. Язык рекламных текстов: Учеб. Пособие для фак. Журналистики вузов. - М.: Высш. Школа, 1981. - 125 с
3. Энциклопедия / под ред. Ю. Н. Караулова. – 2-е изд., перераб. И доп. – М.: Большая Российская энциклопедия; Дрофа, 1997. – 703 с
4. История возникновения и развития рекламы. [Elektron manbaa]URL: <https://studfile.net/preview/9133966/page:3/>
5. Федорова Апулий Лукреция (1993), «Метаморфозы или Золотой осел» В/О - М., Внешторгиздат [Elektron manbaa]URL: <https://www.marketch.ru/history-of-marketing/advertising-of-ancient-greece-and-rome/>
6. Рекламная деятельность средневековых городских глашатаев и герольдов. [Elektron manbaa]URL: <https://adstories.ru/reklama-v-srednevekove/reklamnaya-deyatelnost-gorodskih-glashataev/>
7. Abdullayev, B. (2023 yil, iyun). LINGVISTIKADA MATN TUSHUNCHASI. Ko'p tarmoqli tadqiqotlar va ta'lim bo'yicha akademik xalqaro konferentsiyada (1-jild, № 9, 13-15-betlar).

8. KH, Abdullaev B. "A look at advertising and the historical formation of advertising in uzbekistan." open access repository 8.12 (2022): 684-686.

9. Abdullaev, B. (2021). Factors determining the place of discourse in advertising text and its influence on the social structure. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(9), 24-27.



TARIXIY NOMLAR– MADANIYAT YODGORLIGI



Nilufar Muhiddinova,
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: inson tafakkuri va uning rivoji uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy voqelik tilda shaklan aks etar ekan, til sathlari va ularning tadqiqi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, bugungi kun zamonaviy o‘zbek tilshunosligida nomshunoslik va uning tadqiqi tez rivojlanmoqda. Ushbu maqolada nomshunoslik, uning shakllanish, rivoji, tarixiy taraqqiyoti hamda bu sohaning milliy mentalitet bilan bevosita bog‘liqligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, til lug‘at qatlami, nomshunoslik, onomastika, atoqli otlar, madaniyat, urf-odat.

Аннотация: развитие человеческой мысли напрямую связано с окружающей социальной средой. Поскольку социальная реальность находит отражение в языке, изучение языковых уровней уходит корнями в древние времена. Особенно в современной узбекской лингвистике стремительно развивается ономастика и её исследование. В данной статье анализируются ономастика, её формирование, развитие, исторический прогресс и непосредственная связь с национальным менталитетом.

Ключевые слова: лингвистика, лексический слой языка, ономастика, собственные имена, культура, традиции.

Annotation: the development of human thought is directly related to the social environment surrounding it. As social reality is reflected in language, the study of language levels dates back to ancient times. Especially in modern Uzbek linguistics, onomastics and its research are rapidly developing. This article analyzes onomastics, its formation, development, historical progress, and its direct connection with national mentality.

Keywords: linguistics, lexical layer of language, onomastics, proper nouns, culture, traditions.

Kirish: mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tilning barcha sath birliklarini sistemaviylik tamoyillari asosida qayta o‘rganib chiqish harakati boshlandi.

Milliy mustaqillikka erishish, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi milliy an‘analarni, milliy madaniyatni tiklash, milliy til obro‘-e‘tiborini kuchaytirish bilan birga o‘zbek tili sathlari tadqiqini yuqori bosqichga ko‘tardi. Bu til tarixining, birinchidan, xalq tarixi bilan uzviy bog‘liq ekanligini anglatrsa, ikkinchidan jamiyatdagi

ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarish, avvalo, tilda aks etishining dalilidir. Anomastika va uning tadqiqiga e'tiborning kuchayishi atoqli otlar lingvistik tadqiqiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. O'zbek onomastikasini yanada yuksak pog'onaga ko'tarish, uni yanada rivojlantirish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Til ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib, unda xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy qarashlari, milliy rasm-rusumlari, turmush tarzi, orzu-istaklari o'z ifodasini topadi. Tilshunoslikda shunday lug'aviy qatlamlar borki, ular ma'lum bir xalqning hayoti, urf-odati, tarixi bilan bog'liqdir. Bunday lug'aviy qatlamlarni o'rganish shu xalq tarixi va etnografiyasini o'rganishni taqozo qiladi [1; -Б. 17-20]

Inson tafakkuri rivojida, ma'naviy dunyoqarashining to'g'ri shakllanishida, madaniy saviyasining yuksalishida milliy tarixi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar, agoronimlar kabi atoqli ot turlari haqida tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nomshunoslik masalasi bilan shug'ullanish milliy tarix, etnografiya, xalq og'zaki ijodi, jo'g'rofiya kabi fanlarni ham o'rganishni taqozo etadi. Tildagi turdosh ot yoki boshqa so'z turkumiga oid leksema biror obyekt nomiga aylangach turli-tuman shakily va funksional o'zgarishlarga uchraydi. Atoqli otga aylangan leksemaning shakily, ma'noviy, vazifaviy o'zgarishlarini tahlil etish ham onomastikaning vazifasi sanaladi. O'zbek tili leksikasi shakllanishi Faxri Kamol tadqiqotlari bilan boshlansa, o'zbek zamonaviy tilshunosligida atoqli otlarni o'rganishni E. Begmatov boshlab berdi. Tilshunos E. Begmatov yozishicha, [2; - Б.28-32] "Faxri Kamol o'zbek tili leksikasining rivoji, uning tarixiy qatlamlari, unda umumturkiy, o'zbek, fors tojik, arab, rus va boshqa tillarga doir so'zlarning o'rnini haqida dastlabki ma'lumotni bergan bo'lsa, o'zbek tili leksikasining tarixiy qatlamlari va har bir qatlamni o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotning vujudga kelishi o'zbek leksikologiyasining takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi."

XX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek tilshunosligida bir qancha ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan, eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, uslubshunoslik, nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika va boshqalar. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lib, o'zbek nomshunosligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Tilshunos olimlar E.A. Begmatov, T. Nafasov, N. Oxunov, G'. Sattorov va boshqalar atoqli otlarning til lug'at tizimining alohida bir bo'g'ini ekanligini o'z tadqiqotlarida to'liq isbotladi.

Tiddagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, Qadimgi Yunon olimlari Arastu, Demokrit, Geraklit o'z asarlarida atoqli otlarning xususiyatlari

haqida fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Jumladan, Aristotel “Poetika” asarida otni nutq bo‘laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: Ot murakkab, ma’no anglatuvchi, zamoni bildirmaydigan, qismlari o‘z-o‘zidan ma’no anglatmaydigan so‘zdir [3; -B.41].

Atoqli otlar, ularning til lug‘aviy qatlamidagi o‘rni masalasi dastlab faylasuflar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, XIX asr oxiri XX asr boshlaridan tilshunoslar tomonidan tadqiqi etildi.

Atoqli otlar va ularni o‘rganish Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan boshlangan[4; -B.13]. Shuningdek, to XX asrgacha tuzilgan turli mualliflar tomonidan tuzilgan lug‘atlarda ham atoqli ot (kishi ismi, sharifi, nisbasi, taxallusi, laqabi kabi)larga, toponim hamda kishi nomlariga e’tibor berilganligini ko‘rish mumkin. XX asrning 60-yillarida professor E.Begmatov o‘zbek tilida kishi ismi, sharifi, familiyasi, laqabi, nisbasi, taxalluslarni etnolingvistik va lingvistik yo‘nalishlarda birinchi bor keng doirada ilmiy tahlil qilgan[5;-B.30]. Atoqli otlarning tadqiqi bilan shug‘ullanish ajdodlarimizning insonni, shuningdek, narsa, hodisalarni nomlash an‘analarini o‘zlashtirishga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi davr zamonaviy tilshunoslikda til tizimidagi birliklarni tadqiq qilish jadal olib borilmoqda. Xususan, onamastik birliklar va ularning tadqiqi bilan shug‘ullanish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O‘zbek nomshunosligi masalalarining o‘rganilishi ham o‘zining qadim tarixga ega. Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy rol o‘ynaydi. Bu ma’lumotlar tarix, til, geografiya, etnografiya, goologiya, ekologiya, psixologiya, falsafa kabi bir qancha fanlarning ishonarli dalillari majmuida aralash hamda qorishiq shaklda bugungi kunga qadar mavjud bo‘lib kelmoqda,

Bugungi davr tilshunosligida “Tarixiy nomlar– madaniyat yodgorligi” shiorining keng tarqalganligi atoqli otlar, ularning insoniyat tarixiy-madaniy taraqqiyot bilan o‘zaro chambarchas bog‘likligini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, atoqli otlar xalqimizning tarixiy xotirasini ifodalovchi, ajdodlarimizning keying avlodlarga qoldirgan buyuk madaniy, lisoniy merosidir.

Onamastik birliklarning genezisini tadqiq etish xalqimizning tarixi haqida muhim ma’lumotlar to‘plashga, taraqqiyotning turli davrlaridagi xalq hayoti, turmush tarsi, urf odatlarini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Onomastika –yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) ma’lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi[6;-B. 60]. Demak, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo

bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, u tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida mujassamlashtiradi.


Tahlil va natijalar. Onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: antroponimiya - kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), toponimiya - geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya - turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma‘budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonimiya - hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonimiya - fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, astronimiya - ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud.[7; -Б.10]

Tarixiy taraqqiyoti uzoq davrlarga borib taqaladigan yurtimiz va undagi joy nomlari o‘sha davrlardagi tabiat hodisalari, ijtimoiy turmush voqeliklari, madaniyat, urf-odat hamda xalqning turmush tarzi haqida ma‘lumot beradi. Ularni ilmiy asoslab tahlil qilish, nom va uning atamasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri talqin qila olish uchun, avvalo, milliy tariximizni yaxshi o‘rganishni talab qiladi.


Xulosa va takliflar. Demak, nomlar, u qanday obyektning nomi bo‘lishidan qat’iy nazar milliy tarixning u yoki bu jihatidan ma‘lumot beruvchi, milliy an’ana, urf-odatlarini, qolaversa, millat ma’naviy qiyofasini ko‘rsatuvchi manba ham sanaladi. Nomshunoslik bilan shug‘ullanish milliy o‘zlikni teran anglashga, milliy tariximizni chuqurroq o‘rganishga, turli siyosiy bo‘hronlar qoldirgan salbiy oqibatlar bilan kurashishga, eng asosiysi, bu soha turli fanlarning tutashgan joyida hosil bo‘lganligi uchun shu fanlarni ham o‘zlashtirishga zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –1978. –1-сон.
2. Бегматов Э. Ҳозирги узбек адабий тилининг лексик қатламлари. Т., «Фан», 1985.
3. Aristotel.Poetika(poeziyasana’tihaqida).RuschadanM.Maxmudov, U.Tuychiyevlar tarjiması.-Toshkent:Adabiyotva san’at, 1980.
4. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`atit turk. T.,1960,1961,1963.Indeks lug`at.T.,Fan,1967.
5. 5. Begmatov E. Антропонимика узбекского языка. Автореферат канд. дисс.Т.,1965.
6. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
7. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари”, услубий кўлланма. Самарқанд, 2011.



**PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDA
O‘RGANILAYOTGAN
HODISALAR ADRESANT VA
ADRESATNING XUSUSIYATLAR**



SHAXNOZAXON O‘TANOVA,
Andijon davlat universiteti 3 bosqich doktoranti

Annotation: The article emphasizes that pragmatic analysis occurs through the communicative activity of a person, the communication process that is its product, and the communication situation. The author tries to establish that the object of pragmatics is independent of a specific form and image, it is a set of problems connecting the nature of the addressee and the addressee and their interaction in the communication process with the communicative situation.

Key words: pragmalinguistics, implicit predication, subtext, pragmatic component,

Аннотация: В статье подчеркивается, что прагматический анализ происходит через коммуникативную деятельность человека, процесс общения, являющийся ее продуктом, и ситуацию общения. Автор пытается установить, что объект прагматики не зависит от конкретной формы и образа, это совокупность проблем, связывающих характер адресата и адресата и их взаимодействие в процессе общения с коммуникативной ситуацией.

Ключевые слова: прагмалингвистика, имплицитная предикация, подтекст, прагматический компонент,

Annotasiya: Maqolada pragmatik tahlil insonning kommunikativ faoliyati, uning mahsuli bo‘lgan muloqot jarayoni va muloqot vaziyati vositasida yuzaga chiqishi ta’kidlanadi. Muallif pragmatika ob’yekti aniq forma va qiyofadan xoli, uni adresant va adresat tabiati hamda ularning muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatini kommunikativ vaziyat bilan bog‘laydigan muammolar majmui ekanligini asoslashga harakat qiladi qiladi.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, implitsit predikatsiya, podtekst, pragmatik komponent,

Kirish. Jahon tilshunosligida tilni nafaqat nazariy konsepsiya, balki amaliy tilshunoslik sifatida o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Tilshunoslar A.M. De Grut va G.Nas nutq jarayonida faqat lisoniy birliklar, ya’ni so‘zlar, iboralar, qo‘shma so‘zlar, turg‘un iboralar va boshqa birikmalar faol muloqotni tashkil qilmay, shaxs, vaqt, makon, nutq ishtirokchisi faoliyati va yuz ifodalari kabi ekstralingvistik

omillarning ham muhimligini ta'kidlaydi²⁹. Pragmalingvistika doirasida o'rganilayotgan hodisalar adresant va adresatning xususiyatlari hamda munosabati bilan chambarchas bog'liq holda aniqlanishi kuzatiladi. N.F.Alifirenko, M.V.Nikitin va V.N.Teliya zamonaviy tilshunoslikdagi so'z ma'nosida pragmatik xususiyatga ko'ra ikkita yondashuvni izohlashadi³⁰. Ulardan biri kontekstual ma'noni oydinlashtiruvchi pragmatik ma'lumotlar bo'lsa, keyingisi stilistik jihatdan kodlangan so'zlarning leksika va semantikasida mavjud sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tilshunoslari E.S.Aznaurova, Y.V.Gorshunov, V.I.Zabotkina va V.I.Karasik lug'atning barcha birliklari turli darajada pragmatik jihatdan kodlanishini bayon qiladi³¹. Pragmatik komponent nafaqat so'zning stilistik mansubligi, ma'no ifodasi, balki muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy xususiyatlari, ijtimoiy statusi, kasbi, etnik kelib chiqishi, yoshi, jinsi va boshqa xususiyatlarini ham o'zida qamrab oladi. V.I.Karasik ba'zi tadqiqotchilar so'zning semantikasida pragmatikaning mavjudligini keltirish bilan cheklanib, leksik ma'no tuzilishidagi pragmatik komponentning o'ziga xosligini e'tiborsiz qoldirilishini ta'kidlaydi³². Tilshunos mazkur holatda pragmatikaning so'z qo'llaniladigan sohasi bilan bog'liqligini bayon qiladi. L.A.Novikov leksik ma'noning pragmatik jihatiga so'zlovchining til amaliyotida qo'llagan leksik belgilarga munosabati belgilarning shaxslarga muayyan ta'siri sifatida qarashini keltiradi³³. Shuningdek, V.I.Zabotkina va Y.G.Belyayevskaya unga ekstralingvistik xususiyatlarni qo'shish orqali leksik birlikning pragmatik jihati kengaytirilganligini kuzatadi³⁴. V.I.Zabotkina pragmatikani ma'noning bir qismi sifatida talqin qiladi hamda so'zning pragmatikasi tashqi va ichki omillar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pragmalingvistika yo'nalishida matnda aniq aks ettirilmagan qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan konnotatsiya muammosi ham qamrab olinadi. Denotativ va signifikativ xususiyatga ega leksik birlik predmetni o'z ma'nosida ifodalaydi. Bunda ma'ruzachi ifodalagan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan so'zning pragmatik ma'nosi alohida ahamiyatga ega sanaladi. Leksik birlik ma'nosining boyitilishi muloqot jarayonida mavjud bo'lgan kontekstga ko'ra tavsiflanadi va

²⁹ De Groot A.M, Nas G.L. Lexical representation of cognates and noncognates in compound bilinguals. *Journal of memory and language*. 1991. №30(1). – P. 90-123.

³⁰Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – М.: Гнозис, 2005. – 326 с.; Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988. – 168 с.; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986. – 143 с.

³¹Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – 121 с.; Горшунов Ю.В. Прагматика аббревиатуры: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М.: 2000. – 32 с.; Заботкина В.И. Новая лексика английского языка. – М.: Высшая школа, 1990. – 125 с.; Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: ИТДГК "Гнозис", 2002. – 333 с.

³² Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: ИТДГК "Гнозис", 2002. – 333 с. – С. 110.

³³ Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 2001. – С. 445-446.

³⁴ Заботкина В.И. Соотношение прагматического и семантического в структуре словозначения// Проблемы функциональной семантики. – Калининград, 1993. – С. 34-82; Беляевская Е.Г. Семантика слова – М.: Высш.шк., – 1987. – С. 41- 43.

tadqiqotchilar konnotativ komponentni pragmatik ma'noning bir qismi sifatida izohlashadi.

So'nggi o'n yilliklarda tilshunoslikda pragmalingsvistikani o'rganish tobora rivoj topmoqda, chunki til faoliyati bilim va nutqning ifodasiga asoslanadi. N.D.Arutyunova va Y.V.Paduchevalarning ta'kidlashicha, jumalarning ma'nosi ularning konvensional va kontekstga ko'ra qo'llanilishini talab qiladi³⁵. Jumlaning kommunikativ-pragmatik xususiyati ma'noning bir qismini ifodalaydi. N.D.Arutyunova nutqiy holatdagi subyekt, obyekt va ularning o'zaro munosabatini pragmatikaning predmeti sifatida keltiradi³⁶. Tilshunos nutqiy holatni o'rganishda so'zning aniq va yashirin intensiyasini kuzatadi. U adresatga murojaat qilishni nutqiy interpretatsiyaning markazida keltirib, uning adresatga ta'siri va nutqdagi munosabatiga e'tibor qaratadi. Ammo I.A.Sternin leksik ma'no boshqa ma'nolarni o'zida qamrab olmaydi³⁷, u faqat ma'no komponentlarini o'z ichiga olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida ham til birliklarini pragmalingsvistik aspektda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Natijada o'zbek pragmalingsvistikasiga asos solindi. Bu yo'nalishdagi ishlar sifatida M.Hakimovning matnning pragmalingsvistik xususiyatlari tadqiqiga oid,³⁸ U.Rahimov, Z.Burhonov, A.Pardayevlarning yordamchi so'zlar presuppozitsiyasi,³⁹ M.Mamadaliyeva, Z.Mamarajabova, N.Ahmedova, A.Haydarov, S.Maksumovalarning konnotatsiya tadqiqi,⁴⁰ Z.Tohirovning pragmatik sema tahlili,⁴¹ G'.Qambarovning o'zbek tilida baho munosabatining ifodalanishi,⁴² eng so'nggi ish sifatida G.Toirovaning o'zbek muloqot nutqining pragmalingsvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarini⁴³ ko'rsatish mumkin, xolos.

³⁵Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Лингвистическая прагматика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 3-42.

³⁶ Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Лингвистическая прагматика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 3-42.

³⁷ Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1985. – 137 с.

³⁸Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – 283 б.

³⁹Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 130 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумланинг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 262 б.

⁴⁰Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив birlikларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 29 б.; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 179 б.; Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат birlikларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.; Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 21 б.; Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.

⁴¹Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 120 б.

⁴²Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.

⁴³Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 49 б.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining so‘nggi bosqichida til birliklarini undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi markaziy o‘ringa chiqdi. Bu yondashuvda lingvistik hodisalarni til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy tafakkuri, til ko‘nikmasi, nutqiy faoliyati, nutq obyektini haqidagi bilimlari, ruhiyati, voqelikka munosabati, kasb-kori, yoshi, gender belgisi kabi nolisoniy omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etishga jiddiy e‘tibor qaratila boshlandi. Natijada tilshunoslik fanida til va undan foydalanuvchi shaxs munosabatini o‘rganuvchi turli yo‘nalishlar maydonga keldi.

O‘tgan asrning so‘nggi yillarida til tizimini shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida maydonga chiqqan pragmalingvistika hozirgi kunga kelib o‘rganish obyektini, asosiy tushunchalari, terminologik tizimi, nazariy muammolari, maqsad va vazifalarini aniq belgilab oldi. Bu sohaning yetakchi mutaxassislaridan biri Sh.Safarov qayd etganidek, “Pragmalingvistika hech qanday gumonsiz «tetapoya» davridan o‘tdi, ushbu soha o‘z tadqiq obyektini (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini, asosan, aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik g‘oya ham aniq: bu – *faoliyat nazariyasidir*. Ammo pragmalingvistika hamon «navqironlik» davrida. Navqironlik esa – istiqbolli rejalarga to‘liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan tap tortmaslikdir”⁴⁴

Tahlil va natijalari. Pragmalingvistikaning olim nazarda tutgan istiqbolli masalalari qatoriga til birliklarining shaxs omili bilan bog‘liq holda amaliy-funksional qo‘llanishi tahliliga qaratilgan bir qator muammolar, jumladan, nutqiy faoliyat va uning samarali kechishi, jumlaning maqbulligi, o‘rinlili sharti; nutqiy akt turlari va ifodalanishi usullari, kommunikativ maqsad va uning nutqda aks etishi, illokutiv maqsadning kommunikativ vaziyatga tobeliligi, muloqotni lingvistik jihatdan tashkil qilish, muloqot ko‘rinishlari va tiplarini ajratish tamoyillari; jumlaning turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishi; sintaktik qurilmalarning vazifaviy tasnifini yaratish muammosi⁴⁵, deysis nazariyasi, matnning implikatura birliklari, konnotatsiya, baho munosabati kabilar kiradi.

Sh.Safarovning qayd etishicha, til tizimi taraqqiyotining dastlabki nuqtasi pragmatikadan boshlanadi. Olimning fikriga ko‘ra, masalaga bu nuqtayi nazardan yondashuv filogenetik va ontogenetik jihatdan ham asoslidir. Chunki til birinchi galda so‘zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi.⁴⁶

Axborot bayoni oshkora yoki yashirin bo‘lib, bu kommunikatsiya jarayonida nutqiy vaziyat va so‘zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog‘lanadi. Ifoda semantik tuzilishi murakkab bo‘lib, u o‘zining tarkibiga so‘zlovchi shaxsi va nutqiy vaziyat bilan aloqador bir necha mazmun ko‘rinishlarini qamrab oladi. Kommunikatsiya jarayonida

⁴⁴Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 6.

⁴⁵ Қаранг: Вахтель Н. Прагмалингвистика в таблицах и схемах: Учебное пособие. – Воронеж, 2006. – С. 8

⁴⁶ Сафаров Ш. Кўрсатилган тадқиқот. – Б. 37.

soʻzlovchi va tinglovchi xususiy munosabatlarining shartnomaviy bayoni oshkor va yashirin mazmunidan iborat, ular ifodalanish darajasiga koʻra biri ikkinchisida farq qiladi. Axborotning oshkora shakli ifodaning har qanday koʻrinishida mavjud. U koʻpincha nutq predmeti xususidagi oddiy propozitsiyani tashkil qiladi va bu oshkora mazmun deb yuritiladi. Axborotning yashirin shakli esa ana shu oshkora bayon tarkibiga joylashtiriladi. U yashirin mazmun deb qaraladi. Baʼzi ifodalarga shunday koʻz tushishi bilan undagi axborot mazmunini ilgʻab olish qiyin boʻlmaydi. Boshqa bir ifodalarda esa garchi ularning shakliy tuzilishi sodda boʻlishiga qaramay, soʻzlovchi nazarda tutgan axborot mazmunini anglash qiyin. Bunday ifodalar mazmun tuzilishida axborotning bir necha koʻrinishlari ishtirok etgani uchun ularni oʻzaro birini ikkinchisidan chegaralash mezonlarini koʻrsatish soʻzlovchi nazarda tutgan axborot shaklini toʻgʻri anglash imkoniyatini yaratadi.

Ifodaning umumiyashirin mazmuni oʻzining quyidagi baʼzi koʻrinishlariga yoki uslubiy shakllariga ega boʻladi: "implikatsiya, tagmaʼno, alluziya, presuppozitsiya".⁴⁷ Matndagi umumiyashirin mazmunning xilma-xilligi taniqli tilshunos olim I.B. Arnold tomonidan alohida koʻrsatiladi. Semantik murakkablashish va matniy yashirin mazmunning oʻzi umumiyashirin shakllari hisoblanadi.

Tilda va nutqda ifodalanadigan implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunos va ruhshunoslarni, mantiqchi va faylasuf olimlarni oʻzining murakkab semantik tarkibi, tilda turli vositalar orqali ifodalanishi bilan qiziqtirib kelayotgan murakkab masalalardan biridir. Masalaning nazariy asoslari I. Arnold, S. Askoldov, A. Bondarko, E. Kubryakova, A. Maslennikova, Yu.M. Skrebnev, Yu. Stepanov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida oʻrganilgan. Muammoni oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlarning haddan tashqari koʻpligiga qaramay, implikatsiya, uning fikrni formal strukturalarida voqelanishi, bir tilda ifodalangan implitsitlik turlari va ularning boshqa tillarda tarjima jarayonida qayta tiklanishi kabi masalalarda olimlarning hamon yagona fikrga kelmaganliklari kuzatiladi. Tilshunoslikda uzoq paytlargacha implitsitlik tushunchasi bir maʼnoda qoʻllaniladigan fikrning nazarda tutilgan maʼnosi, soʻz birikmasi komponentlari orasida mazmuniy bogʻliqlikning mavjud emasligi yoki soʻzning, vaziyat belgilarining doimiy komponentlar orqali ifodalanmasligi kabi talqinlarda berilgan. Ushbu tushuncha kognitiv tilshunoslikda subfreymlar yoki freymlarning terminallari, lingvistik semantikada esa maʼnoning implikatsionalligi sifatida oʻrganiladi. N. Paninining asosli fikricha, implitsit ifodalanadigan fikr tushunchasi lisoniy birlikning nutq jarayonida qoʻshimcha, nazarda tutilgan maʼnoda qoʻllanilish imkoniyati va undan bu qoʻshimcha axborotni ilgʻab olish jarayonini ifodalaydi. Masalan, *Сегодня утром с Сашей Мальцевым шайбу побросали,*

⁴⁷ К.А.Долинин. имплицитное содержание всказивания ВЯ-М;1983-С37

pretsedent nom bilan kelayotgan bu jumladagi implitsit axborot, ya'ni qo'shimcha ma'no *Я знаком с известным хоккеистом* hisoblanadi.

Lisoniy birlikning tashqi shakli bilan ifodalanmagan, ammo bir til doirasida kechadigan verbal muloqot jarayonida anglashiladigan bunday yashirin ma'no axborot ko'plab tadqiqotlarda implikatura atamasi bilan ham yuritilib kelinmoqda⁴⁸ va bu tushunchalarning qo'llanishi borasida aniqlik kiritish zarurati paydo bo'lmoqda. I. Arnoldning ta'kidlashicha, "implikatsiya, bu – mikrokontekstda yoki muloqot vaziyatida vujudga keladigan va til birligi orqali bilvosita ifodalanmaydigan qo'shimcha ma'nodir. Implikatura esa, ushbu jarayonning nomidir"⁴⁹.

Xulosa. Shunday qilib, implikatsiya tushunchasi ifodalanmagan ma'no (axborot), ifodalanmagan fikrdan vujudga keladigan xulosa, ikki yoki undan ortiq lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi mantiqiy-ma'noviy bog'liqligini ifodalaydi. Ayni paytda, turli tadqiqotlarda implikatsiya tushunchasi orqali ko'plab yangi atamalar va ta'riflar ham vujudga kelayotganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, E. Starikova implitsit predikatsiya atamasini qo'llab, uni nazarda tutilgan yashirin ma'no, shuningdek, mantiqiy bog'liqliklari tushirib qoldirilgan fikr, vaziyatga bog'liq ravishda bilvosita ifodalangan qo'shimcha axborot belgilari, deb ta'riflaydi. V. Kuxarenko "implikatsiya" mazmuniga "matn birliklari orasidagi bilvosita bog'liqliklar tufayli vujudga keladigan qo'shimcha ma'no yoki emotsional mazmun" tushunchasini kiritib, ular matn va tagma'no (podtekst), alohida so'zlar orqali ifodalanadigan implitsional qo'shimcha mazmun orqali ifodalanishini ta'kidlaydi. Bunday qo'shimcha ma'no yaxlit kontekst orqali, birgina gap yoki asarning butun syujeti orqali ham ifodalanishi mumkin. Yashirin ifodalanadigan qo'shimcha ma'no, asosan, muallifning badiiy mahorati va matn materialining rasmiylashtirilishi, ya'ni artikllar, so'z tartibi, mantiqiy bayon qoidalaridan chekinish, so'zlarning stilistik maqsadda qo'llanilishi orqali vujudga keltirilad.⁵⁰ Yashirin ifodalanadigan qo'shimcha ma'nolar tadqiqi matn qabullov uchun zarur omillarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. De Groot A.M, Nas G.L. Lexical representation of cognates and noncognates in compound bilinguals. *Journal of memory and language*. 1991. №30(1). – P. 90-123.

⁴⁸ Панина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – 368 с.

⁴⁹ Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. – С. 37–47

⁵⁰ Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // НДВШ. Филол. науки. 1974. – №1. – С. 69–74.

2. Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – М.: Гнозис, 2005. – 326 с.; Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988. – 168 с.; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986. – 143 с.

3. Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – 121 с.; Горшунов Ю.В. Прагматика аббревиатуры: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М.: 2000. – 32 с.; Заботкина В.И. Новая лексика английского языка. – М.: Высшая школа, 1990. – 125 с.; Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: ИТДГК "Гнозис", 2002. – 333 с.

4. Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: ИТДГК "Гнозис", 2002. – 333 с. – С. 110.

5. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 2001. – С. 445-446.

6. Заботкина В.И. Соотношение прагматического и семантического в структуре словозначения// Проблемы функциональной семантики. – Калининград, 1993. – С. 34-82; Беляевская Е.Г. Семантика слова – М.: Высш.шк., – 1987. – С. 41-43.

7. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Лингвистическая прагматика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 3-42.

8. Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1985. – 137 с.

9. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – 283 б.

10. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиқлар прагматикаси (пресуп-позицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 130 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумланинг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 262 б.

11. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 29 б.; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 179 б.; Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-кон-нотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.; Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 21 б.; Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.

12. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 120 б.
13. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.
14. Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 49 б.
15. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 6.
16. Вахтель Н. Прагмалингвистика в таблицах и схемах: Учебное пособие. – Воронеж, 2006. – С. 8
17. Сафаров Ш. Кўрсатилган тадқиқот. – Б. 37.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ELEKTRON JURNALI**

**№ 2 (3),
2024-yil, OKTABR**

O‘zbekcha matn muharriri:

Ruscha matn muharriri:

Inglizcha matn muharriri:

Musahhih:

Texnik muharrir:

Yarashova Nasiba Jumayevna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra'no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL
VA TALQIN ILMIY-METODIK
JURNALI
2-jild, 3-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI
CENTURY
VOLUME 2, ISSUE 3**

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45